

Ma'rifat Rajabova  
Zilola Amonova



# NAVOIYSHUNOSLIK

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

**MA'RIFAT RAJABOVA  
ZILOLA AMONOVA**

**NAVOIYSHUNOSLIK**

(O'quv qo'llanma)

**Ta'lif yo'nalishi:** 5120100 Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili);

5111200 - O'zbek tili va adabiyoti

ISBN 978-9943-5879-1-5

## NAVOIYSHUNOSLIK

(O'quv qo'llanma)

**Ta'lism yo'nalishi:** 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili);  
5111200 - O'zbek tili va adabiyoti

**MA'RIFAT RAJABOVA**

**ZILOLA AMONOVA**

Mazkur o'quv qo'llanma respublika oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi va o'zbek tili va adabiyotini o'qitish yo'nalishidagi (Ta'lism yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili); 5111200 - O'zbek tili va adabiyoti) talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda navoiyshunoslikda qo'lga kiritilgan yutuq va tajribalarga suyangan holda ulug' shoir asarlarini sharhli o'qish uchun tahlil usullari va ko'rsatmalar berilgan. Qo'llanma talabalarda mumtoz matnlarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga Alisher Navoiy asarlarini sharhli o'qish orqali ulug' shoir asarlari mohiyatni teran anglashga ko'maklashadi.

**Taqrizchilar:**


N. Shodmonov, f.f.d., professor,

R. Jumayev, f.f.n., dotsent,

H. Eshonqulov, f.f.n., dotsent

**Nashriyot:**

"Asian Book House" MCHJ



## SO‘ZBOSHI

Inson kamoloti va tafakkurining o‘sishida adabiyotning o‘rnini beqiyo. Inson ma’naviyatidagi o‘zgarishlarni kitobsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Ayniqsa, badiiy adabiyot ijtimoiy-siyosiy hayotni va unda yashayotgan insonlar dunyoqarashining aks sadosidir. Badiiy asar olamni anglash vositasi bo‘lishi bilan birga kitobxonda go‘zallikka muhabbat uyg‘otadi, undan zavqlanish hissini tarbiyalaydi, yovuzlikdan nafratlanish tuyg‘usini paydo qiladi.

Bugun “Tafakkur durdonalarini avloddan avlodga eltuvchi aql kemalari”ga (Frans Bekon) munosabatning o‘zgargani quvonarli hol. O‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’nana yetuk va barkamol qilishda kitob beminnat do’st sifatida xizmat qiladi. Sir emaski, bugungi kunda mumtoz asarlarni o‘qish va tahlil qilish bilan bog‘liq muammolar ko‘zga tashlanadi. Buning sabablarini bir tomonidan, matnning mumtozligi bilan izohlasak, ikkinchi tomonidan o‘quvchilarda mumtoz asarlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishning pastligidir.

Nafaqat mumtoz asarlarni, balki, zamonaviy badiiy asarlarni tahlil qilish uchun ham har qanday kitobxon-o‘quvchida estetik did va teran tafakkur shakllangan bo‘lishi zarur. Shundagina badiiy asar bag‘ridagi nozikliklar o‘quvchi qalbida zavq uyg‘otishi mumkin.

Turkiy til va adabiyoti taraqqiyotini Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ulug‘ shoirning har bir satri barcha zamonlar uchun bitmas-tuganmas ma’naviy boylik va olamshumul ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.

Sir emaski, sobiq sho‘ro davrida nazardan chetda qolgan, ta’qiqlangan, qoralangan asarlarni xolisona baholash, ularni asl manbalar bilan qiyosiy o‘rganish Istiqlol bergan buyuk ne’matdir. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy-madaniy merosni yaxlit holda o‘rganish va chegirib tashlangan «parchalarini» tiklashning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi xalqimizning asrlar davomida yaratgan boy ma’naviy merosiga, uning jahon xalqlari madaniyati va adabiy-badiiy tafakkuri taraqqiyotiga qo‘shtigan hissasini to‘g‘ri baholash imkonini berdi. Jumladan, istiqboldan keyingi davr navoiyshunosligining rivoji ro‘y berayotgan ana o‘sha o‘ziga xos yangilanishlari bilan ajralib turadi. Ulug‘ shoir Alisher

Navoiyning asarlari o‘zining g‘oyaviy-ma’naviy zamini bo‘lmish musulmon olamining muqaddas kitoblari Qur’oni Karim va Hadisi shariflar bilan bog‘liq holda o‘rganila boshlandi.

Biroq navoiyshunoslikda yechimini kutayotgan muammolar bisyor. Ana shulardan biri shoirning har bir asarini chuqr o‘rganish, tahlil va tadqiq etish, ulg‘ayib kelayotgan yoshlari ongu shuuriga ulug‘ mutafakkir asarlari bag‘ridagi o‘lmas g‘oyalarni singdirish masalasidir. Ulug‘ mutafakkir asarlarini tahlil qilishdagi bir qator qiyinchiliklar – asarlari tilining murakkabligi, ilohiy-irfoniy, falsafiy qarashlarini tushunishdagi oqsoqlik ham Navoiyning bizdan “uzoqlashishi”ga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, biz bilan Hazrat Navoiyni V asrdan ortiq davr ajratib turibdi. Shuning uchun Alisher Navoiy asarlarining tili hozirgi va kelajak avlodlar uchun tobora tushunilishi qiyin to‘singga aylanib bormoqda. Ulug‘ shoir asarlaridagi ma’no va mohiyat, ramziylik va nozik qochirimlar, bir-birini takrorlamaydigan badiiyat unsurlari, eng asosiysi, ularda ilgari surilgan g‘oyalar mag‘zini chaqish uchun badiiy matnda qo‘llanilgan har bir so‘z va iboralar, ramzu tashbehlarni bilish zarur. Buning uchun albatta, ulug‘ shoir asarlarini sharhli o‘qishga ehtiyoj tug‘ildi. Shuning uchun ilk bor oliy ta’lim tizimida “Navoiyshunoslik” fani o‘qitila boshlandi. Bu sohada ham ma’lum bir yutuqlar qo‘lga kiritildi. Jumladan, navoiyshunos olimlar Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatovlar tomonidan yaratilgan “Navoiyshunoslik” darsligi yirik tadqiqot sifatida navoiyshunoslikka muhim hissa bo‘lib qo’shildi. Mazkur darslikda Alisher Navoiy ijodining o‘rganilish tarixi, buyuk mutafakkir hayotiga doir muhim ma’lumotlar, lirik merosi tasnifi, xamsachilik an’anasi, shoir dostonlarining g‘oyaviy-badiiy tahlili, ilmiy, diniy, irfoniy, yodnomalarining mazmun-mundarijasi, asarlarining badiiyati, janrlar poetikasi, she’r va dostonlarning vazn xususiyati, qofiya va badiiy san’talari haqida ma’lumot beriladi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2018. 4-bet.

Ta'kidlash lozimki, mutafakkir shoir asarlari qavatlaridagi ma'no va mazmunni asl matnni o'qish orqali anglash bugungi o'quvchi uchun murakkab. Shuning uchun e'tiboringizga havola etilayotgan mazkur qo'llanmada Navoiy asarlarini sharhlab o'qish, asl matn bilash ishslash va shu orqali ulug' shoir asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilish ko'zda tutilgan. Aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlagan muammolar echimi ma'lum ma'noda navoiyshunoslik fanni o'qitish bilan bartaraf etila boradi, degan umiddamiz.

"Navoiyshunoslik" fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2-va 3-kurslarda o'qitilishi nazarda tutilgan. Mazkur fan olidiga qo'yiladigan talablardan biri Navoiy asarlarini o'rganish orqali mumtoz adabiyot namunalarini to'g'ri tahlil va talqin qilishdan iborat.

Shu maqsadda tuzilgan "Navoiyshunoslik" fani uchun mo'ljallangan ushbu qo'llanmada fan dasturida belgilangan 3 modulning 1-mavzusi va 4 modulning 1, 2-mavzularni qamrab olgan. Mavzular doirasida asosan sharh, tahlil, talqin, tafsir, ta'vil tushunchalarining badiiy matnni anglashdagi o'rni, "Hayrat ul-abror" dostonining muqaddimaviy boblari – basmala, hamd, munojot, na't, "Ko'ngil ta'rifi bobি" hamda "Uch hayrat" boblarini sharhli o'qish uchun ko'rsatmalar va tahlil usullari berilgan. Shu bois, qo'llanmada fan dasturida muzkur mavzularga ajratilgan ma'ruza, amaliy, seminar, mustaqil ta'lim soatlari ham qamrab olingan.

Mazkur qo'llanma filologiya sohasi mutaxassislari hamda talabalarga, shuningdek, Alisher Navoiy ijodi bilan qizquvchilarga mo'ljallangan.

### **3-modul.**

## **NAVOIY LIRIKASINI SHARHLAB O'QITISH**

1-mavzu. Lirik asarlarni sharhlash tamoyillari.

Reja:

1. Sharh, tafsir, ta'vil, tahlil, talqin tushunchalarining ta'rifi.
2. Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar va ularning sharhli o'qishdaga ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** matn, sharh, sharhnavislik, izoh, tahlil, talqin, tafsir, ta'vil, lug'at, badiiy tahlil, oddiy (izoh) va murakkab sharhlar, ommaviy talqin, ilmiy talqin, qomusiy talqin, interpretatsiya.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida sharhnavislik an'anasi uzoq tarixga ega. Ramzu majoziy fikrlar pardasiga o'rab berilgan hikmat durdonalariga turli davrlarda turli darajadagi sharhlar yozilgan. Masalan, Jaloliddin Rumiy, Xo'ja Hofiz, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil asarlari bag'ridagi yashiringan ma'no qirralari sharhlash orqali o'rganilib kelingan. Sharq adabiyotida sharh yozish nafaqat an'ana tusini olgan, balki, ijodkor va sharh muallifining o'tkir didi va yuksak mahoratidan darak bergen. Fikrimizni mumtoz adabiyotning muhim manbasi bo'lib kelayotgan Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" asarida keltirilgan quyidagi ma'lumot ham tasdiqlaydi: "Ubaydiy taxallusi bilan qalam tebratgan Buxoro xoni Ubaydulloxonning bir kuni peshindan keyin badiha tarzida aytgan arab tilidagi so'fiyona ruboysi sharhiga bag'ishlab arab tili va falsafasi bilimdoni Mavlono Ansoriddin Ibrohim namozshomga qadar bir risola tasnif etib, uning "har bir misrasi bobida olti yuz ellik ma'no aytgan".<sup>2</sup>

Adabiyotshunos olim B. Valixo'jayevning ta'kidlashlaricha, "Chunonchi, oriflar sultonlari sifatida musulmon Sharqida dong taratgan Shayx Abusaid Abulxayr Mehnaviyning bir ruboysi ilmu adab va tasavvuf ahli o'ttasida shunchalik shuhrat tutganki, birgina Sayyid Ne'matullo Valiy uning sharhiga 3 ta risola bag'ishlagan.

<sup>2</sup>Qarang: Hasanxo'ja Nisoriy. "Muzakkiri ahbob" (I Bekjon tarjimas). – Toshkent: "Xalq merosi. 1993. 172-bet.

Qosim Anvor, Shayx Ozariy, Ya'qub Charxiy va Xoja Ahror Valiylar ham uni sharhlab risolalar bitganlar.<sup>3</sup>

O'tmishda gapu gashtaklarda, turli xil yig'inlarda, adabiy suhbatlarda turli badiiy asarlar o'qilgan. Ular savodli kishilar tomonidan sharhlab, tushuntirilgan. Shu orqali xalq badiiy adabiyotga qiziqtilgan. Mazkur harakatlar natijasida bedilxonlik, navoiyxonlik, fuziyliyxonlik kabi kitobxonlik suhbatlari asrlar osha davom etib kelgan. Bunday suhbatlar adabiyot ixlosmandlari va oddiy xalqning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qilib kelgan.

Ta'kidlash kerakki, Sharqda nafaqat badiiy asarlarga, balki ilmiy asarlarga ham sharh yozish an'anasi mayjud bo'lgan. "Sharh" - arabcha so'z bo'lib "**ochish, bayon etish, oshkor qilish**" kabi ma'nolarni anglatadi. Navoiy asarlari lug'atida esa bu so'zga "**sharh aylamak, izohlamoq**" tarzida izoh berilgan.

Ilom dini va adabiyotida sharh istilohi bilan birga tafsir atamasi ham keng qo'llanilgan. **Tafsir** so'zi lug'atlarda "izohlash", "ravshanlashtirish" va "har bir jumladan ko'zlangan murodni ohib berish" ma'nolarida keladi. Islomshunos olim Rahmatulloh qori Obidov manbalarda tafsir so'ziga berilgan ta'riflarni to'plab, munosabat bildirganlar. Jumladan, "Al-Bahrulmuhit" kitobida Abu Hayyon shunday ta'rif beradi:

"**Tafsir** - shunday ilmki, bu bilan Qur'on lafzlarining qanday nutq qilinishini (qiroat ilmi), u so'zlar nimaga dalolat qilishini (lug'at ilmi), har bir so'z va jumlaning hukmlarini (sarfl, nahv, bayon va badi' ilmlari), jumlaning o'zidan bevosita tushuniladigan ma'nolarni (haqiqat va majoz ilmi), shuningdek, nosix va mansux oyatlar, oyatlarning nozil bo'lish sabablari hamda tarixiy qissalardan ko'zlangan maqsadlar o'rganiladi".

Imom az – Zarkashiy bunday ta'rif beradi: "**Tafsir** - shunday ilmki, bu bilan Alloh Ta'oloning o'z payg'ambari Muhammad (s.a.v.)ga nozil qilgan Kitobini, uning ma'nolarini, shariat amallarini va bandalar ustidan Allohnning hukmlari o'rganiladi".

<sup>3</sup>. Valixo'jayev B. Xoja Ahror tarixi. – Toshkent: "Yozuvchi", 1994. 75-bet.

Ba'zi olimlar quyidagicha ta'rif bergenlar: "Tafsir - shunday ilmki, unda Qur'on oyatlaridan Alloh Ta'olo nimani iroda qilganini insoniy nuqtai nazaridan o'rganiladi".

Olim keltirilgan ta'riflarni umumlashtirib, shunday yozadi: "Tafsir deb, Qur'oni Karim oyatlaridan Allohnинг murodini inson o'z aqli darajasida tushunib, boshqalarga ham tushuntirib bera olishiga aytildi".<sup>4</sup>

Ma'lumki, adabiyot – so'z san'ati. Sharqda badiiy so'zning nufuzi, qudrati unga yuklatilgan ma'no qirralarining boyligiga bog'liq bo'lgan. Fikrning majoz orqali ifodalanishi nafaqat muallifning, balki sezgir kitobxonning o'tkir didi, yuksak fahmidan dalolat bergen. Shu ma'noda islomshunoslikda tafsir atamasi bilan birga ta'vil istilohi qo'llanib kelingan.

"Tafsiri Hilo" muallifi Muhammad Solih Muhammad Yusuf mazkur atamagan shunday izoh beradi: «Ta'vil» so'zi biror so'z yoki tushunchani sirtqi ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chirish, degan ma'noni anglatadi».<sup>5</sup>

Tafsir, ta'vil sharhnavislik an'anasi bilan bog'liq bo'lsa-da, bir-biridan farq qilgan. Imom Al-Moturidiyning fikricha: "Tafsir Qur'ondag'i har bir lafzdan chiqarilgan qat'iy ma'nodir. Agar bu ma'no dalil bilan isbotlansa, haqiqiy tafsir, dalil bilan isbotlanmasa, o'z ra'yicha qilingan tafsir, deyiladi. Ta'vil bir lafzda ehtimoli bor bo'lgan ikki ma'noning bittasining tanlanishi va uning quvvatlanishidir".<sup>6</sup>

Qur'oni Karimning "Layl" surasidan keltirilgan quyidagi oyatdagi "go'zal" so'zi ta'vil qilingan, ya'ni go'zal so'zi o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarda ham tushunilgan.

#### 6. Va go'zalni tasdiq qilsa

Ushu oyati Karimadagi «go'zalni» turlicha ta'vil qilinadi: go'zal so'z – ya'ni, Laa ilaha illallohu, go'zal millat – ya'ni, Islom millati, go'zal oqibat – ya'ni, jannah kabilar.

<sup>4</sup>. Rahmatulloh qori Obidov. Qur'on va tafsir ilmlari. «Toshkent Islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi 2003. 58-bet.

<sup>5</sup>. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tavsiyi Hilo. 3-juz. – T.: "Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati", 2008. 310-b.

<sup>6</sup>. Rahmatulloh qori Obidov. Qur'on va tafsir ilmlari. – T.: "Islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2003 57-bet.

Bizningcha, xuddi shundoq tartib va uslub ishlatalishi Qur’oni Karimning mo’jizasidir. Agar ushbu oyatni ta’villarida kelgan ma’nolardan biriga bog‘lab qo‘yilganda, oyat tor ma’noda bo‘lib qolar edi. Ammo go‘zalni zikr qilib, uning mavsufini zikr qilmaslik oyat ma’nosining juda keng bo‘lishiga olib kelgan. Demak, kim xayru sadaqa qilgan, taqvo qilgan hamda go‘zal kalimani, millatni va oqibatni tasdiqlagan bo‘lsa....

### **7. Bas, Biz uni osonga tuyassar qilamiz.**

O‘tgan oyatdagи «go‘zal» so‘zi haqidagi aytgan gaplarni ushbu oyatdagи «oson» so‘zi haqida ham aytishimiz mumkin. Ya’ni, kim molu-dunyosidan sadaqa qilsa, taqvo qilsa, go‘zal kalima, millat va oqibatni tasdiq qilsa, Biz uni oson yo‘liga, dinga, amalga va oqibatga tuyassar qilamiz. Oson yo‘l hidoyat yo‘li, bu yo‘lda hech qanday qiyinchilik yo‘q. Oson din - Islom dini, bu dinning aqidasida ham, ibodatlarida ham hech bir qiyinchilik yo‘q. Oson oqibat - jannat, unda hamma narsa osonlikdan iborat<sup>7</sup>.

Mumtoz adabiyotda so‘z qavatlaridagi ma’no qirralarining mo‘lligi badiiy kashfiyat darajasida qadrlangan. Har qanday badiiy asarning jozibasini ta’minlovchi omillar, albatta, yashirin bo‘ladi. Yashiringan ma’no va sirlar sharh, tafsir va ta‘vil usullari orqali oydinlashtirilgan.

Zamonaviy adabiyotshunosligimizda ham sharh va uning ko‘rinishlari xususida fikrlar bildirilgan. Jumladan, tasavvufshunos olim N.Komilov “Sharhlarni oddiy (izoh) va murakkab sharhlar”ga ajratgan bo‘lsa<sup>8</sup>, filologiya fanlari doktori N. Jumaxo‘ja Alisher Navoiyning lirik merosi misolida talqinni shartli ravishda uch turga ajratadi: 1. Ommaviy talqin. 2. Ilmiy talqin. 3. Qomusiy talqin.

“G‘azalga oid ilmiy ma’lumotlarni ommaga ma’qul va tushunarli shaklga solib taqdim etish ommaviy talqinning xos fazilati” bo‘lsa, ilmiy talqinda g‘azalning “obrazlar tizimi, ko‘p ma’nolilik xususiyatlari, falsafiy asoslari, kompozitsions qurilishi, badiiyatiga doir muammollar”ni keng tekshirish bilan birga,

<sup>7</sup>. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririysi”, 2008. 489-490-bet.

<sup>8</sup>.Qarang: Komilov N. Bir sharh xususida // Tarjima nazariyası masalalari. ToshDU ilmiy ishlar to‘plami. № 606. – T.: 1979. 26-bet.

shoir ijodxonasiga chuqurroq nazar solish, g'azalning takomil bosqichlarini ham yoritish muhimdir". Qomusiy talqin esa "o'zida usluban ommaviylikni, mazmunan va mohiyatan ilmiylikni mujassamlashtirmog'i, ommaviy va ilmiy talqinlarda mavjud zarur ma'lumotlarni ixcham shaklda qamrab olmog'i kerak".<sup>9</sup>

Sharh tahlil va talqinka nisbatan keng tushuncha. Tahlil va talqin sharhning mukammalligi uchun xizmat qiladi. Badiiy tafakkur qirralari matnning tahlil va talqinlari orqali oydinlashtiriladi. Mazkur terminlarga adabiyotshunos olim D.Quronov quyidagicha ta'rif bergan: "**Badiiy tahlil (ar. – tekshirish, hal qilish)** – adabiy asarning mazmun-mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli aspektlarda o'rganib, o'ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intellektual faoliyat. **Tahlil** atamasi ilmda keng qo'llanuvchi analiz (yun. analysis – qismlarga ajratish) terminining sinonimi sifatida ishlataladi. Har ikki atama ham butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o'rnnini o'rganishni ko'zda tutadi".<sup>10</sup>

Badiiy asarni tahlil qilish muayyan tayyorgarlikni talab qiladi. Badiiy asarlarlarni, ayniqsa, mumtoz asarlarni tushunishdagi ilk bosqich – matnlarni sharhlab o'qishdir. Badiiy matnni o'qish jarayonida tahlilga tortiladigan masalalar belgilab olinadi. Shundan so'ng badiiy matnda qo'yilgan muammo doirasida tahlilga tortiladi. Albatta, bu tahlil hayot haqiqatiga mos, ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi shart. Bu esa tahlil xulosalarining ilmiyligini ta'minlaydi.

Demak, badiiy asarning tahlili uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Matnni o'qish (tahlil etiladigan asar matni o'rganiladi, muammolar belgilanib olinadi).

<sup>9</sup>. Qarang: Jumaxo'ja N. Satrlar silsilasidagi sehr. – T.: "O'qituvchi", 1996. 5 - 7-bet.

<sup>10</sup> Quronov D., Marmajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010. 52 bet.

2. Badiiy tahlil amalga oshiriladi (bunda matnning badiiyatini ta'minlagan omillar – asar tili, timsolar olami, qahramonlar ruhiyati, qo'llanilgan badiiy tasviriy vositalar kabi qator masalalar o'rganiladi).

3. Xulosalash. Tahlil natijasidagi kelingan xulosalar umumlashtiriladi.

Adabiyotshunoslikda amalga oshirilgan tahlillar mumtoz matnlarga tegishli bo'ladimi, zamonaviy yoki jahon adabiyoti durdonalari xususidami, albatta, ular bugungi o'quvchi uchun mo'ljallangan bo'ladi. Agar tahlillar muallif → → → tadqiqotchi → → → kitobxon tizimida olib borilsa, bunday tahlil va talqinlar har qanday badiiy matn bilan o'quvchi o'rtasida ko'rik vazifasini bajara oladi.

**Talqin** – 1. Din, shariat masalalari bo'yicha va'z, nasihat. 2. Umuman, pand-nasihat, o'git. 3. Ilmda biror masalani turli kishilar tomonidan xususiy tushuntirish shakli.<sup>11</sup>

Talqin atamasi hozirgi adabiyotshunoslikda interpretatsiya termini bilan yonma-yon qo'llanadi. **Interpretatsiya** (lot. interpretatsion – tushuntirmoq) – talqin; adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish. Keng ma'noda interpretatsiya o'zga tomonidan aytilgan gap, yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.) mazmunini bir butun sifatida tushunish va tushuntirib berish ma'nosini bildiradi<sup>12</sup>. Adabiyotshunoslikda interpretatsiyaning uch turi farqlanadi: 1. So'z bilan bog'liq interpretatsiya – asar tili, so'z va so'zlar munosabati talqini; 2. Tarixiy interpretatsiya – o'quvchini asar tasvirlangan davr bilan tanishtiruvchi talqin; 3. Texnik interpretatsiya – asardagi badiiy tasviriy vositalar talqini.<sup>13</sup>

**Izoh** -1. Ayrim so'z, ibora va voqeal-hodisalarga beriladigan qisqa tushuntirish, tavsiy. 2. Matnning ayrim joylariga kiritiladigan qo'shimcha ma'lumot. Qulyozma manbalarda muallif, musannif, kotib yoki mazkur manbani mutolaa qilgan shaxs tomonidan ayrim so'z, ibora va jumlalarga izohlar yozib

<sup>11</sup>. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. – T.: "Davr press" HMU. 2013, 302-bet.

<sup>12</sup>. Yuqoridaqgi manba, 119-bet.

<sup>13</sup>. Erkinov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqini manbalari (XV-XX asr boshi). – T.: Tamaddun. 2018. 37-bet.

qo'yish hollari ko'p uchraydi. Odatda bunday izohlar matnning hoshiyasiga qayd etiladi. Izoh sharhdan farq qiladi va unga nisbatan qisqa bo'ladi.<sup>14</sup>

Umuman olganda, tahlil va talqin orqali badiiy asarda ifoda etilgan mavzu va g'oya, milliy ruh va qahramonlar ruhiyati, muallif shaxsiyati, uslub va badiiyat kabi qator masalalar turli usullar orqali o'rganiladi.

Jahon adabiyoti miqyosida kuzatadigan bo'lsak, har bir xalqning ulug' ijodkorlari qoldirgan ma'naviy meros barcha zamonlarda nafaqat qalam ahillari, balki butun millat uchun ibrat va saboq maktabi, intilish nuqtasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ular asos solgan ijod maktabining an'analarini o'rganish va targ'ib qilish turli yo'sinda amalga oshirilib borilgan. Mumtoz asarlarni targ'ib qilishning dastlabki ko'rinishi sifatida ular asosida tuzilgan lug'atlarni aytishimiz mumkin. Buni ulug' shoir Alisher Navoiy ijodi misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Alisher Navoiy asarlarining tili nihoyatda boy. Mutaxassislarining e'tiroficha, uning barcha asarlarida 26 ming 35 ta so'z qo'llangan. Shoir asarlarida bag'rida turkiy so'zlardan tashqari forsiy, arabiy so'zlar anchagina foizni tashkil qiladi. Bu esa o'z – o'zidan shoir asarlariga oid lug'atlar tuzishni talab qiladi.

"Badoo' ul-lug'at", "Xamsa bo halli lug'at", "Abushqa", "Sangloh", "Lug'ati atrokiya", "Lug'ati turkiy", "Lug'ati chig'atoj va turkiy-usmoniy", "Halli lug'oti chig'atoj "Xamsa"yi Navoiy", "Nisobi Navoiy", "Lug'ati Amir Navoiy", "Dar bayoni lug'ati Navoiy", "Halli lug'oti chig'atoj" kabi qo'lyozma lug'atlarning barchasi Navoiy asarlari asosida tuzilgan.

Hazrat Navoiy asarlari tili murakkab, unda anglash qiyin bo'lgan leksik birliklar ham anchagina. Shuning uchun bo'lsa kerak, shoir hayotlik vaqtidayoq, ya'ni 1500 yilda Husayn Boyqaroning topshirig'i bilan Toli Hiraviy tomonidan "Badoyi' ul-lug'at" nomli lug'at tuziladi. Mazkur lug'at Alisher Navoiy asarlari asosidagi ilk lug'at hisoblanadi.

Qayd qilish lozimki, lug'atda, asosan, Navoiy asarlarida ishlatalgan sof turkiy (eski o'zbek)cha, mo'g'ulcha va juda oz miqdorda arabcha so'zlarning forscha-tojikcha izohi berilgan. Shu jihatni bilan "Badoyi' ul-lug'at" ikki tilli

<sup>14</sup> <sup>14</sup>. Hakimov M. Sharq manboshunosligi lug'ati. – T.: "Davr press" HMU. 2013, 116-bet.

lug'atlar turiga mansubdir. Lug'atning tuzilishi, unda izohlangan so'zlar, tasdiqlovchi faktik materiallar xususida turkologiyada A. K. Borovkov, B. Hasanov, E. Umarov kabi olimlarning izlanishlarida kerakli ma'lumotlar berilgan.<sup>15</sup>

Professor A. K. Borovkov «Badoyi' ul-lug'at» faksimilesini o'z tarjimasi va kirish qismi bilan birga nashr qilgan<sup>16</sup>. Bu lug'at bugungi kunga qadar tilshunoslar hamda navoiyshunoslar uchun muhim manba sifatida beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Navoiy asarlariga tuzilgan yana bir lug'at XVI asrda usmonli turk tilida yaratilgan «Abushqa»dir. Lug'atning 8 ta nusxasi bo'lib, ularning 5 tasi Leningrad, 3 tasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik va qo'lyozmalar institutlarida saqlanmoqda. Bu lug'atni bиринчи bo'lib, qisqartirilgan qolda Vamberi, undan so'ng esa V. Velyaminov - Zernov to'laligicha fransuz tilida kirish so'zi bilan Sankt-Peterburgda 1869 yili nashr qildi. Lug'atning keng tarqalgan nomi uning ichiga kirgan so'zlarning birinchisi, ya'ni «Abushqa» dan olingan. Lug'atni shu so'z bilan atash Evropada boshlangani haqida «Abushqa»ning noshiri V. Belyaminov-Zernov xabar beradi, lekin uning o'zi lug'atni «al-Lug'at an-navoijya va-l-istish-hodot al-chig'otoijya», deb ataydi, chunki nashrga jalb qilingan bir qo'lyozmaning kotibi uni shu nom bilan atagan.<sup>17</sup>

“Abushqa” lug'atida 2000 ta so'z bo'lib, muallif asosiy lug'aviy birliklarni ajratib olmay, har xil grammatik shakllardagi so'zlarni alifbo tartibida berib boradi. Har bir so'z o'z ma'nolari va shu ma'nolarni olib beruvchi misollar bilan birga beriladi. «Abushqa»da so'zlar alifbe tartibida joylashtirilgan. Bu esa undan foydalanishda qulaylikni yaratadi. Lug'atda Navoiy va boshqa shoirlar asarlaridan keltirilgan parchalardan olingan so'zlarning shakllari aynan saqlangan holda berildi.

<sup>15</sup>. Qo'ziyev U., Asanova Sh. Navoiy asarları asosida tuzilgan lug'atlar. Namangan ilmiy axborotnoma. 2019, 6-son. 319-326-betlar.

<sup>16</sup>. Badayi al-lug'at - slovar. Tali Imani Geratskogo k sochineniyam Alishera Navoy. Perevod i vvedenie A. K. Borovkova, JVL, M. 1961.

<sup>17</sup>. Botirbek Hasanov. Javohir xazinalari (Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan qo'lyozma lug'atlar). – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989, 17-bet.

«Abushqa»dan so'ng ikki asr davomida Alisher Navoiy asarlariga bag'ishlangan katta lug'at tuzilgani ko'zga tashlanmaydi. Bu davr ichida Navoiy asarlari qo'lyozmalar hoshiyalariga bitilgan kichik lug'atchalargina shu qo'lyozmalar bilan birga bizgacha etib kelgan. Eski o'zbeksa-forscha lug'atnavislik an'alarining XVIII asrdagi ravnaqi Mirza Muhammad Mahdiyxon nomi bilan bog'liq, lekin uning hayot yo'li haqida ma'lumot juda oz.<sup>18</sup> Mirza Mahdiyxon "Sanglox" nomi bilan mashhur bo'lgan lug'atini XVIII asrning o'rtaida (1760-yilda) yaratdi. Eski o'zbek tilidagi 8000 so'zni o'z ichiga olgan bu ulkan asar ikki qismdan iborat: 1. Grammatik qism; 2. Lug'at.

Lug'atga "Sanglox" deb muallifning o'zi nom beradi. Bu haqda muallifning o'zi lug'atning kirshida o'zbek tili va Navoiy leksikasi iboralarining salobati va so'zlarining qiyin (qattiq)ligi sababli kitobga "Sanglox" nom qo'yganini aytadi.<sup>19</sup> Lug'at 24 bobdan iborat. Boblarning hajmi turlicha, ba'zi boblarda 4-5 ta so'z berilsa, ba'zi boblarda so'zlarining miqdari 2000 tagacha yetkazilgan. Lug'atda so'zlar bilan bir qatorda, ko'plab turg'un birikmalar, frazeologik iboralar ham izohlangan.

"Sanglox"ning lug'atshunoslik tarixidagi ahamiyati juda katta. "Mirza Mehditionning turkolog sifatidagi qimmati shundan iboratki, u chig'atoj adabiy tilini o'rganish jarayonida adabiy yodgorliklar bilan birga, bir tomonidan, anatoliya, ozarbayjon turklarining, ikkinchi tomonidan, O'rta Osiyo jonli dialektlarini qiyoslashga tortdi".<sup>20</sup>

XIX asrda Fath Ali Kojariyning "Lug'oti atrokiya" ("Turklar lug'ati"), Muhammad Xoksor tomonidan 1798-yilda tuzilgan "Muntaxab ul-lug'at" ("Tanlangan lug'atlar") hamda Shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoji va turki usmoniy" kabi asarlarida ham Alisher Navoiy ijodidan olingan parchalarga keng o'rin ajratiladi.

Alisher Navoiy asarlari bo'yicha tuzilgan lug'atlardan yana biri – "Xamsa bo halli lug'at" asaridir. Lug'at kotibi va muallifi noma'lum bo'lib, 18 yil davomida

<sup>18</sup> Yuqoridaq manba, 31-bet.

<sup>19</sup> O'sha manba, 33-bet.

<sup>20</sup> Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. (E.Fozilov rahbarligida) 4jildlik. Ijild. – T.: Fan, 1983. 8-bct.

yozib bitirilgan. Lug'at maqolasi bosh so'z, izoh, so'ng illyustrativ misol sifatida Navoiy asarlaridan iqtiboslar keltirilgan.<sup>21</sup> Lug'at Alisher Navoiy "Xamsa" asarining 1845-46 yillarda Qo'qonda ko'chirilgan qo'lyozmalarining hoshiyalariga yozilgan bo'lib, sakkiz mingga yaqin so'zga izoh berilgan.<sup>22</sup> Lug'at muallifi lug'aviy birliklar tanlash va izohlashda o'quvchining "Xamsa" matnini to'g'ri va mukaminal tushunishiga e'tibor bergan. Shu tufayli ham ayrim ko'p ma'noli so'zlarni izohlash faqat doston matnlari vositasida amalga oshirilgan. Jumladan, *rud* so'zi quyidagicha izohlangan: 1) *ariq* (Sab'ayi sayyor, 98); 2) *daryo* (Saddi Iskandariy, 62, 125); 3) *yosh* (Layli va Majnun, 42); 4) *nag'ma* (Saddi Iskandariy, 6, 21, 55, 101, 112; Sab'ayi sayyor, 17); 5) *tori nag'ma* (Sab'ayi sayyor, 92); 6) *ustang* (Saddi Iskandariy, 62). So'zlarni bu tartibda joylashtirish boshqa lug'atlarda ham, xususan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" va muallifi noma'lum bo'lgan "Kitob atuhfat az-zakiya fi lug'atit-turkiya" kabilarda ham uchraydi.<sup>23</sup> Boshqa lug'atlar singari mazkur manbada ham Alisher Navoiy merosidan misollar keltiraladi.

Bundan tashqari, Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlar safida "Lug'ati Amir Navoiy", "Dar bayoni lug'ati Navoiy", "Halli lug'ati chig'atoyi Xamsayi Navoiy", "Halli lug'ati Xamsayi Navoiy" kabilarni ham sanab o'tishimiz mumkin.<sup>24</sup>

Ulug' shoir asarlariga oid lug'atlar tuzish ishlari XX asrda ham davom etdi. Ayniqsa, o'tgan asrning ikkinchi yarmida bu sohada amalga oshirilgan ishlarni navoiyshunoslikning muhim yutug'i sifatida e'tirof qilish mumkin.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining tarixiy leksikologiya va leksikografiya bo'limida atoqli olim E.Fozilov rahbarligi va sharq tillari bilimdonlari Q.Muhiddinov, Yu.Shokirov, N.Xo'jayev, J.Lapasov, I.Nosirov, Z.Hamidov, B.Bafoyev va boshqalar ishtirokida tuzilgan to'rt jildli «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli

<sup>21</sup> Husanov N. Bir noyob lug'at va uning muallifi // Fan va turmush, 1982, № 3. 32-bet.

<sup>22</sup> Umarov E.A. «Badoyi ul-lugato i Sanglax» kak leksikograficheskie pamiatniki i istochniki izuchenija starouzbekskogo yazyika XV-XVIII vv. ADD. – T., 1989. 14-bet.

<sup>23</sup> Husanov N. Bir noyob lug'at va uning muallifi // Fan va turmush, 1982, № 3. 32-bet.

<sup>24</sup> Qo'ziyev U, Asanova Sh. Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug'atlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019 yil. 6-son. 319- bet.

lug‘ati» ilmiy qimmati nihoyatda baland nashrlar sirasidandir. Lug‘at nafaqat tilshunos olimlarning, balki qadim Sharq tarixi, ilmlari, madaniy merosi bilimdonlarining o‘tkir fahmu zakovati samarasи sifatida yuzaga kelgan. Shu jihatdan lug‘atning bugungi kundagi amaliy qimmati ham yuksak<sup>25</sup>. Bundan tashqari, P.Shamsiyev, S.Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan “Navoiy asarlari lug‘ati” (Muharrir S.Mutallibov. Toshkent - 1972) uzoq yillardan beri Alisher Navoiy asarlarining ixlosmanlari uchun ko‘mchodosh bo‘lib kelmoqda.

Ulug‘ shoir asarlari yuzasidan tuzilgan lug‘atlarni takomillashtirish borasida ham keyingi yillarda talaygina ishlar amalgalga oshirildi. Jumladan, E. Fozilov tomonidan “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati” (Toshkent-2013) navoiyshunosligimizning bu sohadagi yutuqlaridan biri bo‘ldi. Mazkur lug‘atning afzalliklari juda ko‘p. Jumladan, lug‘atda Alisher Navoiy asarlari nashrlarida (15, 20, 10 jiddli) kitobxонни chalg‘ituvchi juda ko‘p xato va g‘alizliklarning lug‘atda tuzatilishini uning muhim jihatni va yutug‘i sifatida e’tirof qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ulug‘ shoir ijodi yuzasidan olib borilgan har qanday tadqiqotlar, tuzilgan lug‘atlar Hazrat Navoiyni anglash yo‘lidagi ijobiy odimlar hisoblanadi.

#### *Savol va topshiriqlar:*

1. Sharh nima? Sharq adabiyotida nega sharh ilmiga alohida e’tibor bilan qaraganlar? Buning sabablarini qanday izohlaysiz?
2. “Sharh”, “tafsir”, tushunchalarining bir-biridan qanday farqli jihatlari mavjud?
3. “Ta‘vil” tushunchasiga manbalar asosida izoh berishga harakat qiling.
4. “Ta‘vil”ning “sharh” va “tafsir” tushunchalaridan qanday farqli jihatlari bor?  
Fikringizni misollar asosida izohlashga harakat qiling.
5. Islom mintaqasi madaniyatida tavsir ilmiga munosabatning takomillashuvining sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

<sup>25</sup>. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 jiddlik.- T.: Fan. 1983.

6. Lug‘atlar asosida “ta’vil” so‘ziga berilgan izohlarni o‘rganib chiqing, uning tafsir ilmiga qanday aloqasi borligini oydinlashtirishga harakat qiling?
7. Tahlil, talqin tushunchalarining adabiyotshunoslikdagi ahamiyati qaysi o‘rinlarda ko‘rinadi?
8. Izoh nima? Uning “tavil”dan qanday farqi bor?
9. A. Navoiy asarlari yuzasidan tuzilgan qanday lug‘atlar mavjud?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **Matn va manbalar:**

1. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. VII jild. Hayrat ul - abror. –T.: “Fan”, 1991.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (nasriy bayoni bilan). – T.: G.G’ulom nomidagi NMIU, 2006.
3. Rahmatulloh qori Obidov. Qur’on va tafsir ilmlari. «Toshkent Islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi. 2003.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2008.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Nubuvvat va risolat. 19-juz –T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2006.
6. Hasanxoja Nisoriy. “Muzakkiri ahbob” (I.Bekjon tarjimasi). – T.: “Xalq merosi. 1993.
7. Qur’oni Karim . Alouddin Mansur tarjimasi. – T.: “Cho‘lpon”, 1992,
8. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot - matbaa birlashmasi. 2004.

### **Ilmiy-nazariy adabiyotlar:**

9. Alisher Navoiy: Qomusiy lug‘at. 1-2-jiddlar. Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.

10. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 томлик. 2-том. –Т.: Fan, 1983.
11. Alisher Navoiy ijodiy va ma’naviy merosining olamshumul ahamiyati (xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). –Т.: O‘zbekiston, 2018.
12. Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar. –Т.: Kamalak, 1991.
13. Aliybek Rustamiy. “Bismilloh”ning ma’nosi. – Т.: Cho‘Ipon, 1993.
14. Botirbek Hasanov. Javohir xazinalari (Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan qo‘lyozma lug‘atlar). – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
15. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Т.: O‘zYU Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.
16. Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – Т.: Ma’naviyat. 2005.
17. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. (E.Fozilov rahbarligida) 4 jildlik. I jild. – Т.: Fan, 1983. 8-bet.
18. Navoiy asarlari lug‘ati. – Т.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
19. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Т.: Tamaddun, 2018.
20. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Т.: Akademnashr, 2010.
21. Qo‘ziyev U., Asanova Sh. Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug‘atlar. Namangan ilmiy axborotnama. 2019, 6-son.
22. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – М.: 2 томлик. 1 том. 1981.
23. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug‘ati. –Т.: “Davr press” HMU. 2013.
24. Hasanov B. Javohir xazinalari (Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan qo‘lyozma lug‘atlar). –Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.

## **4- modul. NAVOIY DOSTONLARI VA NASRIY ASARLARINI SHARHLAB O'QITISH**

### **1-mavzu. Navoiy dostonlarini sharhlash tamoyillari.**

1. “Xamsa” dostonlarini nasriylashtirish an’anasi.
2. “Xamsa” tabdillari.
3. “Xamsa” dostonlarini sharhli o‘qish uchun tavsiyalar.

**Tayanch tushunchalar:** Nazm, nasr, nasriylashtirish, an’ana, “Xamsa”, tabdil, sharh, Umar Boqiy, Mir Mahdum ibn Shohyunus.

Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘rganish o‘zi yashagan davrda boshlangan bo‘lsa-da, hali hanuz bu sohadagi qiziqishlar to‘xtagani yo‘q. Chunki she’riyatning ulkan sarhadlarini zabit etgan shoir ijodi hamon ijodkorlar uchun sirli bir olam, intilish va ilhom manbai bo‘lib kelmoqda.

Tasavvufshunos olim N.Komilov “Xamsa” asarining Sharq adabiyotidagi o‘rniga ta’rif berib shunday yozadi: Qadim Sharqning ko‘p asrlik badiiy-estetik tajribalari, adabiy an’analari, hikmat va zakovatini bir karra yakunlagan qomusiy mazmundagi «Xamsa» ayni paytda so‘z san’atining bebahoh ganjinasi hamdir”.<sup>26</sup> Mana shunday muazzam asarni tushunish, uni butun latofati bilan anglash bugungi kitobxon uchun murakkab ekanligi sir emas. Shuning uchun “Xamsa” dostonlarini nasriylashtirish ishlari amalga oshirilgan.

Ta’kidlash kerakki, Sharq adabiyotida badiiy asarlarga sharh yozish, ularning nasriy bayonlarini yaratish an’anasi anchagina tarixiy yo‘lni bosib o’tdi. Alisher Navoiy «Xamsa» dostonlari nasriy bayonlarining yaratilishi ham ana shu an’ananing bir davomi hisoblanadi. “O‘zining amaliy natijasi bilan yillar sinovidan o‘tgan nasriy bayon shoir bilan kitobxon o‘rtasidagi vositachi manba sifatida faol iste’molga kirib bordi”<sup>27</sup>

<sup>26</sup>. Komilov N. Tarjimami yo‘talqin? (“Xamsa”ning nasriy bayoni xususida). Xizr chashmasi. – T.: Ma’naviyat, 2005. 283-bet.

<sup>27</sup>. Tojiboyeva Ozoda. Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayonlari: prinsiplari, mezonlari, usullari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. 5-bet.

Adabiyotshunoslarning e'tiroficha, tom ma'nodagi navoiyshunoslik XX asming boshlarida shakllana boshlandi. Adib ijodi turli yo'nalishlarda tadqiq qilindi. Mana shunday ishlardan biri Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlarining nasriy bayonlarini tuzish edi.

Badiiy asarlarning nasriy bayonlari davr talabi, kitobxon saviyasini inobatga olgan holda yaratilar ekan, ularda badiiy asarning butun "bo'y basti"ga xos bo'lgan jihatlarni ko'rsatish, so'z qudrati va u orqali hosil qilingan badiiylik "libosi"ni kitobxonga qulay bir shaklda yetkazib berishdan iboratdir.

Navoiyshunoslikda XIX asrning boshlarida Umar Boqiy tomonidan yaratilgan "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlari asosidagi nasriy qissalar, Mir Maxdum ibni Shoh Yunus va Haybatulloh xo'ja Xislat tayyorlagan "Nasri Xamsai benazir" xususida talaygina ishlar amalga oshirilgan<sup>28</sup>. Agar Umar Boqiy «Farhod va Shirin» hamda «Layli va Majnun»larning nasriy bayonlarini yaratgan bo'lsa, keyinchalik Mulla Siddiq "Sab'ai sayyor" va "Lisonut tayr" dostonlarini ham nasriylashtirdi.

Umar Boqiy XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Xiva adabiy muhitida yashab ijod etgan. U Navoiy dostonlarining g'oyaviy mazmunini, obrazlar xarakterini saqlab, asliyatga nihoyatda yaqinlashtirib nasriylashtirgan. Dostonlarning muqaddima va xotima qismlarini tushirib qoldirib, xalq kitoblaridagidek, voqealarning asosan asar mazmuniga mos ravishda berishga erishgan.

XX asar boshlarida ham A. Navoiy asarlarini nasriy bayonlarini yaratish ishlari yana davom etdi. "Xamsa" tarkibiga kirgan besh dostondan to'rttasini nasriy bayonini yaratgan va navoiyshunoslikda "Nasri Xamsayi benazir" nomi bilan

<sup>28</sup> Fitrat A. "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida" / Tanlangan asarlar II-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 131-132; Afzalov M. "Farhod va Shirin"ning xalq varianti haqidasi. Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent: 1950. – B. 35-36; Hayitov A. Alisher Navoiy "Xamsa"sini nasriylashtirish: an'ana tabdid va talqin. Filol.fan.nomz. diss. – T., 2000; Komilov N. Tarjimamni yo'talqin? ("Xamsa"ning nasriy bayoni xususida) / Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – B. 291. Komilov N. Tarjimamni yo'talqin? ("Xamsa"ning nasriy bayoni xususida) / Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – B. 291; Muhibdinov M. Nurli qalblar gulshani. – Toshkent: Fan, 2007. - 168 b; Ergashov Q. Nasri Xamsai benazir // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2009. 18 dekabr. № 51 ; Solihova H. Alisher Navoiy izdoshlari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005. - 192 b.

mashhur bo'lgan nasriy bayonlar muallifi Mir Mahdum ibn Shohyunusdir. Bu nasriy bayonlar kitob holida litografiyada nashr etilib, xalq orasida tarqatilgan.

Mahdum ibn Shohyunus "Xamsa" tarkibidagi "Saddi Iskandariy", "Sab'ai sayyor", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarini sodda va ravon tilda nasriylashtirdi.

"Nasri Xamsayi benazir" haqida fikr bildirgan adabiyotshunos olim Qodirjon Ergashev O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan, 1908 yilda G'ulom Hasan Orifjonov litografiyasida chop etilgan "Nasri Xamsayi benazir" nusxasi bilan tanishib, muqaddimada muallifning "Xamsa" dostonlarini nasriylashtirish sabablarini o'rganadi. Muqaddimada bu haqda shunday yozilgan: "Ammo ahli donish va rasolar qissayi ma'jub va hikoyati marg'ublardin bahramanddurlar. Ammo ushbu zamonning aksar odamlari savodxon faqat bo'lub, nazmnинг fahmidin ojiz va bebahradurlar. Shu jihatdan avomunnos ham baha olurmukin deb qosirona nasr tariqida baqadri toqat bayon qildim"<sup>29</sup>.

Ko'rinish turibdiki, muallif A. Navoiy dostonlarining nasriylashtirish sabablari sifatida "Ammo ushbu zamonning aksar odamlari savodxon faqat bo'lub, nazmnинг fahmidin ojiz va bebahradurlar", deb ko'rsatadi. Mana shu fikrning o'ziyoq nafaqat Mahdum ibn Shohyunusning maqsadini, balki A. Navoiy asarlarini keyingi davrlarda ham nasriylashtirilishining sabablarini ko'rsatib turibdi.

Mir Mahdum o'z nasriy bayonida Navoiy dostonlaridan ikkitasining nomini o'zgartirib beradi va "Saddi Iskandariy"ni "Iskandarnoma", "Sab'ai sayyor"ni "Bahromi haft manzar qissasi", deb ataydi. Shuningdek, u dostonlarning joylashtirilish tartibini ham o'zgartirgan. "Nasri Xamsayi benazir"da avval "Saddi Iskandariy", keyin "Sab'ai sayyor" va "Layli va Majnun", oxirida "Farhod va Shirin" dostonlari joylashtirilgan. Bu ish Mir Mahdum tomonidan ongli ravishda ma'lum bir maqsad bilan qilingan va "Nasri

---

<sup>29</sup>. Qodirjon Ergashev. «Nasri xamsayi benazir». O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2009 yil 51-soni.

Xamsayi benazir”da bu haqdagi qaydlar mavjud. Dostonlardan ikkitasi, ya’ni “Saddi Iskandariy” va “Sab’ai sayyor”ning nasriy bayonlari tugagandan so‘ng muallif kichik bir chekinish qiladi va o‘quvchilarning diqqatini bu asarlardagi adolat, ezgulik g‘oyalariga qaratadi, ayniqsa, ijtimoiy adolat masalasiga urg‘u beradi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Mir Mahdum “Xamsa”dagi ijtimoiy mazmunni birinchi o‘ringa qo‘yadi va nasriy bayonda dostonlarni o‘zining ana shu qarashlariga muvofiq joylashtiradi. Albatta, ijtimoiy mazmun va g‘oyalar “Xamsa”ning barcha dostonlarida bor. Lekin “Saddi Iskandariy”da bu g‘oya Iskandar obrazi, unda mujassamlashgan odil shoh, ma’rifatli hukmdor siyoshi orqali juda yaqqol ifodalangan. Shu sababli “Nasri Xamsayi benazir”da “Saddi Iskandariy”ning nasriy bayoni birinchi qilib berilgan.<sup>30</sup>

Bilamizki, “Xamsa” ma’lum kompozitson qurilishga ega asar. E’tibor bersak, Mahdum ibn Shohyunus nafaqat “Xamsa” tarkibidagi asarlarni o‘rniga erkin munosabatda bo‘lgan, balki nasriy bayonlar tarkibidan “Hayrat ul-aboror” dostonini tushirib qoldirgan. Buning albatta, qator sabablari bo‘lishi mumkin. Birinchidan, asarda A. Navoiyning falsafiy, axloqiy, ilohiy-irfoniy qarashlari nazariy jihatdan badiiy ifodalangan bo‘lsa, ikkinchidan asarning yagona syujetga ega emasligi ham uning nasriy bayoni yaratilishida qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy. Uchinchidan, “Xamsa”ning nasriy bayonlarini kuzatadigan bo‘lsak, ularda asosan ma’lum bir voqe-a-syujetga asoslangan dostonlarga murojaat qilingan.

“Nasri Xamsai benazir”da muallif hozirgi nasriy bayonlar singari asl matndan uzoqlashmasa ham, o‘z davri umumiyligida xususiyatlariga suyangan holda ishga noan’anaviy, ayricha munosabat bilan yondashadi. Bu birinchidan, baytma-bayt nasriylashtirishdir.

Xulosa qilib aytganda, “Nasri Xamsai benazir” dostonlar mazmun mohiyatini anglatish maqsadida bajarilgan dastlabki nasriy bayon, davr ma’rifatparvar ziyolilarining Navoiy ijodini o‘zbek kitobxonlariga kengroq targ‘ib qilish, ommalashtirish maqsadida amalga oshirgan ishlardan biri edi.<sup>31</sup>

<sup>30</sup>. Qodirjon Ergashev. «Nasri xamsayi benazir». O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2009 yil 51-son.

<sup>31</sup>. O. Tojiboyeva. “Hayrat ul -aboror” hikoyatlarining klassik tabdili xususida. Alisher Navoiy va XXI asr (Respublika ilmiy-nazariy anjumanini materiallari). – T.: Tamaddun, 2016. 145-bet.

A. Navoiy asarlarini nasriylashtirish harakatlarini davom ettirgan ijodkorlar yana biri G'afur G'ulomdir. U "Farhod va Shirin" dostonining nasriy bayonini tayyorladi. Bu matn 1940 yilda nashr qilindi. G'afur G'ulom tomonidan amalgalashirilgan nashrda dostonning so'zma-so'z nasriy ifodasi asliyat bilan yonma-yon qo'yilib, nashr qilingan. Dostonning mazkur nashri 1948-, 1950-, 1956-yillarda ba'zi tuzatishlar kiritilib, chop etilgan. Bu haqda G'. G'ulom shunday yozadi: "Dostonning tili keng o'quvchi ommasiga anglashilarli bo'lsin uchun bugungi adabiy tilda nasr bilan ham yozib chiqdim. Har bir baytning to'g'risida uning hozirgi adabiy tildagi ifodasi ham berildi".<sup>32</sup>

Ta'kidlash kerakki, 1956-yilda amalgalashirilgan nashrda dostonning umumiy hajmi 46 bobdan iborat. Demak, dostonning 8 bobi davrning mash'um siyosati tufayli qisqartirib tashlangan.<sup>33</sup>

Shoir, nosir bo'lish bilan birga, adabiyot va tarixga oid ko'pgina ilmiy asarlar yaratgan zabardast olim Sadriddin Ayniy ilmiy faoliyati davomida Alisher Navoiy ijodiy merosiga alohida diqqat va e'tibor bilan qaragan.

Olimning bu boradagi faoliyati ikki yo'nalishda yuzaga chiqdi:

1. Matnshunoslik doirasidagi faoliyati.
2. Tanqidchilik faoliyati.

Sadriddin Ayniy ilmiy-ijodiy faoliyatida uning matnshunoslik borasidagi xizmati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. U buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy "Xamsa"sining qisqartirilgan tanqidiy matnnini tayyorlashdek ulkan ishga qo'l urdi. Mazkur nashrda olim Alisher Navoiy "Xamsa"sining ayrim o'rinalarini nasriy shaklda bayon etdi va sahifalar ostida sharhlar hamda asarning she'riy qismlaridan parchalar keltirdi. Mazkur nashr 1939-yilda tayyorlangan va 1940 yili lotin alifbosida chop etilgan bo'lib, 1947-yilda esa Solih Muttalibov, Sobirjon Ibrohimov va Porso Shamsiyev kabi olimlar tomonidan asarning nasriy qismlari va

<sup>32</sup> A. Navoiy. Farhod va Shirin. (G'. G'ulom nasriy ifodasi bilan. So'z boshi mualifi H. Olimjon.-T.: O'zSSR Davlat nashriyoti, 1956. 716 b.

<sup>33</sup> Qarang: A. Arslonov. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonining nasriy bayonlari. So'z san'ati jumali. 2019 yil 1-son. 69-75-betlar.

sahifalar ostidagi sharhlar qisqartirilgan va ixchamlashtirilgan holda kirill alifbosida bosilib chiqqan.<sup>34</sup>

Sadriddin Ayniy yaratgan qisqartma nashrda “Xamsa” mazmuniy butunligini to‘la saqlab qolgan va xalqqa tushunarli va soddaroq shakldagi ifodaga ega. Mazkur shakl bir qarashda xalq dostonlarining ko‘rinishini eslatadi, ya’ni nasriy va she’riy qismlardan tarkib topadi. Aynan shunday shakliy tanlanish matnshunosning xalqona uslublarga o‘rgangan ommanning dunyoqarashi, ko‘nikilgan shaklga yana murojaat etish ehtiyojining tug‘ilishi va shu orqali ularning “Xamsa”ni o‘qib-o‘rganishlari uchun sharoit yaratish mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur ish Sadriddin Ayniyning keng xalq ommasini savodli, mumtoz adabiyotni tushunadigan bilimdon va undagi donoliklardan bahramand bo‘lib, ma’nnaviy olamini, hayotini yaxshilash sari burishga hozir bo‘la oladigan komil insonlarni ko‘rishga bo‘lgan kuchli intilishlarini, ulkan xalqparvarlik fazilatlarini namoyon etadi.

Nasriy qismlarda matnshunos dostondagi voqelik bayoniga shikast yetkazmagan holda ko‘proq shoirming g‘oyaviy qarashlarini ifoda etishga intiladi. Masalan, asarning bir o‘midan misol keltiraylik:

“Navoiy ko‘p olimlarning bunday johillarga muhtoj bo‘lganliklarini aytadi, ilmni mansab olishga vosita qilib, zolim beklar va johil amirlarning eshidiga suqlanib yuruvchi nafs quli – mansabparast olimlar to‘g‘risida shunday deydi:

... Ilmni kim vositai joh etar,  
O‘ziniyu xalqni gumroh etar.  
Olim agar joh uchun o‘lsa, zalil,  
Ilmi aning jahlig‘a bo‘lg‘ay dalil.  
Ilm ila kim johg‘a mayl aylabon,  
Bahr suvin xo‘yg‘a tufayl aylabon.  
Itki, erur jiyfada maqsud anga,  
Bo‘lsa, murassa’ juli, ne sud anga?..

<sup>34</sup>. Navoiy A. Xamsa. (Qisqartirib nashrqa tayyorlovchi S.Ayniy). – T.: O‘zdavnashr, 1947. – 432 b.

Dunki, topib ilm rayosat uchun,  
Xil'at etib hulla, nujosat uchun".<sup>35</sup>

Ko'rinyaptiki, Ayniy ijodkor ifoda etmoqchi bo'lgan didaktikani, murakkab tashbehlarsiz, sodda bayon uslubi bilan kitobxonga yetkazish maqsadini ko'zlagan.

Yana ayrim o'rirlarda esa matnshunosning shoir yaratgan betakror tasviriy ifodalar hamda ushbu ifodalar anglatgan ma'no-mohiyatni yetkazish ehtiyojini ham his etganligini kuzatish mumkin. Masalan: «Qays yarim kechalarga borganda hushiga keldi, ammo bu erda gullar, sabzalar va boshqa go'zallar orasida Laylini ko'rmagach, dod deb kiyimlarini yirtadi va o'zining yuziga uradi. Tong otib, kun yorishguncha, dod-faryod qiladi.

Kun yorishgach, gullar, binafshalar, nargislar va sarvlarni ko'rib, ularning ba'zilarini o'z ma'shuqasiga o'xshatib, ularga gapiradi.

Navoiy bularmi tasvirlagach, Qaysning bulbulga gapirgani to'g'risida aytadi:...»<sup>36</sup>, - deb yozadi va asarning o'sha joyidan parcha keltiradi.

Shuningdek, nasriy bayonda asar syujetidagi voqealar rivojining murakkab silsilasi qisqacha bayon etilgan bo'lib, bunda olim asarni soddaroq ko'rinishda ifodalash orqali kitobxon tomonidan osonroq o'zlashtirlishini ta'minlash maqsadini ko'zlaganligi seziladi:

«So'ngra Farhod bilan Shirinning tong otguncha behush yotganliklari va tong otgandan keyin Farhod hushiga kelib, toqqa qarab qochgani, Shirin bo'lsa, uning g'amida azobda qolgani bayon etiladi. Farhod bilan Shirinning munosabatlari to'g'risida shoir aytadi»<sup>37</sup>, - deb ifoda etadi yozuvchi.

Asardan tanlab keltirilgan she'riy qismlar ham ba'zan voqealari bayoni, ba'zan qahramonlar, joy va holatlar tasviri, yana ba'zan esa shoirning falsafiy, ijtimoiy qarashlari ifodasi aks etgan o'rirlardan keltirilgan parchalardir.

Asarni tushunishni osonlashtiruvchi yana bir qulaylik izohlar orqali yuzaga chiqqan. Matnshunoslarning murakkab tarixiy so'zlariga oid lug'at shakliga ega

<sup>35</sup>. Navoiy A. Xamsa. (Qisqartirib nashrga tayyorlovchi S. Ayniy). – T.: O'zdavnashr. 1947. 52-bet.

<sup>36</sup>. Yuqoridaq manba. 203-b.

<sup>37</sup>. Yuqoridaq manba. 142-bet.

bo‘lgan izohlardan tashqari, sahifalar ostida kitobxonga yozuvchining ishoralari mazmuniga oid juda ko‘plab sharhlarni berib o‘tadi. Masalan, «Bu tamanno» birikmasini «Farhod va Shirinni yozish tilagi», deb izohlasa, «Bahri bepoyon» birikmasiga «Farhod va Shirin» dostonini yozish fikri» degan tarzdagи izohni qayd etadi. Shuningdek, sahifa ostida berilgan sharhlarda ijodkorning badiiy mahoratiga, ayrim misra yoki baytlarning mazmuni, badiiy ishoralarning zamini va mohiyatiga oid tushuntirishlar aks etgan, ayrim satrlar yoki baytlarning nasriy bayoni keltirilgan. Masalan, quyidagi sharh fikrimizga asos bo‘ladi: “Muftilarning fatvo (rivoyat qog‘oz)lari: “Ko‘rinishda, kechalari bazm quruladigan bog‘ (shabiston)day ziynatli, ulardagi muhrlar to‘lun oyday yaltiraydi. Lekin diqqat bilan qarasang, u “bog‘ning har tomoni azob bilan to‘la, har bir guli ichidan yuz tikan chiqqan”, deyilgan. Keyingi ikki misrada yana shakl o‘xshashligidan foydalanib, so‘z o‘yinini qo‘llagan: shariat “ayn”, “g‘abn” deyilgan. Haqiqatda arab alifbosi bilan yozganda “ayn” bilan, zarar-ziyon ma’nosida bo‘lgan “g‘arbn”ning ma’nosi birdir.<sup>38</sup> Havoladagi mazkur sharhlar Sadriddin Ayniyning nafaqat matnshunos, tanqidchi, balki yirik nazariyotchi olim, adabiyotshunos sifatidagi salohiyatini namoyon etib turadi.

Ko‘rinyaptiki, Sadriddin Ayniy qisqartma matnni tayyorlashda asar syujetini qisqacha bayon etish va bayonni asl matndan parchalar bilan dalillab borish asosida shakllantirgan bo‘lsa, sarlavhalar ostidagi izohlarni shoir ishoralari manbasi, badiiy mahorat qirralarini namoyon etuvchi misralar mazmunining sharhi, tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning izohi asosida tartibga soladi.

Kitobning so‘ngida “Tarixiy shaxslarga izoh” va “Lug‘at” ilova qilinadi. Asar matnida uchraydigan yigirmadan ortiq tarixiy shaxslar shunchaki qisqacha izohlanmaydi, balki ularning biografiyasi batafsil yoritiladi. Mazkur sharhlar shoir nazarda tutgan tarixiy, ijtimoiy vogelikni teran tushunishga yordam beradi. “Lug‘at”da esa so‘zlarning ayrimlari birgina izoh bilan, ayrimlari esa bir necha

<sup>38</sup>. Navoiy A. Xamsa. (Qisqartirib nashryga tayyorlovchi S.Ayniy). – T.: O‘zdavnashr, 1947. 54-b.

ma'nolari bilan sharhanadi. Ayni paytda lug'at so'zlarning qaysi tildan kirganligi to'g'risidagi ma'lumot aks etganligi bilan ham qimmatlidir.

Muhimi, qisqartma matnda asarning umumiylar mazmuniylar izchilligi buzilmagan. Shoiring g'oyaviy maqsadi to'la-to'kis o'z ifodasini topgan. Shuningdek, matnshunos Sadriddin Ayniyning shoirlig va nosirlik iste'dodi asarning qisqartma bayonini yaratishda ham qo'l kelgan. Nasriy matnni shakllantirgan jumlalarda Ayniyning o'tkir qalam sohibi sifatidagi iste'dodi namoyon bo'lgan. Asarning tanqidiy matnnini tayyorlashda esa uning keng nazariy bilim va teran tasavvurga ega olimlik salohiyati yordam bergan.

Navoiy asarlari nasriy bayonlarini tuzish an'anasi bugungi kungacha davom etib kelayotgan ijodiy jarayondir. Bunga misol qilib navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov tomonidan amalga oshirilgan nasriy bayonlarni<sup>39</sup> keltirishimiz mumkin. Mazkur nasriy bayonning xususiyatlari haqida N. Komilov "Tarjimami yo talqin? ("Xamsa"ning nasriy bayoni xususida)" nomli tadqiqotida to'xtalib o'tadi.<sup>40</sup>

Istiqlol davrida "Xamsa" dostonlarining nasriy bayoni adabiyotshunos olim A. Hojiahmedov tomonidan ham amalga oshirildi. Mazkur nasriy matnda "kirish va xulosa qismlari tushirib qoldirilgan, asardagi cho'zilib ketgan ba'zi o'rinnlar: manzaralar, monologlar ixchamlashtirilgan. Bu xil yondashish dostonlarning to'liq tushunilishiga imkon bermaydi. Ular hakida keng ma'lumot hosil qilish uchun dostonlarning to'liq nasriy bayoni, qolaversa, albatta, Navoiy dostonlarining o'zi bilan mukammal tarzda tanishish lozim. Ushbu kitob esa dostonlar mazmunini osonroq tushunib olishga yordam beradi, xolos. Lekin A. Hojiahmedov nashriining o'tgan asr nasriy talqinlaridan keskin farq qilib turadigan bir jihatunda bugungi kun nafasi ufurib turibdi, u muayyan mahdudliklardan xoli bir nasriy talqindir".<sup>41</sup>

Xulosa qilib aytganda, nasriy bayon ijodiy jarayon sifatida she'riy asarning, ayniqsa, mumtoz matn mag'zini "chaqish"da kitobxonga ko'makka kelishi bilan

<sup>39</sup>. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A. Hayitmetov. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1974.

<sup>40</sup>. Komilov N. Tarjimami yo talqin? ("Xamsa"ning nasriy bayoni xususida) / Xizr chashmasi. – T.: Ma'naviyat, 2005. 283-300-betlar.

<sup>41</sup>. Arslonov A. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonining nasriy bayonlari // So'z san'ati. 2019 yil 1-sod. 69 -75-betlar.

ahamiyatli. Har qanday nasriy bayon asl matning o‘rnini bosa olmasa-da, asl manba muallifining ijod laboratoriysi bilan, undagi kitobxon uchun sirli va murakkab bo‘lib tuyulgan jihatlar bilan o‘quvchini tanishtiradi. Boshqacha qilib aytganda, nasriy bayon asl manba muallifi va kitobxon o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy ijodi yuzasidan olib borilgan barcha ilmiy tadqiqotlar, nasriy bayonlar, yaratilgan lug‘atlardan ko‘zlangan yagona maqsad – ulug‘ shoirning badiiy mahoratini o‘rganish, asarlarida ilgari surilgan o‘lmas g‘oyalarni targ‘ib qilish ....va hokazolardan iborat. Bugun ulug‘ shoir asarlarini butun nafosati bilan o‘rganishda esa har bir kitobxon – o‘quvchining faolligi kuzatilmas ekan, biz Navoiydan uzoqlashishimiz turgan gap. Buning oldini olishning yagona yo‘li – shoirning xoh katta-kichik, xoh nasriy yoki nazmiy asarlari bo‘lsin, ularni sharhli o‘qish orqali so‘z san’atkori zabit etgan buyuk cho‘qqining salobatini his qilishimiz mumkin.

Quyida esa “Xamsa” dostonlarini sharhli o‘qishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan tavsiyalarni berib o‘tamiz:

1. Mumtoz asarlarni tushunishdagi ilk bosqich – matnlarni ifodali o‘qishdir. Chunki ifodali o‘qish nazmiy asardagi go‘zallikkarni his qilish, muallifning badiiy niyatini to‘la anglash, matnning g‘oyasini tushunish, aniqrog‘i, matnni to‘la idrok qilish uchun ko‘maklashadi.

2. Doston liro-epik turga mansub. Unda ma’lum voqeа-hodisalar tasvirlanadi. Shuning uchun doston tahlili yoki uni sharhli o‘qishda lirik tur tahlilida qo‘llangan usullar mos kelmasligi tabiiy. Agar g‘azal tahlili baytma-bayt amalga oshirilsa, dostonda ma’lum bir voqeа-hodisani qamrab olgan bir necha baytlar birgalikda sharh va tahlil qilinishi lozim.

3. “Xamsa” dostonlarining sharhida har bir bob uchun yozilgan nasriy sarlavhaning o‘rni va unda qo‘yilgan muammolar doirasini aniqlashtirib olish zarur. Nasriy sarlavhada qo‘yilgan masalalarning masnaviy baytlardagi ifodasini solishtirib o‘rganish darkor.

4. Alisher Navoiy dostonlarining tabdil matnlari amalga oshirilgan. Albatta, mazkur matnlar dostonlarni sharhli o'qishda kitobxonga yordamga keladi. Biroq navoiyshunoslikda amalga oshirilgan barcha tabdil matnlari shoirning maqsad-muddaosini to'la yoritib bergen deb bo'lmaydi. Shuning uchun dostonlarni sharhli o'qishda tabdil matnlarga erkin va ijodiy munosabatda bo'lib, asosan, asl matn bilan ishslash zarur.

5. Dostonlar boblardan tashkil topgan. Boblar dostonlarning o'ziga xos struktur tizimga egaligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, tahlillar jarayonida ba'zi boblar ichki qurilishi nuqtayi nazaridan yana tarkibiy qismlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun sharhli o'qish jarayonida boblardagi bu xususiyat ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

6. "Xamsa" dostonlarining juda ko'p o'rinnlarida Qur'on oyatlari va hadislardan iqtiboslar yoki ma'lum bir so'zlar orqali ularga ishoralar mavjud. Tahlil jarayonida iqtiboslarni manbalar bilan solishtirib o'rganish talab etiladi.

7. Tasavvufiy istilohlar, ularning zamiridagi botiniy ma'nolarni sharhli talqin qilish maqsadga muvofiq.

8. Navoiy asarlarining tili murakkab. Shuning uchun dostonlarda izohga muhtoj bo'lgan so'zlarning lug'atini tuzish va sharhlash jarayonida ulardan foydalanish.

9. Dostonlar tahlilida sharhning ilmiyligi juda muhim. Buning uchun tahlil qilinayotgan matn xususida navoiyshunoslikda bildirilgan fikrlarga munosabat bildirish ham tahlilning yuqori saviyada bajarilishiga xizmat qiladi.

10. Tahlil jarayonida chog'ishtirish, qiyoslash badiiy matnning mohiyatini teranroq tushunishga ko'maklashadi. Ayniqsa, mumtoz matnlar tahlilida bu usul yaxshi natija beradi. Shuning uchun Navoiy dostonlarining tahlilida ma'lum bir mavzuni dostonlararo yoki muallifning boshqa asarlari yoxud boshqa bir muallifning tahlil qilinayotgan mavzuga mos matni bilan qiyoslab o'rganish va ijodkorming ijodiy o'ziga xosligini ta'minlagan omillarni asoslash.

11. Adabiyotshunoslik - ilmi badi', ilmi qofiya va ilmi aruz nazariyasiga oid nazariy bilimlardan xabardorlik mumtoz matnlar tahlili uchun juda muhim. Nazariy bilimlarga asoslangan tahlil esa ilmiyligi bilan ajralib turadi.

Badiiy matn badiiyat vositalarisiz hosil bo'lmaydi. Shuning uchun matn, xususan, mumtoz matn ustida ishlaganda tasviriy vositalarning turlari, qo'llanish sabablari va matn badiiyatida tutgan o'mniga ham e'tibor qaratish lozim.

12. Navoiyshunoslikda "Xamsa" dostonlarining tahlil va talqinlari borasida angchagina ishlar amalga oshirilgan. Albatta, bunday tadqiqotlarni o'rghanish, ularga munosabat bildirish maqsadga muvofiqdir.

13. Mumtoz matn tahlilida asliyatdan uzoqlashmaslik lozim. Asliyatdan uzoqlashish tahlil va talqinning sun'iyligiga, muallif niyatini tushunmaslikka olib keladi.

14. Alisher Navoiy asarlarining mukammal tahlil va talqinini amalga oshirish uchun, albatta, Navoiyning hayoti va ijodini chuqr bilish kerak. Chunki adibning har bir asarida muallif shaxsi, dunyoqarashi, hayotiy xulosalari o'z ifodasini topgan.

#### *Savol va topshiriqlar:*

1. "Nasriy bayon" tushunchasi nega iste'molga kirgan deb o'ylaysiz?
2. A. Navoiy "Xamsa"sining nasriy bayonlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Umar Boqiyoning navoiyshunoslikdagi xizmatlari nimalardan iborat?  
U A. Navoiyning qaysi asarlarini nasriylashtirdi?
4. Umar Boqiyidan tashqari yana kimlar "Xamsa" asarlarini nasriylashtirgan?
5. Mir Mahdum ibn Shohyunusning navoiyshunoslikdagi xizmatlari nimalardan iborat?
6. "Tabdil matn" deganda nimani tushunasiz, uning nasriy bayondan farqi bormi?
7. "Xamsa" dostonlarining tabdil matnlari kimlar tomonidan amalga oshirilgan?
8. Tabdil matnlar kimga mo'ljallangan deb o'ylaysiz?

9. A. Navoiy asarlari o'qish va uqish jarayonida tug'ilgan murakkabliklarning sabablarini qanday izohlaysiz?
10. Sizningcha Hazrat Navoiyni asarlarini qanday shaklda o'qigan ma'qulroq?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Matn va manbalar:

1. Navoiy A. Xamsa. (Qisqartirib nashrga tayyorlovchi S.Ayniy). –T.: O'zdavnashr, 1947.
2. Navoiy A. Xamsa. –T.: O'z. SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960.
3. Navoiy A. Farhod va Shirin. (G'. G'ulom nasriy ifodasi bilan. So'z boshi muallifi H. Olimjon. –T.: O'zSSR Davlat nashriyoti, 1956.
4. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A. Haytmetov. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
5. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. VII jild. Hayrat ul - abror. –T.: "Fan", 1991.
6. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (nasriy bayoni bilan). –T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2006.

### Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. A. Arslonov. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonining nasriy bayonlari. So'z san'ati jurnali. 2019 yil 1-son. 69-75-betlar.
2. Vohidov R. Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –T.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
3. Komilov N. Tarjimami yo talqin? ("Xamsa"ning nasriy bayoni xususida). Xizr chashmasi. – T.: Ma'naviyat, 2005.
4. Solihova H. Alisher Navoiy izdoshlari. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –T.: Tamaddun, 2018.

6. Tojiboyeva Ozoda. Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayonlari: prinsiplari, mezonlari, usullari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2019.
7. Fitrat A. “Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida”. Tanlangan asarlar. II-jild. – T.: Ma’naviyat, 2000.
8. Erkinov A. Alisher Navoiy “Xamsa”si talqini manbalari (XV-XX asr boshi). – T.: Tamaddun, 2018. 37-bet.
9. Hayitov A. Alisher Navoiy “Xamsa”sini nasriylashtirish: an’ana, tabdil va talqin. Filol.fan.nomz. diss. – T.: 2000.
10. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug‘ati. Toshkent. “Davr press” HMU. 2013.
11. Qayumov A. “Hayrat ul-abror” talqini. – T.: Adabiyot va san’at, 1985.
12. Qodirjon Ergash. «Nasri xamsayi benazir”. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2009 yil 51-son.

**2-mavzu: “HAYRAT UL-ABROR”NI SHARHLAB O‘QITISH  
REJA:**

1. “Hayrat ul- abror” dagi basmala bobining sharhli tahlili
2. “Hayrat ul-abror” dostonining hamd bobini sharhlab o‘qitish
3. “Hayrat ul- abror”ning munojot boblari tahlili va ularni sharhlab o‘qitish
4. Na’t boblarining tahlili va ularni sharhlab o‘qitish
5. Ko‘ngil ta’rif bobti tahlili
6. “Uch hayrat” sharhi

**12.1.**

**“HAYRAT UL -ABROR” DAGI  
BASMALA BOBINING SHARHLI  
TAHLILI**

**Tayanch tushunchalar:** Basmalayi sharif, Qur’on, Hadis, hamd, sharh, qiyos, tahlil, talqin, ta’vil, an’ana, payravlik, she’riy sharh, harf, hurufiylik, “ahli

qabul”, “ahli rad”.

Sharq mumtoz adabiyotida matn yaratish prinsiplari asosida kitobatchilik rivojlangan. Matnshunoslikning qat’iy prinsinlari Turonzaminga islom dini va arab yozuvi bilan birga kirib keldi. Islom madaniyatida kitobat san’ati alohida e’tiborga loyiq soha bo‘lib, matn tuzishning o‘ziga xos qat’iy strukturasi ishlab chiqilgan edi. Basmala, hamd, na’t, bag‘ishlov kabi asarlarning kirish qismiga taalluqli qoidalar yuzaga keldi.<sup>42</sup> Bu qoidalar qat’iy prinsipga aylandi va XX asrning boshlariga qadar davom etdi. Jumladan, Alisher Navoiyning “Xamsa” asari ham shu mezon asosida yaratilgan. Dostonda dastlab basmalayi sharifning ta’rifi keltirilgan.

Ma’lumki, Alloh taolo Qur’oni Karimni Bismillohir Rahmonir Rahiyim jumlesi bilan boshlagan. Bu esa musulmonlarga o‘rnak, ya’ni har doim o‘z so‘z va ishlarini “Bismillah” bilan boshlamog‘i lozim, demak. Zero, Hazrati payg‘ambarimiz hadislaridan birida: “E’tiborli har bir ish “bismillah” bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir”, ya’ni barakasi bo‘lmaydi, oxiriga yetmaydi, deb qat’iy ta’kidlaganlar. Modomiki shunday ekan, Alisher Navoiy buyuk “Xamsa” asarining ilk dostoni “Hayrat ul-abror”ni ham “Bismillohir Rahmonir Rahiyim” bilan boshlashi tabiiy bir hol edi. Shubhasizki, bu ish xamsanavis salaflardan Navoiyga an’ana sifatida yetib kelgan.

Ma’lumki, xamsachilik Yaqin va O’rta Sharq xalqlari adabiyotida uzoq tarixga ega bo‘lgan adabiy an’anadir. Bu an’anani ulug‘ ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy boshlab berdi. Nizomiydan keyin “Xamsa” yaratish kuchli bir adabiy hodisaga aylandi. “Xamsa” yozish uchun besh dostonning o‘zi kifoya qilmas edi. Bu dostonlar nomi, janri, vazni, syujeti, obrazlari bilan Nizomiyning dostonlariga o‘xshash bo‘lishi va ayni zamonda Nizomiy “Xamsa”sining takrori bo‘lmasligi lozim edi. Demak, juda murakkab va mas’uliyatli bu an’anani ko‘pchilik davom ettira olmadi. Xamsachilikda Nizomiydan keyin, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy shuhrat qozondi. “Xamsa”ga javob aytishda Nizomiy yo‘lini ma’qul ko‘rgan Alisher Navoiy daho shoirning ijod tajribasidagi, albatta, alohida e’tiborga molik

jihatlariga diqqatni qaratdi. Hatto “Bismillohir Rahmonir Rahiyim”ning she’riy sharhini berishda ham unga izdoshlik yo’lini tutdi. Chunonchi, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostoni quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Bismillohir Rahmonir Rahiyim,  
Hast kalidi dari ganči hakim.  
Fotihai fikratu xatmi suxun,  
Nomi xudoy ast, ba o’ xatm kun.<sup>43</sup>

(Mazmuni: Bismillohir rahmonir rahim - Hakim (Alloh) xazinasi eshigining kalitidir. Tafakkurning boshlanishiyu, so‘zning oxiri Xudoning nomi bilan bog’liq, Unga bag’ishla).

Nizomiy Ganjaviyga payravlik qilgan Xisrav Dehlaviy ham uning yo‘lidan bordi. Bu xususda tojik adabiyotshunosi M. Baqoyevning fikrlari diqqatga sazovor: “dar dostoni avvali “Xamsa” – “Matla’ ul-anvor” shoir dar xususi qasdi ba “Xamsa”i Nizomi nazira navishtanash chunin gufta ast:

Garchi ba mulki adab az “Panch Ganch”,  
Navbati on Ganchanishin gasht panch,  
Navbati Xusrav ki ba panchash nav ast,  
Panchazadan navbati on Xusrav ast.<sup>44</sup>

Darhaqiqat, Amir Xusrav Dehlaviy ham o‘z beshligining ilk dostonini Bismillohir Rahmonir Rahiyimning yangicha she’riy izohi bilan boshladi.<sup>45</sup> Navoiy ustozlar tajribasiga ehtirom bilan qaragan holda, ijodiylikni bosh mezon bilib, har bir masalaga o‘z shaxsiy nuqtayi nazaridan yondashdi. Buni “Hayrat ul-abror”ning birinchi bobidagi “Bismillohir Rahmonir Rahiyim” sharhida ham ko‘rish mumkin. Ulug‘ shoir Basmalayi sharifning she’riy sharhida Bismillohir Rahmonir Rahiymdagi har bir harfning ilohiy-irfoniy mohiyatini yoritishga harakat qildi, kitobat san’ati vositasida har bir harfga badiiy-estetik vazifa yukladi, natijada

<sup>43</sup> Nizomi Ganjavi. Kulliyot. Dar panj child. Childi panchum. – Dushanbe, 1984. 256 s.

<sup>44</sup> Baqoyev M. Hayot va echodiyozi Xusravi Dehlavi. – Dushanbe, 1975. 115-116 s.

<sup>45</sup>. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994. – 208 bet. 46-b.

ilohiy jumlaning betakror ma'rifiy-irfoniy talqini vujudga keldi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda arabcha harflardan foydalaniib, timsol yaratish san'ati *kitobat* deyiladi. Bunda shoir arab alifbosidagi harflarning shakliy xususiyatlari va tasvirlanayotgan obekt o'rtasidagi o'zaro mushtarak jihatlarni topib, ularni tasvir vositasiga aylantiradi va o'z g'oyaviy niyatini ifodalashga xizmat qildiradi.

XV asrda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida hurufiylik g'oyalari keng tarqalgan edi. Bu davrda yaratilgan ko'pgina badiiy asarlarda, hatto, ayrim ilmiy asarlarda ham ushbu suluk g'oyalaridan ta'sirlanishni ko'rish mumkin. Jumladan, bu o'rinda Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy" asarini qayd etish joiz. Mazkur asarda shariat, tariqat, haqiqat, tasavvuf, so'fiy kabi bir qancha tasavvufiy istilohlarning harfma-harf ma'nolari keltirilgan. Demak, bu, albatta, XV asrda o'zbek mumtoz adabiyotida hurufiylikning sezilarli ta'siri borligini ko'rsatadi. Tabiiyki, ushbu ta'sirni ulug' shoir Alisher Navoiyning falsafiy-tasavvufiy qarashlarida ham ko'rish mumkin. "Albatta, XV asr adabiyoti namoyandalari, jumladan, Jomiy va Navoiy ijodiyotida kitobat san'ati qo'llanilishini hurufiylik ta'limotining ma'lum ma'noda ta'siri deyish mumkin. Ammo har bir adabiy hodisaning paydo bo'lish va rivojlanish sabablarini aniqlash uchun uni o'sha zamonning tarixiy-g'oyaviy muhiti mantiqi bilan asoslash kerak. Har bir adib fikrlarini o'zi yashab ijod qilayotgan muhitdan olingen obraz va badiiy tasvir vositalari yordamida ifodalaydi... Shohrux Mirzoning Ahmadi Lur ismli hurufiy ta'limot vakili tomonidan pichoqlanishi, mashhur so'fiy shoir Shoh Qosim Anvorning hurufiylikda ayblanib, Samarcandga badarg'a qilinishi, Navoiyning zamondoshi, "Axloqi Jaloliy" muallifi Jaloliddin Davvoniyning "Risolat al-huruf" (Harflar haqida risola) deb nomlangan asar yozishi Xuroson va Movarounnahrda XV asrda ham hurufiylik ta'siri ancha kuchli bo'lgan, deyishimizga asos bo'la oladi".<sup>46</sup>

"Hayrat ul-abror" dostonida keltirilgan Basmalayi sharifning she'riy sharhi g'oyaviy-badiiy jihatdan bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan. Filologiya

<sup>46</sup>. Davlatov O. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqini. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertasiysi. – T., 2017, 56-bet.

fanlari doktori Alibek Rustamov “Bismillohning ma’nosи” risolasida “Hayrat ul-abror”dagi “Bismillahir Rahmonir Rahiyim”ning sharhini baytma-bayt izohlab, tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati va Navoiy tomonidan qo‘llanilgan badiiy san’atlarni qayd etib borgan.<sup>47</sup>

Professor Rahim Vohidov esa nisbatan boshqacha mulohazalarini ilgari suradi: “Bismillahir Rahmonir Rahiyim”ni yozuvda ifodalash uchun ishtirok etadigan har bir harf va belgiga ikki qutbdan nazar tashlanadi, yaxshi-yomon jihatlari oshkor etiladi”,<sup>48</sup> Olim she’riy sharhdagi **alif, be, sin** harflari bilan bog‘liq baytlarni ezgulik va yovuzlik tushunchasi asosida tahlil etadi.

Taniqli olim Sultonmurod Olim ham Basmalayi sharifning she’riy sharhini baytma-bayt tahlil qilib, undagi harflarning zohiriylar ko‘rinishlari bilan bog‘liq tashbehlarni alohida qayd etib: “Arabiylar shakllari ham shoir xayoloti kuchi bilan shu qadar go‘zal tashbehlaru teran ma’nolar ifodasiga asos bo‘lgan birgina bob misolida ham ko‘rish mumkinki, Navoiy ijodidagi arabiy yozuv-harflaru harakatlaru nuqtalar bilan bog‘liq timsollar poetikasini maxsus o‘rganish kerak”, deydi.<sup>49</sup>

Bismillahir - Rahmonir - Rahim,  
Rishtag‘a chekdi necha durri yatim.<sup>50</sup>

Ma’lumki, Basmalayi sharif barcha ilohiy sifatlar va kitoblarning sirlarini jam’ etgan muborak kalimadir. Sahih hadislardan birida qayd etilishicha, Bismillahir Rahmonir Rahiyim nozil bo‘lganida shamollar esishi to‘xtagan, daryo va dengiz suvlari to‘lqinlanib, bulutlar mashriq tomonga qarab harakatlangan ekan. Alloh taolo jalol sifati bilan qasamyod etib, kimki ushbu ilohiy kalimani tilga olsa, albatta, unga barokatlar ato qilishini aytgan.<sup>51</sup> Shu bois ulug‘ shoir ham

<sup>47</sup>. Aliybek Rustamiy. “Bismillah”ning ma’nosи. – Toshkent: Cho‘pon, 1993. – 28 b.

<sup>48</sup>. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994. 46-51 b

<sup>49</sup>. S. Olim. “Xamsa”ning “Bismill...”si // Ma’rifat. 2002, 13 – fevral.

<sup>50</sup>. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. VII jild. – T.: 1991. – 11 bet. Bundan keyingi iqtiboslar shu manbadan olinadi.

کاسیرنى ىسىمۇل ئابۇلپىدو خەفیز جەلەپ نەزەرەتلىكلىرىنىڭ ئەندامىسى مەنچىزلىق بىكىل ئەنۋەتلىق ئەندامىسى

ал - Курайший ал - Дамашкий. Тафсир ул - Куръон ил - Азим. IV жилдлик, I жилд. – Бейрут: Ал-мактаба ал-асрия, 1998. 37-39- бет.

Basmalayi sharifning harflari va ular anglatadigan purma’no so‘zlarni “durri yatim” (yirik inju donasi)ga tashbeh etgan.

Har dur anga javhari jondin fuzun,

Qiymat aro ikki jahondin fuzun.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)dan Bismillohir Rahmonir Rahiyim haqida so‘raganlarida u kishi bu Alloh ismlaridan biri bo‘lib, Xoliqi olamning Akbar ismi va basmala orasi ko‘zning oqu qorasi kabitdir, deb aytdilar. Demak, Allohnинг ulug‘ qudratini ifodalaydigan ushbu muqaddas kalom Navoiy nazzida hamma narsadan: “javhari jondin” va “ikki jahondin” ortiq. Shoir tavze’ san’ati orqali fikr ta’sirchanligiga erishgan.

Rishtasi xud iqdi jahon rishtasi,

Dema jahon rishtasi, jon rishtasi.

Bunda jami mavjudotning bir-biriga bog‘liqligi va bu esa bevosita Haq taologa borib taqalishi, shuningdek, ayni bog‘liqlikni Bismillohir Rahmonir Rahiyimning harflari tutib turganligiga ishora qilingan. Shoir *ruju'* sana’ti vositasida “jahon rishtasi”ning va “jon rishtasi”ning uzviy bog‘liqligini ta’kidlagan.

Ganji baqo zikriga ulkim yetib,

Bu dur ila rishtani tasbih etib.

Ma’lumki, boqiylik Haq taolo sifatlaridan biri, tasavvufda unga yetishish ishtiyoqi bilan yongan solik ham ushbu basamalai sharif zikri ila maqsadga erishadi. Ammo, oshiq o‘zligidan kechib, bu muqaddas kalomni tasbih kabi uzluksiz zikr etishi joiz. Ibn Jarir rivoyat qilgan sahib hadis ham bu fikrni dalillaydi: “Jabroil payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga dedi : “Ey Muhammad, Alloh zikrini Bismillohir Rahmonir Rahiyim bilan boshla, shu zikr bilan o‘tir va tur”, dedilar”.<sup>52</sup>

Rishta emas, turfa kamandedur ul,

52. *شَهْرُ قِيلَارِ رَبِيعُ الْأَنْجَوْلِيِّ بْنِ الْأَنْجَوْلِيِّ يَحْيَى لِعَلَى مُقْتَدَارِيِّ أَفْلَامِ لَيْلَةِ الْمَرْيَجِ لِرَوْزَدَلِيِّ يَوْمَ الْمَرْيَجِ*. Касир ибн Исмоил Абулфидо Ҳофиз Жалил Ином ал - Курайший ал - Дамашкий. Тафсир ул - Куръон ил - Азим. IV жилдик, I жилд. – Бейрут: Ал-мактаба ал-асрия, 1998. – 31-34- 6.

## Davlatu din saydig‘a bandedur ul.

Demak, ushbu zikr insoniyatga Haq taolo tomonidan berilgan ulug' ne'mat. Chunki odamlar Bismillohir Rahmonir Rahimy orqali ham dunyoviy, ham uxraviy murodlarga erishadi.

Qaysi kamand, o'lmadi hargiz kamand,

Ravzai firdavs g'azolig'a band.

Diniy manbalarda Bismillahir Rahmonir Rahiymining har bir harfi uchun bitta jannat hoziru nozir qilinishi haqidagi fikrlar mavjud.<sup>53</sup> Shuning uchun hazrat Navoiy ham “Ravzai firdavs g’azolig‘a band” misrasi orqali Basmalayi sharifning insoniyat uchun oxirat mag‘firatini qozonishdagi ahamiyatini ko‘rsatib bergen.

Bal arig‘edurki oqar jon suyi,

Yo'q, demaki jon suyi, hayvon suyi.

Sahih rivoyatlarga ko‘ra, Muhammad (s.a.v) payg‘ambar me’roj kechasi to‘rt ariqni ko‘rganlar va ushbu ariqlarning oq marvariddan bino bo‘lgan ulkan gumbaz ichidan chiqishiga, uming devorlarida “Bismillahir Rahmonir Rahiyim” so‘zлari yozilgan bo‘lib, to‘rt ariqning manbasi shu basmala ekanligiga guvoh bo‘lganlar. Shuningdek, jannat va undagi ariqlar xususida Qur’oni Karimda ham fikrlar mavjud. Shoир shu manbalarga tayanib, “hayvon suyi” – abadiy hayot suvining asosi Bismillahir Rahmonir Rahiyim deydi:

Ul suv yaqosida alifdin shajar,

## Shamrasidin ul shajar uzra samar.

Shoir basmaladagi aliflarni daraxtga o'xshatgan. Aytishlaricha, hazrat payg'ambarimiz me'rojga ko'tarilganda, Sidratul muntaho daraxtini ko'rganlar. U juda ulug' bo'lib, hech kim bu daraxt husnini tavsif qila olmas ekan. Uning shoxlari arsh toqiga, asli yettinchi qavat yerning ostida ekan. Navoiy "Ul suv yaqosida alifdin shajar" deb, shu Sidratul muntahoni nazarda tutganki, "Me'rojnomasi"dagi quyidagi fikrlar buni dalillaydi : "Ul daraxt ostida kofurdin

Касир ибн Ислом Абулфидо Ҳофиз Жалил И мом <sup>55</sup> ал-Кашшади аль-Адаби аль-Мукир ل رشیدهيله ي .  
ал - Курайший ал - Дамашкий. Тафсир ул - Куръон ил - Азим. IV жилдлик, I жилд. – Бейрут: Ал-мактаба ал-асрия, 1998.  
– 45-46- б.

masjidini ko‘rdumki, uzunlig‘i yetti ming yillik yo‘ldur. Va ul masjidni atrofida dunyoni ko‘rdumki, ani kanori paydo ermas va u daryoni suvi suttin oqroq va asaldin shirinroq va mushkdin xushbo‘yroq va qordin sovuqroq”<sup>54</sup>.

Yo‘qki o‘shul rishtai gavhar baho,

Ganji ilohiyg‘a erur ajdaho.

Xalq og‘zaki ijodi asarlarida xazinalarni ajdarhoyu ilonlar qo‘riqlashi bilan bog‘liq fikrlar ko‘p uchraydi. Shoир ana shu tafsilotlarga yangicha yondashib, “Ganji ilohiy”ga erishmoq uchun qalbni iflos tuyg‘ulardan poklab, nafsni jilovlashga e’tibor qaratadi. Chunki “Ganji ilohiy”ning “ajdarho”si basamalai sharifdir. Uni sidqan zikr etish bilan mavh aylab, “Ganji ilohiy”ga sohib bo‘lmoq mumkin.

Yoki bular barchasi ta’vil erur,

Arshi muallo aro qandil erur.

Shoir nazdida Bismillohir Rahmonir Rahiyim nafaqat “Ganji ilohiy” “ajdarho”si, balki “Arshi muallo”ni ham charog‘on aylaguvchi ilohiy nur – “qandil”.

Balki bu qandil aro aylab ayon,

Bog‘i ahad foxtasi oshyon.

Ma’lumki, Ahad – Alloh taoloning tayhid, yagonaligini ifodalovchi sifat. Uning bu sifati Qur’oni Karimning “Ixlos” surasida o‘z ifodasini topgan. Demak, Basmalayi sharif shunday buyuk zikrki, undan Xoliqi olamning vohid zot ekanligini anglash mumkin. Haq taloni jami mavjudot zikr etadi. Navoiy ta’biricha, hatto “foxta” – musicha ham o‘z sayrog‘ida Bismillohir Rahmonir Rahiyimni jo etgan.

Yo‘qki erur maxzani vahdatqa yo‘l,

Yo‘lu ne yo‘l, asru yaqin yo‘ldur ul.

Allohga yetishish yo‘lining eng yaqini manzuri – Bismillohir Rahmonir Rahiyimning zikri. Zero, Alloh taolo Ibrohim (a.s) manjaniqda ekanida Basmalayi

<sup>54</sup> Me’rojnama (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izoh mualliflari: Ibrohim Haqqul, S. Raf‘iddin. – T.: Yozuvchi, 1995. 86-bet.

sharif tilovati bilan olov taftini pasaytirdi, Sulaymon (a.s) ushbu ilohiy jumla bilan Bilqisga maktub yuborib, uning iymon keltirishiga erishdi. Qur’oni Karimda esa bu muborak kalima vositasida suralar bir-biridan ajratildi.

Lekin erur ham qatiqu ham maxuf,

O‘ylaki ojiz durur andin vuquf.

Allohni anglash va unga yetishish yo‘li xavfli va mashaqqatli ekanligini inobatga olmoq zarur. Shunday ekan, hamma ham ushbu bosqich darajalarini o‘tab maqsadga erisha olmaydi.

Qilg‘uchi bu bodiya qat’ig‘a mayl,

Ahli qabulu rad erur ikki xayl.

Haq taoloning inoyatiga musharraf bo‘lmoq uchun hamma ushbu yo‘lga qadam qo‘ydi. Bu yo‘l esa yorqin, ayni damda mashaqqatli edi. Shuning uchun shoir bu talabgorlarni ikki toifa: “ahli qabul” va “ahli rad”ga ajratdi.

Azmig‘a chun qo‘ydi qadam ahli rad,

Rahbari tavfiqdin o‘lmay madad.

Maqsad sari “ahli rad” qadam tashladi, ammo “rahbari tavfiq”dan madad tilamay, Bismillohir Rahmonir Rahiyim qudratini anglamay yo‘lga chiqdi.

“**Bo**”si ibodin urar avval salo,

“**Yo**”ki degaylo ne bo‘lur juz balo.

Arab alifbosining ikkinchi harfi bo‘lgan “Be”ning abjad hisobidagi qiymati ham ikkadir. Hurufiy larga ko‘ra, ushbu harf Allohning ikki sifati: jalol va jamolni aks ettiradi. Jamol – Haq taoloning lutf, karam, rahm kabi sifati bo‘lsa, jalol – ulug‘lik bilan birga qahr, g‘azab, jabr sifatlarini qamrab oladi. Demak, “ahli rad” uchun qahr g‘azab hamda balo ofatidan o‘zga narsa yo‘q. Bu o‘rinda bir mulohazani qayd etish lozim. Ushbu baytning ikkinchi misrasida “Bismilloh”ning “I”sini ifodalovchi “yoy” keltirilgan. Ammo arab yozuvida “bismilloh”so‘zida “I” harfi yozilmaydi. Shuning uchun olim Porso Shamsiyev nashriga murojaat etdik. Darhaqiqat, ushbu kitobda yuqorida bayt quyidagicha berilgan:

“**Bo**”si ibodin urar avval salo,

“Bo”ki degaylor ne bo•lur juz balo.<sup>55</sup>

Demak, shoir nazdida Allohnning qahr-g'azabidan ortiq balo, ofat yo'q. Anglashilyaptiki, baytda "ahli rad"ning dunyoviy va uxroviy azoblari ta'kidlagan.

“Sin”i nahang arqosining arrasi,

Yuz kemaning ofati har parrasi.

Alloh taolo yakkayu yagona, hamma narsaga qodir zotdir. U xohlagan ish bo‘lmay qolmaydi. U benuqsondir, qilgan va qilayotgan ishlari bexatodir. Modomiki shunday ekan, “ahli rad” uchun “sin” – yuz ofatlar keltiruvchi nahang kabidir. Zero, “sin” shahodat olamining quvvatini tamsil aplaydi. Muhammad (s.a.v) ham “Bismilloh”dagi “sin” – Allohning buyukligini, har ishda qodirligini ko‘rsatadi, deb aytganlar<sup>56</sup>.

“Sin” bila “Mim” i yo‘lida ko‘p humum,

Yo'li humum aningu eli samum.

Hurufiyarda “sin” bilan “mim” birga kelib, tavba tazarru ila jannat va uning shohiy ne’matlariga erishish nazarda tutiladi. Demak, shoir “yo‘li humum” va “eli samum” ofatlaridan saqlanish uchun tavba-tazarru lozimligini ta’kidlash bilan Allohnинг rahmdil va mehribon zot ekanligini uqtirgan.

“Mim”i yiloni damidin o‘t sochib,

Yo'l boshida yotibon og'zin ochib.

“Mim” (♂) ba’zi o‘rinlarda Muso (a.s)ning hassasi sifatida ham tilga olinadi<sup>57</sup>. Qur’oni Karimning “Toha”, “Naml” suralaridagi Muso (a.s)ga doir qissalarda hikoya qilinishicha, hazrati Muso (a.s) hassaga tayanib qo‘ylariga o‘t-o‘lan to‘plardilar. Bir kuni ilohiy xitob keldi : “Ey Muso, qo‘lingdagini yerga tashla”. Muso (a.s) hassani yerga tashlagan edilar, u o‘ralib turgan bir ilonga aylandi. Hazrati Muso o‘z hassalarining ilonga aylanib harakat qilayotganini ko‘rib, qo‘rqib qocha boshladilar. Ilohiy sas esa yana takrorlandi – “qo‘rqma, uni ol. U senga hech bir zarar yetkazmas. Hazrati Muso (a.s) orqalariga qaytib ilonni

<sup>55</sup>. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: O'z. SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960. – 16 b.

کاسیر ابن ایسونل بیانیه طبلیق الدین ایشانیه کیم لار سریقہلا ی مکہ  
ال - کرایحیل ал - داماشکیل تافسیر یل - ازیم. IV жилдак, І жилд. - Бейрут: Ал-мактаба ал-асрیя. 1998.  
46-47.

<sup>57</sup>. Schimmel Annemarie. *İslamın mistik boyutları*. – İstanbul, 2004. – 438 s.

ushladilar. Hassa yana o‘z holiga qaytdi. Navoiy shu qissaga asoslanib, Alloh taoloning har narsaga qodir zot ekanligiga yana bir karra e’tiborni qaratadi.

Uch “**alif**”, uch “**lom**”i solib rustaxez,

Olti jihatdin chekibon tig‘i tez.

Basamalayi sharifda uchta “**alif**”, “**lom**” (al) bor. “**Lom**” risolatga tegishli harf bo‘lib, oxirat darajalari, oxirat ahlining maqomlari, savoblarini aks ettiradi<sup>58</sup>. Shoir “ahli rad”ga oxirat va undagi maqomlar haqida eslatib, ularni hushyor bo‘lishga chaqiradi.

“**He**”lar uchi qatl ishida tez o‘lub,

Rumh uchidek har biri xunrez o‘lub.

“**He**” (ه) harfi ziddan nafrat uchundir. Shuningdek, u qabz harflari guruhiga mansub bo‘lib, kufr va zulmat ahlini iymonga da’vat etib, qo‘rqitishni tamsil etadi. Navoiy “ahli rad”ni Alloh yagonaligini tan olmoqlikka chaqiradi. Aks holda ularni turli azoblar kutayotganligini “**He**” harfining ramziy ifodasi orqali ishora etadi.

“**Re**”larikim zohir etib iqtiron,

Fosh o‘lub ondin zarari begaron.

Hech shubhasizki, hammadan mehribon va shafqatli zot Alloh taolodir. U rahmlи va kechirimlidir. Shoir yomonlikka qarshi yaxshilik bilan harakat qiluvchi Xoliqi olamning “ahli rad”ga ham ayni shunday munosabatda bo‘lishi mumkinligini “**Re**” harfidagi ilohiy-irfoniy mohiyat orqali ifodalagan. Shuningdek, mardudlarni har tomonlama go‘zal, ma’rifatli bo‘lishga chaqirgan.

“**He**”si halok etgali qullobvash,

Mahlaka qalbi aro qullobkash.

Ahli tasavvuf alohida e’tibor qaratgan muammolardan biri nafsn tanish va uni tarbiyalashdir. Chunki so‘fiylar nazdida insonni to‘g‘ri va ezgu yo‘llardan ozdiruvchi, barcha tubanliklarga boshlovchi ana shu nafs hisoblanadi. Hurufiyalar esa “**He**” orqali nafsga qahrni ifodalaganlar<sup>59</sup>. Navoiy baytda mardudlarni halok

<sup>58</sup>. Abdülaziz Ed Debbag. Kitab - Ol - İbriz. - İstanbul, 1997. - 174 s.

<sup>59</sup>. Schimmel Annemarie. Islamın mistik boyutları. – İstanbul, 2004. –440 s.

etuvchi, ularning qalbini “qullobo”(changak) kabi o‘ziga tortuvchi nafs ekanligini bayon qilgan:

“**Nun**” chekib el sahmi uchun yosini  
Balki baqo zar’i uchun dosini.

Nafs poklansa, qalb ilohiy nurlar olami (nun)dan bahramand bo‘ladi. Zotan, “**nun**” “baqo zar’i” – abadiyat hosiliga “dos” o‘roqdir.

“**Yo**”si muxolif sori harfi nido,  
Ya’ni et ollimda hayoting fido.

“**Yoy**” – xalqning ismi bo‘lib, “ahli rad”ga undov, chaqiriq sifatida ishlataligan. “Ya’ni et ollimda hayoting fido” misrasi bilan ularni sadoqat va vafoga chorlagan.

Nuqtalari ul yo‘l aro toshlar,  
Toshlar o‘lmayki kesuk boshlar.

Basmalayi sharifdagи “**be**”, “**nun**”, harflarida nuqta bor. Shoir ana shu harf nuqtalarini avval toshga, keyin kesilgan boshlarga qiyoslagan. Demak, Alloh yo‘li, imyon yo‘li “ahli rad” uchun mashaqqat ekanligi Bismillohir Rahmonir Rahiymdagi nuqta ramzlari orqali e’tirof etilgan.

“**Mim**”lar anda girih uzra girih,  
Jazmlar anda zirih uzra zirih.

Baytda Bismillohir Rahmonir Rahiym kalomining “Rahmonir Rahiym” so‘zlaridagi “**mim**” harfi xususida fikr yuritilgan. Shoir mardudlar uchun Alloh yo‘li “girih uzra girih”, ya’ni tugun va to’siqlardan iboratligini ta’kidlaydi. Ularning kufr va zulmat ahli bo‘lganligi Alloh yo‘lidagi to’siqdir, har qancha “jazm” aylasalarda maqsadlari hosil bo‘lmaydi.

Har sori “tashdid” taaddud bila,  
Zohir o‘lub elga tashaddud bila.

Basamalai sharifda uchta tashdid bor. Tashdid – ikkilantirish, ya’ni bittasi (Bismilloh)dagi “**lo**”ga, qolgan ikkitasi esa “Rahmonir Rahim”dagi “**re**”ga qo‘yilgan. Ushbu harflarni ikkilantirilganligi ma’noni kuchaytirishga xizmat

qilgan. Demak, shoir “ahli rad” uchun Alloh yo’lidagi har qanday mashaqqat ortib ko’rinishini izohlagan.

Har nechakim noziri maqsud o‘lub,

Ahli nazar ko‘ziga mardud o‘lub.

Mardudlarning har qanday tutgan yo‘li o‘z nazdida to‘g‘ri bo‘lsada, iymon ahli ularni rad etgan, chunki:

Kimki jahon ahlida inson erur,

Bilki nishoni anga iymon erur.

Lek qachon qat’ig‘a ahli qabul,

Azm qilib aylasa ul yon nuzul.

Navoiy “ahli qabul” Haqqa yetishish yo‘liga azm etsa, uning hamrohi “Bismillohir Rahmonir Rahiyim” kalimasi erur deydi. Basamalai sharif ulug‘ kalom. Bu haqda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning quyidagi hadislari mavjud: “Menga shunday bir oyat nozil bo‘ldiki, bu faqat Sulaymon (a.s) payg‘ambargagina tushgan edi, boshqa hech kimga tushmagan. Bu – Bismillohir Rahmonir Rahiymdir”.<sup>60</sup> Shuningdek, Qur’oni Karimdagi “Namli” surasining 30 - oyati Karimasida ham ushbu basmala tilga olinadi: “Albatta, u Sulaymondandir va u (maktubda): “Mehribon va Rahmli Alloh nomi bilan.”

Abu Dovud ibn Abbos (r.a)dan sahih hadis rivoyat qilishlaricha, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) toki Bismillohir Rahmonir Rahiyim iborasi tushmaguncha suralarni bir-biridan ajrata olmas edilar. Ana shunday qudsiy kalomning har bir harfiga ikki jihatdan to‘xtalgan Navoiy “ahli qabul” uchun ushbu basmala harflari nechog‘lik ahamiyatli ekanligini zikr etgan:

“Bo”si burun “Bo”i bashorat durur,

Shamrasi kirmakka ishorat durur.

Ma’lumki, Bismillohir Rahmonir Rahiyim (مسنون میثاق اللہ احراز) 19 harfdan iborat. Alloh taolo bir kecha kunduzni 24 soat qilib yaratdi. Diniy aqidalarga ko‘ra, shu 24 soatning 5 soatiga 5 vaqt namoz taxsis etilgan, qolgan 19 soatiga esa 19 harfli “Bismillah”ni o‘qish gunohlarga kaforat ekan. Ayni shunday mazmundagi

<sup>60</sup>. Kamol M. “A’uzu” va “Bismillah”ning ma’no va sirlari. – Toshkent: Movarounnahr. 2005. 16- bet.

sahih hadisni Ibn Mas'ud rivoyat qiladilar: "Kimki 19 do'zax azobidan xalos bo'lishni xohlasa "Bismillahir Rahmonir Rahiym"ni o'qisin. Alloh unga Bismillahir Rahmonir Rahiymning har bir harfi uchun bitta jannatni hoziru nozir qiladi". Basmalayi sharifning ilk harfi haqida Muhiddin Arabiy shunday deydi: "Ey inson, bilginki, Alloh taolo kitobi karimini "**Be**" bilan boshlab, "bismilloh" deyishi "**Be**"ning sharafidandir. Yana bu kabi har bir sura ham "**Be**" bilan boshlanadi. "Tavba" surasi "Bismilloh"siz boshlansada, avvali yana harflar ichida faqat "**Be**" bilan "Baroatun minalloh" deya nozil qilindi. Bu bayon "**Be**"harfinining buyuk sharafini bildirish uchundir".<sup>61</sup>

Ta'kidlash joizki, Mavlono Jaloliddin Rumiy ham o'zining "**Ma'naviy masnaviy**" asarini "Bishnav az nay chun hikoyat mekunad"deb boshlaydi. Bu ham tasodifiy bo'lmasdan, bevosita "**Be**" harfining asroriga borib taqaladi. Ushbu harf ila hurufiyalar Hazrati Muhammad (s.a.v)ga ishora etadilar. Ma'lumki, Qur'oni Karim Rasulloh (s.a.v)ga nozil bo'lgan. Ulug' zot ilohiy kitobning har bir surasini "**Be**" harfi bilan boshlab, Qur'oni Karimning faqat Muhammad (s.a.v)ga tushirilganligini uqtirgan bo'lishi mumkin. Alloh hamma narsani o'z habibi Muhammad (s.a.v) uchun yaratdi va hammadan avval uning nurini paydo qildi. Haq yo'liga boshlovchi, tom ma'nodagi komil inson Muhammad (s.a.v)dir. Shu bois Alisher Navoiy "ahli qabul" uchun Allohga yetishishda eng maqbul yo'il sifatida payg'ambarimiz yo'llarini ibrat qilib ko'rsatgan.

"**Sin**"i salomat yo'lining ziynasi,

Balki saodat yuzi oyinasi.

"**Sin**" – shahodat olamining quvvatini ifodalash bilan birga, kamtarlik va muloyimlikni tamsil etuvchi harfdir. Navoiy baytida "ahli qabul"ning kamtarligi va muloyim tabiatliligi bois saodat oyinasida yuz ko'rsatganligini ifodalab bergen.

"**Mim**"i ochib manzili maqsadg'a yo'l,

Balki bu manzil aro sarchashma ul.

<sup>61</sup>. Kamol M. "A'uzu" va "Bismillah"ning ma'no va sirlari. – T.: Mavarounnahr., 2005. 18-b.

Bismillohir Rahmonir Rahiyuning uchala so‘zida ham “**mim**” harfi mavjud. Zotan, “**mim**” “manzili maqsadga yo‘l ochuvchi”, hatto ushbu manzilning sarchashmasidir.

Har “**alif**”ikim yeridur jon aro,

Sham’ o‘lub ul toza shabiston aro.

“**Alif**” jon markazida maqom tutsagina jon komil va hayot bo‘ladi. Shuningdek, “**alif**” solik qalbini ilohiy nurlardan “sham” kabi yoritguvchidir.

“**Lom**”lari borchalivoyi zafar,

Berib anga jilva havoyi zafar.

Visol ishtiyoyqidagi oshiqning yodu xayolini ma’shuqa zikri egallaydi. U har dam ilohiy muhabbat shavqini tuyib, hijron ayriliqlariga bardosh beradi. Barcha noqisliklarni bartaraf etib komillikka erishadi. Demak, “**lom**” qusur kamchiliklardan qozonilgan “livoyi zafar”dir.

“**Ho**”si huvviyatni qilib jilvagah,

“**Lom**”i bila qoyili “al mulku lah”.

Huvviyat – Haq taoloning o‘zligi, Zotini ifodalaydi. “**Ho**” – esa zuhur, huzur, vujud e’tibori bilan qaralgan Zotdir. “**Lom**” harfining talaffuzida “**lom**”, “**alif**”, “**mim**” harflari ishtirot etib, “al mulku lah”ni qoyil aylaydi. Demak, Alloh qudratli va boqiyidir. Jami borliq Uniki – ya’ni mulk Unikidir. Mazkur ifodaning tagzamini Qur’oni Karim. Ayniqsa, “Fotir”, “Hadid”, “Tag‘obun”, “Buruj” suralarida bu masalaga keng e’tibor qaratilgan.

Ravzayi janmatg‘a eshik “**ro**”lari,

G‘unchai vahdatg‘a beshik “**ho**”lari.

Ushbu baytdan boshlab basmalaning “rahmonir rahim” qismi sharh etiladi. Ma'lumki, rahmon hammaga: kofirga ham, mo‘minga ham rahmli va rizq beruvchidir. Rahim sifati esa, qiyomatda faqat mo‘min bandalarigagina shafqat qiluvchi ma’nosini anglatadi. Shu bois, ulamoyi kiromlar “Alloh xulqi bilan xulqlaninglar” deb har bir insonni rahimli bo‘lishga chaqirgan. Shoир e’tiroficha, “jannatning eshigi” “**ro**”, ya’ni yovuzlikka ezgulik, yomonlikka yaxshilik bilan harakat qilmoqlik bo‘lsa, Haqqa yetishishning “beshigi” “**ho**” – nafsga qahrdir.

**Mim – ki, nundin qilibon intiho,**

**Jong'a qo'yub minnati bemuntaho.**

Darhaqiqat, "Rahmon" sifatining ikkinchi bo'g'ini "**mim**" harfi bilan boshlanib, "**nun**" orqali "intiho" topadi. Navoiy Xoliqi olamning insonlarga bergen ne'matlari "bemuntaho" – cheksiz ekanligini e'tirof etib, xaloyiqni Unga shukrona aytishga chaqiradi.

**"Yo"** bila "**mim**" qilib izhori yam,

**Aylagali g'arqayi bahri karam.**

Alloh taoloning rahmon sifati faqat O'zigagina tegishli bo'lib, boshqa hech kimga nisbatan bu sifatni ishlatib bo'lmaydi. Ammo rahim sifati Muhammad payg'ambarimizga nisbatan ham ishlatiladi. Chunki qiyomatda ummatlarini shafoat qilishlari me'rojnomalarda qayd etilgan. Buyuk mutafakkir ana shunga ishorat qilib, sarvari koinot Muhammad (s.a.v)ning karam dengizidan "ahli qabul" bahramand ekanligini "**yoy**" va "**mim**" harflarining ramziy ifodasi orqali ta'kidlab, o'zi ham shu "bahri karam" dan umidvor.

Nuqtavu tashdid anga chaqmoqu tosh,

**Qilmoq uchun partav "alif" sham'i fosh.**

Shoir Basmalayi sharifdag'i nuqta va tashdid belgilarining "ahli qabul" uchun yog'du sochishini, yo'llarining nurafshon bo'lishida zamin hozirlanishi bayt mazmuniga singdirgan.

**Jazmi solib tavq ko'ngul bo'ynig'a,**

**Nuqta baqo durrini jon qo'ynig'a.**

Hurufiylikda harflar va ularning botiniy ma'nolari bilan birgalikda nuqtaga ham alohida ahamiyat berilgan. Mazkur suluk asoschisi Naimiy nuqta haqida shunday deydi: "Hamma ulum dar zimni yak nuqta va yak nuqta ilm 32 kalima bud".<sup>62</sup> (Tarjimas: Hamma ilmlar uchun bir nuqta asos, shu nuqta esa 32 harfdir). Demak, nuqta hamma narsaning asosi sifatida e'tirof etilgan. Hazrati Ali ham: "Tavrot, Injil, Zaburdagilarning hammasi Qur'oni Karimda, Qur'oni Karimdag'i haqiqatlar esa "**Be**" harfidadir. "**Be**" harfidagi asror va haqiqatlar esa "**Be**"ning

<sup>62</sup>. Кули – заде З. Хуруфизм и его представители в Азербайджане. – Баку: Элм, 1970. – 258 с.

ostidagi nuqtada mavjuddir”, deganlar.<sup>63</sup> Butun mavjudotni yagona Alloh yaratganligi nuqtaning “Be”ning ostidan joy olishi borliqning Allohga tobe ekanligini bildiradi. Borliqni yaratishdan maqsad – insoni komildir. Shuning uchun shayx Shibliyning “Men “Be” ostidagi nuqtaman”<sup>64</sup>, degan fikridan “Men insoni komilman” degan ma’noni anglash mumkin. Navoiy ham ushbu baytda nuqta boqiylikka (Allohga) erishish asosi ekanligini yoritgan.

Ham harakotidin ionat yetib,

Etgali maqsudqa tahrif etib.

Shoir nazdida Basmalayi sharifning nafaqat harflari, balki “harakat”lari (zer, zabar, pesh) ham “ahli qabul”ning “maqsad”ga erishishida “ionat” etadi.

Ham sakanoti qilib ifsho sukun,

Anda tavaqqufqa bo‘lub rahnamun.

Ma'lumki, arab yozuvida “sukun” to‘xtash uchun qo‘yiladigan belgi bo‘lib, basmalaning ikki o‘rnida ishlatilgan. Navoiy Bismillohir Rahmonir Rahiymdagi sukulnarning “ahli qabul”ga xayrixoh, hatto ayni toifaning ulug‘ maqsadga erishishlarida “rahnamun” ekanligidan kitobxonni ogoh etgan.

Soyiri chun po‘yag‘a gomin ochib,

Gardidin atrofig‘a jonlar sochib.

Basmalayi sharifdagi qolgan belgilar ham “ahli qabul”ga peshvoz chiqib, ularni olqishlaydi.

Bosh – ayog‘i boshtin – ayoq jon bo‘lub,

Boshdin ayog‘ jon neki, jonon bo‘lub.

Navoiy tasdir – so‘z takrori orqali ta’sirchanlikni oshirib, o‘quvchi diqqatini Bismillohir Rahmonir Rahiymg‘a qaratadi. Zero, Basmalayi sharifdagi hamma harf va belgilari e’tibordan chetga qolmay “ahli qabul” hamda “ahli rad”ga munosabat bildirgan.

Azmida ul qavmg‘a dog‘ uzra dog‘,

Qat’ida bu xaylg‘a bog‘ uzra bog‘.

<sup>63</sup>. Schimmel Annemarie. Islamın mistik boyutları. – İstanbul, 2004. – 442 s.

<sup>64</sup>. Yuqoridagi manba, – 440 s.

Shoir bu ikki toifani taqqoslar ekan, tazod san'ati imkoniyatlaridan o'rinni foydalanib, Bismillohir Rahmonir Rahim "ahli rad" uchun "dog", "ahli qabul" uchun "bog" sifatida ekanligini hayrat bilan yoritgan.

Hikmati ul qahr aro, bu lutf aro,  
Ushbuki to'lg'ay ikki mehmon saro.

Navoiy Alloh taolo bu ikki toifani o'z "qahri va lutfi"ni ifodalash maqsadida yaratib bu orqali dunyoning ikki qutbi ezgulik va yovuzlik mavjudligiga sifat bergen. Ayni fikrlar keyingi baytda ham davom ettirilgan:

To agar o't solsa jaloliyat,  
Lutf ila urg'ay suv jamoliyat.

Ya'ni "ahli rad" uchun Xoliqi olamning jaloliyat (qahr, g'azab) kabi sifatlari "o't solsa", "ahli qabul" uchun jamoliyat (lutf, rahm, karam) sifatlari suv uradi.

Istabon, ey xasta Navoiy, navo,  
Bo'yla safarg'a qilur ersang havo.

Alisher Navoiy *ishtiyoq* – o'zakdosh so'zlardan foydalanish orqali, Haq taolo vasliga erishmoq uchun, yo'l mashqqatlaridan tashvishga tushmay tavakkalni Allohga qo'yemoq lozimligini qayd etgan. Bu hol keyingi baytda yorqin ko'rindi:

Yo'l yomonu yaxshisidin yema g'am,  
Bismilloh, degilu qo'yg'il qadam.

Darhaqiqat, Bismillohir Rahmonir Rahim – dunyoda hammaga: do'stu dushmanlarga va barcha maxluqot olamiga rizq beruvchi, qiyomatda esa faqat mo'min bandalariga jannati va jamolini ato etuvchi Alloh ismi bilan boshlayman demakdir. Hazrat Navoiy rahmdil va mehribon zot – Alloh taologa hamd aytish bilan fikrlarini xulosalaydi. Xalqsevar shoir o'z elini aziz va muhtaram deb biladi. Shuning uchun unga keladigan balo-qazolarni daf aylashda Haq taolo karamidan umidvor:

"Xayra sanoin limufizil – karam",  
Kim karamidin erur el muhtaram.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mumtoz adabiyotida yuzaga kelgan adabiy an'analarning asosi islom dinining ulug' manbalariga borib taqaladi. Jumladan, mumtoz adabiyot namunalarining basmalayi sharif bilan boshlanishi ham Qur'oni Karimdan aynan olib kirilgan. Chunki mazkur ilohiy kitob avval basmala, keyin "Allohga hamd" degan oyat bilan boshlanadi. Qolaversa, butun musulmon olamida har ishnining ibtidosi shu qutlug' oyat bilan boshlanadi. Shunday ekan, hazrat Navoiydek, din va tasavvuf ilmining zakiy olimi o'z asarini mazkur kalimayi sharif bilan boshlashi tabiiy hol edi.

*Savol va topshiriqlar:*

1. Basmalayi sharif deganda nimani tushunasiz?
2. Bismillohir Rahmonir Rahiyim kalimasining islomiy asosi haqida nimalarni bilasiz?
3. Nega aynan basmalayi sharifdan so'ng hamd keltiriladi?
4. "Xayra sanoin limufizil – karam",  
Kim karamidin erur el muhtaram. Ushbu baytni shahrlang, baytda kelgan arabiylar iqtibosning manbasini aniqlashga harakat qiling.
5. Arab harflarining zohiriy (tashqi ko'rinishi) va botiniy ma'nosi bilan bog'liq mulohazalarni bayon eting.
6. Alisher Navoiy "ahli qabul" va "ahli rad" deganda kimlarni yoki qanday insonlarni nazarda tutgan deb o'ylaysiz?
7. Basmalayi sharif kimlar tomonidan sharhlangan?
8. Asarlarning Basmalayi sharif bilan boshlanishi nima uchun an'ana darajasiga ko'tarilgan deb o'ylaysiz?

## 2.2. “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING HAMD BOBINI SHARHLAB O’QITISH

**Tayanch tushunchalar:** Hamd, qalami sun’, xomai hikmat, homid, qazovu qadar, tashbeh, tanosub, ishtiqoq, kofurbez, husn quyosh , ravzai rizvon, laylu nahor, alochug’, ishq

**Nasriy sarlavha:** Ul xoliq hamdikim, maxluqot tasvirig‘a aning qalami sun’i chehra kushodurur va masnuot tahririg‘a aning xomai hikmati jamol afzo va har ko‘ngul g‘unchasig‘a bir husn guli sori aning silsilai shavqidin vobastaliq va har ko‘z axtarig‘a bir qosh hiloli sori aning rishtai muhabbatidin payvastaliq (15-bet).

**Tabdili:** Barcha yaratilgan jonli va jonsiz narsalarni tasavvur etish uchun qalamining san’atkorligi chehrasini ochgan va hikmatli qalami jamolini orttirish hamda har bir ko‘ngul g‘unchasiga bir husn guli tomon uning shavqi zanjiriga bog‘liqlikni va har ko‘zining yulduziga bir qoshi hilol bilan muhabbat ipi orqali payvastalikni yuzaga keltirgan ul Xoliq hamdi.<sup>65</sup>

Hamd - arabcha maqtov, shukur (hamdu sano – maqtov, shukur) degan ma’noni bildiradi. Sharq mumtoz adabiyotida basmalayi sharifni keltirib, keyin hamd aytish va asarlarni shu prinsip asosida boshlashning bosh sababi Allohnинг kitobi bo‘lmish Qur’oni Karimga o‘xshatma qilishdir. Chunki ilohiy kitobning birinchi surasi ham “Bismillohir rohmanir rohim” dan keyin hamd bilan, ya’ni “Allohga hamd bo‘lsin” degan oyat bilan boshlanishidir. Musulmon olamining dasturlamali bo‘lgan Qur’oni Karimdagi bu holat adabiyotda maxsus an’ana darajasiga ko‘tarilgan.

Hamd angakim vojibi bizzot erur,  
Homid aning zotig‘a zarrot erur.

Baytni tahlil qilishdan oldin misralardagi izoh talab so‘zlarini lug‘at asosida sharhlaymiz: **bizzot** – shaxsan, bevosita, zotida, aslida; **homid** – hamd aytuvchi; **zarrot** – zarralar.

<sup>65</sup> A. Navoiy. “Hayrat ul-abror”. (Dostonning nasriy bayon matni prof. A . Hayitmetov tomonidan tayyorlangan).G‘.G’ulom nashriyoti, 2006 yil. 247-bet. Asardan keltirilgan tabdil matnlari shu manbadan olinadi. Sahifasi qavs ichida beriladi.

Baytda hamd aytmoq shaxsan, bevosita unga (Allohga) vojibdur, Homid (hamd aytuvchi) esa uning (Allohning) zoti oldida zarrot kabitdir deyiladi. Shoir *ishtiyoq* (hamd, homid) orqali fikr ta'sirchanligiga erishgan. O'z mulohazalarini davom ettirib, keyingi baytda Allohning vahdat (yakka-yagona)iga quyosh tonuq (guvoh) bo'lsa, ammo U (Alloh)ning yoruqligi, quyosh zarrasidan afzunu (ortiq, ziyoda), quyoshdan yoruq ekanligini ta'kidlagan:

Vahdati zotig'a quyoshdek tonuq,

Zarradin afzunu quyoshdin yoruq.

Navoiy hamdda Alloh madhini davom ettirar ekan, inson jismi va ruhi ham bevosita Yaratuvchi bilan bog'liqligini qayd etib, jismni sipehr (*osmon, osmon gumbazi, falak*), Ruhni quyosh sifatida tasvirlab, uni *Munir (nur beruvchi, porloq)* etguvchi ham Allohdir, deya xulosaga keladi:

Jism sipehrini masir etguchi,

Ruh quyoshini munir etguchi.

Yaratuvchi Ulug' Zot osmonni baland yaratib, yulduzlarni, quyoshni yaratganligini tashbehlarda ifodalaydi:

Gulshani firuzani chekkan baland,

Gullardin mehrni guldasta band.

Yulduzlar osmonning har tomoniga sochilib, go'yoki, ko'kdagi guldastani tashkil etishini tasvirlaydi:

Har sori anjum gulikim ochilib,

Ko'kka bu guldastasidin sochilib.

Allohning yer-u ko'kni o'z yaratiq qudrati birla "iki taxta nard", ya'ni nard o'yining taxtasi (oq, qora) kabi yaratganligini ta'kidlab, kunu tunni nard taxtasiga tashbeh qilgan:

Mintaqa birla falaki lojuvard,

Sun'i bisotida iki taxta nard.

Navoiy bir necha baytlarda kun va tun tashbehi, ya'ni nard taxtasi bilan bog'liq o'xshatish va ta'riflarni keltirib, Allohning eru ko'knинг mutlaq yaratuvchisi ekanligiga urg'u beradi:

Solmoq uchun tosi sipehr ichra shayn,  
Oyu quyoshdin qilibon Ka'batayn.  
Taxta kelib charxi munaqqash anga,  
Burj hisobidin iki shash anga.  
Tun kun ila muhra namudorliq,  
Anjum ila taxta sadafkorliq.  
Dahrda har naqshi savobu qusur,  
Borchasi bu narddin aylab zuhur.

Shoir ikki qarama - qarshilik, tun va kun haqida mulohazalarini davom ettirib, keyingi ikkilik, ya'ni "qazovu qadar"ni yaratganligini, bular misli ikki harif (ulfat, do'st) ekanligini ta'kidlar ekan, Alloh har qanday qarama-qarshilikni ulfat, do'st aylashga qodir qudratli Zot ekanligiga urg'u beradi:

Ko'rguzubon naqshi xasisu sharif,  
Misli qazovu qadar ikki harif.

Baytlar davomida ohorli tashbehlardan unumli foydalangan shoir subh uzorini ochdi, shu gulga zulf etib tun sunbuli yaratilganligi ham ayni mazmundagi fikrlarning mantiqiy davomi sanaladi:

Chun ochibon subh uzori gulin,  
Zulf etib ul yuz uza tun sunbulin.  
Ul yuz o'lub dahrg'a kofurbez,  
Ustida ul zulf bo'lub mushkrez.

Navoiy Alloh oqu qorani ishtihor (shuhrat topmoq) berib yaratdiki, bundan laylu nahor (kecha kunduz) yaratilganligini keyinga baytda zikr etadi:

Oqu qaro uzra berib ishtihor,  
Mushk ila kofurini laylu nahor.

Ayni shu baytdan so'ng yaratiqlarning sarvari bo'lgan inson aqli bilan bog'liq fikrlarga to'xtaladi:

Chun yasabon hujrai tori dimog',  
Aqldin ul hujrada yoqib charog'.

Aql insoniyat hujrasida “charog” ekanligi, aqlning shu’lasi esa, “nuri hidoyat” bo’lganligini keyingi baytlarda e’tirof etadi:

Rishta anga tori inoyat bo‘lub,  
Shu’la anga nuri hidoyat bo‘lub.

Shoir aqldan ko‘ngil maskani nur olishini, ammo ishq eli – shamoli aql nurini o‘chirishi mumkinligini keyingi baytda ta’kidlaydi:

Andin olib nur ko‘ngul maskani,  
Lek o‘churub ishq yelidin ani.

Ta’kidlash joizki, aql va ishq insondan avval yaratilganligi diniy rivoyatlarda ham zikr etilgan: “Alloh taolo eng avval yaratgani Rasulullohning nuri edi. Shundan keyin ul nurni to‘rtga bo‘lib, bir bo‘lagidan Arshi A’loni, bir bo‘lagidan qalamni, uchinchi bo‘lagidan Jannatni va so‘nggi bo‘lagidan mo‘minlarni yaratdi. Keyin ul to‘rt bo‘lakni yana to‘rtga bo‘lib, biringchi bo‘lagidan azizu mukarram Rasulullohni, ikkinchi bo‘lagidan aqlni, uchinchi bo‘lagidan Uyatni, to‘rtinchchi bo‘lagidan Ishqni yaratdi ”<sup>66</sup>.

Shoir ishq yeli tundu tez (qattiq sur’at bilan) kelib aql **alochug‘in** (chayla, kapa, uya) **rez-rez** (mayda-mayda) qilganligini keyingi baytda keltirish bilan ishq hech bir narsaga bo‘ysunmaydigan ulkan qudrat ekanligini zikr etadi:

Ishq yelin yetkurubon tundu tez,  
Aql alochug‘in etib rez-rez.

Ishq nafaqat aql uyini barbod etguvchi, balki zuhdu vara’ (parhez) xirmanini uchuruvchi, sabr maskaninisovurguvchi hamdir:

Ham uchurub zuhdu vara’ xirmanin,  
Ham sovurub sabru sukun maskanin.

Shoir ishq qudrati ta’rifini davom ettirib, xirad (aql) bog‘ining naxl (yosh daraxt)ini xoshok etuvchi; balo bahr(dengiz)i mavjini ko‘lok (to‘lqin, qattiq shamol, bo‘ron) etguvchi hamdir, deydi:

Bog‘i xirad naxlini xoshok etib,  
Bahri balo mavjini ko‘lok etib.

<sup>66</sup>. Xurshid Davron. Shohidlar shohi. – T.: Qatortol- kamolot, 1998, 3-bet.

Shoir nazdida ishq dardu balo o‘tini tez yuzaga keltiruvchi, nafaqat tez, balki sitez (urush, janjal) qilguvchi hamdir. Navoiy *ruju'* orqali fikr ta’sirchanligiga erishgan:

Dardu balo o‘tini tez aylabon,  
Tez nekim, charx sitez aylabon.

Alisher Navoiy keyingi baytda ishq o‘tining alangasi taftini pasaytiruvchi - bu vasl sahab (bulut)i qatrabor (qatra to‘kuvchi, tomuvchi) bo‘lishini, bu esa “ul o‘tqa sukul” (tinjish, osoyish) berishi haqida yozadi:

Vasl sahabin chu qilib qatrabor  
Aylabon ul o‘tqa sukul oshkor.

Ishqqa asos bo‘lgan jihatni shoir “husn quyosh”iki, bu quyosh ofoqso‘z (jahonni kuydiruvchi, hammani o‘rtovchi), uning partav (yorug‘lik asari, nur, shu’la, porloqlig) olamni furuz (yoquvchi, yondiruvchi) ekanligini keyingi baytda zikr etgan:

Husn quyoshin qilib ofoq so‘z,  
Partavini ayladi olam furuz.

Navoiy yana *ruju'* orqali keyingi baytda husnni quyosh dema, balki “ravzayi rizvon” (jannah bog‘i) degil, bog‘ ichida esa “guli xandon” degil deya fikr ta’sirchanligiga erishadi:

Dema quyosh, ravzayi rizvon degil,  
Ravza ichinda guli xandon degil.

Navoiy husn ta’rifini davom ettirar ekan, jilvasi jon gulshanining oronishi, ul husnni ko‘rmoq esa mahzun ko‘ngillarning osoyishi ekanligini ham madh etadi:

Jilvasi jon gulshani oronishi,  
Ko‘rmagi maxzun ko‘ngul osoyishi.

Shoir keyingi baytdan boshlab, Alloh zotiga tegishli fikrlarni keltiradi, ya’ni Uning zoti lutf (muloyimlik, marhamat)u, safo (yorug‘lik, porloqlig) dan juz (boshqa, bo‘lak) narsa emas:

Zotig'a juz lutfu safo bermayin,

Lekin anga bo'yi vafo bermayin,

Unga talabgorlar vafo ahllaridan bo'lib, vafodan bahramandlar, doim ko'zda yoshi bilan Uning yodida bo'lmoqlari lozim:

Ul chu vafo rangidin ozod o'lub,

Ahli vafo jonig'a bedod o'lub.

Kimga vafodin beribon choshni,

Bir nafas olmay ko'zidin yoshni.

Unga talpinuvchi kishilar vafodan o'zga ishni odat qilmasalar, jafoni baha (ulush) qilmasalar, ishqni jon rishtasiga band etib, vaslni ko'ngil toriga bog'lasalar bilsunlarkim, bu orada hajr vodiysi mavjud bo'lib, unda xatarlar ko'p, vodiydag'i tikanlar esa nishtar, lolasi shu'layi oh o'lsa, o'simliklari zaharli giyoh kabidir, deya baytda ishq yo'li mashaqqatli ekanligiga urg'u beradi:

Kimki ishi g'ayri vafo qilmayin,

Bahra anga g'ayri jafo qilmayin.

Ishqni jon rishtasig'a band etib,

Vasl ko'ngul torig'a payvand etib,

Vodiyi hajr ichra solib ko'p xatar,

Xoru giyohini qilib nishtar,

Lolasini shu'lai oh aylabon,

Sabzasini zahri giyoh aylabon.

Shoir hajr sahosining o'simlik va lolalari haqida yuqoridagi misrada bayon etar ekan, keyingi misrada esa, **bum** (yer, zamin) shu xilki, u yerda el **samum** (halokatli issiq shamol) dan **juz** (boshqa, bo'lak) emas, deya mulohazalarini davom ettiradi:

Lola bila sabzasi bu nav' bum

Yeli emas mumkin aning juz samum.

Navoiy keyingi baytda o'z fikrlariga oydinlik kiritadi. Ya'ni u esayotgan yel emas, balki biyobon o'tidir. Bilgilki, biyobon o'ti bu hijron o'tidir. Agar kimniki bu o't, shu'la kuydirsa, yel uning kulini ko'kka sovurishini ta'kidlaydi:

Ul yel emasdur bu biyobon o'ti,  
Bil bu biyobon o'ti - hijron o'ti.  
Qimniki bu shu'la bila kuydurub,  
Ko'kka hamul yel kulini sovurub.

Biror kimsani samum (halokatli issiq shamol) eli kul aylasa, unga dardu balo ko'zgusi jalo topishini bayon etadi:

Kimni kul aylab bu samumi balo,  
Dardu balo ko'zgusi topib jalo.

Shoir bu dardu balo ko'zgusida nur tushsa, bu nur ishq nurining zuhur etishi demakdir, deydi. Yaratuvchining har bir ishi ISHQ bilan yuzaga kelishini, ishqqi tufayli barcha nomavjudlik mavjudlik nomini olganligiga urg'u beriladi:

Chun solib ul ko'zgu aro to bu nur  
Ishq yuziga berib andin zuhur.

Alisher Navoiy Alloh yer yuzini uzliksiz rishtalar asosida yaratganligini, bu silsilalar, rishtalar bir-biri bilan uzulmas bog'ichlar asosida birikkanligini, ayniqsa, yer kurrasini sokin qilib, aflok (falak) ni soyir (kezuvchi) qilib yaratganligini keyingi baytda ta'kidlaydi:

Doyirani juz bu sifat tuzmayin,  
Silsilani bir-biridin uzmanayin.  
Bir-biriga bo'yala tuzub marhala.  
Silsilag'a bog'lanibon silsila.  
Ayladi sokin qurai xokni,  
Soyir etib davrai aflokni

Shoir o'z mulohazalarini xulosalar ekan, falakning markazi qilib, yer kurrasini yaratganligini, Allohnинг cheksiz qudrat sohibi ekanligini izohlab, Yaratuvchining lutfi bilan barcha ashayolar mavjudlik nomiga erishishi, ammo qahri bilan nobudlikka yuz tutishi mumkinligiga urg'u beradi. Ya'ni qudratli Alloh uchun yo'qdan bor qilmoqlik yoki bordan yo'q qilmoqlik hech bir muammosiz ekanligini ta'kidlash bilan hamdga yakun yasaydi:

Toki muhit o‘rnig‘a aflok erur,  
Markazi oning kurai xok erur.  
Lutfi bila borchag‘a mavjudluq,  
Qahridin-o‘q bo‘lg‘usi nobudluq.

Baytlar zamiriga singdirilgan ma’no Qur’oni Karimning „Baqara”, „Haj”, „Vofir” suralarida ham keltirilgan. Shoir talmeh vositasida shu oyati karimaga ishorat qiladi.

“Hayrat ul - abror” dostonida keltirilgan hamd “Xamsa”ning keyingi dostonlarida ham davom ettiriladi. “Xamsa” tarkibidagi har bir dostonda keltirilgan hamd boblari o’sha doston mazmuniga bog‘liq holda yoritilgan.

Demak, Sharq mumtoz adabiyotida har bir asarni hamd bilan boshlash an’ana darajasiga ko’tarilgan. Hazrat Navoiy asarlari, jumladan, “Xamsa” asari ham bundan mustasno emas.

#### *Savol va topshiriqlar:*

1. Hamd va uning lug‘aviy ma’nosini haqidagi mulohazalaringizni bayon qiling.
2. Sharq mumtoz adabiyotida asarlar hamd bilan boshlanishi nima uchun an’ana darajasiga ko’tarildi?
3. Hamd harakteridagi asarlar (g‘azal, qasida) bilan “Hayrat ul - abror”dagi hamdnинг o‘xhash va farqli jihatlari nimada ko‘rinadi?
4. “Hayrat ul-abror”dagi hamd bobida Qur’oni Karimdagи qaysi sura va oyatlarga ishoralar mavjud?
5. Quyidagi baytni sharhlang, fikr nima haqida borayotganini mushohada qilib ko‘ring:

Ayladi sokin qurai xokni,  
Soyir etib davrai aflokni

6. Asarning hamd bobidagi arabiyligi iqtibos hamda ilohiy manbalarga ishoralar mavjud bo‘lgan baytlarni ajratib oling hamda shu baytlar asosida ilmiy sharh yozing.
7. Hamd va baslama boblarining o‘xhash jihatlari nimada?

8. Mazkur baytni sharhlang. Baytda ta'kidlangan fikrning diniy va irfoniy manbalarini aniqlashga harakat qiling.

Lutfi bila borchag'a mavjudluq,

Qahridin-o'q bo'lg'usi nobudluq.

### 2.3. "HAYRAT UL- ABROR"NING MUНОJOT BOBLARI TAHLILI VA ULARNI SHARHLAB O'QITISH

**Tayanch tushunchalar:** Munojot, nasriy sarlavha, an'anaviy boblar, diniy manba, Qur'on, hadis, "bahri zot", "mumkinot gulshani", "yo'qlik gulshani", mabda', bidoya, ibtido; lam'yazal, husn o'ti, "karramano", "ahsani taqvim", "ahli vara", "mug'bacha" "mayfurush", "mayxona", "zuhd eli", "durd", "mug", "dayr", qiyomat, "vohidi dono", koinot, payg'ambar, "vujudi mutlaq", "Xoliqi olam", qayta tirilish.

Musulmon Sharqi madaniyatida munojot tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tushuncha funksional vazifasi va mohiyatiga ko'ra bir qancha ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi: 1. Xudodan najot, madad tilab qilinadigan tungi yoki yashirin ibodat. 2. Sharq adabiyotida masnaviy (doston)larning boshlanishida hamddan keyin, na'tdan oldin keladigan an'anaviy qismlardan bo'lib, unda Xudoga murojaat qilib, ushbu asarning muvaffaqiyatlari tugallanishida madad, najot tilanadi. Alisher Navoiyning barcha asarlarida alohida munojot boblari bor. Ayrim asarlari tarkibida munojot alohida she'r sifatida ham kiritiladi. Ba'zi shoirlar munojotni mustaqil she'riy shakl sifatida yozib, o'z devonlariga joylashtirganlar. Chunonchi, Ogahiy "Ta'viz ul-oshiqiyn" devoniga bir munojot kiritgan. 3. Munojot ruhida yozilgan she'rlar bilan aytildigan ashulalar.<sup>67</sup>

"Munojot" so'ziga "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da "**yalinish, yolvorish**"<sup>68</sup> deb ta'rif berilgan.

Munojot - Hazrat Navoiyning sevgan va ko'p murojaat qilgan mavzularidan biri. "Xamsa" dostonlarining har biri muqaddimaviy boblar bilan

<sup>67</sup> Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. T.: "Davr press" HMU. 2013. 204-bet.

<sup>68</sup>. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Fan. 1983. 354-bet.

boshlanadi. Bu boblar Allohga hamd va munojot, Rasululloh sallallohu alayhi va sallamga na'tni qamrab oladi. Ta'kidlash kerakki, mazkur boblar an'anaviy boblar bo'lishi bilan birga ulug' ijodkorning e'tiqodiy qarashlari, badiiy tafakkur olamining in'ikosi sifatida alohida ahamiyatga molik. Barcha munojotlarda ham Alisher Navoiyning Ilohga iltijolari, o'zining behad gunohkorligi va undan afsuslanish, pushaymonlik, ojizligini ta'kidlash orqali Allohning marhamatidan va maxfiratidan umidvorlik tuyg'ularini bayon qiladi. Shoir Allohdan gunohlaridan kechishni, qiyomat kunida mag'firat etilishini yolvorib so'rар ekan, butun islom ahlini ham unutmaydi. Gunohkor bandalariga Allohdan mag'firat so'raydi.

"Hayrat ul-aboro" dostonida to'rtta munojot bor. Ular bir-birining qaytariqlari emas. Ularni muayyan g'oyaviy niyat, aniq maqsadlar birlashtirib turadi.<sup>69</sup> Shuning uchun har bir munojotda alohida-alohida masalalar qamrab olingan. Birinchi munojotda – olamning, odamning xalq qilingani, koinot Ilohning jamoliga ko'zgu o'laroq yaratilgani, ikkinchi munojotda Alisher Navoiy olamning yo'q bo'lishi–qiyomat haqida fikr yuritiladi. Uchinchi munojotda mahshargohning badiiy tasviri hamda Muhammad Mustafo shafoatlarining vasfi, to'rtinchi munojotda esa Allohning karami, gunohkor insonlarning afv etilishi kabi masalalar xususida badiiy mushohada yuritilgan.

### 3.1 “AVVALGI MUNOJOT” TAHLILI VA SHARHI

**Tayanch tushunchalar:** munojot, avvaliyat, xafo sahobi, mabda', bidoyat, lam'yazal, furuz moya so'z, "bahri zot", mumkinot, "Karramano", "Ahsani taqvim", "ahli vara", "mug'bacha" "mayfurush", "mayxona", "zuhd eli", "durd", "mug" "dayr", vujud guliston, ma'rifat.

**Nasriy sarlavha:** Haqning avvaliyatidakim, xirad anga soniy bilmas, balki avval va oxir eli sano desalar anga loyiqi soniy topilmas va mumkinot gulshanidag'i gullarning adam shabistonidin vujud gulistonig'a kelmagining sifati

<sup>69</sup>. Vohidov R. Navoiy va ilohiyot. "Buxoro" nashriyoti, 1994, 52-bet.

va koinot bozoridagi durlarning xafo sahabidin zuhur daryosiga tushganining ma'rifati (18-bet).

**Tabdili:** Alloh birinchi bo'lib, aql uning ikkinchisini bilmaydi, hatto birinchi va oxirgi insonlar kimnidir yoki nimanidir maqtamoqchi bo'lsalar, bunga loyiq boshqasi topilmaydi va dunyodagi bo'lishi mumkin bo'lган gulshandagi gullarning yo'qlik kechasidan borliq gulistoniga kelmog'ining sifati va koinot bozoridagi durlarning maxfiylik bulutidan zohirlik dengiziga tushganining ma'rifati (248-bet).

Nasriy sarlavhadan bobda qo'yilgan masalalarni oydinlashtirib olishimiz zarur:

- Haqning avvaliyati, ya'ni qadimiyligi, Aql Unga sherik topa olmasligi;
- Hatto birinchi va oxirgi insonlar kimnidir yoki nimanidir maqtamoqchi bo'lsalar, bu maqtovga Undan (Alloh) boshqasini topa olmaydilar;
- Mumkinot (mumkin bo'lган narsalar, dunyoda mavjud narsalar) gulshanidagi gullarning yo'qlik tunidan borliq gulistoniga kelgani;
- Koinot bir bozor. Bozordagi durlarning maxfiylik (yo'qlik olami) dan zohirlik (moddiy olam) dengiziga tushgani.

Mazkur munojotda qo'yilgan masalalar uning kompozitsion tuzilishida ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun mazkur munojotni besh qismga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

Birinchi qismi: 1-3-baytlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinci qismga: 4-13- baytlardan iborat

Uchinchi qism: 14-33- baytlarni qamrab oladi.

To'rtinchi qism: 34-39 baytlardan iborat.

Xotima: 40-42- baytlarni o'z ichiga oladi.

Ey sanga mabda'da abaddek azal,

Zoti qadiming abadiy lam'yazal.

Ne bo'lub avvalda bidoyat sanga,

Ne kelib oxirda nihoyat sanga.

Avval o‘zung, oxiru mobayn o‘zung,  
Borchag‘a Xoliq, borig‘a ayn o‘zung .

**Tabdili:** Ey Tangrim, dunyo boshlanishidanoq qadim abadiy bo‘lib, qadimliging, ulug‘vorligingning so‘ngi ham bo‘lman. Senda ibtido ham bo‘lman; oxirda tugallanish ham yo‘q. Avval ham o‘zing, oxir ham, o‘rtalik ham. Barcha-barchaga yaratuvchi bo‘lganingdek, barining? ko‘zi, ko‘z qorachig‘i ham o‘zingsan (248-bet).

Keltirilgan baytlar munojotning dastlabki qismi. **Mabda’** – kelib chiqish joyi, boshlanish joyi; **bidoyat** – boshlanishi, ibtido; **lam’yazal** – abadiy, so‘ngi yo‘q, so‘ngsiz ma’nolaridagi so‘z.

“Avvalg‘i munojot”ning dastlabki baytlarida Allohning biru borligi, hali hech narsa yaratilmasdan avval ham Alloh ta‘oloning mavjud bo‘lganligini, Uning tengi, o‘xshashi yo‘qligini aytib, munojot shaklida fikr yuritiladi. Mazkur baytlar bag‘riga Qur‘oni Karimning “Ixlos” surasidagi “(Ey, Muhummad!) Aytin: “U Alloh yagonadir. Alloh ehtiyojsiz, (lekin) hojatbaror. U tug‘magan va tug‘ilmagan ham. Shuningdek, Uning hech bir tengi yo‘qdir” oyatlari mazmuni singdirilganini sezish qiyin emas. Ushbu surani sharhlagan Muhammad Solih Muhammad Yusuf “Ixlos” surasida Allohning tawhidni o‘z ichiga olishini ta’kidlab o‘tadi.<sup>70</sup> Tawhid - Allohning yakkayu-yagonaligi, undan boshqa ilohning yo‘qligidir. Sayid Ja‘far Sajjodiyning lug‘atida keltirilishicha, tawhid Yagona ilohiy ruh sari olib boriladigan ilmdir, ya’ni Parvardigorni yakkayu yagona vujud deb bilmoq va shu Birlikka intilmoqdир. Ali ibn Usmon Hujvariyning fikriga ko‘ra, tawhid haqiqati Xudoning birligiga imon keltirish, iqror bo‘lish va shunga hukm etmakdir.<sup>71</sup>

Qayd qilish kerakki, shoirning Allohga munojoti bu an‘anaviy boblardangina iborat emas, balki ularda muallifning e’tiqodiy qarashlari, Allohga bo‘lgan muhabbat, avliyo shoirning tafakkur olami oziqlangan mo‘tabar manbalar, takrorlanmas badiiy mahorati o‘z tajassumini topgan. Albatta, tahlillar jarayonida ta’kidlangan jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim.

<sup>70</sup>. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tavsiri Hilol. 6-juz. – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyyati”, 2008. 562-b.

<sup>71</sup>. Komilov N. Tasavvuf. – T.: “Muvorounnahr” – “O‘zbekiston” nashriyoti. 2009. 318 -b.

Ta'kidlash keraki, Alisher Navoiy asarlarida Qur'oni Karim yoki Hadisi shariflarga murojaatning turli shakllari uchraydi. Keltirilgan baytlar va "lxlos" surasidagi mazmunni qiyoslab, shuni aytish mumkinki, unda suraga ma'lum so'zlar orqali ishora qilingan. Bu ishora **abad**, **azal**, **avval**, **bidoyat** (**boshlanishi**, **ibtido**, **avval**) **oxir**, **nihoyat**, **avval**, **oxiru mobayn**, **ayn**, **qadim**, **abadiy** hamda Qur'on oyatiga ishora qiluvchi "**lam'yazal**" so'zлari orqali amalga oshirilgan. Diqqat bilan qarasak, bunga hazrat Navoiy bir so'z turkumiga oid so'zlarni tizib keltirish orqali erishgan. Bu esa ilmi badiiyda "ta'did" san'ati deb yuritiladi.

Andaki bor erdi nihon bu jahon,

Balki nihon dog'i jahondek nihon.

Mazkur baytdan boshlab munojotning ikkinchi qismi boshlanadi. Alisher Navoiy bu qismda "yo'qlik" olami haqida fikr yuritadi. Bu olamda nafaqat biror kishi bor edi, hattoki yerning o'zi yo'q edi. Ko'knинг ham, yerning ham jabr-zulmdan boshqa ishi yo'q edi.

Husn o'ti hangoma furuz o'lmayin,

Ishq eliga moyai so'z o'lmayin.

**Hangoma** – yig'in, to'planish; **furuz** – yoquvchi, yondiruvchi, yorituvchi, portlatuvchi; **moya so'z** – kuyish yonish asosi ma'nolaridagi so'z.

Husn o'ti ham biron yig'inni qizitmas, ishq egalariga ham kuyib-yonish uchun asos yo'q edi.

Baytda istiora sifatida qo'llangan "husn o'ti"dan murod nima degan savol tug'ilishi mumkin. Badiiy adabiyotda "husn o'ti", "husn elining shohi", "husn quyoshi", "husn olami" kabi istioralar ko'p qo'llaniladi. Bu birikmalar botiniy ma'noda Allohoi anglatadi. Mazkur baytda ham "Husn o'ti" birikmasi "ishq eli" bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin."Ishq eli"-o'n sakkiz ming olam yaratiqlari. Ular bir-birini taqozo qiladi. Tasavvufushunos olim N. Komilovning ta'kidicha, "Husn bilan ishq ajralmas, ular bir-biriga intilishi muqarrar qonuniyat".<sup>72</sup>

<sup>72</sup>. Komilov N. Tasavvuf. – T.: "Muvorounnahr" – "O'zbekiston" nashriyoti. 2009, 213 -bet.

Va'z o'qish uchun Sheroz ko'chalaridan o'tib borayotgan Ro'zbehon bir ayolning qiziga qarata:

– Husningni elga ko'p ko'rsatmaki, u xoru bee'tibor bo'ladi, – deb nasihat qilayotganini eshitib, aytadiki:

– Husn hech qachon o'zini pinhon qilishlariga rozi bo'lmaydi – u butun vujudi bilan ishqqa yaqin bo'lishga intiladi. Husn va ishq azaldan bir-birlaridan ajralmaslik haqida ahdu paymon qilganlar.<sup>73</sup>

Shoir “Husn o'ti” sababli ishq va oshiqlik tushunchalari kelib chiqqanligini, olamning yaratilishi asosi – ishq degan qarashni ta'kidlashlash uchun sabablarni birma-bir keltib o'tadi.

Nargisning ko'zi yumilib turganidan uni o'lgudek mast, deb o'yamaslik lozim. U yo'qlik gulshanida chuqur uyquda. Mayxonada hali xumming og'zi ochilmagan. Taqvodorlar esa may uchun jandasini garovga qo'ymagan. Mayni quyib ishva bilan uzatuvchi bola zohidlarni mayning quyqasini ham ichib qo'yishga o'rgatmagan bir davri (249-bet).

Yo'qlik olamida hali “Husn o'ti” - “bahri zot” orom va sokinlikda edi:

Ko'rguzib oromu sukun bahri zot,

Mavj ayon aylamayin mumkinot.

Bayt mazmunini oydinlashtirish uchun “**bahri zot**” – “zot dengizi” va “**mumkinot**” tushunchalari izohga muhtoj. “**Bahri zot**”- Alloh. **Mumkinot** – mumkin bo'lgan narsalar, dunyoda mavjud narsalar. Shoirning ta'kidicha, hali olam yaratilmagan bir davrda “bahri zot” mavjud edi, biroq u orom va sokinlikda edi.

Diniy manbalarda ta'kidlanishicha, dastlab faqat Alloh mavjud edi. Keyin unda o'zini o'zi tomosha qilish istagi paydo bo'ladi va o'z husnining ko'zgusi qilib olamni, uning oshig'i qilib odamni yaratadi. Mazkur qarash munojotning uchinchi qismi baytlarida davom ettiriladi.

Bunda ko'rinvuchi ham, ko'ruvchi ham O'zing eding. Ishqing o'zingga yoqib, o'z husningdan o'zing mag'rur eding

<sup>73</sup>. Ochilov E. Bir hovuch dur. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2011.

Nozir o‘zung erdingu manzur o‘zung,

Ishq kunga xush, husnunga manzur o‘zung.

Allohning husni jilvasiga chek yo‘q edi. Uni ko‘rish uchun son-sanoqsiz ko‘zgu kerak bo‘ldi.

Jilvai husnunng‘a chu yo‘q erdi had,

Ko‘zgu kerak bo‘ldi anga beedad.

Demak, bu Husn jilvasi ravshan ko‘rinishi uchun ushbu ko‘zgu paydo bo‘lgan edi. To‘qqiz qavat osmon - “**lavhai oyinafom**” – “oyna kabi lavha”, bu oyinadagi har bir yulduz Xudoning jamoli uchun ko‘zgudir:

Ochti bu gulshanniki rangin erur,

Har gul anga oyinai chin erur.

Jilvai husn o‘lg‘ali zohir anga,

Bo‘ldi bu mir‘ot mazohir anga.

Vosita bu erdiki qilding tamom,

Ko‘kni to‘quz lavhai oyinafom.

Bo‘ldi safo vajhida har axtari

Ko‘zgu kibi husnung uchun mazhare.

Munojot davomidagi tasvirlarning barchasi oyna – ko‘zguga qaratiladi: to‘qqiz osmon taxta (lavh)si tiniq oynaga aylandi. Osmomonning sof yuzida har bir yulduz seni o‘zida aks ettiruvchi bir ko‘zguga aylandi. Quyosh yuzini ham oynarang qilding. Quyosh tutilishi esa uning zanglaganing belgisidir.

Quyidagi baytda Hazrat Navoiy hamma maxluqlarning yaratilish sababi - Allohning jamoliga ko‘zgu bo‘lganligi uchundir, - degan xulosani o‘rtaga tashlaydi:

Muncha g‘aroyibki misol aylading,

Borchani mir‘oti jamol aylading.

Shoir Alloh qancha g‘aroyib narsalarni yaratgan bo‘lsa, ularning barchasi Uning jamoli oynasida aks etishini ta‘kidlar ekan, Yaratganning olamni yaratishdan asosiy maqsadi inson edi, - degan xulosasi bilan mazkur munojotning to‘rtinchisi qismi boshlanadi.

Ganjing aro naqd farovon edi,  
Lek boridin g'araz inson edi.

«Hayrat ul-abror»da keltirilgan olamning yaratilishidan maqsad insonning yaratilishi ekan, uning sabablari keyingi misralarda ayayonlasha boradi.

Turfa kalomingg'a dog'i komil ul,  
Sirri nihoningg'a dog'i homil ul.

Inson Sen qanday ajoyib gap gapisang - u to'la anglaguvchi, yashirin sirlaringni esa ichida saqlaguvchidir.

Ko'ngliga qilding chu yaqin ganji qism  
Jismini ul ganjga qilding tilsim.

Uning ko'nglini o'zingga yaqin xazina bilib, uning jismini xazinangga tilsim etding.

«Karramano» keldi manoqib anga,  
«Ahsani taqvim», munosib anga.

«Qur'on»da uni maqtab, boshqa hamma maxluqlardan ortiq ko'rib, «Mukarram qildik!» deyilgan. «Eng go'zal qad-qomat unga munosib», deyilgan.

«Karramano», «Ahsani taqvim» iboralari - Qur'oni Karim suralariga ishora. Oyati Karimadagi insonni azizu mukarram qilib yaratilganligi g'oyasini Hazrat Navoiy shu iboralar bilan butun bob mag'ziga singdirib yuboradi.

«Karramano» so'zi («Mukarram qildik!») "Al-Isro" surasining 70-oyatiga ishoradir. Muqaddas oyatda shunday yoziladi: "**Darhaqiqat, Biz odam bolalarini aziz - mukarram qildik va ularni barru-bahrda – quruqlik va dengizda** (otulov va kemalarga) **chiqarib qo'ydik hamda ularga halol-pok narsalardan rizqu ro'z berdik va ularni O'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo'ydik".<sup>74</sup>**

«Ahsani taqvim» («Eng go'zal qad-qomat unga munosib») birikmasi esa "Tiyn" surasining 4-oyatiga ishoradir. "**Darhaqiqat, Biz insonni eng go'zal**

<sup>74</sup> Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. -T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot - malibaa birlashmasi. 2004. 289- bet.

**shaklu shamoyilda yaratdik”.** «Ahsani taqvim» iborasi Alloh taolo inson jasadini ham, ruhini ham eng yaxshi suvratda yaratganiga ishoradir.

Abul-Lays Samarqandiyning mazkur oyat sharhiga izohlari esa quyidagicha: “Ya’ni, “Muhaqqiqki, Biz odam farzandini ko’rimli, raso jismli, raso bichimli, mukammal ravishli, insijomli, komil a’zoli qilib hamda eng go’zal suratda yaratdik. U ikki oyoqda yuradi, unga ikki qo’l ato qildik. Barmoqlari bilan xohlagan narsasini ushlaydi. Unga yana xohlagan narsasini gapiradigan til berdik. So’ng uni balog’atga yetkazdik. Har turli kamolotni unga berdik”.<sup>75</sup> Baytda kelgan “ahsani taqvim” ma’nosi ana shudir.

Navoiy yaratiqlar ichida ulug‘i, mukarrami, “**orifi ul ma’rifat**” sifatlari bilan siylangan insonning ko’nglini Alloh ganjining tilsimi tarzda baholaydi. O’sha xazina esa faqat insongagina aniq bo’lgan va boshqa yaratiqlarga nasib bo’lmagan xazinadir.

Munojotning oxirgi qismida shoir Yaratganga iltijo qilib, “Ey Xudo, meni avvalo shunday odam qilib yaratki, men shu (Alloh) haramining mahrami bo’la olay! Qancha siring bo’lsa, meni ishonchli qil! Boshqa yana nima qilsang, O’zing bilasan”, deb itoatkorona e’tiqodiy qarashlarini, fikrlarini bayon qiladi.

Oncha rozingg’ amin qil ani,

Har ne qilursen – yana Sen bilgani.

Ta’kidlash keraki, munojotning sharhli tahlili jarayonida matnda kelgan “ahli vara”, “mug‘bacha” “mayfurush”, “mayxona”, “zuhd eli”, “durd”, “mug” “dayr” kabi tasavvufiy istilohlar izohiga ham e’tibor qaratish lozim.

**Mayxona** – komil inson majlisi, oriflar suhbat qiladigan joy; **mug‘** – otashparast ruhoni, tasavvufiy ma’noda orif inson; **mug‘bacha** – zardushtiy otashparastlar ibodatxonasi (dayr)ning xizmatkori. Tasavvufiy ma’noda pirning so‘zi va nasihatlari, fayzu tarovatini muridlarga yetkazuvchi kishi; **zuhd** – dunyodan voz kechib, toat-ibodat bilan shug‘ullanish, **zuhd ahli** – dunyodan voz kechuvchilar; **dayr** – zardushtiyalar ibodatxonasi, butxona, nasroniy rohiblar yig‘iladigan joy, shuningdek, dunyo ma’nolarida ishlataladi. Tasavvufda orif

<sup>75</sup>. Kenjabyeva R. Navoiy nazmida Qur’oni Karim oyatlarining talqini. Sino jurnali. 2011 yil , 37, 38, 39, 40-sonlar. 206-bet.

insonlar majlisi, piri komil huzuri; **durd**-mayning quyqasi, qoldig‘i, mayning xum tagidagi loyqasi.<sup>76</sup>

Alisher Navoiy quyida keltirilgan iqtibosda tasavvufiy tushunchalar silsilasi orqali olamning yaratilish sababi – ishq degan qarashni ta’kidlaydi.

Demaki nargis ko‘zi masti xarob,

Balki dam gulshanida masti xob.

Ham boshi **mug‘ dayrida** ochilmayin,

**Ahli vara’** xirqa garav qilmayin.

Ishva bila **mug‘bachai mayfurush**,

**Zuhd elini** aylamayin durd no’sh.

Shoirning ta’kidicha, na yer, na yer yuzida bir kishi yo‘q edi. Hali xoliqiyat mavjud emas edi. Hatto nargiz yo‘qlik olamida chuqr uyquda, mayxonada hali xumning og‘zi ochilmagan, taqvodorlar (zuhd ahli) esa may uchun jandasini garovga qo‘ymagan, mayni quyib ishva bilan uzatuvchi bola zohidlarni mayning quyqasini ham ichib qo‘yishga o‘rgatmagan bir davri.

Matndagi so‘zlar ifodalaydigan ma’no bayt mazmuniga mos kelmasligi matndagi nuqsonlar bilan bog‘liq bo‘lishi Navoiy asarlari nashrida ko‘p uchraydigan holatlardan biridir. Jumladan, quyidagi baytda **adam** (yo‘qlik) so‘zi “mukammal” nashrda **dam** (nafas, lahma) so‘zi bilan almashtirib yuborilgan.

Demaki, nargis ko‘zi masti xarob,

Balki adam gulshanida masti xob.

Hattoki, nargisning ko‘zi yumilib turganidan uni o‘lgudek mast, deb o‘ylamaslik lozim. U yo‘qlik gulshanida chuqr uyquda.

Mazkur baytning har bir so‘zini nashrdagidek nasriy bayonini tuzsak, albatta,g‘alizlik kelib chiqishi tabiiy. So‘zning xato yozilishi ham ma’noga, ham shoir qo‘llagan badiiy san’atni yo‘qqa chiqargan.

Xulosa qilib aytganda, birinchi munojotda Alisher Navoiy Allohning yakkayu yagonaligi, azaliy va abadiyligi, xoliqligi sifatlarini ta’rif qiladi. Olam –

<sup>76</sup> Navoiy asarlari lug‘ati Tuzuvchilar: P. Shamsiyev va S. Ibrohimov. –T.: G. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1973.

Yaratganning husni jamolini aks ettiruvchi bir oyna, Uning siri bir - xazina, inson jismi esa shu xazinaga tilsim, faqat insongagina Allohning siri, ilmu hikmatini bilish nasib qilgan (Qilding ani orifi ul ma'rifat) kabi xulosalari badiiy ifodasini topgan.

### **3.2. IKKINCHI MUNOJOTDA QIYOMAT TASVIRI VA UNI DINIY MANBALAR BILAN QIYOSIY O'RGANISH**

**Tayanch tushunchalar:** qiyomat, “maxluqot zebolari”, “mavjudot ra'nolari”, fayozi jud, katmi adam, masjud, kurai xok, gunbadi mino, shamsa, dark, qosir.

**Nasriy sarlavha:** Maxluqot zebolarining jilvai zuhuridakim, xoliqi ashyo azamati dargohiga ondin sude etmas va mavjudot ra'nolarining hodisai futuridakim, vohidi dono jabaruti borgohig'a kimsa andin ziyyonbude tasavvur etmas (22-bet).

**Tabdili:** Alloh yaratgan go'zal narsalarning jilvalari zuhuri haqida lekin bundan o'sha ashylarni yaratganning o'zining ulug' dargohiga biron foyda yetmaydi va u mavjud go'zallar bilan bog'liq buzug'liq hodisalari to'g'risida bo'lib, bundan donolarning Yagonasi saroyiga biron kimsa zarar etkazishni xayoliga ham keltirmaydi (250-bet).

Nasriy sarlavhada fikr “**maxluqot zebolari**” va “**mavjudot ra'nolari**” haqida boryapti. Sarlavhada qo'yilgan muammo va uning she'riy sharhi ham shu ikki tushuncha atrofida boradi. Bu masalalar:

- “Maxluqot zebolarining jilvai zuhuri” ya'ni yaratilgan olamning jilvalanishidan Xolinqning dargohiga biror foyda yetmasligi;
- Mavjudot ra'nolari – yaratilgan, mavjud narsalar. “Mavjudot ra'nolarining hodisai futuri” (mavjud narsalarning yo'q bo'lishidan) dan vohidi dono jabaruti borgohiga ziyyon yetishini tasavvur qilib bo'lmasligi xususida.

Ey bori mavjudg'a sendin vujud,  
Balki vujud ahlig'a fayyozi jud.

Katmi adamdin neki mavjud o'lub,  
Sojid o'lub, sen anga masjud o'lub,  
Kimki boshi sajdada – masjudisen,  
Kimki yuzi qiblada – ma'budisen.

**Fayozi jud** – fayz berib turuvchi vujud; **katmi adam** – yo'qlik pardasi; **masjud** – sajda qilinadigan. Shoir dastlabki uch baytda dunyoda bor mavjudotga vujud bo'lgan Allohnинг “vujud ahli”ga fayz berib turuvchi ekanligini, “yo'qlik”dan nimaiki paydo bo'lgan bo'lsa, Unga sajda qilishini ta'kidlaydi. Ilohiy manbalarda Allohdan o'zga ibodat qilishga munosib zot yo'qligi ko'p bora ta'kidlanadi. Masalan, Hijr surasi, 98-oyatida shunday deyiladi: “**Bas, Siz Rabbingizga hamd bilan unga tasbih ayting va sajda qiluvchilardan bo'ling**”. Qur'oni Karim oyatlaridagi mazmun Hazrat Navoiy tomonidan misralar mag'ziga singdirilib yuborilganligini sezish qiyin emas.

Qur'noni Karimning “Baqara” surasida shunday deyiladi: “**Osmonlar va yerdagi bor narsalar Unikidir. Osmonlar va yerni hifzu himoya qilib turish Uni qiynamaydi**”. Osmonlardagi farishtalar, quyosh, oy, yulduzlar, yerdagi jonlijonsiz mavjudotlar, hamma-hammasi Allohnинг mulkidir. Borliqdagi barcha narsa Allohgа tegishli, Uning bandalari, Uning qo'l ostidadir. Alloh mavjudotlarining ishlarini tasarruf qiladi, o'zlarini himoya qiladi. Alloh taolo osmonlaru erni muhofaza qilishdan charchamaydi. Bu ish U Zotga hecham og'irlik qilmaydi. Bundan Allohnинг qudrati naqadar cheksiz ekanini biliб olamiz.

Bu haqiqatga necha ming yillar davomida aqli raso har bir inson guvoh bo'lib turibdi. Alloh taolo yero osmonlarni hifzu himoyasida saqlab kelmoqda. Hech kimning qo'lidan kelmaydigan bu ish har narsaga Qodir Zotga qiyin emas. Koinotdagи eng kichik zarradan tortib, eng buyuk sayyoralargacha bo'lgan mavjudotlar Yaratganning amriga bo'ysunib turibdi.<sup>77</sup>

Hazrat Navoiy munojotning keyingi baytlarida o'z fikr – qarashlarini asoslash uchun “Baqara” surasida ilgari surilgan ilohiy hikmatlarga tayangani shubhasiz. Shoir kurai xokning tez yoki sekin aylanishi yoki junbushga kelishi

<sup>77</sup>. Ziyovuddin Rahim. Qur'on – qalblar shifosi. Qayta ishlangan uchinchи nashri, 32-b.

ham, tinchligi ham, shuningdek, yaralishi ham, yo‘q bo‘lib ketishi ham Allohning irodasi ekanligini ta’kidlaydi:

Munchaki aflok sabuk sang erur,  
Yo kurai xok kuhan lang erur.  
Sendin alar junbishu oromi ham,  
Uylaki, ijodi ham, e’domi ham,  
Gunbadi mino bila toqi sipehr,  
Kim anga sham’ anjum erur, shamsa - mehr.  
Darkida qosir bo‘lubon hislari,  
Chun ko‘rubon aql muhandislari

**Gunbadi mino** – gumbaz, ko‘k gumbaz, oltin bezakli gumbaz; **shamsa** – uyning ship va oldingi devorlariga va peshtoqlarga quyoshga o‘xshatib to‘garak shaklda ishlangan naqsh; **dark** – fahm va idrok bilan topish, sezish;bilish; **qosir** – ojiz.

Oxirgi baytda insonning aqli Allohning buyukligini anglashga ojizlik (“darkida qosir”) qilishi ta’kidlanadi. Shoir bu o‘rinda Allohning siru sinoatlarini bilishga aql muhandislari – insonlarining ojizligini ta’kidlash orqali Yaratganning tengsiz qudrat, ilm sohibi ekanligiga e’tibor qaratadi. Har bir narsani biluvchi Alloh taoloning cheksiz ilmi oldida yeri ko‘kdagi inson hamda farishtalarining bilganlari hech narsa emas. Bandalar Alloh payg‘ambarlar orqali bildirgan narsalarmigina biladilar xolos. Bu haqda esa Qur’oni Karimning “Baqara” surasi 255-oyati karimasida shunday deyiladi. **“(Odamlar) Uning ilmidan faqat (U) istagan miqdoricha o‘zlashtirurlar”**.<sup>78</sup>

Shoirning tasavvur dunyosi kengligini original tashbehlarni qo‘llaganligidan ham ko‘rish mumkin. Uchinchi baytda havorang gumbaz bilan Osmon toqidagi yulduzlar – sha’m, quyosh – naqshinkor qubbaga o‘xshitilgan.

Shoir butun olamning mavjudligi yoki yo‘qligidan “vohidi dono jabaruti borgohi”ga hech qanday naf ham, hech qanday ziyon ham bo‘lmasligini qat’iy

<sup>78</sup>. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. –T.: “Toshkent islam universiteti” nashriyoti-matbaa birlashmasi. 2004. 42-b.

ta'kidlaydi. Chunki ularning barchasi Allohning nazorati ostida harakat qiladi, Yaratganning qahri bilan bularning hammasi ostan-ustun bo'lishi mumkin. Buning uchun Uning birligining qahri etarli. Bu haqda "Ra'd" surasining 39-oyatida shunday deyilgan: «**Alloh nimani xohlasa, mahv qilur, nimani xohlasa, sobit qilur**».

Tund el olinda ovuch xokdek,  
Ildirim o'trusida xoshokdek  
Sarsari qahring chu bo'lub ko'hkan,  
Tog' bulut yanglig' bo'lub na'razan.  
Sovrulubon ko'k bir etak kul kibi,  
Qo'zg'alib anjum bir ovuch gul kibi.

Sen hosil etgan bir bo'ron oldida bular hammasi bir siqim tuproq, yoki shamol qarshisida bir tutam xashak misolidir. Uning qahri sababli tog'lar bulutlar kabi kuchli na'ra tortadi, osmon bir etak kul kabi sovuriladi, yulduzlar bir hovuch guldek qo'zg'alishi mumkin.

"Ko'k bir etak kul", "bir zumda olam yo'qlikka yuz tutgan" kun, ya'ni Qiyomat kuni tasvirini bevosita sayyoralar tasviri bilan bog'liq davom ettiradi:

Mayl adam dashtig'a aylab **Zuhal**  
Par butub egnida nechukkim jual.  
**Qat' hayotin ko'rubon Mushtari**  
Taxtavu tobuti bo'lub minbari.  
Tez etibon qatlig'a **Bahrom** tig',  
Tortibon o'z holig'a hardam darig'.  
Bo'yla qaro kun aro **Mehri** munir,  
Tiyra bo'lub o'ylaki bir kursi qiyr.  
**Zuhra** ushotib daf ila changini,  
Navha ko'kida tuzub ohangini  
**Tiyr** iligida ne qalam, ne raqam,  
Balki raqam oyati «jaffal-qalam».  
Ahli adam shomig'a zulmat fizoy,  
Tahti shioi abadiy ichra oy.

**Tabdili:** Zuhal esa yelkasidan qo'ng'iz singari pat chiqarib, adam dashtiga mayl ko'rsatishi mumkin. Mushtariy o'z hayotini tugagan hisoblab, o'ltirgan minbari taxta va tobutga aylanishi turgan gap. Bahrom (Mirrix) ham o'zini o'ldirish uchun tig' tortib, o'z ahvoliga dod solib yig'lagani yig'lagan. Bunday qora kunda yorug' quyosh qorayib, kuygan kulchaga aylanadi. Zuhra esa chirmanda va changini sindirib, taqdirga mos kuy tuzib, Atorud (Tiyr) qo'lida na qalam, na raqam - ularning o'rnida «jaffal-qalam» oyati (qalam yozishdan to'xtagan) raqam etiladi (251-bet).

Atorudning qo'lida qalam sifatida tasvirlashning boisi, u shoirlar va kotiblar homysi deb qaraladi. Shoир ustalik bilan har bir sayyora timsollarini ham bayon etib o'tgan. Oy abadiy yer osti shu'lalari bilan yo'qlik ahllari shomiga zulmatini oshirgani oshirgan.

Alisher Navoiyning sayyoralar bilan bog'liq tasvirlari dostonning boshqa boblarida ham bor. Jumladan, bunday tasvirlarni dostonning me'roj (ko'tarilish) tasviriga bag'ishlangan bobida ham uchratamiz. Mazkur na'tda sayyoralar tasvirida ularning osmon qavatlarida joylashgan o'rniga qarab, ya'ni quyidan yuqoriga qarab borganligini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, Oy – birinchi, Atorud – ikkinchi, Zuhra – uchinchi, Quyosh – to'rtinchi, Mirrix – beshinchi, Mushtariy –oltinchi, Zuhal – yettinchi. Mazkur sayyoralar bilan bog'liq tasvirlar mifologik va falakiyot ilmiga tayangan holda tasvirlanadi.

Hazrat Navoiy ijodida tasvirlangan har bir voqeа hodisaning mohiyati hayot haqiqatiga mos tasvirlanishi muallifning qomusiy ilm sohibi ekanligidan dalolat beradi. Chunonchi, yuqorida ikkinchi munojotdan keltirilgan baytlarda sayyoralarning tasviri va joylashishi yuqoridan ya'ni yettinchi sayyoradan (Zuhal) birinchi (oy) sayyoraga qarab kelgan. Buni sababini esa matndan izlash lozim. Matnda qiyomat kuni tasviri berilgan.

Yer tutubon avju falak tah tushub

Gah bu chiqib yuqori, ul gah tushub.

Yer balandga ko'tarilgan, falak esa quyiga tushib ketgan, goh u yuqori ko'tarilsa, bunisi pastga tushib ketadi. Mazkur tasvirlar uchun asos esa Qur'oni

Karimning "Qoria" muborak surasi hisoblanadi. Qoria – zarba beruvchi, ya'ni qiyomat. Ushbu surada ta'kiclanishicha, tog'u toshlar shunchalik og'ir jism bo'lismiga qaramay, Allohnning amri bilan to'zigan yung kabi to'zonga aylanishi bilan bog'liq qiyomat hodisalari sifatida qayd qilinadi. Munojotda yer va osmoning ostun-ustun bo'lishi qiyomat hodisalari sifatida ta'kidlanishi bilan bir qatorda Allah olamni yo'qdan bor qilishi va borni yo'q qilish qudratiga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Shoir "falakning quyiga tushib" ketish holatini tasvirlash uchun ham sayoralarni yuqoridaan quyiga qarab tasvirlagan. Bu tasvirlardan asosiy maqsad: "...sayyoralarning fazodagi o'mini anglatish, aniq ilmiy ma'lumotlar berish bo'lmay, balki fanga tayangan holda go'zal badiiy manzaralar yaratish, falsafiy, axloqiy, ma'naviy qaraschlarni ifodalash va hokazolardan iborat".<sup>79</sup>

Bir ne cha dam borchag'a rustaxez,

Toki fano sargari esguncha tez.

Ul chau esib toza vagar xud kuhun, Bir

dam aro "kon a kaan lam yakun"

**Rustaxez** – g'avg'o solmoq; **fano** – 1. yo'q bo'lismish; tugatilish; o'lismish baqosizlik; 2. O'zlikni yo'qtib, butun borliqdan kechib, ilohiyatga singish; **vardatirgul**; **kuhun (kuhan)** – 1. eski, qadimgi; 2. Titilgan, ilviragan.

Bir necha vaqt kuchli va sovuq shamol, dahshatli bo'ron va dovul bo'lismish fano shamoli esguniga, faracha uchun bir necha dam g'avg'o va to'polon bordir. U shamol xoh yangi bo'lsin, xoh eski bo'lsin, esgan chog'ida bir dam ichida "bo'lgan, ammo be'mmaganday" bo'lib qoladi.

Munojotning, nasriy sarlavhasidagi butun olamning bor yoki yo'qligidan Yaratganing azamoti va jabarutiga hech qanday naf ham, hech qanday ziyon ham bo'lmasligi bilan 'oog'liq qat'iy ta'kid quyidagi baytlarda nazmiy sharhlanadi:

Tengri qolib boqiyu dayyor yo'q,

Ver muabbad bo'lub ag'yor yo'q

Arzu falak yo‘qidinu boridin,  
Borchaning ixfosiyu izhoridin,  
Ne azamat ichra anga sud o‘lub,  
Ne jabarutg‘a ziyon bud o‘lub, ...  
So‘z “limanil-mulk” o‘lub ul dam anga,  
Kim Angadur mulk, musallam anga.

“Ul kunda (qiyomat kunida) faqat Alloh ta’olo boqiy qoladi, boshqa yashovchi tirik zot (dayyor) qolmaydi. Yor abadiy qoladi, lekin unga sherik bo‘ladigan ag‘yor yo‘q. U zot esa yerusmonning borligiyu yo‘qligidan, barchaning yashirishiyu oshkor qilishidan ne ulug‘lik ichra bir foyda ko‘zlaydi, ne buyukligiga bir ziyon etadi. Ul kun U zot: “Limanil-mulk” – “Bu kun mulk – podshohlik, hukmronlik kimniki?” deydi va O‘zi javob beradi; u kun podsholik, hukmronlik faqat Unikidir, Ungagina taslim bo‘lgandir”.

Navoiy misralari mag‘zidagi ma’noni anglash uchun esa “G‘ofir” surasidagi quyidagi muborak oyat yordam beradi: **“U kun ular (qabrlaridan tirlilib) chiqurlar. ular(ning qilmishlari)dan hech bir narsa Allohgaga maxfiy qolmas. (U qiyomat kunida butun mayjudotu maxluqot halok bo‘lgach, Alloh aytur:) «Bu kun mulk (hukmronlik) kimni- ki?» (O‘zi javob berur:) «Vohidul-Qahhor (yagona va bemisl qudrat egasi) bo‘lmish Allohnikidir!».**

Ta’kidlash joizki, munojot Alisher Navoiy iltijolari bilan yakunlanar ekan, unda shoirning irfoniy, didaktik qarashlari satrlar mag‘ziga singdirilib yuborilgan.

Yo Rab, agar etsam o‘shul kunga jazm,  
Yoki burun aylasam ul yong‘a azm.  
Ul nafas imon manga hamroh qil,  
Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil.  
Rahmati omingni nisor et manga,  
Lutfi amiming manga yor et manga.

Shoir qiyomat kuni iymoni hamroh bo‘lishini, ko‘nglida Allohdan boshqaga sevgisining mavh bo‘lishini, barchaga Uning rahmati, lutfi yor bo‘lishini so‘raydi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ikkinchi munojotda Qiyomat kuni va uning dahshatli manzaralarini diniy manbalarga tayangan holda badiiy ifoda etadi.

### 3.3. UCHINCHI MUNOJOT MATNI USTIDA ISHLASH

**Tayanch tushunchalar:** Vujudi mutlaq, adam, adam faromushxonasi, shafoat, sharif, latif, “bu’sira mo fil-qubur”, “hussila mo fis-sudur”, “Yavmaizin moxalaqallohu fih”, “Yavma yafirrul-mar'u min axih”, qiyomat, Hokimi odil, juzv, ajzo.

**Nasriy sarlavha:** Ul ma’nidakim, olam va odamni vujud koshonasidin adam faromushxonasiq‘a solmoq **vujudi mutlaqdin** o‘zga vujud tutmas va bu ma’nini vujud ahli andin o‘zga vujudqa mutlaqo yovutmas va **isyon zulmatida** ayoqdin tushganlarga xulosai olam shafoati dastgir durur va ul shafi’-shafoat qilg‘onlarga **xoliqi olam** va odam shafoat pazir (25).

**Tabdili:** Olam va odamni vujud koshonasidan yo‘qlik faromushxonasiga solmoq **vujudi mutlaqdin** o‘zga vujud turmasligi haqida bo‘lib, bu ma’nodagi fikrni vujud ahli (moddiyunlar) boshqa vujudga mutlaqo yaqin keltirmas va isyon zulmatida nazardan qolganlarga Olam yakunining shafoati yordam ko‘rsatur va o‘sha shafoat ko‘rsatganlarga olam va odamni yaratgan shafoat tilagay (252-bet).

Nasriy sarlavhada qo‘yilgan masalalar (ma’ni) quyidagilar:

- Olam va odamni borliqdan (vujud koshonasidan) yo‘qlikka solish vujudi mutlaq (Alloh)dan bo‘lakning ixtiyorida emas;
- “Vujud ahli” (Alloh tomonidan xalq qilinganlar) bu ish - bordan yo‘q, yo‘qdan bor qilish faqat Allah -“vujudi mutlaq” tomonidan sodir etilishi;
- Isyon zulmati (qiyomat)da nazardan qolganlar (gunohkorlar)ni “olam shafoati” (payg‘ambar Muhammad s.a.v)ning shafoati dastgir –tutib qolishi;
- Payg‘ambar shafoat qilganlarga “Xoliqi olam va odam” - Allah shafoat tilashi haqida.

Nasriy sarlavhada fikr “vujudi mutlaq” va “Xoliqi olam” (Alloh), “vujud ahli” (Allohga itoat qiluvchilar), “isyon zułmatida” tushunchalari atrofida boradi.

Mazkur munojotda ham avvalgi munojotlardagi fikrlar tadrijiy rivojlanitiriladi. Munojot shoiring Illoha qarata murojaati va Uning sifatlarini maqtash bilan boshlanadi. Alisher Navoiy barcha yaratiqlarga qahr etish ham, lutf qilish ham Illohnинг ixtiyorida ekanini aytib, ularning har birini garchi latif qilib yaratgan bo'lsa-da, ammo ular ichida Insonni eng sharif qilib yaratganligini ta'kidlaydi:

Ey qilibon qahr ila lutfung shior,  
Borni yo'q aylamaku yo'qni bor,  
Yo'q edilar har neki – bor aylading,  
Fahmu xirad borig'a yor aylading.  
Ham to'quz aflokni chekting rafi',  
Ham kurai xokni yoyding vasi'  
Gar falakiyotu anosir durur,  
Borchcha samin qadr javohir durur.  
Koniyu hayvoni, agar xud nabot,  
Har biri bir gavhari oliy sifot.  
Borchasini garchi latif aylading,  
Borchadin insonni sharif aylading.

Shoir olamda yaratilgan barcha narsalar bir-biriga bog'liqligini, biroq Alloh istasa, ostin-ustun qilish Uning izmida ekanligini, bu esa aql egalari uchun ham qo'rquinchligini ta'kidlaydi va o'quvchini qiyomat kuni tasviriga tayyorlab boradi. Quyidagi baytlarda qiyomat kuni tasviri va jarayonlari, qayta tirilish, azob-uqubat holatlari badiiy ifoda etilgan:

Kimki hisob aylasalar mavtidin,  
Ming yilu o'n ming yil o'tub favtidin,  
Qolabiniig daftari ajzo bo'lub,  
Juzvlari loyatjazzo bo'lub.

Zohir o'lur «bu'sira mo fil-qubur»,  
Jilva qilur «hussila mo fis-sudur».

**Tabdili:** Kimki, hisob qilsalar, vafotidan keyin, dunyodan ketganidan ming yil va o'n ming yil o'tib, tan qolipining daftari (nomai a'moli) muqovalanmagan bir juz bo'ladi, juzlari esa bo'laklarga bo'linmaydigan bo'ladi. Ana shunda Qur'onidagi: "**bu'sira mo fil-qubur**" («Qabrda nima bo'lsa, sochiladi») oyatining ma'nolari oshkor bo'ladi, "**hussila mo fis-sudur**" (ko'krakda nima bo'lsa ochiladi) oyatining ma'nosi ochiq, porloq suratda ko'rindan (252-bet).

Qur'oni Karimning "Odiyot" surasidan o'qiymiz: "Axir, u bilmaydimi (qiyomat qoyim bo'lib), qabrlardagilar (tiriltirilib) chiqarilganida va dillardagi sirlar oshkor qilinganida – ana o'sha kunda, albatta, Parvardigorlari ulardan (qilib o'tgan ishlaridan) xabardordir!".<sup>80</sup>

«Yavmaizin moxalaqallohu fih»  
«Yavma yafirrul-mar'u min axih».  
Ne kun o'shil ohu nadomat kuni,  
Ohu nadomat ne, qiyomat kuni.

U (qiyomat) kunda undagi (yeru osmondag'i) Alloh yaratgan narsalar oshkor bo'lur. U kunda kishi o'z akasidan va ukasidan... qochur. E voh, o'sha kun qanday ohu nadomat kundir, ohu nadomat nedir, asl qiyomat kundir.

Qiyomat kuni tasviri Qur'oni Karimning juda ko'p suralarida tasvirlangan. Bu kun, ya'ni Alloh tomonidan belgilangan qiyomat kuni avval o'tgan, keyin qolgan ham bir joyga to'planadi. Bu kunning azoblaridan insonni na mol-dunyo, na mansab, na hasab-nasab, na yor-do'stlari qutqara oladi. Yuqoridagi baytlarda Qur'oni Karimning "Abasa" surasining 34-36 oyatlariga ishora qilingan. Unda yozilishicha: "**O'sha kuni kishi o'z birodaridan qochur. Yana onasi va otasidan ham, xotini va o'g'ullaridan ham (qochur)**".<sup>81</sup>

Qiyomat kuni esa eng shiddatli kundir. Hazrat Navoiy bu kunning tasvirini shunday beradi: ... har biri o'z ahvoldidan afsus va pushaymonda. Bunisi o'z dardi

<sup>80</sup>. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. –T.: "Toshkent islam universiteti" nashriyoti – matbaa birlashmasi. 2004. 599-bet.

<sup>81</sup>. Yuqoridagi manba, 585-bet.

uchun voy-voylasa, unisi o‘zi chekayotgan qiyinchilikdan hoy-hoylab yig‘lagani yig‘lagan. Ularning ohlari mahshar kunidagi betoqatlikdan bo‘lib, bu yig‘i emas, balki buyuk dahshat sodir bo‘lgan soatdir. Nomai A’mollar yozilgan qog’ozlar odamlar orasida uchib yurar, ularni ko‘rib, hammaning yuragi qon edi. Ularning barchasida o‘zboshimchalik bilan badxo‘yliklar, badxo‘ylikkina emas, yuzqaroliklar yozilgan edi. Onasi qiziga qaramasdi, otasi o‘g‘liga. Hammalarning og‘zida hasrat nidolari! U yerda odil hukmdor (Alloh) hukmronlik qilar, binobarin, «uning podsholigi doimiy bo‘lsin, hukm chiqarish va sha’n-shavkat uning qo‘lida»dir.

Hokimi odil bo‘lubon hukmron,  
«Doma lahul-mulk, va lahul-hukm shon».

Mazkur munojotda Muhammad s.a.v.ning shafoatlilik sifatlari qiyomat tasviri jarayonida vasf qilib o‘tiladi.

“Hokimi odil” ning zulm shu’lasi avjiga minib, qahr dengizi mavj ura boshlaydi (jabborlik va qahhorlik sifatlari). Bunday lahzalarda avliyolar ham o‘ylanib, payg‘ambarlar ham hayratga botishlari turgan gap. Bundan arablardan chiqqanigina (Muhammad s.a.v.) mustasno bo‘lib, faqat u xalqni himoya eta oladi. Goh u sirot ko‘prigi ustigacha chiqib, bir necha lahma (savob va gunotlarni tortuvchi) tarozu oldida yelib-yuguradi. Goh uning buyuk himmati og‘ziga kuch berib, o‘zining mayin tovushi bilan: «Ey mening ummatlarim, hoy mening ummatlarim!» - deydi. Oxirgi zamon payg‘ambari kimni shafoat etsa, Tengri qabul qiladi.

Har ne tamannoki rasul aylabon  
Borchasini tengri qabul aylabon,  
Bo‘lsa ne maqsudg‘a mayli aning,  
Haqdin o‘lub barcha tufayli aning.

Mazkur munojot ulug‘ shoirning Muhammad Mustafoning shafatlari haqidagi qarashlari bilan yakunlanadi. Albatta, bu qarashlarning asosi ham Quroni Karim oyatlari hisoblanadi. Alloh taolo “Anbiyo” surasining 107 oyati karimasida shunday marhamat qiladi: «Biz seni olamlarga faqat rahmat qilib yubordik».

Imom Samarqandiy rohmatullohi alayh: «**Biz seni olamlarga faqat rahmat qilib yubordik**», degan oyatni sharhlab, ya’ni, insonlar va jinlar yoki barcha maxluqotlarga rahmat qildik. Mo’minning hidoyatiga sabab bo‘lganlari uchun mo‘minga, munofiqning joni omon qolgani uchun munofiqqa, kofirdan azob kechiktirilgani uchun kofirga ham birday rahmat bo‘lganlar, deydi. Ibn Abbos roziyallohu anhumo: «U zot mo‘minlaru kofirlarga barobar rahmatdir. Chunki yolg‘onchiga chiqaruvchi ummatlarga etgan turli azob-uqubatlardan bu ummatning iyemonsizlariga Payg‘ambar alayhissalom sababli omonlik berildi», degan. Qarangki, Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning rahmat bo‘lishlari har uch toifa—mo‘minlar, munofiqlar va kofirlarni birday qamrab olmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy mazkur munojotda yaratilgan butun olam Allohning lutfi bilan yaratilgan bo‘lsa-da, qahri ila yana yo‘q bo‘lishini uqtiradi. Shuningdek, mahshar kuni tasviri, qiyomat dahshatlari, insonlarning o‘zлari bilan o‘zлari ovora bo‘lib qolishlari bilan bog‘liq tasvirlarni berar ekan, qiyomat kunida gunohkorlar Muhammad sallallohu alayhi vasallamning shafoati va O‘zi (Alloh)ning karamiga sazovor bo‘lishini Ilohdan iltijo qilib so‘raydi.

### **3.4. TO‘RTINCHI MUNOJOTDA YARATGANING KARAMLILIK SIFATI VA UNING BADIY IFODASI**

**Tayanch iboralar:** Karam, isyon, gunoh, afv, marhamat, itoatsizlik, “qora a’mol”, “oq aylamak”, xirqa kiygan darvesh, ahli vara’ maxfirat.

**Nasriy sarlavha:** Karam daryosi vasfidakim, inoyat nasimidin mavjg‘a kirsa, isyon xasu xoshokin qirog‘larg‘a iturur va ko‘hi gunohdin langar solg‘onlarning garonjonliq kemasini bir pari kohdek maqsud sohilig‘a yetkurus (29)

**Tabdili:** VASF karam daryosi haqida bo‘lib, inoyat nasimi esgach, mavjga kirsa, itoatsizlik xas va xashaklarini qirg‘oqlarga chiqarib tashlaydi va gunoh tog‘idan langar tashlaganlarning sust yuradigan kemasini bir dona pat yoki somon parchasidek maqsad sohiliga yetkazadi (254-bet).

Nasriy sarlavhada qo‘yilgan masalalar:

- Allohning karami va sifatlari xususida;
- Allohning avf va marhamating cheksizligi to‘g‘risida.

Mazkur munojot shoirning o‘zi ta’kidlaganidek “karam daryosi” vasfi haqida. Bu karam Allohga tegishli. Bu karam oldida “gunoh tog‘i xuddi par kabi”dir.

Ey karaming ollida ko‘hi gunoh,  
 Elga uchub o‘ylaki bir parri koh.  
 Nechaki jam’ o‘lsa somon ko‘h-ko‘h,  
 El qoshida anga ne bo‘lg‘ay shukuh  
 Jumla jahon ahli xato qilsalar,  
 Jurm bilan noma qaro qilsalar,  
 Nomani oq aylamak oson sanga,  
 Kim yo‘q o‘shul amrda nuqson sangat.

**Tabdili:** Ey Alloh, karaming oldida gunoh tog‘i bir dona pat yoki somon parchasidek elga uchgaydir. Somon tog‘-tog‘ qilib uyulgan bo‘lsa ham, el oldida qanday qilib maqtanishi mumkin! Butun dunyo xalqi agar bir xatoga yo‘l qo‘ysa, yoki bir aybli ish qilib, taqdirini qora qilsa, taqdirini oq qilish Senga oson bo‘lib, amringda biron nuqson bo‘lishi mumkin emas (254-bet).

Yuqorida keltirilgan baytlarda Alisher Navoiy Allohning marhamati, nomai a’mollari “qora” bo‘lganlarni “oq” qilishi ham, ya’ni kechirishi Uning uchun oson ekanligi ta’kidlaydi. Mazkur fikrlarning diniy manbasi Qur’oni Karim muborak suralari ekanligi anglash qiyin emas.“Hadid” surasining 28-oyatda shunday yoziladi: “Ey iymon keltirganlar! Allohga taqvo qilinglar va Uning Payg‘ambariga iymon keltiringlar. U zot O‘z rahmatidan sizlarga ikki hissa beradir va sizlarning yurishingizga nur beradir hamda sizlarni mag‘firat qiladir. Alloh kechiruvchi, rahmli zotdir”.

Keyingi baytlarda shoir insonlarning “qora a’mol”larini Allohning lutf quyoshi – mehri bilan avf qilinishini tamsillar orqali izohlaydi. Afvni chiroq, nurga mengzaydi. Agar itoatsizlik tunida gunohkor biror gunoh qilmasa, Allohning avf chiroq‘i qachon yorug‘ yonishi mumkin?! tarzidagi fikrlarida ulug‘ shoirning

insonparvarligi to‘la ma’noda namoyon bo‘ladi. Shoir Allohnning maxfiratini ehson bulutiga qiyoslaydi:

Afv charog‘i qachon o‘lg‘ay yoruq,  
Qilmasa isyon tuni osiy yozuq?  
Qilmasa oluda etak xirqapo‘sh,  
Hojat emas bahri inoyatqa jo‘sh.

Agar jinoyat o‘ti kuchli yonmasa, ehson bulutlari qachon o‘z tomchilarini to‘kadi?! Xirqa kiygan darvesh kiyimining etagi kir bo‘lmasa, dengizdagi iliq suvgaga unda xojat bo‘lmaydi.

Shoir fikrlarini tamsillar orqali dalillab borib, “Yaratganning rahmatiga, mag‘rifatiga kim ko‘proq haqli” degan savolga javob izlaydi. Yana tamsillarni qatorlashtirib keltiradi:

Ahli vara’ gar bori muzd olsalar,  
Noma siyah xayl boqib qolsalar,  
Aylamaging afvi xato bas qani?  
Bahri karam birla ato bas qani?  
Lutfu karam bahri labolab turub,  
Bir necha lab tashnaning og‘zi qurub,  
Barchalarin tashna lab o‘lturmaging  
Yo bu tengiz tegrasidin surmaging  
Mumkin erurmu ekin oyo bu ish?  
Aylagasesen sen har ish, illo bu ish!.

Xudojo‘yman deganlar hamma haqni olib qo‘ysa, peshonasi sho‘r kishilar nima qiladi? Ularning xatolari bo‘lsa, xatolarini afv etganining qani? Bundaylarga saxovat ko‘rsatib, ularga ataganlaring qani? Lutf va ehson dengizi to‘lib-toshib turganda, ba’zilarning tashnalikdan og‘izlari qurib, ularni shu xolatda o‘ldirsang yoki bu dengiz yoqasidan nariga surib tashlar ekansan, shunday ishga yo‘l qo‘yish mumkinmi? (254-bet).

Shoir o‘zi izlagan savolga qisqa va lo‘nda qilib shunday javob qaytaradi: “Yaratganining rahmatiga, afv va mag‘rifatiga gunohkorlar haqliroq”dir.

Har kishi osiyu gunohkorroq,

Afv ila rahmatqa sazovorroq.

Har bir odam qancha osiy va gunohkor bo‘lmasin, u shuncha afv hamda muruvvatga loyiqidir.

Alisher Navoiy ta’kidicha, Allohning avf va mag‘firatiga gunohsiz odam muhtoj emas ekan, unda Uning bu muruvvati kim uchun?

Agar taqvodorlarga mukofot behisht bo‘lsa, isyonchi esa do‘zax o‘tlarida tanasi kuysa! Unisi jannat bog‘ini topib, farog‘atda bo‘lsa! Bunga esa do‘zaxda dard chekib, kuyib-yonish bo‘lsa! Ixtiyoridagi lutf va karam xazinasini nima qilasan? Uni marhamat qilib kimlarga berasan?

Xon anga yoyg‘ilki erur mushtahi,

To‘q emas, ar esa bo‘lur mumtali.

O‘tsa qurub qolg‘on ekindin bulut,

Bahr uza yo asradi yo yog‘di tut.

Ansab anga luqmaki ul och erur,

Avli anga to‘nki yalang‘och erur.

Sen, axir, dasturxon yoz ochlarga! To‘qlar ortig‘ini eya olmaydilar, aks olda qorinlari shishib ketishi mumkin. Axir bulutlar chanqab, qurib yotgan ekinga yog‘may, dengiz ustidan o‘tayotganda yog‘adimi - bundan nima foyda! Kimki och bo‘lsa, luqma uning nasibasidir. To‘nnikim yalang‘och bo‘lsa, o‘sha kiygani durust-ku! (255-bet).

Ulug‘ shoiring butun qarashlari insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan.U Yaratgandan osiylarning gunohini kechirishini so‘raydi va o‘z qarashlarini “Bu gaplarimning hammasi afsonasifat gaplardir. **Kimki Senga umid bog‘lagan bo‘lsa – u xotirjamadir**” degan ilohiy kalomning mazmuni orqali o‘z fikrlariga yakun yasaydi.

Bu bori afsonai behudadur,

Kimki sen ummidi sen osudadur.

Munojot so'ngida Yaratgandan gunohkorlarning gunohidan kechishini, o'zining ham afv etishini so'raydi. Unga hur ham kerak emas, jannat ham. Uning uchun U bo'lsa bas, shuning o'zi etadi:

Ermas anga hur ila jannat havas,  
Sen anga bo'lg'ilki, anga ushbu bas.

Xulosa, qilib aytganda to'rtinchi munojot oldingi munojotlarning mantiqiy davomi va yakuni sifatida shoirning falsafiy-irfoniy qarashlarini o'zida aks ettirgan. Munojotda "gunohlari chek-chegarasiz bo'lsa ham, afv qilmasang, imkon yo'q" tarzidagi qarashlarida shoirning Yaratganning avf va marhamatidan umidvorlik va ishonch hislari yorqin sezilib turibdi.

#### *Savol va topshiriqlar:*

1. Munojot nima? U bilan bog'liq nazariy qarashlarni izohlang.
2. Avvalg'i munojotda Allohning qanday sifatlari haqida fikr yuritilgan? Ularni aniqlab, "asmoi husna"dagi sifatlari bilan solishtiring.
3. Ikkinchchi munojotda qo'llanilgan "Ko'k bir etak kul", "bir zumda olam yo'qlikka yuz tutgan" mubolag'alari orqali shoir nimaga urg'u bergen bo'lishi mumkin?
4. "Qiyomat" qanday kun? Ikkinchchi munojotda uning tasviri qanday keltirilgan?
5. Ikkinchchi munojotdagi arabiq iqtiboslarning manbalarini aniqlang va ularni qo'llashda shoir mahorati qirralariga baho bering.
6. Uchinchi munojotning nasriy sarlavhadagi "**vujudi mutlaq**" va "**xoliqi olam**", "**vujud ahli**" tushunchalarida haqida fikr yuritib ko'ring, ular orqali qanday g'oyalar ilgari surilgan?
7. Vujudi mutlaqning yo'qlik (adam) va borliq olamidagi mavqeini qanday tasavvur qilasiz?
8. Zohir o'lur «bu'sira mo fil-qubur»,  
Jilva qilur «hussila mo fis-sudur», baytidagi arabiq iqtiboslarning manbalarini aniqlang, shoir qarashlarini manba bilan solishtiring.

9. Alisher Navoiyning ikkinchi munojotda “Hokimi odil”ning qahr dengizi mayj ura boshlashi” haqidagi fikrlariga munosabatingizni tizimlashtiring va manbaga tayanib ilmiy sharh yozing.
10. Alisher Navoiy uchinchi munojotda Allohning karamlilik sifatlariga qanday ta’rif beradi?
11. Uchinchi munojotning nasriy sarlavhasidagi “adam koshonasi” haqidagi shoirning fikrlarini o‘z qarashlaringiz bilan solishtirib ko‘ring.
12. Shoir nima uchun uchinchi munojotda Allohning maxfiratiga sazovorlarni ikkiga ajratadi, bundan qanday maqsadni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin?
13. Uchinchi munojotda “nomasini qaro” qilganlar kimlar?
14. Har kishi osiyu gunahkorroq,  
Afv ila rahmatqa sazovorroq.

Nima uchun Alisher Navoiy gunohkorlar ko‘proq avf va rahmatga munosibroq , deb uqtiradi?

15. Asardagi barcha munojotlarni o‘rganib, Alisher Navoiyning Alloh, olam va odam haqidagi qarashlari ustida mushohada yuritib ko‘ring, shu asosida **“Lek boridin g‘araz inson edi”** mavzusida sharhli matn yozing.

#### **4. NA’T BOBLARINING TAHLILI VA ULARNI SHARHLAB O‘QITISH**

**Tayanch iboralar:** na’t, me’roj, vasp, vasp na’t, me’roj na’t, komil inson, haqiqat, islomiy axloq, payg‘ambarlar tarixi, “Nuri Muhammadiya”, mo‘jiza, mifologiya, manba, obraz, badiiyat, timsol, iqtibos, so‘z o‘yini, harfiy san’at, tashbeh.

Musulmon mintaqqa adabiyotida hamd, munojot va na’tlarni g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil va talqin qilish, o‘rganish umumislomiy mavzular sirasiga kiradi. Boisi, hamd va na’tlarda mumtoz ijodkorlarning dunyoqarashi, iyomon va e’tiqodi kabi masalalar o‘z in’ikosini topadi. Hamd va na’tlar turli janrdagi

asarlarda tarkibida uchrasa-da, ularning o‘z talablari, tartib-qoidalari, qat’iy an’analari mavjud bo‘lgan.

Na’tlar islom sharqi adabiyotining asosiy mavzularidan biridir. Islomgacha bo‘lgan adabiyotlarda ham hamd yoki unga o‘xshash matnlar mavjud bo‘lgan. Biroq na’tlar islomiy adabiyotning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib kelgan.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari “Bismilloh” sharhi, Allohga hamd, munojotdan keyin Muhammad (s.a.v.)ga na’t bilan boshlanadi. Asarda 5 na’t keltirilgan. Har bir na’t alohida-alohida voqelar tafsilotiga bag‘ishlangan. Ular o‘rtasida ma’lum bir tadrijiylik ko‘zga tashlanadi. Masalan, birinchi na’t – Muhammad (s.a.v.) ning tug‘ilishlarigacha bo‘lgan davrni qamrab olsa, ikkinchi na’t – Muhammad payg‘ambarning 40 yoshlarigacha bo‘lgan davr, uchinchi na’t – Payg‘ambarlik davrlaridagi faoliyati, to‘rtinchi na’t - noyob insoniy xususiyatlari haqida, beshinchi na’t - me’roj tuni ta’riflariga bag‘ishlangan.

“Na’t – payg‘ambarni madh etish, yaxshi sifatlarini aytib maqtash”. Na’t – Sharq adabiyotida muhim ahamiyatga ega. Na’t – so‘zining lug‘aviy ma’nosи tavsif, vasp qilish degan ma’nolarni anglatadi. Bu so‘z mumtoz adabiyotda istilohiy ma’noda – payg‘ambarni maqtash, uning sifatlarini vasp qilish degan ma’nolarda qo’llanadi. Qur’oni Karim “Sharh” surasidagi “Va Biz sizning zikringizni (ya’ni martabangizni) baland qilib qo‘ydik” oyatini A.Mansur shunday izohlaydilar: “Darhaqiqat, har bir mo‘min – musulmon qayerda Alloh taoloning nomini yod etib, U zotni ulug‘lasa, albatta, U zot bilan birga payg‘ambari Muhammad alayhissalomning nomlarini ham zikr qilib, u kishiga salovat va salom aytadiki, bu martabai oliya payg‘ambarimizdan o‘zga hech kimga nasib etmas”.<sup>82</sup>

Demak, payg‘ambarga salovat aytishning fazilati Qur’oni Karim oyatlari bilan asoslanganligini bois islom mintaqasi adabiyotida payg‘ambar vasp uchun maxsus boblar ajratish an’ana tusini olgan. Alisher Navoiyning e’tiqodiy qarashlari Qur’oni Karim dan oziqlanganligini va ularga amal qilganligini “Xamsa”

<sup>82</sup>. Qur’oni Karim . Alouddin Mansur tarjimasi. – T.: “Cho’lpon”, 1992, 366- bet.

dostonlaridagi muqaddimaviy boblari, jumladan, na'tlaridan ham ko'rishimiz mumkin.

Na'tlarning maydoniga kelishi islomiy jamiyatda islomiy axloq va madaniyatning asosi hisoblangan. Chunki payg'ambar nomi tilga olinganda u kishiga salovat aytish bu mo'min kishining axloqiy mezoni sifatida qaralgan. Demak, na'tlarning mumtoz adabiyotda o'zgarmas an'ana va she'riy shakl sifatida yashab kelishi ham islom mafkursi bilan bog'liq. Bu masalaning bir jihat. Ikkinchidan, na'tlar sharq kitobatchiligidagi o'zgarmas an'anaviy – muqaddimaviy boblar sifatida o'rinn tutsa, uchinchidan muallifning ilohiy-irofoniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Yozma adabiyotimizning ilk yirik asarlari Yusuf Xos Xojibning "Qudadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asarlari ham dastlab hamd, munojot so'ngra na't bilan boshlanganligi bu an'anuning uzoq tarixga egaligani ko'rsatib turibdi. Alisher Navoiy o'zigacha bo'lgan an'analarni chuqur o'rgandi, ularga ijodiy munosbatda bo'lib, ma'lum bir yangiliklar kiritganligini ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy "Xamsa"laridagi dastlabki dostonlarda na'tlar soni to'rtta. Alisher Navoiyning "Hayrat ul - abror" dostonida beshta na't keltirilgan. Bu esa "Xamsa" ning qurilishi, mazmun, mohiyati nuqtai nazaridan alohida ahamiyatiga ega. E'tibor bersak, mazkur na'tlarning 5 qismidan iborat ekanligida ham ma'lum bir ishoralar mavjud. Chunki Alloh dargohida eng maqbul va qiyomatga qadar barhayot bo'lган din islom besh farzi mavjud. Mazkur dinning yuzaga kelishi va tarqalishi ham Muhammad (s.a.v) ning muborak nomlari bilan bog'liq. Ana shu nuqtai nazardan Alisher Navoiy na'tlar soni beshta qilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, diniy manbalarda Rasululloh (s.a.v) besh jihatlari bilan barcha payg'ambarlardan ustun turadilar:

- 1) Eng mukammal din - Islomni olib kelganliklari;
- 2) Qiyomatda mo'minlarga shafoat qilishlari;
- 3) Qur'on karimning Jabroil (a.s) orqali u kishiga nozil bo'lishi;
- 4) Me'rojga ko'tarilganliklari;

## 5) Habib ul - rahmon ekanliklari.

“Hayrat ul-abror” asaridagi har bir na’tni alohida sharhlab, tahlil qilsak Rasuli Akramning surat va siyratlari haqida to‘laligicha ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Ta’kidlash kerakki, har qanday asarni muqaddimaviy boblardan ayri holda tahlil va talqin qilish bir tomonlama xulosaga kelinishiga sabab bo‘lishi sir emas. Hamd, munojot, na’t kabi muqaddimaviy boblar asarning umumiyligi mazmunidan ajralib qolmaydi, aksincha, butun asarning mazmun va mohiyatini o‘zida aks ettiradi.

Na’tlar shoirning falsafiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini ifodalashda muhim vosita hisoblangan. Ularni mazmuniga ko‘ra shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. VASF NA’TALAR
2. ME’ROJ NA’TALAR.<sup>83</sup>

“Hayrat ul-abror”da vASF na’tlar soni to‘rtta. Ularda payg‘ambarimizning hayotlari, yashash tarzlari, go‘zal axloqlari, insoniy fazilatlari, payg‘ambarlik maqomi va mo‘jizalari bilan bog‘liq voqealari-hodisalar muhabbat bilan vASF qilingan. Albatta, islomiy ruh berilgan bu umuminsoniy qadriyatlar har bir davrning ijtimoiy-axloqiy tarbiyasi uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

ME’ROJ NA’TALAR me’roj voqeasining badiiy talqiniga bag‘ishlanganligi bilan vASF na’tlardan farq qiladi. “Hayrat ul-abror”dagi beshinchchi na’tgina me’roj voqeasiga bag‘ishlanadi.

### 4.1. BIRINCHI NA’T TAHLILI

**Tayanch tushunchalar:** nuri qadimiyat, “lam’ai nuri”, xafo rishtasini, maxfiylik, nuri Muhamadiya, “Odami xokiy” Odam Safiyuloh, Abdulloh, Zoviya, hashm, mishkot, ota, o‘g‘il, Odam Ato, «Kuntu nabiyyan», hurifiylik, Ahmad.

Birinchi na’t 26 baytdan iborat. U quyidagi nasriy sarlavha bilan boshlanadi: Ul hazratning nuri qidamiyatidakim zot bahrining avvalg‘i junbushida ul durri

<sup>83</sup>. Iskandarov F. Alisher Navoiy asarlaridagi na’tlar xususida. «Alisher Navoiy va XXI asr» mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – T.: – 2017. 275 – b.

bebaho lam'asi xafo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi'asi lam'a ko'rguzdi va durjdin durjg'a intiqol yetti to Safiyullohdin Abdullohg'a yetti (32-bet).

**Tabdili:** (Mazkur madh) ul hazrat (Muhammad s.a.v.) paydo bo'lgan nurning qadimiyligi haqida bo'lib, eng avvalgi harakatlaridayoq bu bebaho durning yolqini maxfiylik ipini uzdi va u yagona gavharning porloq nuri shu'la ko'rguzdi va durjdan durjga ko'chib, safiyulloh (Odam a.s.)dan Abdullohgacha yetdi (255-bet).

Nasriy sarlavhadan ko'rinish turibdiki, na't "Nuri Muhammadiya" haqida bo'lib, unda quyidagi masalalar qamrab olingan:

- "Ul hazrat nurining" qadimiy va maxfiy, bebaho ekanligi;
- Nurning yashirinlik va maxfiylik (xafo) rishtasidan uzilib, shu'la ko'rgazganligi;
- Nuri Muhammadiyaning Odam Safiyulohdan Abdullohgacha yetkanligi haqida.

Ey qilibon lam'ai nurung zuhur,  
Andaki ne soya bor erdi, ne nur.  
Nurngga tob ikki jahondin burun,  
Harne yo'q andin burun, andin burun.

**Nasriy bayoni:** Sening lam'ai nuring porlaganda hali soya ham yo'q edi, nur ham yo'q edi. Ikki olam paydo bo'lguniga qadar Sening nuring tovlanar (tob) edi. Bu nurdan oldin hech narsa yo'q edi (255-bet).

Dastlabki baytlar olam yaratilmasdan oldin Muhammad payg'ambar nuri yaratilganligi haqida bo'lib, Navoiyning ta'kidlashicha, biror bir mavjudod yaralmasdan, soya ham, nur ham bo'limgan bir paytda Muhammadning yolqin, porloq ("lam'ai nuri") nuri paydo bo'lgan.

Demak, na'tning dastlabki ikki bayti Muhammad s.a.v nurlarining yaratilish tarixi haqida bo'lib, bu payg'ambarlik nuri edi. Alisher Navoiy keyingi baytlarda bu nuring Odam alayhissalomdan ham oldin yaratilganligi haqidagi fikrlar izohiga o'rinn beradi:

Zoviyai hashmg‘a har zotdin,  
Ruh yoqib sham’ bu mishkotdin.

Baytdagi zoviya, hashm, mishkot so‘zлari izohga muhtoj. **Zoviya** – burchak, burch; **hashm** – yaqin, kishi, bir kishi yonida har doim birga bo‘luvchi; **mishkot** – qandil ma’nolaridagi so‘z bo‘lib, bayt ma’nosini ochuvchi kalit so‘zlardir. Baytning nasriy bayoni quyidagicha: Osmon burjidan turib martabali Zot ruh olib, tokchada qo‘yilgan sha’m singari shu’la taratmoqda.

E’tibor berilsa, Illohiy nur - mishkotga. osmon sha’m qo‘yiladigan tokchaga o‘xshitilgan.

Topti azal subhi chu bazming charog‘,  
Ne tong agar yorusa yuz ming charog‘.  
Bo‘ldi sanga Odam sabqatnamo,  
Avval o‘g‘ul, so‘ngra gar o‘lsa ato.

**Tabdili:** Azal subhi bazming chirog‘ini qo‘lga kiritganda, boshqa yuz minglarcha chirog‘lar ham charaqlab ketgan bo‘lsa ajab emas. Odam Ato Senga nisbatan avvalgiday (sabqatnamo), aslida u senga o‘g‘il bo‘ldi, so‘ng insonlarga ota (255-bet).

Alisher Navoiy yuqoridagi baytlarda “Nuri Muhammadiya” haqida gapira turib: “Sizning nuringiz Odam alayhissalomdan ham oldinroq yaratilganligi uchun siz vujud nuqtai nazaridan, ya’ni u kishidan keyin tug‘ilgan bo‘lsangiz ham, nuringiz avval yaratilgani, dunyo siz uchun bunyod qilinganligi bois Odam a.s.sizga o‘g‘ildir”,- deydi. Boshqacha aytganda, Muhammad s.a.v. Odam Atoga ham ota, ham o‘g‘il.

Ta’kidlash kerakki, Alisher Navoiy har bir fikrini diniy nuqtayi nazaridan ma‘lum bir manbara suyangan holda asoslashga harakat qilgan. Yuqorida ta’kidlangan (Muhammad s.a.v. Odam Atoga ham ato ham o‘g‘il) fikrini asoslash uchun quyidagi keltirilgan baytda «Kuntu nabiiyan» iborasi orqali javob beradi.

Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda shunday deyiladi: “Ey Allohning Rasuli, sizga qachon nabuvat vojib bo‘ldi” deyishadi. Shunda u zot: ”Odam ruh bilan jasad orasidaligida” dedilar”.

**Sharh:** Bundan Alloh taolo azaldan Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vassallamni O‘ziga payg‘ambar qilib tanlab olgani, insoniyatning otasi Odam Atoga ruh kiritilmay turgan paytda ham U zotning payg‘ambar bo‘lishlari aniq ekanligi kelib chiqadi. Bu esa, o‘z navbatida, Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vassallamning fazllari Alloh taoloning huzurida qanchalik ulug‘ ekanligini ko‘rsatadi.<sup>84</sup>

Naslida harkim anga payvand o‘lub,  
Borchasi farzandingga farzand o‘lub.  
Kimki munga da’viyi hujjat etar,  
«Kuntu nabiyyan» anga hujjat etar.

O‘z nasliga ko‘ra har bir odam u bilan payvand, farzandiga barcha farzanddirlar. Kimki bunga hujjat da’vo qilsa, «Qur‘on»dagi «Men payg‘ambarman» iborasi yetarli hujjatlardir .

Alisher Navoiy keyingi baytda o‘z fikr tasdig‘i uchun ikkinchi dalilni keltirib o‘tadi:

O‘zga dalil istasa tab‘i saqim,  
Basdurur Odamda «alif», «dolu», «mim».  
Borchasi Ahmadda topib izzu shon,  
O‘g‘lida uch harf atodin nishon.

**Tabdili:** Tabiatli nosog‘ (saqim) biron kishi yana boshqa bir dalil talab qilsa, bunga «Odam» so‘zidagi «alif», »dol» va «mim» harflari borligi yetarlidir. Chunki bu harflarning hammasi «Ahmad» so‘zida ham qadr-qiyomat topgan bo‘lib, o‘g‘lida (otasida bor) uch harf otadan belgidir (255-bet).

Ushbu harflarning ramziy ifodasi Odam (a.s) yaratilishi bilan bog‘liq diniy rivoyatdan so‘zlaydi: Xoliqi olam (**alif**)ning eng avval yaratgani Rasululloh nuri (**mim**) edi. So‘ngra ul nurni to‘rtga bo‘lib, bir bo‘lagidan mo‘minlarni yaratdi. Odam (a.s)ga o‘zidan ilohiy ruh berdi. Shu bois inson Mutlaq ruhdan bir juz’ (**dol**) demakdir. Ayni rivoyatning xulosasi “**alif**”, “**dol**” u “**mim**” (әліф), я’ни Odam.

<sup>84</sup>. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Nubuvvat va risolat. 19-juz – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolkompaniyasi bosh tahririyati”, 2006. 26-b.

Ayonki, Alloh taoloning 99 ismi bor. Xuddi shunday Muhammad (s.a.v)da ham 99 ism mavjud. Shulardan biri Ahmaddir. Ushbu ismda Odam (a.s)dagi kabi “**alif, dol, mim**” harflari keladi. Demak, o‘g‘ilda “uch harf atodin nishon”. Shoir Ahmad va Odam so‘zini birgina “**Ho**” (Ҳ) ajratib turganligini, u orqali Xoliqi olam rasulo‘lloh (s.a.v)ni o‘z habibi etib tanlaganligini keyingi baytda ifodalaydi:

“**Ho**”i muhabbat sanga o‘qdur nasib,  
Kim seni Haq dedi o‘ziga habib.<sup>85</sup>

Alisher Navoiy Muhammad s.a.v. Odam Atoga ham ota ham o‘g‘il ekanligi so‘z o‘yini orqali izohlaydi va bu bilan misralar badiiyatni ta‘minlaydi. Shoir Odam Ato va Muhammad (s.a.v) nomlari orasidagi o‘xshashlikni qiyoslaydi. Ya’ni Odam va Muhammad nomlari tarkibidagi «alif», “dol”, “mim” o‘xshash. Yuqorida keltirilgan iqtibosda Payg‘ambarimizning “Ahmad” nomlariga ishora qilingan bo‘lib, uning yozilishida ham “alif”“dol”, “mim” harflari mavjudligi, bu uch harf esa “O‘g‘lida uch harf atodin nishon” ekanligini asoslash uchun xizmat qilgan.

«**Ho**» ( ) i muhabbat sanga-o‘qdur nasib,  
Kim seni haq dedi o‘ziga habib.  
  
Har neki haq vajhi aro mubham ul,  
Zohir etib yuzda habibi ham ul.  
  
Shohid etib chehra bu ko‘zgu anga,  
Ul ne qilib, ko‘rguzubon bu anga.

**Tabdili:** «**Ho**»si senga muhabbat nasib bo‘lganini anglatib, Alloh seni o‘ziga «Habib» dedi. Alloh yuzida nima yashiringan bo‘lsa, ular hammasi habibi yuzida ham namoyondir. Bu ko‘zguni unga guvoh qilib, u ne qilsa, uni ko‘zgu aks ettirib turar edi (256-bet).

Baytdagi “h” habib va muhabbat so‘zlariga ishora. Habibulloh – Allohning do‘sti. Bu sifat Rasullohga nasib bo‘lgan. Buning izohini yana Alisher Navoiyning boshqa asarlari ham kuzatishimiz mumkin: “Yuz yigirma to‘rt ming anbiyoyi

<sup>85</sup>. Amonova Z. Hurufiylik va badiiy ijod. – T.: “Paradigma”. 2017. 88-bet.

mursal xilqatidan murod – ul va barcha anga xayl va o'n sakiz ming olam ixtiro‘idin maqsud – ul va ofarinish seng‘a tufayl”.<sup>86</sup>

Demak, Allohnning eng so'nggi va komil payg‘ambari, barcha mavjudot va maxluqotning afzali Muhammad payg‘ambarda Allohnning buyuk qudrati, tengsiz jamoli aks etgan. Bu esa payg‘ambarning Habib sifatlarida namoyon bo‘ladi. Habiblik unga muhabbatdan nasib bo‘lganligi ta’kidlanadi.

Ayladi chun odami xokiy zuhur,  
Soldi anga partavin ul pok nur.  
Nur dema, boriqai sarmadiy,  
Boriqa yo‘q, sha’shai Ahmadiy.  
Bo‘ldi chu Odamda bu partav nihon,  
Anda nihon, lek yuzida ayon.  
Egniga yopildi duvvoji sharaf,  
Qildi makon boshig‘a toji sharaf  
Taxti risolat uza shoh o‘ldi ul,  
Xayli maloyikka panoh o‘ldi ul.

**Tabdili:** Tuproqdan bo‘lgan odam zuhur etgandan keyin unga ul pok nur o‘z yolqinini joylashtirdi. Uni nur emas, abadiy yashin, yashin ham emas, Ahmadning oldindan ma'lum bo‘lgan zo‘r shu’lasi deyish ham mumkin. Odam Atoga shunday shu’la yashiringandan keyin, ichida nihon, biroq yuzida aniq ko‘zga tashlanib turadigan bo‘ldi. Shunday qilib, uning yelkasiga shon-sharaf to‘ni yopilib, boshidan sharaf toji o‘rin oldi. Shu yo‘l bilan (Allohga) elchilik taxtida u shoh, farishtalar guruhiga esa panoh bo‘ldi (256-bet).

Ko‘chirma keltirganimiz baytlarda insonning tuproqdan yaratilganligi, pok nur (Nuri Muhammadiya) uning vujudiga kirib, sharaflanganligi ta’kidlanadi. “Odami xokiy” bilan bog‘liq fikrlarni asoslash uchun Qur‘oni Karimning muqaddas oyatlari bizga yordamga keladi: ”U barcha narsani chiroyli qilib yaratgan zotdir.U insonni (ya’ni Odamni) dastavval loydan yaratdi.So‘ngra uning nasli avlodini haqir bir suvdan iborat bo‘lgan nutfadan paydo qildi”. Demak,

<sup>86</sup>. Alisher Navoiy .Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. XVI jild. Munojot. –T.: “Fan”, 2000. 287 –bet.

birinchi misrada tilga olingan “Odami xokiy”- Odam Ato. **Partav** – yorug‘lik asari, nur, shu’la, porloqliq ma’nosidagi so‘z. “Odami xokiy” vujudidagi pok nur barcha insonlar vujudida zohir ekanligi ta’kidlangan.

Keyingi ikkinchi baytda ruj‘u san‘ati orqali bu nurning sifatlariga urg‘u beriladi. **Boriqai sarmadiy** – zavolsiz (abadiy ravshanlik), **sha’shaa** - shu’la, nur, porloqliq, yorug‘liq; quyosh shu’lasi ma’nosidagi so‘z. E’tibor bersak, ikkala so‘zdagi ma’no bir-biriga yaqin. Ammo ma’no qirralari bilan bir-biridan farq qiladi. **Boriqai sarmadiy** – abadiy ravshanlik. U faqatgina Yaratgangagina xos bo‘lgan nur. Payg‘ambar vujudida yashovchi “sha’shai Ahmadiy” Allohning buyuk qudratidan nishona. Bu nur Odam vujudida nihon bo‘lsa-da, yuzida zuhurlanishi ta’kidlanadi.

Shundan so‘ng ulug‘ shoir, Muhammad (s.a.v)ning Alloh dargohida buyuklik sharafi – elchilik maqomiga erishganligi, farishtalar guruhiga esa panoh bo‘lganligiga e’tibor qaratadi. Bu nur Havvo yuzin “**poku jamil**” qilganligi, Shisga ko‘chganda (muntaqil) uning yuzi hatto Oyni uyaltiradigan darajaga yetganligi bayon qilinadi:

Istadi Havvo bila chun ittisol,  
Ayladi Havvog‘a bu nur intiqol.  
Poku jamil ayladi Havvo yuzin,  
Uylaki haq partavi havro yuzin.  
Shisqa chun bo‘ldi yana muntaqil,  
Oyni qilur erdi yuzi munfail.

Xulosa qilib aytganda, birinchi na’tda Muhammad (s.a.v.) nurlarining qadimiyligi va vujud o‘laroq yer yuziga kelgan davrlarigacha bo‘lgan hodisalar tasvirlanadi. Bu nur payg‘ambarlik (risolat) durining xazinasi, payg‘ambarlik gulshanining guli, u tufayli yer yuzi behishtga aylanganligi haqida fikr yuritiladi.

## 4.2. IKKINCHI NA'T TAHLILI

**Tayanch tushunchalar:** jahon gulshani, qirq yil, sidratul muntaho, “Baytul Ma’mur”, Jabroil alayhissalom, maqom, payg‘ambarlik, tifilzoda, roh, durri yatim, durru sadaf, toza vard, aqli kul, Allat, Manat, Uzzo, shaq, badr.

**Nasriy sarlavha:** Aning navras niholi jahon gulshanin sarsabz qilib, qirq yilg‘acha andin hayo va adab gullari ochilib, andin so‘ngra nubuvvat mevasi bergani, dog‘i shox va bargin sidra shoxidin o‘tkarib, ikki olam ahlining soyai rahmatig‘a kirgani (35-bet).

**Tabdili:** Uning (Muhammad s.a.v.) hayotining yosh niholi jahon gulshanini yashnatib, undan qirq yilgacha hayo va adab gullari ochilib, so‘ngra u payg‘ambarlik mevasini bergani, shuningdek, shoxi va barglari sidra daraxtidan ham o‘tib, bundan ikki olam ahli uning marhamati soyasiga kirgani (256-bet).

Nasriy sarlavhada payg‘ambar yosh niholga, niholning o‘sib meva berishi payg‘ambarlik maqomiga o‘xhatilgan.

Sidratul muntaho azim daraxt, uning ildizlari oltinchi osmonda bo‘lib, bo‘yi yettinchi osmondan yuqorigacha cho‘zilgandir. Barglari filning quloqlaridek, mevasi esa katta xumdek keladi. Unga tillodan bo‘lgan parvona (kapalaklar) keladi va u jannatning tashqarisidadir. Islomiy manbalarning shahodaticha, sidratul muntaho Allohning azamatlik qudratidan xabar beradigan va mevasi insonning yeishiga yaroqli bir daraxtdir. Vaqtiki rasululloh (s.a.v.) me’rojga chiqdilar, “Baytul Ma’mur” (Ka’ba ustidagi bir ma’vo bo‘lib, uning haqiqatini Alloh bilur)dan “Sidratul muntaho”ga etdilar. Rivoyatga ko‘ra, Jabroil alayhissalomning maqomi ham shu daraxt ostida joylashgan. Demak, sidratul muntaho malak, payg‘ambar va butun borliq ilmining eng so‘ngi maqomidir. Payg‘ambar sallallohu alayhi va sallam u daraxtning yonida hazrati Jabroil alayhissalomni o‘zlarining haqiqiy suratlarida ikkinchi marotaba ko‘rganlar. Undan oldin esa Makkada Ajyod deb nomlanadigan joyda ko‘rgan edilar.<sup>87</sup>

<sup>87</sup>. Manba:<http://muslim.uz/Muhammad-Akmalxon-Shokirov>.

Payg‘ambarlik niholining shoxi va barglari sidra daraxtidan o‘tishi U zotning Alloh dargohida ulug‘ martabaga egaligiga ishora deb tushunish mumkin.

Ta’kidlash kerakki, ixchamgina nasriy sarlavha har bir bobning mazmun mundarijasini o‘zida aks ettirgan. Ikkinchi na’t sarlavhasida quyidagi masalalarga urg‘u berilgan.

- Payg‘ambar (s.a.v.)ning tug‘ilishlari;
- 40 yoshlarigacha bo‘lgan hayotlari;
- Payg‘ambarlik maqomiga erishganliklari;
- Muhammad (s.a.v)ning butun ummatlariga ko‘rsatgan marhamatlari.

Ikkinchi na’t quyidagi misralar bilanboshlanadi:

Ey ko‘runub g‘urra kibi tiflzod,  
Tifli rahing charxi qadimiy nihod.  
Insu malak joniyu jononasi,  
Ikki jahon gavhari yakdonasi.

Dastlabki baytlardagi izohtalab so‘zlarning ma’nosini chaqish bayt mazmunini tushunishga ko‘maklashadi. **G‘urra** - har bir oyning birinchi kuni, bir kunlik oy, **tiflzod**- bolaligidan, tug‘ilishidan taniqli belgi, **rah** (roh) – yo‘l, nihod – 1) tabiat, xarakter, xislat.2) tuzilish.

**Tabdili:** Ey tug‘ilishdanoq yangi chiqqan oydek ko‘ringan Zot! Yo‘lingning bolalik chog‘i qadimiy osmon odaticha edi. Insonlarning ham, farishtalarning ham joni, jononasi (256-bet).

Birinchi baytning o‘zidayoq Rasuli Akramning ikki sifatlari bayon qilingan: bolalik yo‘llari (tifli rahing) olam yaratilgandan beri mavjudligi hamda tug‘ilishlari bilan mashhur bo‘lganliklariga urg‘u beriladi. Qayd qilish kerakki, “tifl rahining” olam yaratilgandan beri mavjudligi bevosita u kishining nur o‘laroq yaratilganliklariga ishoradir.

Dastlabki na’tdagi “**durru sadaf**” tashbehi keyingi na’tlarda tadrijiy rivojlantirilib boriladi. Shoir dunyoga kelgan Muhammad (s.a.v)ni toza gavharga, insu malaklarning joni va jononasi ekanligini qayd qiladi. Quyidagi baytdagi tasvirga e’tibor qarataylik:

Sen kibi bu gulshan aro toza vard,

Umrida ko'rmay falaki solxo'rd.

**Vard** – atirgul, **solxo'rd** - ko'p yashagan, eski.

Olam gulshanida ko'pni ko'rgan bu falak gulshanda sen kabi toza bir yaproqni umrida ko'rmagan edi. Xo'sh, bunday ta'rif va tavsiflardan maqsad nima degan savol tug'iladi. Tabiiyki, Rasululloh (s.a.v.) odamzodning sarvari – eng buyuk zot, eng komil inson ekanligiga urg'u berishdir. Bunday vasflarda u kishining faqatgina payg'ambarlik sifatlariga ega bo'lganliklari emas, balki hammaga namuna bo'la oladigan go'zal axloq sohibi bo'lganliklari ham yotadi.

Alisher Navoiy ikkinchi na'tda Rasulloh (s.a.v.)ning payg'ambarlikkacha bo'lgan bolalik, o'smirlik davrlaridagi hayotlari qanday kechgan? degan savolga aniq, mukammal va obrazli javobni quyidagi baytda ifodalaganini ko'rishimiz mumkin:

Surat aro tifl, vale aqli kul,

Qavlung aro g'ayri vala lam – yaqlu.

Tashqi ko'rinishdan bola, lekin aqli daho, so'zlaganingda bahodirlikdan boshqa narsa gapirilmasdi.

Ta'kidlash joizki, mumtoz asarlarining qo'lyozmalari va ularning bugungi nashrlari o'rtasidagi tafovut o'sha badiiy yaratmaning ilmiy-tanqidiy matnnini amalga oshirish bilan bartaraf etiladi. Bizning bu ta'kidimiz u yoki bu asarning muallif dastxati yoxud o'sha ijodkor nazaridan o'tgan nusxasi mayjud bo'lman asarlarga tegishli, albatta. Katta ilmiy-ijodiy mehnat talab qiladigan va uning natijasi o'laroq yuzaga keladigan matnning ilmiy-amaliy vazifasi ham xuddi shundan iboratdir.

Mumtoz matnlarning ilmiy tanqidiy matn asosida nashr qilinishi ulardagi nuqsonlarning oldini olishga ko'maklashadi. Mumtoz matnlardagi birgina xato yozilgan so'z matn mazmunini o'zgartirib yuborishi yoki bo'lmasa mazmunsiz bir matnga aylantirib qo'yishi mumkin.

Mumtoz matnni tahlili qilishda har bir so'zning ma'nosi to'g'ri anglanmas ekan, matn sharhida g'alizliklar bo'lishi tabiiy. Bu fikrlarga bejiz to'xtab o'tilmadi.

Sababi yuqorida keltirilgan baytning ikkinchi misrasi “Mukammal” nashrda shunday berilgan: “**Qavlung aro g‘ayri yali lam-yaqul**”, -tarzida beriladi<sup>88</sup>. Misrada “Vala lam – yaqul” bu Qur’oniy oyatga ishora. Nashrda misradagi birgina so‘zning almashinishi, uni tayanch maqsaddan mutlaqo uzoqlashtirib yuborgan. Boz ustiga, ilohiy manbaga murojaat qilib erishilgan talmeh san’ati yo‘qqa chiqqan.

Alisher Navoiy asarning xarakteridan kelib chiqib muhim nuqtalarga e’tibor qaratganligini ko‘rishimiz mumkin. U kishi ko‘rinishidan hamma qatori bola edi. Boshqa bolalardan ajratib bo‘lmas edi. Lekin u kishini boshqa bolalardan ajratagigan jihat “aqli kul” edi. **Aqli kul** – buyuk aql, katta aql, ilohiy aql. To‘lishgan, mukammal aql. Yosh paytlaridayoq Rasuli Akramning aqli boshqa bolalar aqlidan juda baland ekanligi ta’kidlanadi. Aqli kul birikmasini anglash uchun ikkinchi misra tayanch vazifani bajaradi. “Vala lam – yaqul” - Qur’oniy oyat. Mazmuni: “Sen bizning Rabbimizsan”.

Ikkinci misraning mazmuni: Sening so‘zing qavming orasida “g‘ariy vala lam-yaqul” (Sen bizning Rabbimizsan”) dan boshqa emas edi. Mana shuning o‘zi payg‘ambarning “aqli kul” egasi ekanligiga dalil edi. Nashrda birgina baytdagi so‘zning xato berilishi uning tabdilidagi g‘alizliklarning ham kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Islom tarixi manbalarida ta’kidlanishicha, U zotning tug‘ilishlari bilan bog‘liq bir qancha ajoyibotlar yuz bergenligi ta’kidlanadi. Mana shunday hodisalardan biri, “Butlar larzaga tushib, qimirlab ketdi. Ba’zilari yuz tuban yerga yiqildi, chunki ularni yo‘q qiluvchi zot dunyoga kelgan edi. Yoki Makkada bir nur zohir bo‘lib, Shomdagи qasrlarni yoritib yubordi. Chunki butun dunyoga iymon nurini eltuvchi zot dunyoga kelgan edi. Aytishlaricha, o‘sha kuni Fors podshohi Kisroning ayvoni larzaga kelib, o‘n ikkita bolaxonasi qulab tushgan. Majusiylarning ming yildan buyon o‘chmay turgan olovlar o‘chgan”.<sup>89</sup> Bu

<sup>88</sup> Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jiddiik. VII jild. Hayrat ul - abror. – T.: Fan, 1989. 35-bet.

<sup>89</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Nubuvvat va risolat. 19-juz. – T.: “Sharq nashriyoti” matbaa aksiyadolkompaniyasi bosh tahririyati”, 2006. 62-bet.

hodisotlarning bari Muhammad Mustafo (s.a.v)ning kelajakda kim bo‘lishlariga ishora edi.

Alisher Navoiy quyidagi baytlarda payg‘ambar (s.a.v.) tug‘ilishlaridagi holatlarni tashbehli misralarda badiiy ifodalashga erishgan. Payg‘ambar tug‘ilishlarini – yulduzning chiqishiga, charx (osmon) U zotga salom berish uchun egilganligi kabi mubolag‘ali tasvirlarda, albatta, diniy ma’lumotlar asosida dalillashga erishgan:

Axtaring ul tunki tulu’ aylabon,  
Charx salomig‘a ruku’ aylabon.  
Kufr biyik tog‘ig‘a solib shikast,  
Yerga bo‘lub past butu butparast.  
Makkada din ahlig‘a muknat bo‘lub,  
Uzzo ila lotqa uzlat bo‘lub.  
Muxtalif ahvol o‘lub ahli quraysh,  
Ba’zi o‘lub g‘amzada, ba’zida aysh.

**Tabdili:** Tole’ yulduzing tuqqan kechasi esa Osmon o‘zi unga sajda qilgan edi. Bu kufrning buyuk tog‘iga shikast yetkazgan bo‘lib, shunda butlar ham, butparastlar ham yerga tiz cho‘kkан edilar. Shunda Makkada dinimiz ahlining kuch-quvvati ortib, Uzzo va Lot butlari uzlatga chekingan. Quraysh ahli ziddiyatli bir ahvolga tushib, ba’zilari qayg‘uga botgan bo‘lsalar, ba’zilari aysh-ishrat qildilar (257-bet).

Yuqorida keltirilgan baytlarning tahilil jarayonida “Uzzi ila lot” birikmasiga e’tibor qaratmog‘imiz lozim. «Navoiy asarlari lug‘ati»da **Lotu manot, lotu uzzo** so‘zлари «islomdan ilgari arablar cho‘kingan butlarning nomi» deb izohlangan.<sup>90</sup>

Qadimgi arab mifologiyasining tadqiqotchilaridan biri A.G.Lundinning aniqlashiga qaraganda, Suriya hududidagi sahroda istiqomat qilgan qadimgi arab qavmlarining asotiriy qarashlari silsilasida Allat, Uzzo va Manot kabi ilohlar to‘g‘risidagi afsonalar ham mavjud bo‘lgan. Allat barcha boshqa ilohlarning onasi

<sup>90</sup>. Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. 340-bet.

deb tasavvur qilingan. Arabistonning markaziy hududlarida yashagan qadimgi arab qabilalarining islomdan avvalgi mifologiyasida esa Allat, Manat va Uzzo Allohning qizlari sifatida e'tirof etilgan ekan.<sup>91</sup>

Folklorshunos olimlar M.Jo'rayev va Sh.Shomusarovlarning ta'kidlashlariga qaraganda, «VII asr oxirida Movarounnahr arablar tomonidan fath etila boshlangan bo'lib, bu jarayon VIII asr o'rtalarida nihoyalangan. Natijada bu o'lkaga yoyilgan islom dini O'rta Osiyoga Sharq xalqlari mifologiyasi va folklorining epik an'analariga mansub syujet, motiv va obrazlarni ham olib keldi. Garchi islom mifologiyasining tarkibi ko'p qatlamlı bo'lib, o'zak miflar (arab asotirlari) hamda o'zlashtirma asotirlar (ya'ni keyinchalik fath etilgan xalqlar folklori va boshqa diniy qarashlarga aloqador miflar)ni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, uning asosini qadimgi arab qavmlarining og'zaki ijodi namunalari tashkil etgan».<sup>92</sup>

Shunday qilib, arab qabilalari orasida but va sanamlarga sig'inish kuchayib ketdi. Toifliklar ham o'zlariga but yasab, nomini Lot deb atadilar. Madinada istiqomat qiluvchi kishilar ham o'zlariga Manot ismli but yasatib olgan va unga ibodat qilar edilar. Shunday qilib, Ka'ba atrofida uch yuz oltmishta but jamlangan edi.<sup>93</sup>

Demak, tahlil jarayonida arab mifologiyasi va islom asotirlari bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni ham nazardan qochirmaslik lozim.

Na'tning keyingi misralarida payg'ambarning otalari – Abdulloh ibn Abdulmutalibning Muhammad (s. a.v.)ning tavalludlariga qadar vafot etganliklari ta'kidlanadi. Shoir shu ta'kid ostida Muhammad payg'ambar (s. a.v.) buyukligini yana bir qirrasiga urg'u beradi. Ya'niki, Muhammad ota, Odam alayhissalom uning farzandi ekanligi yana bir bor ta'kidlanadi.

Gar otadin yo'q esa bahrang ne tong,  
Odam o'g'ul bo'lsa, kim o'lg'ay otang?

<sup>91</sup>. Jo'rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006. 152-bet.

<sup>92</sup>. Jo'rayev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. – T.: Fan, 2001. 46-bet.

<sup>93</sup>. Alixon-to'rə Sog'uniy. Tarixi Muhammadiy (Mo'jiza va karomatlar). Qayta ishlangan va to'ldirilgan 1-nashr. Ikkinci kitob. – T.: 1991. 40-46-betlar.

**Tabdili:** Agar sen otadan bahramand bo‘laolmay qolgan bo‘lsang, buning taajjublanadigan yeri yo‘q. Sen o‘g‘il bo‘lsang, senga kim ota bo‘lishi mumkin?

Fikr tasdig‘i keyingi baytda tamsil san’ati bilan dalillanadi:

Gavhari zotingg‘a sadafsiz ne biym,

Itti sadaf, chiqti chu durri yatim.

**Tabdili:** Asl gavharing sadafsiz qolsa, buning qo‘rqinchli (biym) yeri yo‘q. Sadaf tark etilgan bo‘lsa ham undan eng qimmatbaho dur chiqdi-ku!

**Durri yatim** – bir sadaf ichida yakka o‘zi yetishgan, yirik, donador dur. Odam Ato – sadaf, Muhammad (s.a.v.) – durri yatim. Shoirning bu ishoralari oldingi na’tda boshqacharoq yo‘sunda berilgan edi. Na’tning keyingi baytlarda “durri yatim” “vafo qutisining gavhari”, “hayo burjining yulduzi” ekanligi ta’kidlanadi.

Qayd qilish kerakki, Muhammad payg‘ambar (s. a.v.)ning da’vatlari el orasida osonlik bilan qabul qilinmagan. Makka mushriklarining iyomon keltirishlariga sabab bo‘lgan omillardan biri Alloh tomonidan payg‘ambarda ilohiy mo‘jizalarning zohir bo‘lishi edi. Alloh taolo payg‘ambarimiz(s.a.v.)ga ikki turlik – aqliy va hissiy mo‘jiza bergen. Birinchisi – Qur’on Karim. Ikkinchisi esa xaloyiq ko‘zi oldida aqlga sig‘maydigan, odatdan tashqari biror favqulodda ish qilish.<sup>94</sup> Bu mo‘jiza deb atalgan. “**Mo‘jiza** – istilohiy ma’noda Allohnинг izni bilan Payg‘ambarlarga ularning payg‘ambarligini tasdiqlash uchun berilgan odatdan tashqari, boshqalarning qo‘lidan kelmaydigan ish” ma’nosida qo‘langan.<sup>95</sup>

Imom Buxoriy rivoyat qilishlaricha, Makka ahli Muhammad alayhissalomdan haqiqiy Payg‘ambar ekanliklariga dalil sifatida hujjat – mo‘jiza ko‘rsatishni so‘radilar. Rasululloh sollallohu alayhi vassalam duo qildilar. Alloh taolo u kishining duolarini qabul qildi va oy ikkiga bo‘lindi. Ikki bo‘lakning orasidan Hiro tog‘i ko‘rinib turardi<sup>96</sup>.

<sup>94</sup> Sog‘uniy A. Tarixi Muhammadiy (Mo‘jiza va karomatlar). Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 1-nashr. Ikkinchchi kitob. – T.: 1991. 152-b.

<sup>95</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Nubuvvat va risolat. 19-juz. – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyyati”, 2006. 489- b.

<sup>96</sup> Yuqoridaq manba, 175-bet.

Quyidagi baytda ul zotning barmoq uchi bilan oyni ikki qismga bo‘lish (shaqq ul-Qamar) bilan bog‘liq mo‘jizalariga ishora qilingan.

Mehr mutii amru misoli bila,

Shaq bo‘lubon badr hiloli bila.

**Tabdili:** Quyosh uning amriga mute’ bo‘lib, undan namuna olsa, to‘lin Oy hilolga aylanishga tayyor.

**Shaq** –1) yorish; yorilish; sindirish; yirtish; 2) ikkiga ajralgan bo‘lakning biri; **badr** – o‘n to‘rt kechalik to‘lishgan oy, to‘lin oy. Shoirning badiiy mahorati tufayli ikki so‘z orqaligini katta bir voqeaga ishora qilingan.

Na’tning keyingi baytlarida payg‘ambarimiz (s. a.v.)ning savdo ishlari bilan shug‘ullanganliklari, qo‘llarida katta dastmoya-mablag‘ bo‘lsa-da, ganj oldida qora tuproq misoli kamtar ekanliklari, savdo ahli unga «**Amin**» - (saqlovchi, omonatga xiyonat qilmovchi) laqabini bergenligi, cho‘ponlik qilganliklari hamda fe‘laridagi shirinso‘zlilik, qiyinchiliklarga yuksak axloq bilan bardosh bergenliklari, ixtilof tarafdorlari tunda urush-janjal qilib, u kishining boshlariga yulduzlar miqdori qadar malomat toshlarni yog‘dirsalar-da, tabassum bilan yaxshi duolar qilib, odamlarga pand-nasihat qilganliklari, shu fazilatlari orqali o‘z muxoliflarini yenganliklari haqida so‘z boradi.

Na’t Rasuli Akramning go‘zal xulq sohibi ekanligi hamda unga duoil olqish bag‘ishlangan quyidagi baytlar bilan yakunlanadi.

«Azzama qadrah» – bu ne xulqi azim,

«Karrama vajhah» – bu ne nafsi Karim.

«Hodiyuno kavkabu iqbolih,

Sallu alayhi va alo olihi

«Alloh uning qadrimi ko‘tardi» - bu qanday ulug‘ axloq ifodasi. «Uning yuzi munavvar» - bu naqadar o‘zlikning olijanobligi! «Uning iqbol baxti bizga yo‘l boshlovchi!» «Unga va uning uy a‘zolariga salavot aytинг!».

Ma'lumki, "Tasavvuf ahli bir ovozdan komillikning oliy namunasi – komil inson timsoli deb hazrati Muhammad Rasululloh (s.a.v.)ni tilga oladilar".<sup>97</sup> Na'tning oxirgi baytlarida payg'ambar siyratidagi ana shu sifatlar vasfi ufurib turadi. Muhammad (s.a.v.) go'zal axloq tufayli Alloh dargohida ulug' martabaga erishganliklari sahif hadislarda ham qayta va qayta ta'kidlangan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ikkinchi na'tda dunyoni nurga to'ldirgan, butun mavjudodni baxtga burkagan Muhammad Mustafo (s.a.v.)ning tug'ilishlaridan to payg'ambarlik maqomiga erishgunlariga qadar, aniqrog'i, qirq yoshga kirkungacha bo'lgan hayotlari haqidagi ma'lumotlarni badiiy aks ettiradi.

#### 4.3. UCHINCHI NA'T MATNI USTIDA ISHLASH

**Tayanch tushunchalar:** Nubuvvat, anbiyo, sifat, siyrat, savod, nur, sham', quyosh, soya, ulviy, noma'i a'mnoli, but, balo, milal, mazhab.

**Nasriy sarlavha:** Ul nubuvvat quyoshining soyasizligining poyasi, balki quyosh bo'lmoq aning soyasi va besh barmog'iga qalam tutmay aqolimi sab'anı yakqalama qilg'onı, balki jami' milal avroqig'a nasx qalami chekkoni (37-bet).

**Tabdili:** Ul payg'ambarlik Quyoshining soyasi yo'qligining darajasi, to'g'rirog'i, Quyosh bo'lmoq uning soyasi ekanini va besh barmog'ida qalam ushlagagan holda yetti iqlimni qo'lga olgani, hatto barcha dinlarning daftarlari varaqlariga ma'n etish qalamini chekkani haqida (258-bet).

Nasriy sarlavhada quyidagi masalalar nazarda tutilgan:

- Payg'ambarlik quyoshida soya yo'qligi;
- Balki quyosh uning soyasi ekanligi;
- U zotring savodsiz bo'lsalar-da, yetti iqlimni "qo'lga olgani".

Ma'lumki, quyosh bor joyda soyaning aksini ko'rish mumkin. Nuri Muhammadiyada esa bunday holat yuz bermaydi. Uning soyasi yo'q. Bu na'tning dastlabki baytlarida ko'zga tas'lanadi:

Ey sharaf avjida yuzung sham'i mehr,

<sup>97</sup> Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – T.: Ma'naviyat. 2005. 20-bet.

Soyadek ul sham'g'a niliy sipehr.  
Soyalig'ing bo'lmasa gar varzishi,  
Tushmak ayog'ingga nedindur ishi,  
Turfaki sham'ingg'a biyik poyadin,  
Or o'lubon sham' kibi soyadin.  
  
Mehrki chehrangdin anga nurdur,  
Tegrasidin soyasi mahjurdur.

Dastlabki baytda sham', quyosh so'zлari orqali Payg'ambar (s.a.v.) chehralari vasf qilinadi. Bu chehradan hatto Quyosh ham nur oladi. Shuning uchun uning atrofiga soya yaqin kelolmaydi. Diqqat qilsak, baytlar davomida nur va soya tazodi ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiy tazod qirralarini kengaytirib boradi. Quyida tahlil qilinadigan baytlarda Quyosh va Yer sayyorasining birlashmasligiga sabab "Sening zoting eng oliy nasabning javharidan bo'lgani" deya izoh beriladi. Navoiyshunos olim R.Vohidov nur va soya tazodini quyidagicha izohlaydi: "Yosh Muhammadning savodxonlikdan mahrum qolishi – soyalar tufaylilar. Ular esa uzrli va ayon: yetimlik iztiroblari, yosh go'dak tarbiyasining qo'ldan qo'lga o'tishi"<sup>98</sup>.

Zoting edi javhari ulviy najod,  
Tutmadi yer soyasi birla savod.  
Qayda savod etgали chekkay raqam,  
Qoldi chu mahrum ilicingdin qalam.

**Tabdili:** Sening zoting eng oliy nasabning javharidan bo'lgani sababli Yer soyasi bilan birlashmadi. Sening qo'ling umrida qalam tutmagan, buning uchun u qanday qilib qog'ozni qora qilishi mumkin! (258-bet).

"**Savod**" so'zi ikkinchi misrada "qoralik, qorong'ulik" ma'nosida qo'llangan bo'lsa, bu so'z uchinchi misrada "xat-savod, yozuv" ma'nolarida qo'llangan. "**Ulviy**" ikki ma'noga ega so'z. 1. Yuqori, yuksak, oliy, baland, 2. Osmonga yo ruhoniyatga tegishli".<sup>99</sup> Birgina so'z orqali payg'ambar zotining

<sup>98</sup> Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 1994. 81-bet.

<sup>99</sup> Navoiy asarlari lug'ati. – T.: G.G'urom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 623-bet.

ulug‘ligi hamda buyukligiga ishora qilingan. **Ulviy najod** – rahmoniy najot. Shoir Muhammad payg‘ambarni islom ummatlarining najotkori sifatida ta’riflaydi. U kishining xat tanimaganliklari, shunga qaramay ilohiy hikmat sohibi bo‘lganliklariiga urg‘u beradi. Hazrat Navoiy qarashlarining assosi Qur’oni Karim ekanligi shubhasiz. Qur’oni Karimning “A’rof” surasida “...Bas, Allohga va Uning elchiligiga – Alloh va Uning so‘zlariga ishonadigan ummiy payg‘ambarga iymon keltiringiz va unga ergashingiz – shoyad hidoyat toparsiz”.<sup>100</sup> Oyatdagি ummiy so‘zi - o‘qish-yozishni bilmagan, savodsiz ma’nosidagi so‘z. Bu haqda yana “Tarixi Muhammadiya”da o‘qiyimiz: “...bizning payg‘ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vassalam ummiydurlar. Ya’ni onadan tug‘ilganlaricha o‘qimagan, maktab-madarasa yuzini ko‘rmagan, qalam tutib xat yozmagan bir kishidurlar”.<sup>101</sup>

Bo‘lmadi gar xoma boshin yormog‘ing,

Yordi qamar xomasini bormog‘ing.

Sen qalamning uchini o‘zing ochmagan bo‘lsang ham, lekin barmoqlaring Oyning qalamini yorgan-ku!. Mazkur baytda ham yuqorida tahlil qilingan payg‘ambar mo‘jizalaridan biri - oyning ikkiga bo‘linishi bilan bog‘liq voqeaga ishora qilingan.

Na’t davomida Muhammad Mustafо yozish va o‘qishni bilmagan bo‘lsalar-da, boshqa dirlarni bekor etish masalalari bo‘yicha ko‘p narsalari bitganligini, bu qalamdan to‘kilgan xatlarga Ajamdan boshlab Arabgacha bosh egganligini, kimki mazkur xatda ko‘rsatilgan yo‘ldan chiqqan bo‘lsa, qalam kabi ular o‘z yuzlarini qora qilishlari haqida badiiy mushohadalar yuritiladi. Bu qalam oddiy qalam emas. U “jahoni yakqalam” qilgan, butun olam unga “bosh qo‘y”gan qalamdir.

Mazkur na’tda o‘qish va yozishni bilmagan shaxsning ulug‘ martabaga erishishi Alloh qudratini namoyon qiluvchi hodisotlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Navoiyshunos olim R. Vohidovning mazkur masalaga munosabati esa quyidagicha: “Fikrimizcha, masalaning bunday tus olishi tasodifiy emasday

100. Qur’oni Karim .O‘zbekcha izohli tarjima.”Cho‘pon” nashriyoti. – T.: 1992. 111-112- betlar.

101. A.Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy (Mo‘jiza va karomatlar). Qayta ishlangan va to‘ldirilgan I-nashr. Ikkinchи kitob. – T.: 1991. 146-bet.

ko'rinadi. Rasullikka savodsiz bir insonning tanlanishi, Alloh tomonidan yuborilgan ilohiy kitob – “Qur'on”ga bo'lgan ishonchszilikning oldini olish uchun ko'rilgan bir choraday tuyuladi”.<sup>102</sup> Barcha mushohadalarimiz uchun albatta, Qur'oni Karim manba va asos vazifasini o'taydi: «Ey Muhammad, barcha mavjudotni yaratgan zot bo'l mish Parvardigoringiz nomi bilan o'qing! U insonni laxta qondan yaratgan zotdir. O'qing! Sizning Parvardigoringiz insoniyatga qalam bilan yozishni o'rgatgan zotdir. U Zot insonga bilmagan narsalarini o'rgatdi».

Mumtoz asarlarni sharhli o'qishda, albatta, uning badiiy barkamolligi, muallifning badiiy mahorati ham nazardan chetda qolmasligi lozim. Chunki har qanday badiiy asardagi g'oya va muallif niyati badiylik libosida o'quvchiga taqdim etiladi. Ayniqsa, hazrat Navoiy asarlari, jumladan, dostonlarida “yalang'och” bir misrani topish mumkin emas. Tahlil qilayotgan na'tda shoir birgina “qora” so'zini bir necha ma'noda qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, qaro – xat yozmoq ma'nosida; qaro - yuzi qora; taqdirlari qora; baxti qoralar; qaro jon; noma siyahlar.

Kimki amal nomasin aylab qaro,

Sen kirib oning qaro joni aro.

Kimning noma'i a'moli “qora” bitilgan bo'lsa ham, Sen ularning baxtsiz joniga ora kiruvchisan.

Uchinchi na'tda qo'llangan badiiy san'alardan biri kitobatdir. Fikrning mazkur san'at vositasida berilishi asarning badiyyatini ta'minlashi bilan birga o'quvchi tafakkuriga ta'sir qiluvchi vosita sifatida xizmat qilganligini quyidagi baytda kuzatishimiz mumkin:

Zulmati kufr ulki bo'lub jam' anga,

Har «alif» isloming aro sham' anga

Barcha milalg'a chu yurub himmating,

«Lom» ila «te» din lat urub millating.

Lotki andin edi ding'a balo,

Sen ushotib poyasini bo'ldi lo.

<sup>102</sup>. Vohidov. R Navoiy va ilohiyot. Buxoro, 1994, 81-bet.

Kufr eliga ulki bor erdi manot,  
Bo‘ynini sen sindurubon bo‘ldi mot.

Kimda kofirlik zulmati to‘plangan bo‘lsa, (bu qonun-qoidalar yozilishidagi) har bir «alif» Islomni sham’dek yoritib turadi. Sening oljanobliging barcha dinlarga (milal) nisbatan bo‘lib, «Lom» va «t» dan har bir dinga zarar bordir. «Lot»dan “T” ketib “Lo” “Yo‘q” degan so‘z qoldi. Ya’ni Allohdan boshqa iloh yo‘qligini anglash va keng jahonga yoyish ham Muhammad mustaffo nomi bilan bog‘liq. Shuningdek, “Lot”dan dinga doim turli balolar yuz berar edi. Sen uning oyog‘ini sindirib, «Lo»si qoldi, xolos. Kofir xalqining «Manot» degan buti bo‘lib, sen uni bo‘ynidan sindirganingdan so‘ng u «mot» bo‘ldi – engildi (258-bet).

Keltirilgan iqtibosda shoir so‘z o‘yini orqali asosiy maqsadni oydinlashtirishga harakat qiladi. Dastlabki misrada islom so‘zidagi “alif” va “lom” harflariga e’tibor qaratiladi. Xuddi shu harflar “Lot”da ham bor. **Lot** – dinsizlik, kufr manbai. **“Alif”** esa to‘g‘rilik, halollik belgisi. Shuningdek, “Alif” hurufiylikda Allohning birligi, yakkaligi ma’nosini ham ifodalaydi.

Ikkinchi baytda «lom» va «te» harflarning yozilishdagi shakli shoir uchun asl maqsadni ochishda yordamga keladi. Shoир baytda bir so‘zning (**milal**-dinlar, mazhablar; millat-din, mahzab) birlik va ko‘plik shaklini qo‘llash orqali takrorlarning oldini olganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, shu so‘z tarkibida «lom» va «te» harflari “lat” so‘zining yasalishi uchun asos bo‘ladi. Navoiy “lat” so‘zidan biror bir dinga manfaat yo‘qligini ta’kidlaydi. Shoирning falsafiy xulosalariga ko‘ra, Rasuli Akramning himmati tufayli yoyilgan islom nuri butparastlikka zarba (lat) berdi, shu tufayli millat nufuzi oshdi.

Uchinchi baytda ham fikr harfiy san‘at orqali asoslanadi. Shoир qofiyadosh so‘zlarni mahorat bilan tanlaydi. “Balo” va “lo” so‘zlari tarkibida ham “lom” bor. “Lot” kufr manbai bo‘lganligi uchun, barcha dinlarga undan balo yog‘iladi. Lo – inkor ma’nosini bildiruvchi so‘z bo‘lib, “yo‘q, emas” degan ma’nolarda qo‘llanadi. Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) asos solgan islom dini butparastlikni “lo”- inkor

qilib yubordi. Oxirgi baytda ham “Manot” va “mot” so‘zlari orqali kitobat (harf) san’atining betakror namunasi yaratilgan.

Uchinchi na’tning xotimaviy baytlari oldingi ikki na’tning xotimasidan farq qiladi. Birinchi va ikkinchi na’tlarning oxirgi baytlarida Muhammad (s.a.v.)ning sifatlari vasf qilingan bo‘lsa, mazkur na’tda Alisher Navoiy U zotning marhamatidan umidvorlik, vujudida xudbinlik va kufr bo‘lsa, undan qutulish chorasini hamda bunday inoyat bilan o‘zini islom jamoasiga kiritilishini so‘raydi. Hazrat Navoiyning mazkur iltijolari ostida Rasuli Akramning marhamatlilik, maxfiratlilik va ummatlariga shafoat tilovchi fazilatlari targ‘ib qilinadi.

#### 4.4. TO‘RTINCHI NA’T TAHLILI

**Tayanch tushunchalar:** Risolat, vahiy, maqom, ruhi quodus, “ashobi kan-nujum”, “ana afsah” “shaqqal-qamar”, i’joz, hamroz, mu’jiz, “kafi mu’jiznamoy”, “ana afsah”, Abujahl, Umar, “xamsa saloti”, “gavhari shahvor”.

**Nasriy sarlavha:** Ul risolat sipehrining rif’atida va barcha olamni sipehrdek ihota qilg‘on qudratida va ashobi bobidakim har biriga ul sipehrda bir kavkabi raxshandaliq sodiq dururki, «ashobi kan-nujum» bu mazmung‘a notiq durur (40-bet).

**Tabdili:** Muxammad (s.a.v.)ning payg‘ambarlik osmonining yuksakligi va butun Olamni Osmondek o‘zichiga qamrab olishdagi kuch-qudrati va uning sahabalari haqidakim, ularning har biriga Osmonda bir yorug‘ yulduz sadoqatda bo‘lgan hamda «mening sahabalarim bamisolai yulduzlardir» deyilgani shu mazmunda aytilgan (259-bet).

To‘rtinchi na’tning sarlavhasida va uning she’riy sharhida qo‘yilgan masalalar quyidagilar:

- Muhammad Mutafoning payg‘ambarlik maqomiga erishganliklari;
- Vahiy orqali Qur’oni Karimning Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ga nozil bo‘lganligi;
- Shariat hukmlarining mustahkamlanishida payg‘ambarning xizmatlari.

Hazrat Navoiy to‘rtinchi na’tda Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning noyob insoniy fazilatlarini targ‘ib qilishga o‘rin beradi. Ana shunday fazilatlardan biri U zotning nutqlari edi.

Ey nafasing moyai e’joz o‘lub,  
Ruhi quodus nutqungga hamroz o‘lub.  
Gohi takallum sanga mu’jiz kalom,  
Nazmi kaloming bori mu’jiz nizom.

**I’joz**-mo‘jiza ko‘rsatish; **hamroz**-sirdosh; **mu’jiz**-1) ojizlantiruvchi, hayratga soluvchi 2) fasohat va balog‘atda eng yuksak darajadagi so‘z, mo‘jiza.

Izohlangan so‘zlardan ko‘rinib turibdiki, na’tning dastlabki baytida Payg‘ambarga berilgan ulug‘ mo‘jiza - Qur’oni Karimning Jabroil alayhissalom vositasida so‘z orqali nozil bo‘lishi haqida fikrga ishora qilingan. Alisher Navoiy uchun tayanch manba Qur’oni Karimdag“Shuar” surasining quyidagi oyatlari asos vasifasini o‘tagani shubhasiz: “Albatta, (bu Qur’on) olamlar Parvardigorining nozil qilgan (kitobi)dir. Uni Ruhul-amin (Jabroil) olib kelib, ogohlantiruvchi (payg‘ambar)lardan bo‘lishingiz uchun qalbingizga tushurdi”.<sup>103</sup> Diniy manbalarda Jabroil (a.s.) bir necha sifatlar bilan ta’riflangan. Mana shulardan biri “Ruhi quodus”dir. Bu haqdagi fikrlarni Qur’oni Karimning “Baqara” surasining 87-oyati, “Nahl” surasining 102-oyatlarida o‘qiymiz. “Nahl” surasida shunday yoziladi. “Sen uni ruhul quodus Robbingdan iymon keltirganlarni sobitqadam qilish uchun va musulmonlarga hidoyat va xushxabar yetib haq ila tushirganini ayt”.

Ey Muhammad! Sen ularga Qur’onne Alloh taolo huzuridan ruhul quodus unvoniga ega bo‘lgan farishta Jabroil alayhissalom olib tushganini ayt.<sup>104</sup>

Keyingi baytlarda payg‘ambar nutqlarining jozib jihatlariga urg‘u beriladi. Bu nutqning fasohatli, tartibli, ma’noli va qoidali ekanligi ta’kidlanadi.

Nukta fasohatda munaqqah sanga,  
Shohidi da’vo: «ana afsah» sanga

<sup>103</sup>. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004. 375-b.

<sup>104</sup>. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tavsiri Hilol. 3-juz. – T.: “Sharq nashriyoti” matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyyati”, 2008. 378-b.

Sihhati hukm ichra hadising sahih,  
Arzi fasohatda kaloming fasih.  
Nutq aro chun zohir o'lub mu'jizing,  
Ahli fasohat bo'lubon ojizing.  
Zoting o'lub bahri javohir nishon,  
So'z aro bahring kafi gavhar fishon,  
Kaf neki, bahre bo'lub ul panj shox,  
Yetti hubob ul suvg'a bu yetti kox.

**Tabdili.** Gaplashgan chog'ingda fasohat bilan so'zlaysan. She'riy nutqing esa hayron qolarli darajada tartibli. Ma'noli va qoidali gapirishingda senga fasihlik xos bo'lib, bunga «Menda fasohat!» - degan da'vo senga yarashadi. Sog'lom hukm chiqarishda so'zlarining to'g'ri, fasohat yerida so'zlarining chiroyli. Gapirganingda sendagi mo'jiza, ayniqsa, yaxshi ko'zga tashlanadi. Bunday paytda har qanday fasohat egalari o'zlarini ojiz sezadilar. Sening asling javohirlarga boy dengiz bo'lib, so'zlashganda bu dengizning kafi gavharlar sochadi. Bu kaf ham emas, besh shoxdan iborat bahr bo'lib, yetti osmonni yetti pufakchani yutgandek yutib yubora oladi (259-bet).

Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning nutqlarining go'zalligi va fasohatli ekanligi haqida Buxoriy va Abu Dovud rivoyat qilgan sahih hadisda shunday deyiladi: "Rasululloh sollallohu alayhi vassallamning kalomlari mufassal kalom edi. Uni eshitgan har bir kishi fahmlar edi".<sup>105</sup> Albatta, U zot nutqlaridagi bu jihat islom dini targ'ibotchisi uchun juda muhim sanalgan.

Ta'kidlash kerakki, Rasululohga berilgan mo'jizalar ichida eng ulug'i Qur'ondir. Alisher Navoiy "Nutq aro chun zohir o'lub mu'jizing" misrasida ana shu mo'jizaga ishora qilgan. Chunki Qur'on so'z-nutq orqali Jabroil alayhissalom vositasida Muhammad Mustafoga yetkazilib turilgan. Shoир Payg'ambarni javohirlarga boy dengizga, so'zlarini gavharlarga qiyoslaydi.

<sup>105</sup>. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Nubuvvat va risolat. 19-juz. – T.: "Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyyati", 2006. 88-b.

Na'tning keyingi qismida "xamsa saloti"g'a, ya'ni islom shar'inining besh ruknining sharofati haqida fikr boradi. Qayd qilish kerakki, bu besh rukn haqida "Hayrat ul-abror" asarida maxsus bob ajaratilgan. Mazkur bobda "xamsa saloti" haqida fikr yuritishdan maqsad esa shariat hukmlarining mustahkamlanishida Rasuli Akramning xizmatlariga urg'u berishdir.

Xamsa salotingga chu navbat bo'lub,

Panjai islomga quvvat bo'lub.

Kufr qo'lu panjasini ranja bil.

Bois aning ranjig'a bu panja bil.

Faqr aro ul panja qabul yetti ranj,

Lek haqiqatda erur panj ganj.

**Tabdili:** Besh vaqt namozga navbat kelganda, Islom panjasи yanada kuchayib ketdi. Kufrning qo'lu panjalari esa dardga uchrab, bu dardning sababchisi o'sha - Islom panjasи edi, - deyish mumkin. Muhtojlikda qolib, u barmoqlar dard chekar ekan, lekin haqiqatda esa bu Islom uchun qo'lga kiritilgan besh xazina bo'ldi (259-bet).

Na'tning keyinga baytlarida "kafi mu'jiznamoy"ning oyni ikkiga bo'lgani haqidagi tasvir berilgan. Shoир payg'ambar minib yurgan tuya yer bo'ylab qadam tashlab borar ekan, uning har bir izi o'sha «Oyning ikkiga bo'lingani»ni eslatishini ta'kidlaydi.

Tong emas ar ul kafi mu'jiznamoy,

Qilg'ach ishorat iki ayrilsa oy.

Noqasi yer uzra chu raftor etib,

Har izi «shaqqal-qamar» izhor etib

Amri etib naxl qadin xush xirom,

Uylaki qilg'ay buti sarkash xirom

**Tabdili:** Buni oddiy qo'l dema, u bamisolи bir tig' bo'lib, bitta barmog'i bunga ishora bo'lganda Oyni ikkiga bo'lgan qo'l edi. Ajab emas, uning mo'jiza ko'rsatuvchi qo'llari bir ishora bilan oyni ikkiga bo'lgani. Payg'ambar minib yurgan tuya yer bo'ylab qadam tashlab borar ekan, uning har bir izi o'sha «Oyning

ikkiga bo‘lingani»ni eslatar edi. Payg‘ambarning buyrug‘i bilan yosh ko‘chat chiroyli harakatga kelar, go‘yo o‘jar sanam yurib ketayotganday bo‘lardi (260-bet).

Naqlga ko‘ra, Makka mushriklari Payg‘ambar alayhissalomga: “Agar sen chin Payg‘ambar bo‘lsang, bizlarga anavi oyni ikkiga bo‘lib ber-chi”, dedilar va agar u zot shu ishni qila olsalar, iymon keltirishlarini aytdilar. O‘shanda oy to‘lgan kecha edi. Shundan so‘ng Rasululloh (s.a.v.) Parvardigorga iltijo qilib, fazlu marhamatini darig‘ tutmasligini yolvorib so‘ragan edilar, banogoh hazrati Payg‘ambarimizning barmoq ishoratlari bilan to‘lin oy qoq o‘rtasidan bo‘linib, yarmi Safo tog‘i ustida, yarmi esa uning ro‘baro‘sidagi Qayqaon tog‘i ustida paydo bo‘ldi. Baytda Qur’oni Karimda kelgan ana shu tarixiy mo‘jiza zikr qilingan.

Agar yuqoridagi ikkinchi baytda Payg‘ambarning “oyni ikkiga” bo‘lish bilan bog‘liq mo‘jizalariga ishora qilingan bo‘lsa, uchinchi baytda daraxtning u zotga bo‘ysunishi haqidagi hadisga ishora qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “....Vodiyning chetida ikkita daraxt ko‘rinib qoldi. Rasullulloh sollallohu alayhi vasallam ularning biri tomon yurib qoldilar.Uning shoxlaridan birini tutib turib “Allohning izni ila menga ergash” dedilar.

Bas, ul u zotga xuddi burnidan xalqa o‘tkazilgan tuya o‘z yetakchisiga ergashganiga o‘xshab ergashib ketdi. U zot boshqa daraxtning oldiga kelib, uning shoxlaridan birini tutib turib “Allohning izni ila menga ergash” dedilar. Bas, ul ham u zotga ergashdi”,<sup>106</sup>.

Ma‘lumki, payg‘ambar mo‘jizalari orasida ham daraxtning u zotga bo‘ysunishi bilan bog‘liq rivoyat mavjud: “...Rukona aytdi: - Andog‘ ersa, o‘shal ko‘rinib turgan daraxtni chaqirg‘il, shundog‘kim, teng yarmi o‘z o‘rnida qolsin, qolgan yarmi ersa kelib, sening payg‘ambarliginga guvohlik bersin, ana shunda iymon keltirgayman. Ana Rasululloh daraxtgaga qarab ishorat qildilar. Yarmi kelib

<sup>106</sup>. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Nubuvvat va risolat. 19-juz. – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2006. 509-b.

Rasulullohga salom berdi. – O‘z o‘rnинга qayt, deb yana ishorat qildilar ersa, daraxt qaytib borib yarmiga yopishdi”.<sup>107</sup>

Demak, ketma-ket kelgan ikkita baytda shoir payg‘ambarimizning ikki mo‘jizalariga ishora qilgan. Bu ishoralar ham ikki xil shaklda berilgan. Ikkinchi baytda oyatdan iqtibos (shaqqal-qamar) keltirish orqali fikr tasdiqlangan bo‘lsa, uchinchi baytda payg‘ambarlik mo‘jizasi bilan bog‘liq mazmun bayt mag‘ziga singdirilgan.

Quyidagi baytlarda ham Qur’oniy rivoyatlarga ishora qilingan:

Og‘zida o‘rgamchi bo‘lub pardador.

Aylamasun deb el ila parda sayr,

Bayzasidin tugma toqib anda tayr,

Pardasi jon rishtasidin tor o‘lub,

Tugmalari gavhari shahvor o‘lub.

Qo‘ydi chu ul dom ila ul dona g‘or,

Ko‘rki ne davlat qushin yetti shikor.

G‘orda yori bila ul tez hush,

Tog‘ ichida o‘ylaki oltun-kumush.

**Tabdili:** Dushmanlar tufayli u g‘orga berkinganda g‘orning og‘zidagi o‘rgimchak uni parda to‘qib to‘sgan. O‘sha parda shamolda uchib ketmasligi uchun qushlar o‘sha pardaga o‘z tuxumlaridan tugma qilgan edilar. Pardaning iplari jon rishtasidan to‘qilgan bo‘lib, tugmalari go‘yo shohona gavhardan edi. U shu taqlidda tuzoq qo‘yib, g‘or oldiga esa don sochib, qarang, qanday baxt qushlarini ovlay oldi. G‘orda hushyor do‘sti (Abu Bakr Siddiq) bilan berkinib turar ekan, go‘yo ular tog‘ qatida yotgan oltin bilan kumush edilar (260-bet).

Keltirilgan iqtibos tahlili uchun Qur’oni Karimning “Tavba” surasidagi 40 oyatini nazardan o‘tkazamiz: “Agar sizlar unga (Muhammadga) yordam qilmasangiz, Alloh (O‘zi) unga yordam qilgan. Qachonki, uni kofirlar ikki kishining biri sifatida (vatanidan) chiqarib yuborganlarida, ikkovlari g‘orda turib,

<sup>107</sup>. Sog‘uniy A. Tarixi Muhammadiy (Mo‘jiza va karomatlar). Qayta ishlangan va to‘ldirilgan I-nashr. Ikkinchi kitob. – T.: 1991. 170-b.

(Muhammad) hamrohi (Abu Bakr)ga: “Tashvish chekına! Albatta, Alloh biz bilan birgadir!, - degan edi”. Mazkur oyati karimaga Alouddin Mansur tomonidan berilgan sharh Hazrat Navoiy baytlari mazmunini teran anglash uchun xizmat qilishi shubhasiz.

“Makka mushriklari musulmonlarga qanchalik tazyiq o’tkazmasinlar, ular dindan qaytmaydilar, oxiri Muhammad (a.s)ning jonlariga qasd qilishga qaror qildilar. Shundan keyin Alloh tomonidan Madinaga hijrat qilib ketishga izn beriladi. Abu Bakr Siddiq bilan birga yo’lga chiqqanlarida, ularning iziga tushgan mushriklardan saqlanish uchun Makka chekkasidagi Sarv tog‘ining bir g‘origa kirib yashirinadilar. Dushman izquvarlari g‘or og‘zigacha izlab keladilar. Lekin Allohning marhamati bilan g‘or og‘zi o‘rgimchak to‘rlari bilan o‘ralib qoladi. Buni ko‘rib ular orqaga qaytib ketadilar. Abu Bakr Siddiq g‘or og‘ziga kelib qolgan dushmanlar Rasulullohga ozor yetkazishadi, deb qattiq hayajonlanadilar. Shunda Rasul (a.s.) tasalli berib, mazkur oyatdagi so‘zlarni aytgan”.<sup>108</sup>

Qur’oni oyat va uning tafsiridan ayon bo‘lyaptiki, ulug‘ shoir mushohadalari uchun ilohiy manba sarchashma vazifasini o‘tagan. Qur’oni rivoyat ijodkorning sehrli qalami tufayli badiiylik libosida o‘quvchiga taqdim etiladi. O‘rgimchak to‘qigan to‘r pardaga, pardaning shamolda uchub ketmasligi uchun qushlamning tuxumi (bayza – tuxum bosmoq) uni ushlab turuvchi tugmaga o‘xshatilgan. Bu oddiy tugma emas, balki, “gavhari shahvor”. G‘orda Muhammad payg‘ambarning do‘satlari Abu Bakr Siddiq bilan berkinishlarini tog‘ ostidagi kumush va oltinga qiyoslanishi o‘quvchiga zavq bag‘ishlaydi.

Kim iki tandin birin et tojvar,

Biri Abujahlu birisi Umar.

Qismati avvalg‘ining o‘ldi azob,

Bo‘ldi ikinchida duo mustajob.

Alisher Navoiy baytdan baytga qiyos darajasini kengaytirib boradi. Shoir yuqorida keltirilgan baytlarda Abu jahl va Umar nomlarini keltirish bilan islom

<sup>108</sup> Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. –T.: “Toshkent islam universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004.193-bet.

nurining yoyilishida Muhammad payg‘ambarga yelkadosh bo‘lganlar hamda u kishiga ixtilofda bo‘lganlar bilan bog‘liq vogelarga ishora qiladi. Bu qiyos endi tazod san‘ati vositasida amalga oshiriladi.

Xo‘s, Abu Jahl kim? Nega uning qismatiga azob bitilgan?. Alisher Navoiy birgina talmeh orqali qanday g‘oyani ilgari surdi?,- degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Abu Jahl (asl ismi Amr ibn Hishom) – Makka zodagonlaridan biri. Muhammad (s.a.v.) targ‘ibotiga qarshi turgani, unga dushmanlik qilgani uchun la‘natlangan. Islom an’anasida unga Abu Jahl (jaholat egasi) laqabi berilgan. Abu Jahl makkaliklar va madinalik musulmonlar o‘rtasidagi Badr jangida (624) halok bo‘lgan”.<sup>109</sup>

Bu shaxs haqda hadislarda va Qur‘oni Karimning “Alaq” surasida ma’lumotlar keltirilgan. U Muhammad payg‘ambarning islam dini targ‘ibi borasidagi ishlari qarshilik qilgan shaxs. Abu Jahl Payg‘ambar (s.a.v.)ga aziyat va zarar yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam namoz o‘qiyotganlarida bo‘yinlaridan bosib, yuzlarini tuproqqa belash uchun Abu Jahl shahd bilan u kishi tomon yurdi. Oldinga o‘tdi-yu, so‘ng darhol ortiga qaytdi. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan o‘zi o‘rtasida bir to‘sinqi ko‘rdi.

Abu Hurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: “Abu Jahl Quraysh kofirlariga qarata: “Muhammad sizlarning orangizda turib yuzini tuproqqa ishqab yotsa, sizlar buni qaytarmasdan, indamay qarab turibsizlarmi?” dedi. Ular: “Ha”, deyishdi. “Lot va Uzzoga qasam, agar uning namoz o‘qiganini ko‘rsam, albatta, bo‘ynini bosib, yuzini tuproqqa ishqayman”, - dedi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam namoz o‘qiyotganlarida aytgan ishini qilish uchun keldi va tezlik bilan ortiga qaytdi. Qurayshliklar uning oldiga kelganida hamon ortga tisarilib, qo‘li bilan nimadandir himoyalanardi. “Senga nima bo‘ldi?” deb so‘rashdi. “U bilan mening o‘rtarnda olovli xandaq, qo‘rqinch va qanotlar bor”, dedi. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): “Agar menga yaqinlashganida farishtalar uni bo‘lak-bo‘lak qilib tashlagan bo‘lardi”, - dedilar».

<sup>109</sup> O‘z ME. I-tom. T., 2000. 51-bet.

Bu haqda Alloh taolo Qur'oni Karim "Alaq"da quyidagi oyatlarni nozil qildi: "(Ey inson!) Ko'rdingmi, qaytarayotan kimsani bandani namoz o'qiganda?! Ko'rdingmi – agar u (qaytaruvchi) o'zi to'g'ri yo'lida bo'lsa ekan, yoki (o'zgalarni) taqvoga (Allohdan qo'rqishga) buyursa ekan! Ko'rdingmi, agar u (namozdan) to'suvchi kimsa (aksincha haqnii) inkor etsa va (u imon keltirishdan) yuz o'girsa, albatta, Alloh (uning bu qilmishlarini) ko'rib turishini bilmaganmidi?! Yo'q! Qasamki, agar u (bu yo'lidan) qaytmasa, albatta, Biz uning peshona sochidan tutamiz o'sha yolg'onchi, adashgan (kimsaning) peshona sochidan(tutib jahannamga oturmiz)! Bas, u o'zining jamoasini (yordamga) chaqiraversin! Biz esa azob farishtalarini chaqirajakmiz! Yo'q! (Ey Muhammad!) Siz unga itoat etmang va (yolg'iz) Allohga sajda (ibodat) qilib, (Unga) yaqin bo'ling!".<sup>110</sup>

Bu oyatdagi namoz o'quvchidan murod – Muhammad sollallohi alayhi vasallam, namozdan qaytaruvchi esa Abu Jahldir.<sup>111</sup> Ko'rinib turibdiki, fosiq, johil va nodon kishining do'zaxiy bo'lishi diniy kitoblarda qayd qilingan.

Iqtibosda keltirilgan ikkinchi nom islom yo'lida fidoyilik ko'rsatgan payg'ambarimizning ikkinchi xalifaları Hazrat Umar (Umar ibn Xattob)dir.

Umar – to'rt xalifaning ikkinchisi. U 585-644 yillar orasida yashab o'tgan. Al Xattob al Faruq. 616-yil islomni qabul qilgan. Abu Bakrning xalifa qilib saylanishining tashabbuskorlaridan bo'lган. Islomni targ'ib etish, bir necha qonun-qoidalarni joriy etishda g'ayrat ko'rsatgan.<sup>112</sup>

Umar roziyallohu anhu sahabalar ichida shijoat, odillik, haqgo'ylik, ixlos, itoatgo'ylik, omonatdorlik, taqvo va xalqparvarlik kabi insoniy sifatlari bilan islom tarixida nomlari muhrlangan. Rasululloh alayhissalom Umar roziyallohu anhuning sha'nları to'g'risida "Agar mendan so'ng payg'ambar bo'lsa, albatta, Umar bo'lar edi", deya e'tirof etganlar.

<sup>110</sup>. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. –T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti-matbaa birlashmasi. 2004. 597-bet.

<sup>111</sup>. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tavsiyi Hilot. 6-juz. – T.: "Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyyati", 2008. 507-bet.

<sup>112</sup>. Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. M., 1991. 241-bet.

Alisher Navoiy na't davomida Hazrat Umarning islom tarixidagi xizmatlaridan biri – Qur'on bitiklarini yig'ib jamlaganlikligi, Muqaddas Makkani butxonadan ajratib, qilichining suvi bilan uni butparastlardan tozalaganliklari haqida yozadi. Shoир payg'ambarlik dengizining duri - payg'ambar ruhi bo'lsa, to'rt rafiqini uning tanasidagi to'rt unsurga qiyoslaydi.

Buki kalomulloh angadur nasib,  
Kim yo'q anga mo'jiza andin g'arib.  
Makkani chun qildi juda dayrdin,  
Tig' suyi birla yudi g'ayrdin.  
Bo'ldi vale manzaradin but figan,  
So'ngra nabi haq evida but shikan.  
Na'lini gar toji sharaf qildi arsh,  
Qildi Ali na'lig'a egnini farsh.  
Ruh edi ul bahri nubuvvat duri,  
To'rt rafiqi tanining unsuri.

Shu o'rinda islomda "sheri Xudo" unvoni bilan ulug'langan Hazrat Ali nomi tilga olinadi, islom dini yoyishdagi xizmatlariga urg'u beriladi.

Hazrat Ali dastlabki islom xalifalaridan to'rtinchisi edi. Abul Hasan Ali ibn Abu Tolib ibn Abdulmutalib ibn Hoshim al-Qurayshiy 600 milodiy yilda Makkai mukarramada tavallud topgan. U kishi payg'ambarimiz amakilarining o'g'li bo'lган. Buning ustiga, arablarning quraysh qabilasi, hoshimiylar xonadoni farzandi Hazrat Ali yoshliklaridan payg'ambarimiz (s.a.v.) qo'llarida tarbiyalangan.<sup>113</sup> U kishi payg'ambarimizga o'g'il qadar yaqin qadron bo'lishlari bilan birga, kuyov (kenja qizlari Fotimaning eri) ham edilar. Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" asaridagi bir ruboiyda bu xususda shunday deydi:

Daryoyi ulumiу mehri bo'rji karam ul,  
Olam tanining jonyu jononi ham ul,

Sultonı rusul birla qadam barqadam ul,  
Farzandu rafiqu kuyovu ibn-ammm ul.

Yoshliklaridan payg‘ambarimiz tarbiyasini olgan Hazrat Ali uchun Muhammad Mustafoning har bir so‘zları, xatti-harakatlari, yurish-turishlari, ibratli xulqlari tarbiya maktabi vazifasini o‘tadi. Tarixiy manbalar guvohligicha, Hazrat Ali shijoatli, jasur, pahlavon inson bo‘lgan. Shuning uchun ba’zi manbalarda uni «Asadulloh» (Allohning sheri) degan sifatlovchi bilan ataganlar. Uning haqidagi manoqiblar ko‘pgina kitoblarga kiritilgan. XVII asr manbasi «Siyar ul-aqtob»da Hazrat Ali ta’rifida shunday hadis keltirilgan: «Hazrat payg‘ambar ul janob haqida debdurkim, «man aroda an yanzura ila Odama va sifatihi va ila Yusufa va husnihi va ila Musa va salabatihi va ila Isa va zuhdihi va ila Muhammad va xulqihi, fal-yanzur ila Ali ibn Abu Tolib». Bu hadisning ma’nisi buldurkim, “Har bir odamekim iroda etsa, nazar etmakni Odamg‘a va uning qalbining safosig‘a va Yusufg‘a va uning husnig‘a va Musog‘a va aning salobatig‘a va Isog‘a va aning zuhdig‘a va Muhammadg‘a va aning xulqig‘a, bas kerakkim, nazar etsun Ali ibn Abu Tolibg‘a”.<sup>114</sup>

Na’tning oxirgi baytlarida boshqa na’tlardan farqli o’laroq, shoir Allohdan ulug‘ sahobalarning Tangri taolo karamidan bahramand bo‘lib, qiyomat kunigacha ularga yuzlarcha minnatdorlik tuhfalari borishini so‘raydi.

Xulosa qilib aytganda, to‘rtinchı na’tda Payg‘ambar hayotiga oid voqeahodisalar qur’oniylar rivoyatlar asosida berib o‘tiladi. Alisher Navoiy Rasuli Akramning insoniy sifatlarini islomning yoyilishi va mustahkamlanishidagi shijoatlari bilan bog‘lab madh etishga erishgan<sup>115</sup>.

## 4.5. BESHINCHI NA'T SHARHI VA TAHLILIGA DOIR MULOHAZALAR

**Tayanch tushunchalar:** “Subhonallazi asro”, “bi-abdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso”, qosidi qudsiy, me’roj, Masjidul-Harom, Masjidul-Aqso, Jabroil a.s., isro, safar, aynul-hayot, Xizr, zulmat, mijmar, anbar, sipehr, olti hijat.

**Nasriy sarlavha:** Me’roj kechasi ta’rifidakim, Karimai: “Subhonallazi asro” anga musaddaqi durur va «bi-abdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso» aning subutig‘a ikki guvohi sodiq (44-bet).

**Tabdili:** Me’roj kechasi ta’rifida; oljanoblikdirkim, “Ul zoti pok” sadoqatli bo‘lib, o‘z bandasi (Muhammad s.a.v.)ni bir kechada Haram masjididan Aqso masjidiga olib bordi va buning isbotiga ikki sodiq guvoh bordir (261-bet).

Beshinchchi na’t boshqa na’tlardan bir jihatni bilan farqlanadi: ya’ni bu na’tda payg‘ambarimiz ko‘tarilgan eng yuksak maqom - me’roj tuni haqida fikr yuritiladi.

“Me’roj” lug‘atda “yuqoriga ko‘tarilish” degan ma’noni anglatadi. Shariatda esa Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Baytul Maqdisdan Sidratul Muntahoga – Allohning huzuriga ko‘tarilishlariga aytildi.

Bu na’tni kompozitsion qurilishi jihatdan uch qismga ajratib o‘rganishimiz mumkin. Birinchi qism payg‘ambarimizning me’rojga ko‘tarilishlaridan avvalgi holatlari tasviriga bag‘ishlanadi. Me’roj tunining kutilishi va Alloh taolo o‘z Payg‘ambarini Makkadagi Masjidul-Haromdan Quddusdagagi Masjidul-Aqsoga Jabroil (a.s.) hamrohliklarida juda qisqa vaqt birligida borishlari na’tning birinchi qismida tasvirlanadi. Bu “**isro**” deyiladi.

Isrodan keyin Muhammad sollallohu alayhi vasallamning samovotning oliv tabaqalariga ko‘tarilishi hamda insu jin va maloikalarining ilmi yetmaydigan darajagacha yuqoriga yetishlari tasviri keltiriladi. Bu – Me’roj deyiladi. Bularning barchasi birgina kechada sodir bo‘lgan. Alisher Navoiy me’roj tasvirini na’tning ikkinchi qismida berib o’tadi.

Na'tning uchunchi qismida Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Arshda – eng oliv maqomda Alloh bilan uchrashib, keyin yerga qaytishlari bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi.

"Me'roj Navoiy – Foniyning alohida sevgan mavzusidir. Chunki Navoiy ham, boshqa so'fiy yoki mutasavvuf shoirlar ham Payg'ambar Me'rojida tasavvuf g'oyalariga yaqin narsani va so'fiylarning ruh uruji (ko'tarilish), tariqat maqomlarini egallab, Parvardigor huzuriga musharraf bo'lish g'oyasining isbotini ko'radilar. Shu bois Me'roj kechasi Rasuli Akramning koinot bo'y lab sayri, Buroq otida Jabroil (a.s.) jilovdorligida yetti qavat osmondan oshishi va Arshga yaqinlashib, Alloh bilan suhbatlashishi katta zavqu shavq, qaynoq ilhom bilan tasvirlananadi. Bu tabiiy, chunki ushbu mavzu o'z xususiyati va mohiyati bilan shoironadir".<sup>116</sup>

«Isro» so'zining lug'aviy ma'nosi «kechaning bir qismida sayr qilish, yurish»ni anglatadi. Shariatda esa Alloh taoloning kechalardan birida Hazrati Muhammad sollallohu alayhi vasallamni Masjidul Haromdan Masjidul Aqsoga sayr qildirishiga aytiladi. "Tafsiri hilol"da ta'kidlanishicha, Isro hodisasi tush emas, ruhiy safar ham emas, balki Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning ham jasadlari, ham ruhlari ila qilgan safarlaridir. Agar tush yoki ruhiy safar bo'ladigan bo'lsa, bu voqeanning mo'jizaligi qolmas edi. Oyati Karimada »**bandasini**» deb ta'kidlanishi ham Isro hodisasi ham jasad, ham ruh bilan bo'lganini ko'rsatadi. Agar faqat ruh bilan bo'lganida, «bandsining ruhini» degan bo'lar edi.

Bu haqda Qur'oni Karimda shunday deyiladi: "**O'z bandasini kechasi Masjidul Haromdan atrofini barakali qilganimiz Masjidul Aqsoga mo'jizalarimizni ko'rsatish uchun sayr qildirgan Zot pok bo'ldi. Albatta, U eshituvchidir va ko'rguvchi Zotdir**" (Isro surasi, 1-oyat).

Shayx Muhammad Solih Muhammad Yusuf hazratlari mazkur oyatni shunday tafsir qilganlar: Oyati Karimada Alloh taolo O'zini O'zi poklab yod qilmoqda va bandasi Muhammad sollallohu alayhi vasallamni isro qildirgani, ya'ni kechaning bir qismida sayr qildirgani haqida xabar bermoqda. Oyatdagi »**O'z**

<sup>116</sup> Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma'naviyat. 2005. 211-bet.

**bandasi**dan murod, Muhammad sollallohu alayhi vasallam dirlar. Muhammad sollallohu alayhi vasallam doimo Allohning bandasi ekanliklari bilan faxrlanib yurur edilar. Ushbu oyatda u zotning ismlari aytilmay, »**O‘z bandasi**» iborasining ishlatalishi ham Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam uchun faxr hamda eng og‘ir paytda u kishi uchun tasallidir.<sup>117</sup>

Mazkur hodisa bilan bog‘liq rivoyatlar Imom Buxoriy va Muslim tomonidan naql qilingan hadislarda ham ta’kidlangan. «Rasululloh alayhissalotu vassalam Buroq nomli ulovlarida kechasi Masjidul-Haromdan Masjidul-Aqsoga kelib, u joyda ikki rakat namoz o‘qidilar... so‘ng avval birinchi osmonga, keyin ikkinchi, uchinchi osmonlarga ko‘tarilib, hatto Sidratul-muntahoga – Allohning huzuriga ko‘tarildilar.

Muhaddislarning rivoyat qilishlaricha, Nabiy sollallohu alayhi vasallam xufton namozidan so‘ng Ummu Honi’ binti Abu Tolibning uyida uxbab yotganlarida, Isro hodisasi boshlandi. O‘sha kechasi Baytul Maqdisga Buroq nomli hayvonga minib bordilar. So‘ngra u yerdagi katta xarsang tosh ustida turganlarida Me’rojga ko‘tarildilar. Hozirda o‘sha tosh ustiga qubba – gumbaz qurilgan, dumaloq bino shaklidagi surat butun dunyoga tarqatilgan. Ko‘pchilik bilmasdan, uni Masjidul Aqso deb tushunadilar. Me’rojda Nabbiy sollallohu alayhi vasallam bilan Jabroil alayhissalom ham (muayyan chegaragacha) birga bo‘ldilar.

Beshinchi na’t sarlavhasida ikkita arabiylar iqtibos keltirilgan. Bular “Subhonallazi asro” va “biabdihi laylan minal-Masjidil-haromi ilal-masjidil-Aqso”. Har ikkala iqtibos ham “Isro” surasidan olingan bo‘lib, na’tning umumiy mazmunini begilashda kalit so‘z (birikma) bo‘lib xizmat qilgan (Mazkur suranining tarjimasi yuqorida berilgan). Demak, na’tda yoritilgan masalalar quyidagilar:

- Me’roj tunining ta’rifi;
- Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sayrlari bilan bog‘liq tafsilotlar;
- Me’rojga ko‘tarilishlari;

<sup>117</sup> Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tavsiri Hilol. 3-juz. – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2008. 396-bet.

- Nabbiy sollallohu alayhi vasallamning me'rojlariga ikki guvoh – Alloh va Jabroil alayhissalom bo'lganligi.

Alisher Navoiy "Hayrat ul-aboror"dagi beshinchi na'tni ajoyib peyzaj – qop-qora tun tasviri bilan boshlaydi:

Bir kecha zulmatqa qolib koinot,  
Mehr nihon o'ylaki aynul-hayot.  
Garchiki ul chashma nazardin qochib,  
Xizr ko'k uzra qatarotin sochib.  
Tun qilibon gardini anbar sirisht,  
Butratibon yerga nasimi bihisht.

**Tabdili:** Kechalarning birida koinotni qorong'ilik bosib, quyosh obi hayot bulog'idek yashiringan edi. Garchi u buлоq ko'zga ko'rinsama ham, Xizr ko'k uzra undan qatralar sochardi. Tun changlarini anbarga aylantirgan, ularni jannat shabadalari Yer uzra tarqatar edi (261-bet).

Bu butun koinotning me'roj tuni oldidagi holati edi. Butun koinot va ayniqsa, insoniyat uchun ulug' saodat baxsh etdi. Chunki Muhammad sollallohu alayhi vasallam tomonidan insonlarga saodatning yo'llari ko'rsatildi, ibodat shakllari o'rgatildi. Bundan tashqari, Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarligi yana bir bor tasdiqlandi.

Keltirilgan iqtibosni tahlil qilish jarayonida biz **chashma**, **Xizr**, **zulmat** so'zlariga e'tibor qaratishimiz kerak. "Obi hayot"ning zulmat olamida ekanligi va Xizr zulmatdan obi hayot chashmasini topganligi bois, abadiy hayotga erishganliklari diniy va adabiy manbalarda ta'kidlanadi. "**Tiriklik suvi**", "**obi hayot**", "**obi zindagoniy**", "**obi hayvon**" kabi tushunchalarga yuqoridaq iqtibosda "chashma" so'zi orqali ishora qilinadi. "Ulug'" shoirning badiiy tafakkurida biz uning o'zgacha jiloda tovlanishini ko'ramiz. Zulmat va Xizr egizak tushunchalar. Iskandar va Xizr o'sha zulmat qa'ridan obi hayvon – boqiylik suvini izlashdi. Rivoyatga ko'ra, uni qo'lga kiritish Xizrga nasib etdi. Alloh inoyati

tufayli uning taqdiriga mangulik bitildi".<sup>118</sup> Yuqoridagi iqtibosda quyosh - obi hayot (aynul-hayot) chashmasiga o'xshatilgan. Biroq u ko'rinxinmaydi. Shunday bo'lsa-da Xizr a.s hayot suvi bilan butun ko'kni namladi.

Baytdagi gard bu oddiy chang emas, tun bu changlarini anbarga aylantirdi. Bu gard - anbar aralashgan, jannat bo'yiga burkangan edi. Bu tunda jannat shabadalari uni Yer uzra sochar edi. Shoир томондан tuning bunday ulug' pardalarda kuylashinishiga sabab butun insoniyat ulug' saodat tuni oldida turgan edi. Na'tning keyingi baytlarida koinot tasviriga o'tiladi.

Yer kuravi shakl ila mijmar bo'lub,

Kecha savodi anga anbar bo'lub.

O't kibi yer mijmari ostida mehr,

Yopib etak mijmara uzra sipehr.

**Mijmar** – mushk-anbar kabi turli xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish; **savod** – qoralik, qora tus, qorong'i, qorong'ilik; **anbar** – xush isli narsalar aralashmasidan tayyorlangan xushbo'y qora modda; **sipehr** – osmon, osmon gumbazi, falak ma'nolaridagi so'zlar. E'tibor bersak, ikki baytda tashbehlar qatorlashtirilib keltirilgan. Yer kurarsi – o'choqqa, kechanining qorong'uligi – anbarga, quyosh o'choq ostidagi olovga, osmon esa o'choq ustiga yopilgan etakka tashbeh qilingan.

**Nasriy bayoni:** Go'yo yer kurarsi o'choqqa o'xshab qolgan, kechaning qorong'uligi (savod) bu o'choqqa sepiladigan anbar kabitdir. Quyosh esa o'choq ostidagi olovga o'xshaydi. Osmon o'choq ustiga yopilgan etakka o'xshab turibdi.

Navoiy mazkur tasvirlardan so'ng me'roj oldidan Rasuli akram qalblarida kechadigan xushnudlik haqida - uchrashuvdan ko'ngli xursand bo'lib, dengizdek jo'sh urishi, hayqirishi haqida yozadi.

Vasl xayolidin etib ko'ngli jo'sh,

Bahrdeк ul jo'sh ilaaylab xurush.

<sup>118</sup>. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994. 89-b.

Hazrat Navoiy masalaning ikkinchi jihatini ham unutmaydi. Ya'nikî Yaratganning o'z sevimli payg'ambariga intizorligi, mushtoqligini badiiy ifolash orqali Alloh nazarida Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ulug'martabalariga urg'u beradi.

Qosidi qudsiy chu salom aylabon,  
Haq soridin arzi payom aylabon.  
Debkim, ayo maxzani asrori shavq,  
Haqdin erur vaslinga izhori shavq.  
Chunki nabiy mujdai jonon topib,  
Mujdai jonon chu topib jon topib.

**Tabili:** Allohnинг pok xabarchisi unga salom qilib, Alloh nomidan unga ma'lumot berib dedi: "Ey shavqli sirlarning xazinasi! Alloh seni ko'rishga o'z shavqu istagini bildirmoqda. Chunki payg'ambar jonon xabarini topgan ekan, uning jonon xabarini topgani yangidan jon topganidir" (261-bet).

**Qosid** – xabarchi, xat tashuvchi, elchi, chopar; **qudsiy** – poklikka mansub; **payom** – xabar, darak; **shavq** – 1) o'tkir orzu, zo'r havas qattiq intilish, kayf, istak 2) o'rtanish.

Qosidi qudsiy - Jabroil alayhissalom. U farishtalarning eng ulug'i. Alloh taoladan payg'ambarlarga vahiy keltirgan farishta. Alisher Navoiy **qosidi qudsiy** birikmasi orqali shu farishtaga ishora qilgan. Shavqli sirlarning xazinasi – Muhammad sollallohu alayhi vasallam. Rasuli Akramga Alloh bilan muloqot xabari (mujdasi) jonon xabarini topgan kabi, balki jon xabari kabidir. Baytda qo'llangan *ruju'* san'ati ohorli fikrning go'zal va ta'sirchan ifodasini ta'minlash uchun xizmat qilgan.

Voqealar davomida Rasululloh Jabroil hamrohligida Buroq otida oliv maqom sari yo'lga chiqar ekan, barcha sayyoralar bu voqeani xursandchilik bilan kutib oladi. U zotga avval Oy bu yo'lida tuynuk (ravzan) vazifasini bajardi. Shundan so'ng shoir Rasuli Akram yuzlashgan sayoralar nomini birma-bir sanab o'tadi:

Chun etibon ko'k sori taysan anga,

Oy bo‘lubon o‘tgali ravzan anga  
**Tiyri qalamzan** chu topib ul sharaf,  
 Buqalmunlug‘ni qilib bartaraf.  
**Zuhra** tarab barbatini soz etib,  
 Zamzamai tahniyat og‘oz etib.  
 Soyasidin **mehr** chiqarmay jamol,  
 Taxti shio‘ ichra nechukkim hilol.  
 Mehrida **Bahromki** yakro‘ bo‘lub,  
 Tig‘i sharaf yuziga ko‘zgu bo‘lub.  
 Mavkibidin poya topib **Mushtari**,  
 Yo‘lida bir poya bo‘lub minbari.  
 Sham‘i **Zuhal** zulmatini nur etib,  
 Zangiyi shabrangni kofur etib.

Keltirilgan iqtibosdan ayonlashadiki, hazrat Navoiy ilmi nujum bilan bog‘liq ilmlarini ham chuqur egallagan. Xo‘sh, ulug‘ shoir bu tasvirlardan qanday maqsadni ko‘zlagan edi? “Birinchidan, g‘oyat original tashbih va istiora, iyhomlar bilan osmon jismlarini ta‘rif etish; ikkinchi tarafdan, osmon jismlari, yerdagi ashyolarni inson idrokiga, hayotga yaqinlashtirib, jonlantirib baytlar tuzish. Go‘yo samoviy jismlar ham obraz va ham moddiy mavjud ashyodek taassurot qoldiradi o‘quvchida”.<sup>119</sup>

Keltirilgan iqtibosda yetti sayyoraning nomi tilga olingan: “Chunonchi, Oy Yerga eng yaqin samoviy jism bo‘lib, u – birinchi, Atorud – ikkinchi, Zuhra – uchinchi, Quyosh – to‘rtinchi, Mirrix – beshinchi, Mushtariy – oltinchi, Zuhal – yettinchi falakda deb tushunilgan”.<sup>120</sup> Mazkur matnlar tahlilini mukammal amalga oshirish uchun, albatta, koinot haqidagi mifologik qarashlarning kelib chiqishi haqida bilimga ega bo‘lishi zarur. Jumladan, mifologik qarashlarga ko‘ra, Mars (sharqda Mirrix, ba’zan Bahrom deb yuritilgan) – jang va qahramonlik, **Merkuriy** (Atorud) - falak kotibi, yozuvchi va shoirlarning homiysi ramzi sanalgan. **Venera**

<sup>119</sup> Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma’naviyat. 2005. – 212-bet.

<sup>120</sup> Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: Adabiyot va san’at, 1974, 124-138-betlar.

(Zuhra) – san’at homiysi, nafosat ramzi hisoblangan. **Saturn** (Zuhal yoki Kayvon) - yuksaklik, baxt-tole ramzi. **Yupiter** (Mushtariy) – baxt yulduzi tarzida talqin etilgan.<sup>121</sup>

Alisher Navoiy sayyoralar haqidagi mifologik, diniy hamda ilmiy qarashlarga tayanib, ularning Muhammad payg‘ambarni xursandchilik bilan kutib olishlarini badiiy ask ettiradi. Bunda shoirning mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. **Qalamzan** – 1) yozuvchi; 2) kotib, hukm va farmonlar yozib tarqatuvchi mirza. Atorud (Merkuriy) sayyorasiga san’at homiysi, nafosat ramzi, yozuvchi va shoirlar homiyi sifatida qaralgan. Demak, shoir **tiyri qalamzan** - qora qalam egasi sifatida Atorud sayyorasiga ishora qiladi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy boshqa asarlarida ham kotiblar haqida yozadi. Ularni yaxshi va yomonga ajratadi. Shoir keltirilgan iqtibosda “**tiyri qalamzan**” birikmasini bejizga qo‘llamagan. Bunga misradagi “buqalamun” – “ikkiyuzlamachilik” so‘zi oydinlik kiritadi. Chunki buqalamunlik “tiyri qalam” egasiga xos. Navoiy bu o‘rinda qora so‘zning ma’nosini uning egasiga ko‘chirgan. Shoirning e’tiroficha, hatto payg‘ambarning me’rojga ko‘tarilishlaridan **tiyri qalamzan** buqalamunlig‘ – ikkiyuzlamachilikni bartaraf qilgan edi.

Shoirning badiiy tafakkur va tasavvur dunyosining kengligini quyidagi birgina bayt tahlili misolida ham kutishimiz mumkin:

Soyasidin **mehr** chiqarmay jamol,

Tahti shio‘ ichra nechukkim hilol.

Ma’lumki, yer quyosh atrofida, oy esa yer atrofida aylanadi. Bu harakat Allohnинг izni bilan to‘xtovsiz davom etadi. Mana shu uzlusiz harakat natijasida oy sayyorasining hilol (yangi ko‘ringan oy), badr (o’n to‘rt ko‘nlik oy) shakllari farqlanadi. Mazkur tabiiy hodisa shoir qalamidan badiiylik libosida taqdim etiladi.

<sup>121</sup>. Eshonqulov H. Samovat – ishq mahzari (Alisher Navoiyning «Badoye» ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» devonlari asosida). – T.: “Fan”, 2008. 18- bet.

Quyosh o‘z soyasi bilan hamma yoqni berkitdi, uning taht (ost, tag) da qolgan hilol esa shu’la (shuo‘) ostida berkingandek edi. Demak, oy jamolining to‘silishi uni hilolga aylantirib qo‘ygan.

Na’tda yetti sayyoralar tasviridan so‘ng yulduzlar turkumi – burjlar bilan bog‘liq sayohat vasfi davom etadi. Ta’kidlash kerakki, “Qadimda osmon jismlari – sayyoralar, yulduz turkumlari, burjlar turli xislat va xususiyatlarga ega deb qaralgan. Ular inson taqdiri hamda hayot hodisalari bilan vobasta qilib tushuntirilgan va ko‘pining nomi hayvonlarning nomi (qisqichbaqa, ho‘kiz, baliq kabi) yoki insonga kerak ashyo – asboblar (dalv, tarozi) yoinki inson kasb-kori (kamon otuvchi kabi) bilan bog‘liq”.<sup>122</sup>

**Ham Hamalu Savr** berib jon anga,

Jon etibon ikkisi qurban anga.

**Ham tongibon olida Javzo qamar,**

**Ham Saraton** tuz bo‘lubon jilvagar.

**Sher** yo‘lidin tutubon go‘shai,

**Sunbula** raxshig‘a bo‘lub to‘shai.

**Palla** yo‘li gardidin iksir sanj,

**Aqrab** aro no‘shu davo, nishu ranj.

**Qavs** tutub chilla duosi uchun,

**Jadi** berib fulla g‘izosi uchun.

**Dalvg‘a** Yusuf kibi solmay nazar,

**Hutda** Yunus kibi qilmay maqar

Burjlar haqidagi qarashlarning asosi ham Qur’oni Karimga borib taqaladi. “Yunus” surasining 5-oyatida o‘qiyimiz: “U (Alloh) Quyoshi ziyo sochuvchi, Oyni yorug‘lik qilgan va sizlar yillarning sanog‘ini hamda vaqtarning hisobini bilishingiz uchun uni (ya‘ni Oyni bir qancha) manzillarga bo‘lib qo‘ygan zotdir”.

Muhammad alayhissalom dastlab peshvoz chiqqan **Sarv** (Buqa) va **Hamal** (Qo‘y) U zotga jonini qurban etishga tayyor. Mazkur misralarda har ikkala hayvonni qurbanlik qilish udumga aylanganligi hamda yulduzlar ilhaqlik bilan

<sup>122</sup>. Komilov N. Xizr chashmasi. T: Ma’naviyat. 2005. 213-b.

Alloh rasulini kutganligiga ishora qilinadi.<sup>123</sup> Har bir burj Payg'ambarni (s.a.v.) o‘zgacha ilhaqlik bilan kutib oladi: **Javzo** (egizak yoki beli oq-qora qo‘y) qamarini tortib bog‘lagan bo‘lsa, **Saraton (Qisqichbaqa)** o‘zini tik tutib, jilva bilan kutar, **Sher** (Asad) yo‘lidan bir go‘shani egallab, **Sunbula (Bug‘doy)** Uning otiga yo‘l ozig‘i, **Tarozi (Palla)** yo‘li gardini qimmatbaho iksirday (mis, qalay kabi qimmati past ma’danlarni oltinga aylantirish hamda barcha kasalliklarni daf qilish xosiyatiga ega deb ishonilgan faraziy kimyo “ilmi”) o‘lchasa, **Aqrab** (Chayon) ichkizish, davolash, (nina) sanchish, og‘ritish ishlari olib borishmoqda. **Qavs** esa chillaga o‘tirib, duo qilish payida. **Jady** (tog‘ echkisi) unga yetishi uchun (ozig‘ bo‘ladigan) birinchi sutini keltiradi. **Dalvga** Yusuf kabi nazar solmay, **Hutda** Yunus kabi to‘xtab o‘ltirmadi. U yeldek hamma burjlarni kesib o‘tdi va Osmonning Arsh qismiga ko‘tarila boshladi. Unga poyandoz Arsh hamda Lavhu Qalam bo‘lib, uning oti naq o‘shalarga qadam bosishi kerak edi (262-bet).

Burjlarning barchasi Muhammad (s.a.v.)ning qutlug‘ va muborak qadamlaridan xushnud.

Ko‘rinadiki, Sharq mifologiyasi asosida ramzlar sifatida tushunilgan sayyoralar va burjlarning ezgulik timsoli hisoblanganlari o‘z asl ma’nolarini saqlagan holda qo‘shimcha ijobiy ma’no ifodalashga xizmat qildiriladi.<sup>124</sup>

Hazrat Navoiyning mazkur misralari uchun Qur’oni Karim tayanch manbani o‘tagani shubhasiz. Qur’oni Karimning “Ra’d”, “Yunus”, “Tavba”, “Van najm”, “Burch”, “Vash shams” kabi suralarida samoviy sayyoralar, burj haqidagi ma’lumotlarni o‘qishimiz mumkin.”Tavba” surasining 36-oyatida shunday yoziladi: “Albatta, Allohnning nazdida, Allah osmonlar va yerni yaratgan kunida belgilab qo‘yanidek, oylar sanog‘ini o‘n ikkidir”. Illohiy manbalar bag‘ridagi g‘oyalari Hazrat Navoiyning jozib qalami sehridan badiyyat libosidan berilar ekan, shoiring asl maqsadi misralar bag‘riga singdirilib yuborilgaligini payqash qiyin emas.

<sup>123</sup> Eshonqulov H. Samovat – ishq mahzari (Alisher Navoiyning «Badoye’ ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» devonlari asosida). – T.: Fan, 2008. 55- bet.

<sup>124</sup> Eshonqulov H. Samovat – ishq mahzari (Alisher Navoiyning «Badoye’ ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» devonlari asosida). – T.: “Fan”. 2008. 56- bet.

Alisher Navoiy borliqning yaratuvchisi Alloh, koinot, sayyora va yulduzlar olami Uning hukmidadir degan g'oyani na't mag'ziga singdiradi.

Na'tning keyingi misralarida butun burjlarni sayohat qilib bo'lgan Rasuli Akramning Buroqni qo'yib, Rafrafga minib Parvardigor huzuriga yaqinlashishlari bilan bog'liq tasvirlar bayoni beriladi. Ko'k pardalarini ochadi. U zot Lomakon dargohiga qadam qo'yadilar. Lomakon zamon va makon tushunchalaridan tashqarida.

Olti jihat qaydidin ixroj o'lub,  
To'rt guhar tarki anga toj o'lub.  
Yo'qlug' ayog'i bila solib qadam,  
Andaki yo'lu qadam o'lub adam.  
O'zlugidin naqshu namudor yo'q,  
Naqshu namudoridin osor yo'q.  
Chun o'zini aylab o'zidin xalos,  
Pardai izzatda qilib o'zni xos.

Ma'lumki, sharq adabiyotida, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida raqamlarga turli ramziy ma'nolarni singdirish an'anasi bevosita mifologiya, din va tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq. Yuqorida keltirilgan baytlarda to'rt, olti raqamlari ham shular jumlasidandir.

**Olti jihat** – tomon (sharq, g'arb, shimol, janub) hamda yuqori va quyidan iborat. **To'rt unsur** – suv, havo, tuproq va olovdir. Hazrat Navoiy olti jihat va to'rt unsur orqali Lomakon tasviriga ishora qiladi. Ya'ni bu dargohda hech qanday olti jihat yoki to'rt unsur yo'q. Bu shunday olam ediki, yo'qlik oyog'i bilan qadam bosar ekan, aslida yo'l ham yo'q edi, qadamning o'zi.

Keltirilgan iqtibos sharhini, albatta, tasavvufiy g'oyalar asosida tahlil qilish Hazrat Navoiyning asl maqsad va muddaosini oydinlashtirishga ko'maklashadi. Jumladan, Muhammad s.a.v.ning "to'rt guharni tark" qilishlari bashariy sifatlardan qutilishlariga, "o'zini aylab o'zidin xalos" bo'lishi esa asl maqsadga – Allohg'a yetish kabi so'fiyona g'oyalarga ishora qilingan.

Biz yuqorida mazkur na't kompozitsion tuzilishi uch qismidan iboratligini ta'kidlagan edik. Na'tning uchunchi qismida Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Arshda – eng oliy maqomda Alloh bilan uchrashib, keyin yerga qaytishlari bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi. Na'tning mazkur qismi quyidagi misralar bilan boshlanadi:

G'uncha borib, toza guliston kelib,  
Zarra borib, mehri daraxshon kelib.

U (Payg'ambar) Arshga g'uncha bo'lib borgan bo'lsa, Yerga toza guliston bo'lib qaytdi; zarra bo'lib borgan bo'lsa, porlagan Quyosh bo'lib qaytdi.

Alisher Navoiy na'tda urg'u bergen yana bir jihatga e'tibor qaratish lozim. Ya'ni sodir bo'lган voqealar, parvoz va sayohatlar, Alloh bilan muloqot juda qisqa bir muddatda ro'y berdi.

Borg'onu kelgan anga juzvi sag'ir,  
Kim emas ul juzv tajazziy pazir.  
Qat' bo'lub chun bu humoyun safar,  
Ruxsat olib hodiyi farxunda far.  
Taxt uza olam shahi aylab maqom,  
Olam ishiga beribon intizom.

Uning Me'rojga chiqqani va qaytib kelgani bir onda yuz bergen bo'lib, aql bunday tadbirdan hayronlikda! Qayda ajoyibotlar va mo'jizalar ko'p bo'lsa, ularni idrok etishda aql ojiz bo'ladi. U (Payg'ambar)ning chiqishi va qaytishiga ketgan vaqt kichikning kichigi bo'lib, bu fursat tahvilga arzimaydi (262-bet).

Mazkur ta'kidlardan chiqarilgan xulosa: birinchidan, sodir bo'lган voqealar Allohnинг irodasi va qudrati bilan ro'y bergen bo'lsa, ikkinchidan, me'roj voqeasi Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Allohnинг dargohida martabalari ulug' ekanligini isbotlovchi hodisalardan biri edi. Muhammad sollallohu alayhi vasallam Allohnинг bandalarga qilgan marhamatidir. Chunki bu ilohiy safardan qaytib insonlar orasida islom dini, shariat qonun qoidalarini targ'ib qildilar. Butun insoniyat U zot orqali hidoyat topdilar. Alloh taolo payg'ambarlarda mavjud bo'lган barcha yaxshiliklarni Muhammad

sollallohu alayhi vasallamda jamladi. “Oli Imron” surasining 164-oyatida shunday deyiladi: “Albatta, Alloh mo‘minlarga o‘zlaridan bo‘lgan (ya’ni odam jinsidan bo‘lgan), ularga Allohnинг oyatlарини tilovat qiladиган, (gunohларидан) poklaydиган hamda ularga Kitob va Hikmatni o‘rgatадиган payg‘ambarni yuborish bilan yaxshilik qildi. Zero, ular ilgari ochiq xato – zalolatda edilar”.

Har bir na’tning sharh va tahlili jarayonida ularning tili va uslubi, poetik xususiyatларини nazardan o‘tkazish muhim ahamiyat ega. Chunki na’t – vasf xususiyatiga ega bo‘lgan badiiy matn bo‘lganligi uchun unda ko‘tarinkilik, mubog‘ali tasvirlar, Payg‘ambar axloqlari, sifatlari, fazilatларини badiiy aks etirish uchun ularga mos tasviriy vositalar tanlanishi tabiiy. Navoiydek iste’dod sohibi esa bunday vazifani haddi a’losiga yetkazib bajargani shubhasiz. Shoир har bir na’tning maqsad va muddaosidan kelib chiqib so‘z tanlaydi. Muhammad (s.a.v.) vasflari jarayonida **durri bebaҳo, durri yatim, durru sadaf, gavhari yakto, gavhari yakdona, durji vafo gavhari, hayo axtari, risolat durining maxzani, nubuvvat gulining gulshani** kabi so‘z qo‘silmalari orqali bir-birini takrorlamaydigan tasvirlarni yaratadi. Jumladan, ikkinchi na’tning dastlabki misralariga e’tibor qalaylik:

Ey ko‘runub g‘urra **kibi** tiflzod,  
Tifli rahing charxi qadimiy nihod.  
Insu malak joniyu jononasи,  
Ikki jahon gavhari yakdonasi.  
Mahd sanga lavhai firuza rang,  
Kim harakatdin anga bo‘lmay darang.  
Sen kibi bu gulshan aro toza vard,  
Umrida ko‘rmay falaki solxo‘rd

Dastlabki baytda payg‘ambarning yoshlikлari **g‘urra** - har bir oyning birinchi kuni, bir kunlik oyga tashbeh qilingan. “Insu malak joniyu jononasи”да ham tavsif bor va ham tashbeh. Ajoyib shoirona tasvir bu: odamlarninggina emas, farishtalarning ham joni. Jonigina emas, jononasи – mahbubi ham Payg‘ambar zoti shunchalik sharif va mo‘tabar qilib tasvirladi. “**Lavhai firuzarang**”–osmoning

sifati. Bunda tashbehi tom san'ati ishlatilgan. Ammo bu “lavhai firuzarang” – “zangori lavha” – Payg‘ambarning beshigi. Mana bu mubolag‘ali va munosib tashbehni qarang. Chunki gap Muhammad nuri haqida bormoqda, bu nur uchun olam beshik vazifasini o’tagan.<sup>125</sup> Oxirgi baytda ham tashbeh san’ati qo‘llangan bo‘lib, Rasuli akram **vard** – atirgulga tashbeh qilingan. **Gulshan** – falak. U **solxo‘rd** - ko‘p yashagan, eski. Uning bag‘rida toza bir gulning ochilishi - Muhammad Payg‘ambarning tug‘ilishlariga ishoradir. Har bir tasvir uchun tanlangan tashbehlar navoiyyona uslubning namunasidir.

Na’tlarda Hazrat Navoiy qo‘llagan badiiy san’atlardan yana biri talmehdir. Na’tlarda Odam, Yusuf, Yunus, Xizr kabi payg‘ambar nomlariga talmeh qilingan. Jumladan,

Bo‘ldi chu Odamda bu partav nihon,  
Anda nihon, lek yuzida ayon.

Albatta, tahlil jarayonida badiiy san’atlarning nomini sanab o‘tish bilan matnning mohiyati, muallifning badiiy niyati oydinlashib qolmaydi. Birgina talmeh vositasida qanday g‘oya va maqsadaga ishora ketganligini aniqlash uchun talmeh qilib kelingan so‘zning ortida yashiringan voqeа va hodisalar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish shart. Shundagina mumtoz asarlar, ayniqsa, Hazrat Navoiy asarlari bag‘ridagi yashirin sirlardan voqif bo‘lishimiz mumkin.

Yuqoridagi baytda Odam Ato nomi orqali talmeh san’ati hosil qilingan. Muallif “Nuri Muhammad” haqida gapirar ekan, ilk payg‘ambar Safiyulloh (Odam Ato) vujudida bu nur nihon (yashirin) bo‘lsa ham, yuzida bu nur zuhrur qilar edi, - deydi.

Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida shunday yozadi: “Odam salavotulloh alayh xilqati Odamning kuniyati Bulbashardir va laqabi Safiyullohdur.<sup>126</sup> **Safi** – pok, sof demakdir. Safiyulloh Allohnинг sof, pok quli demakdir.

Bir kecha zulmatqa qolib koinot,

<sup>125</sup> Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – T.: Ma’naviyat. 2005. 51-bet.  
<sup>126</sup> Navoiy Alisher. Tarixi anbiyo va hukamo. MAT. 20-jildlik. 16-jild. -T.: 2000. 99-bet.

Mehr nihon o‘ylaki aynul-hayot  
Garchiki ul chashma nazardin qochib,  
Xizr ko‘k uzra qatarotin sochib.

Beshinchi na’tdan keltirilgan mazkur baytlarda Xizr nomi tilgan olingan. Mazkur iqtibos me’roj tuni tasviriga taalluqli. Kechalarning birida koinotni qorong‘ilik bosib, quyosh obi hayot bulog‘idek yashiringan edi. Baytda quyosh obi hayot bulog‘i – chashmaga o‘xshatilgan. Bu oddiy chashma emas, balki Xizrga nasib bo‘lgan va unga adabiy hayot bergen chashma.

Ikkinchisi bayda *tashbeh*, *talmeh* va *tanosub* (chashma, zulmat, Xizr) kabi badiiy san’atlarni g‘oya uchun bo‘ysundirish bir jihatdan shoir mahoratidan darak bersa, ikkinchidan, tasvirlanayotgan voqeа-hodisa bilan mutanosib bo‘lishi o‘quvchi qalbida zavq uyg‘otadi.

Aziziddin Nasafiy “obi hayot”ni zulmatda joylashgan nur daryosi, zulmatni esa tabiat dunyosi, deb ataydi. U yozadi: “Ey hol egasi, aniq bilgilki, malakut – nur daryosi, malak esa zulmat daryosidir. Bu daryoi nur zulmatdagi obi hayotdir. Shuningdek, bu nur daryosi zulmat daryosiga nisbatan ilmu hikmat daryosi bilan birga qarama-qarshi turadi!

Keltirilgan parchani tasavvufiy ta’limot nuqtai nazardan ham tahlil qilish mumkin. Xizr – tasavvufiy ma’noda ilohiy mujdaning so‘fiy ko‘ngliga nozil bo‘lishi, xushxabar. Shahobiddin Suhravardiy “tiriklik chashmasi” va “obi hayot” Haqning haqiqiy ma’rifatiga vosil bo‘lish ma’nosida ekanligini ta’kidlaydi. Shoir me’roj kechasini tasvirlar ekan, bu tunda Muhammad s.a.vning Haq ma’rifatiga musharraf bo‘lishlarini “Xizrnинг ко‘к узра qatralar sochishi” tasviri orqali beradi.

Beshinchi na’tning boshqa na’tlardan yana bir farqli jihatni unda koinot ilmiga oid, sayyora va burjlar bilan bog‘liq istilohlar qo‘llangan. Navoiyshunos olim R. Vohidov Hazrat Navoiyning bu boradagi mahoratiga shunday baho beradi: “Alisher Navoiyning so‘z xazinasi boy. U turkiy – o‘zbek tili imkoniyatlarini puxta

biladi. O'sha zukkolik oylar nomining berilishida ham namoyon bo'ladi. Ulug' shoir Asad o'rnida Sherni qo'llaydi. Mizonni Palla bilan ifodalaydi".<sup>127</sup>

Qatorlashtirilib kelgan istilohlar orqali ham shoir sayyora va burjlarning mifologik, diniy ma'nolari, ularning samodagi joylashishi va harakatiga mos tashbehlarni qo'llaydi. Qo'llanilgan badiiy vositalar o'n ikki burjning birma-bir Allah Rasuli bilan ro'baro' kelishidagi holatini tasavvur qilishda ko'maklashadi:

Ham tongibon olida Javzo kamar,  
Ham Saraton tuz bo'lubon jilvagar  
Sher yo'lidin tutubon go'shai  
Sunbula raxshig'a bo'lub to'shai.

Javzo, Saraton va Sher (Asad) bir bo'lib bir go'shada xizmatga shay holda o'zini tik tutib jilva qiladi. Sunbula (bug'doy) esa u zotning oti (Buroq)qa ozuqa bo'lishga shay.

Xulosa qilib aytganda, "Hayrat ul -abror" dostonning na't boblarini sharh orqali tahlil va talqin qilish, muallifning e'tiqodiy qarashlari, badiiy tafakkuriga ta'sir qilgan omillar xususida ma'lumotga ega bo'lishga ko'maklashadi.

#### *Savol va topshiriqlar:*

1. Birinchi na'tdagi "Nuri Muhammadiya" bilan bog'liq tashbehlarni aniqlab, tahlil qiling.
2. To atodin ato, anodin ano,  
Bir ano kim yo'q edi andoq yano – baytini sharhlang, fikr nima haqda boryapti?
3. Garchiki ming dur chiqorur bir sadaf,  
Bir dur ila ming sadaf aylar sharaf. Ikkinci na'tdan keltirilgan ushbu baytning nasriy bayonini tuzing. Fikr nima haqida borayotganligini izohlashga harakat qiling.
4. Noqag'a markablig'idin ko'p surur,

<sup>127</sup> Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994. – 208 bet. 93-bet.

Uylaki tushganda malak uzra nur. Baytining badiiyati xususidagi fikrlaringizni sharhlash jarayonida singdirishga harakat qiling.

5. Uchinchi na'tda qaysi qur'oniy rivoyatlarga ishoralar mavjud?
6. Anbiyo" surasida shunday oyat mavjud: «**Biz seni olamlarga faqat rahmat qilib yubordik**». Mazkur na'tda berilgan Muhammad (s.a.v.)ning "rahmat"larini baytlar asosida tahlil qiling.
7. Uchinchi na'tda "qora" so'zi qanday ma'nolarda kelgan? Mazkur na'tdagi istoralarmi aniqlang, ularning asar badiiyatidagi o'mini tushuntirib bering.
8. Sura dema, «qof» ila «nun» yoki «sod»,  
Ya'niki har harfig'a oning savod, - to'rtinchi na'tdan keltirilgan ushbu baytini sharhlashga harakat qiling. Baytda qanday badiiy san'at qo'llangan?
9. To'rtinchi na'tdagi «**ashobi kan-nujum**», «**ana afsah**» «**shaqqal-qamar**» arabiy birikmalarning ma'nosini manbalarga tayangan holda izohlashga harakat qiling.
10. Mazkur na'tda Muhammad (s.a.v.)ning qanday sifatlari tilga olingan. Ularni aniqlab boshqa na'tlardagi fikrlar bilan qiyoslang.
11. «**Arzi favohatda kaloming fasih**» misrada payg'ambarning qanday sifatlariga urg'u berilgan. Bu haqdagi fikringizni diniy manbalarga suyangan holda asoslashga harakat qiling.
12. Qur'oni Karim va Hadisi sharifdan me'roj tuni bilan bog'liq sura va hadislarni topping hamda Alisher Navoiy qarashlarini ular bilan solishtiring.
13. Beshinchi na'tda Muhammad (s.a.v.) ga Alloh tomonidan berilgan nechta va qanday mo'jizalar tilga olingan. Na'tdan ularni aniqlab tahlil qilishga harakat qiling.
14. Alisher Navoiyning "Bade'e ul-bidoya" devoni tarkibidan o'rinn olgan 101-g'azalidan quyida keltirilgan baytni tahlil qiling va uni beshinchi na'tdagi qaysi bayt bilan qiyoslash mumkinligiga e'tibor qarating. Fikrlaringizni yozma bayon qiling. O'zingiz yozgan sharhga sarlavha bering.

Falakni chok qilib o'tganingda gar ba'zi

Tavahhum ayladi, shaqqul-qamarda bo'ldi sarih

15. Asardagi barcha na'tlarni o'rganib, quyidagi mavzularda yozma sharhlar yozishga harakat qiling:

- a) “Payg‘ambar vasfi Navoiy nazmida”.
- b) “Vahiy – ilohiy mo‘jiza”.

## 5. KO‘NGIL TA’RIFI BOBI TAHLILI

**Tayanch tushunchalar:** ko‘ngil, roqim, raqamkash, yurak, qalb, dil, subhi azal, ruh, dil, qalb, dajjal, “bo‘stoni roz”, “royiha”, “partav” , “misboh” , “arshi muallo”, “olami kubro”, quds, “tajallo”, solik.

Ko‘ngil ta’rifi dastlab nasriy sarlavha bilan boshlanadi:

Ko‘ngul ta’rifidakim, ko‘ngul tilagandek qililmaydurur va aning vasfin sohibdilliqg‘a mavsuf bo‘lg‘on kishidin o‘zga kishi bilmay durur. Ko‘ngulsiz roqim xomasin raqamkash qilmoq va bu raqam savodi bilan ko‘nglin xush qilmoq (72-bet).

**Tabdili:** Ko‘ngul ta’rifidakim, ko‘nguldagidek ta’rif qilish qiyin va uning sifatlarini sof ko‘ngulli kishidan boshqa odam bilmaydi; g‘amgin qalamkash qalamini ishga solmoq va shu qalamning qora yozuvlari bilan ko‘ngulni xushlamoq (274-bet).

Nasriy sarlavhadan so‘ng, ko‘ngil ta’rifi berilgan baytlar boshlanadi. Subhi azal – Alloh odam xokini guliston sun’ (yaratdi) etdi. Alloh yaratgan gulistonda nasim – yoqimli shabada esdi. Shoir bu gulistonda sunbulu sarvi gulu rayhon borligini tanosib orqali ifoda etadi:

Subhi azal qildi chu dehqoni sun’,  
Odamiy xokiyni gulistoni sun’.  
Esti nasimi bu guliston sari,  
Sunbulu sarvi gulu rayhon sari.

Ayni misralardan so‘ng, shoir insonga ruh berilganligiga ishora qilib, “tan gulshaniga kirdi ruh”, deya etirof etadi:

Kim bu rayohing‘a yetishti futuh,  
O‘ylaki tan gulshanig‘a kirdi ruh.

Alloh maxluqotlari orasida eng buyugi insondir. Bu fikr “Tin” surasining 4-oyatida o‘z ifodasini topgan: “Batahqiq, Biz insonni eng yaxshi suratda yaratdik”. Insonga Xoliq ilohiy ruh ato etgan. Allah amri bilangina jon, ruh Odamga o‘rnashdi. Mazkur fikrlar Qur’oni Karimning “Sajda” surasining 9-oyatida “So‘ngra uni rostladi va uning ichiga O‘z ruhidan pufladi...”. “Qisasi Rabg‘uziy”da ham bu voqeа quyidagicha ifodalangan: “... Jonga yorlig‘ bo‘ldikim, Odamning taniga kirgil teb”.<sup>128</sup> Alisher Navoiy o‘z mulohazalarini davom ettirib, Allohnинг olamni yaratishdan maqsadi – inson, insonni yaratishidan “g‘araz” – maqsad esa KO‘NGILni yaratmoq edi, deydi:

Ermas edi anda g‘araz hech gul,  
G‘ayri ko‘ngulkim, g‘araz erdi ko‘ngul.

Shoir ko‘ngil ta’rifida tashbehlarning eng sarasini, ohorlisini ishlatadi. Ya’ni jism gulshan bo‘lsa, ko‘ngil undagi g‘unchadir:

Eyki ko‘ngul vasfi bayon aylading,  
Sen bu ko‘ngulni ne gumon aylading.  
Gulshani jisming aro gul g‘unchasi,  
Bitsa gumon etma ko‘ngul g‘unchasi.

Ko‘ngil so‘zining tilimizda arabcha va forscha **dil**, **qalb** kabi sinonimlari mavjud bo‘lsa-da, bu so‘zlarga nisbatan keng qo‘llanuvchi hamda poetik timsol darajasiga ko‘tarilgani ko‘ngildir. Lug‘atlarda “ko‘ngil – kishining his – tuyg‘u kechinmalari manbai; yurak, qalb, dil, xotir, yod, fikr, xayol, ixtiyor, har narsaning markazi, o‘rtasi – deb sharhlangan”.<sup>129</sup> Qolaversa, xalq og‘zaki ijodida ham ko‘ngil bilan bog‘liq “ko‘ngil bermoq”, “ko‘ngil oimoq”, “ko‘ngil ko‘yi” kabi bir qancha iboralarning mavjudligi yoki xalq qo‘shiqlarda ko‘ngilning tarannum etilishi ham mazkur tushunchaga so‘z san‘atining barcha sohalarida keng murojaat

<sup>128</sup>. Nosiriddin Rabg‘uziy. – T.: 1-kitob, “Yozuvchi”, 1990. 17-b.

<sup>129</sup>. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 томлик. 1 том. М.: 1981.415-b; Alisher Navoiy asarları tilining izohli lug‘ati. 4 томлик. 2 - том 151-bet.

qilingani ko'rsatadi. Ko'ngil mumtoz adabiyotimizda ham ko'p qo'llanilgan poetik timsollardan biri. Hazrat Navoiy ham lirik she'rlari bilan bir qatorda "Hayrat ul-abror" da maxsus bob ajratganligi bejiz emas. Shoир ko'ngil ta'rifini davom ettirar ekan ruju' asosida fikr rang-barangligiga erishgan. Chunki yuqoridagi misrada ko'ngilni g'unchaga tashbeh qilgan bo'lsa, keyingi baytda "g'uncha emas, qon erur, yo bo'yalib qon aro paykon" deya ta'riflaydi:

G'uncha emaskim, bu ko'ngul qon erur,  
Yo bo'yalib, qon aro paykon erur.

Ma'lumki, ko'ngil so'zi so'zi tilshunoslik nuqtai nazardan mavhum ot so'z turkumiga mansub sanaladi. Navoiy ham ko'ngilning na shakli, na rangi, na bo'yi (hidi) bor, ammo har nedin kerak ekanligiga keyingi baytda urg'u beradi:

Yo'qli, bu bir shakl durur rangu bo',  
Har ne kerak bo'lsun, agar bo'lsa bu.

Ko'ngil sifatlarini davom ettirgan shoир har nimaki yaratiliq joni bor, jismning joni esa bu g'unchasifat ko'ngilda ekanligini, ammo bu ko'ngil ham dajjal (eng yaramas, eng vahshiy, inson dushmani)da ham, nabiy (payg'ambar)da ham mavjudligini ta'kidlash bilan ko'ngilning turli shaxslardagi turli mavqeiga ishora qiladi:

Gar bu durur har nimakim joni bor,  
Jismida bu g'uncha sifat qoni bor.  
Ham oni dajjal topib, ham nabi,  
Iysi bila tengmu bo'lur markabi?  
Gar bu esa Xoja, o'zin muttasil  
Qaysi ko'ngul birla degay ahli dil

Navoiy ko'ngilga katta e'tibor qaratar ekan, qaysi ko'ngil muttasil o'zni desa, ya'ni o'z manfaati uchun jazm qilsa, unday ko'nguldan "to'ngul"-umid uz, -deydi. Shu o'rinda mutasavvuf Ahmad Rifoijning quyidagi fikrlarini eslash joiz: "Qalb bir go'sht parchasidir. Ayni paytda shu bir parcha go'sht, ya'ni qalb nurlar yig'iladigan joy erur. Allohning yaratgani yaxshilik va yomonlik bir yerga

to'planadigan maskandir. Ayni shu zaylda aks ettingani yaxshilik va yomonlik tuyg'usiga qarab qalb bir qiymat kasb etar".<sup>130</sup>

Navoiyshunos olim R.Vohidov "Har qalay xazina (ko'ngul) bag'ridagi ezgulik yoxud yovuzlik urug'larining qay tomonga qarab harakatga kelishi dunyo muvozanatini belgilaydi. Insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, himmat, shafqat, samimiyat va odamiylik munosabatlari ham ko'ngulga bog'liqidir" – deb yozadi.<sup>131</sup>

Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodida ham ko'ngil insoniylik asosi sifatida e'tirof etilgan. "Ko'ngil kirini yetti daryoda yuvsu ketmas" kabi maqollar borki, ko'ngil uchun poklik va soflik muhimligi aks etib turadi:

Bu xud emas jazm sen istar ko'ngul,

Gar bu ko'ngul bo'lsa sen andin to'ngul.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'ngil so'zi – yurak, qalb, dil so'zlar bilan ma'nodosh. Ammo ko'ngil barchasidan keng qamrovli va ustundir. Bu ustunlikni ham xalq og'zaki ijodi namunalarida, ham mumtoz adabiyot durdonalarida ko'rishimiz mumkin. Navoiy ham ayni masalalarini keyingi baytda zikr etib, ko'ngilning "**bo'stoni roz**" (bo'ston - bog', gulzor, chaman; **roz** - yashirin, maxfiy) ekanligini, shuningdek, **quds** (poklik, tozalik, muqaddas) harimida jilvasozligini ta'riflaydi:

Buki ko'ngul dersen erur bu yurak,

Ism ko'ngul birla anga mushtarak.

Ko'ngul erur bulbuli bo'stoni roz,

Quds harimida bo'lub jilvasoz.

Qolaversa, shoир nazdida jannati a'loning "**royihai**"si (yoqimli hid, is) ham ko'ngil, "**partav**" (yorug'liq nuri) "**misboh**" (nuri) "**tajallo**" (jilvalangan) etgan ham ko'ngildir:

Royihai jannati a'lo ham ul, royiha

Partavi misbohi tajallo ham ul.

<sup>130</sup>. I.Haqqul. Tasavvuf saboqlari. Buxoro. 2000 . 46-bet.

<sup>131</sup>. R.Vohidov. Navoiy va ilohiyot. Buxoro, 1994. 53-bet.

Ko'ngil tasavvuf olamida alohida mavqega ega bo'lgan so'z, tasavvuf she'riyatida esa eng ko'p qo'llanilgan timsollardan biridir. Chunki ko'ngil tasavvufiy zavq va yashashning manbai hisoblanadi. U Allohning nazargohi, botiniy idrok markazi hamdir. "Tasavvufda dini, irqi, mazhabi, millatidan qat'i nazar olam xalqini birlashtiradigan yagona ibodatgoh bor. Bu tasavvufiy hayotning bosh manbai – dil va ko'ngul atalmish Alloh taxtidir"<sup>132</sup>. Shuning uchun Navoiy ko'ngilni solik (tasavvuf yo'liga kirgan kishi) "**arshi muallo**" (yuksak, baland taxt), desa so'fiy "olami kubro" (katta olam) deya ulug'laganligini ta'kidlaydi:

Solik ani arshi muallo dedi,

So'fi ani olami kubro dedi.

Darhaqiqat, **arsh** (ayvon, osmon, taxt) - ilohiy qudrat asosi. Inson ko'nglining arshi mualloga tashbeh qilinishiga Qur'oni Karim va Hadisi Sharif ham asos bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, "... bilinglarki, shubhasiz Alloh har bir kishi bilan uning qalbi o'rtasini egallab turur" ("Anfol" surasi, 24-oyat) yoki quyidagi hadis ham ayni mavzuni yoritgan. "Hazrat Payg'ambar (s.a.v) dan shunday so'raldi:

- Ey Allohning rasuli! Alloh qayerdadir? Yerdami, ko'kda?

Hazrat rasululloh(s.a.v.) javob berib shunday dedilar:

- mo'min qulning qalbidadir".<sup>133</sup>

Demak, ko'ngil ilohiy manbalarda ham Allohning tasarruf taxti va nazargohi sifatida tasvirlanganki, Navoiy shularga asoslanib yuqoridagi xulosalarga kelgan, deyish mumkin.

Ayni nazohatda bu a'zam jahon,

Borchah jahon ahli ko'zidin nihon.

Ulug' shoir ko'ngilni yaratgan Alloh uning o'rmini belgilash bilan birgalikda, bu a'zam (katta) jahonda ko'ngilni **nazohat** (tozalik, soflik)da saqlash uchun "borcha jahon ahli ko'zidin nihon" qilganligini yuqoridagi baytda ta'kidlagan.

<sup>132</sup>. I.Haqquq. Irfon va idrok. –T.: Ma'naviyat. 1998. 88-bet.

<sup>133</sup>. N.Bozorova. Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi. –T.: Fan. 2009. 26 -bet.

Ko'ngil shu qadar buyukki, uning oldida butun olamlarning qiblasi bo'lmish Ka'baning qadri yo'q:

Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,

Qadri yo'q andoqki ko'ngul ka'basi,

Shoir Ka'ba butun musulmon olami uchun sajdagoh bo'lsa-da, uning mavqeい ko'ngildan past. Chunki, ko'ngil – Alloh uchun jilvagoh. Ya'ni, inson qalbida Alloh nazar tashlaydi, jilvalanadi:

Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,

Ul biri xoliqqa erur jilvagoh.

Ko'ngil – ulug' saltanat. Unda sirlar xazinasi yashirin:

Topqucha ganjinai asrorliq,

Ko'p qilibon soliki atvorliq.

Ko'ngil gajnina (xazina)sidagi asror (sirlar)ni topish uchun, **solik** (yo'lovchi, tariqatga qadam qo'ygan kishi)lar ko'p atvorlik (harakat) qildilar. Chunki, har qanday xazinaga, xoh u moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy erishish osон emas. Shu bois Navoiy soliklar ko'p harakat qildilar, deya ta'kidlagan:

Ka'bag'a ham qat'i manozil qilib,

Dayrg'a ham tayyi marohil qilib,

Shoir hojilar ka'baga yetmoq uchun qat'i (yo'lни bosib o'tish) manozil (manzillar) qildilar. Soliklar ham ko'ngil ka'basiga yetmoq uchun tayyi (yurish, kezish) marohil (manzillar) ayladilar, deya har ikkala manzilga yetmoq haqidagi mulohazalarini bayt zamiriga singdirgan. Mazkur yo'l mashaqqatli, ayni damda yorqin yo'ldir. Shunga asoslanib Navoiy bu yo'lga qadam qo'ygan munojot ahli ko'yi (yo'l, ko'cha) xarobot (mayxona) aro tushib qolganligini ta'kidlaydi:

Ham yetibon ahli munojot aro,

Ham tushubon ko'yi xarobot aro.

Ma'lumki, may tasavvufda ishq timsoli, mayxona (zohiran may tarqatiluvchi joy) esa solik qalbidagi ishqni otashlantiruvchi, ya'ni to'g'ri yo'l ko'rsatuvchilar – shayxlar makoni demakdir. Maqsadga yetmoqning asosi ishqdir.

Ishq ham ko'ngildan makon topadi. Demak, har bir maqsad sari azm etmoq va uning mashaqqatlariga bardosh bermoq uchun ishq va yana ishq lozim, ekan:

Goh qilib sham'g'a parvonaliq,

Goh pari ishqida devonaliq.

Ma'lumki, tasavvuf adabiyotida sham' va parvona oshiq – ma'shuq tizimini ko'rsatuvchi timsollardan hisoblanadi. Navoiy ham shunga ishora qilar ekan, "pari ishqida devonalik" deyish orqali haqiqiy ishq egalari jununlik (devonalik) darajasida bo'lishlari lozimligini bayt mazmuniga singdirgan. Mumtoz adabiyotimizda mazkur mavzu ta'rifida ko'pincha Majnun, Farhod kabi qahramonlar talmeh qilinadi:

Dardu balo tog'ida Farhod o'lub,

Tirnog' anga teshai po'lod o'lub.

Alisher Navoiy mazkur baytda ishq bor joyda dard, ayriliq, alam va balo borligini istiora san'ati imkoniyatidan kelib chiqib, "dardu balo tog'i" birikmasini keltiradi. Bilamizki, Farhod – ishq yo'lida tog'ni talqon qilgan qahramonlardan. Shoir ana shunga ishora qilib, mubolag'adan foydalanib, "dardu balo tog'i"da Farhodga "tirnog' teshai po'lod" bo'lganligini ta'kidlaydi. Ya'ni "dardu balo tog'i"ni mavh etishi uchun "teshai po'lod" (po'lat tesha) vazifasini "tirnog'i" o'taganligini keltirish bilan ishq yo'li juda mashaqqatli va qiyin ekanligiga urg'u beradi. Oshiqlik haqidagi mulohazalarini davom ettirar ekan, albatta, Majnun timsolini ham baytlarida zikr etadi:

Ishqida sargashta chu gardun o'lub,

Dard biyobonida Majnun o'lub.

Darhaqiqat, inson dard vodiysida majnun bo'la olsagina ishq haddi a'loga ko'tarila oladi. Navoiy ko'ngil sirlariga yetmoq, uni anglamoq dushvordir, ammo ko'ngil yetmagan biror vodiy, qolaversa, "takmili suluk" (komillik yo'li) qolmaganligiga ishora beradi:

Vodie qolmay ul anga yetmagan,

Qat'ida takmili suluk etmagan,

Shuningdek, Navoiy keyingi baytda ham ko'ngilning kamolot bosqichidagi o'rni haqida to'xtaladi:

Oriz o'lub jumlai holot anga,

To bo'lubon kasbi kamolot anga,

Bunda asosiy e'tibor jahondagi jumla (hamma, bari barcha) holot (holatlar, ahvol, kayfiyat)larning oriz (yuz bergan, hosil bo'lgan) bo'lishi ko'ngilning "kasbi kamolot"iga xizmat qilganligiga qaratilgan. Ya'ni kamolot (komillik, yuksalish) ko'ngilning kasbidir. Shoir o'z mulohazalarini davom ettirib, keyingi misralarda ko'ngil va olami kubro masalasiga daxl qiladi:

Olam aro har ne ko'rub, kasb etib,

To laqabi olami kubro etib.

Navoiy ko'ngil olamda neniki ko'rsa, uni kasb etib (o'rganib) olami kubro (katta) laqabini oldi, deydi. Tasavvuf ahli orasida olami kubro va olami sug'ro tushunchasi ancha e'tiborli masalalardan biri sanaladi. Zero, Aziziddin Nasafiy aytibdurlarki, "Butun olamning o'zi olami kubrodir" ya'ni katta olamdir. Inson esa, olami sug'ro (kichik)dir. Ammo "Inson har ikki olamning nusxasi va timsoli – belgisidir".<sup>134</sup> Hazrat Navoiy ham «Neki olami kubroda bor – olami sug'roda bor», deydi.

Demak, inson barcha zohiriylari va botiniy ilmlarning o'zida jamuljam etib, hamida axloqiy xislati, tamkini va zakovati bilan ajralib turadi. Uning jismi ham toza jon kabi mukarram va pok bo'lib, olami kubro, ya'ni Illohiyt olamini mujassam etgan zot bo'la oladi. Shuning uchun Navoiy "To laqabi olami kubro etib", - deydi. Ammo bunday mavqega erishmoq mushkul va alohida tayyorgarlikni talab etadi. Shoir kimgaki bu olamga yo'l ochilsa, undaylar olam aro "ahli dil", deya e'tirof etilishini keyingi baytda qayd etadi:

Kimga bu olam sari ochilsa yo'l,

Olam aro ahli dil ul bo'ldi ul.

<sup>134</sup>. A. Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq. – T.: Kamalak. 1996.

Ma'lumki, Alloh taolo insonni tuproqdan yaratib, unga go'zal husn va jon baxsh etadi. Ayni masala Qur'oni Karimning bir necha suralarida zikr etilgan. Ta'kidlash joizki, Alloh «Odam bolalarini mukarram qilib yaratdi». Qur'oni Karimning “Al-Isro” surasining 70 - oyatida “Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik...” deya zikr etiladi. Navoiy ham ayni shu oyat ma’nosiga ishora qilib insonni Alloh parvarish qilib, o‘zining xalifasiga aylantirdi, degan mazmundagi “Ul Zot sizlarni yer yuzida xalifa qilib qo‘ygandir...” (“Fotir” surasi 39-oyati) hikmatini keyingi bayt mazmuniga singdiradi:

Ulki yetib maxzzani ra’fat anga,  
Bo‘ldi bu olamda xilofat anga.

Ya’ni insonga Allohdan maxzan (xazina)i ra’fat (g‘amxo‘rlik, mehribonlik) yetib, u bu olamda xilofat (xalifa, o‘rinbosar) bo‘ldi.

Inson yuksak mavqega ega bo‘lganligi bois uning maskani ham yuksak, ayni damda safo-poklik taxtidir:

Taxti safo bo‘ldi aning maskani.  
So‘fiyi sohib dil ani bil ani.

Navoiy ko‘ngil ta’rifidagi ko‘pgina o‘rinlarda istioradan mohirona foydalanim, fikr ta’sirchanligiga erishgan. Jumladan, “**taxti safo**” birikmasida ham mazkur holat ko‘zga tashlanadi. Bu orqali shoir inson maskani poklik taxtida, qolaversa, insonning o‘zi “**so‘fiyi sohib dil**” ekanligiga ulg‘u beradi. Zero, tasavvufda ham sofdil so‘fiylar yoki shunga talabgor oshiqlar, qalbi Illo shiqi bilan g‘arq orif insonlar alohida mavqe egallaydi. So‘fiyning qalbi go‘yo bir ko‘zgu, bu ko‘zguda Haq jamoli aks etadi, shu bois so‘fiyning o‘zi ham Haqning borligi va buyukligini isbotlovchi timsolga aylanadi. So‘fiy hamma vaqt yaxshilik va poklikni o‘yaydi, u shu dunyoning o‘zida bu tuyg‘ularning tantana qilishi uchun harakat qiladi. Shunday ekan uning yo‘lida jonu ko‘ngilni fido aylab, ya’ni sidqidildan iqtido qilmoq – ergashmoq lozim:

Yo‘lida jonu ko‘ngul aylab fido,  
Jonu ko‘nguldin anga qil iqtido.

Navoiy ko'ngil ta'rifiga xotima yasar ekan, yuqorigi baytlarida keltirgan "so'fiyi sohib dil" haqidagi mulohazalariga ham yakun yasaydi. Ya'ni uning ("so'fiyi sohib dil"ning) etagini tutmoq uchun "emas dast ras"- qo'l yetmaydi, faqat Navoiyga «bir rishta» – ip, bog'liqlik bo'lsa bas. Navoiy bu o'rinda jon ipining haqiqiyat, asliyat, hayyi mutlaq (Alloh), ya'ni o'sha buyuk nur rishtasiga ulab yuborilishidan umidvor tarzda yakunlaydi:

Gar etagin tutmoq emas dast ras,

Tushsa Navoiy sari bir rishta bas.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mumtoz adabiyotida alohida timsol darajasiga ko'tarilgan obrazlardan biri ko'ngildir. Chunki, insonni yaratgan Xoliqi olam uning qalbini nazargoh qilib belgiladi. Bu esa, ko'ngilni yuksak maqomga ko'tardi. Hatto olamlar qiblasining ko'ngil ka'basicha qadri yo'q. Shuning uchun barcha ijodkorlar, jumladan, Alisher Navoiy o'z asarida ko'ngilga maxsus bob ajratdi.

*Savol va topshiriqlar:*

1. Nima uchun Sharq mumtoz she'riyatida ko'ngil alohida obraz darajasiga ko'tarilgan?
2. Navoiy ko'ngil ta'rifida qanday istioralardan foydalangan?
3. Insonning aziz va mukarramligi haqidagi mulohazalarning asl manbasi haqida gapiring.
4. Olami kubro va olami sug'ro deganda nimani tushinasiz?
5. **"Subhi azal qildi chu dehqoni sun"** misrasidagi "Subhi azal" deganda nimani tushinasiz va ushbu birikmani qanday izohlaysiz?
6. Ushbu baytni lug'at yordamida sharhlashga harakat qiling.

Ermas edi anda g'araz hech gul,  
G'ayri ko'ngulkim, g'araz erdi ko'ngul
7. Quyidagi misrada nima haqida so'z ketyapti?

Solik ani arshi muallo dedi,  
So'fi ani olami kubro dedi.

## 6. “UCH HAYRAT” SHARHI

### 6.1. AVVALG‘I HAYRAT TAHLILI.

**Tayanch tushunchalar:** Hayrat, “Sabbih ismi rabbikal-a’lo”, soqiy, pir, jom, oyat, “Vash-shams”, “Vaz-zuho”, payg‘omi, fikrat, roz, sujud, ya’s, Iram bog‘i, shukufa, xuro‘sh, xamo‘sh, humoyunbol musha‘bid, sano, “Fazkuruni azkurkum”

Ma'lumki, “Hayrat ul-abror” “Xamsa” tarkibida o‘ziga xos tuzilishga egaligi bilan ajralib turadi. Bu borada taniqli adabiyotshunos olim Najmuddin Komilov shunday yozadi: “Hayrat ul-abror”ning butun boblari, hikoyachalari bir-biri bilan bog‘liq – bir muntazamlikdadir; undagi qarashlar, fikrlar, aqidalar o‘zaro uzviy aloqador. Mutafakkir shoir insonning mohiyati nima, degan savolni qo‘yib, tafakkur izlanishlari, olam asrорidan hayratlanishni ajoyib bir tarzda hikmatga tizadi. Asarning «Hayrat ul-abror» deya nomlanishi ham shundan.<sup>135</sup> Olim o‘z mulohazalarini davom ettirar ekan, sho‘rolar tuzumi davrida “Xamsa” dostonlari tarkibidagi hamd va na’t kabi boblardan iborat an’anaviy qismlarning tushurib qoldirilganligi asarni to‘laqonli tahlil qilish va tushinish imkonini bermasligini ta’kidlaydi. Ayni masala bilan bog‘liq shunday deydi: “Hayrat ul-abror” dostonida na’t va hamdlardan keyin uchta «hayrat» boblari keltirilgan. Tadqiqotchilar bu boblarni negadir chetlab o‘tadilar. Holbuki, dostonning mag‘iz-mohiyati shu boblarda aks etgan. Shunga muvofiq asar “Hayratul-abror” (Pok ruhning hayratlanishi) deb nomlangan.<sup>136</sup>

Avvalg‘i (birinchi) hayrat ham nasriy sarlavha bilan boshlanadi.

Ko‘ngulning adam tunidin qutulub, vujud subhig‘a hamnafas bo‘lub, malak olami bahoristonining rango-rang azhori va gunogun ashjorin tamosha qilg‘oni va alarni «Sabbih ismi rabbikal-a’lo» amri bila qayyumi haqiqiy tasbihig‘a mashg‘ul erkonin bilib dimog‘i bog‘ida hayrat gullari ochilg‘oni va ul gullar atri dimog‘idin hush olib behush yiqilg‘oni (75-bet).

<sup>135</sup> N. Komilov. Xizr chashmasi. – T.: Ma’naviyat. 2005. 299-b.

<sup>136</sup> O’sha manba, 7-bet.

**Tabdili:** Ko'ngulning nomavjudlik tunidan qutulib, mavjudlik tongiga hamnafas bo'lib, malaklar olami bahoristonining rang-barang ko'rinishi yuz berganda, xilma-xil daraxtlarini tomosha qilishi va ularning «Sabbaha ismi rabbikal - a'lo» amri bilan haqiqiy Qayyum tasbihiga mashg'ul ekanini bilib dimog'i bog'ida hayrat gullari ochilgani va u gullar atri dimog'iga urilib, bexush yiqilgani (275-bet).

Mazkur hayratning nasriy sarlavhasida “A’laa” surasining 1-oyati «Sabbih ismi rabbikal-a’lo» - “Oliy qadr bo’lgan Robbing ismini poklab yod et” keltirilgan. Mazkur oyat Allohni zikr etishga qaratilgan.

Nasriy sarlavhadan so'ng soqiyya murojaat bilan she'riy bayt boshlanadi:

Subhdur, ey soqiy, etib mehr fosh,

Tut manga bir jom nechukkim quyosh.

Tasavvuf adabiyotida soqiy timsoli bot-bot tilga olinadi. Soqiy deganda Xudoni, Paygambarni, Pirni va sevgan kishini tushinish lozim.<sup>137</sup>

Mazkur baytda ham soqiy orqali pirga murojaat qilingan. Shoir subh-erta tong mahali soqiyya murojaat qilib, undan bir jom tilanadi, bu shunchaki jom emas, balki quyosh. Mazkur holat bilan bog'liq irfoniy g'oyalar ifodalangan misralarda jom orqali may – ilohiy ishqga ishora qilinadi.

Ayni mulohazalar keyingi baytlarda ham davom ettiriladi:

Tong qushi chun berdi payomi sabuh,

No'sh etayin bir-ikki jomi sabuh.

Ya'ni tong otishi bilan qush payom (xabar)i sabuh (tong paytidagi ichkilik)ning xabarini keltirdiki, lirk qahramon bir-ikki jom no'sh etishga ishtiyoqmand. Baytda tashxis (jonlantirish) san'ati asosida fikr ta'sirchanligiga erishilgan. Navoiy subh bilan bog'liq fikrlarini keyingi baytlarda ham davom ettiradi. Jumladan, subhda safo (poklik)lik mayidan mast bo'lish va tong qushiga, uning nolasiga hamdast bo'lish bilan vobasta fikrlarning singdirilganligini ko'rish mumkin:

<sup>137</sup>. N. Komilov. Xizr chashmasi. – T.: Ma'naviyat. 2005. 36- bet.

Subh safoliq mayidin mast o'lay,  
Tong qushig'a nolada hamdast o'lay.

Ma'lumki, sahar bo'la boshlagach, tun pardasi ko'tariladi. Mazkur tabiiy holat shoir misralarida *tashxis* orqali juda ohoriy tarzda o'z ifodasini topgan:

Berdi sahar hullasi zar rishta tob,  
Qolmadi tun pardasidin rishta tob.

Ya'ni sahar hullasi (bezakli nafis kiyim) zar rishtaga tob berdi, edeganda tong otib, quyosh zarin nurlarini socha boshlagach, tun pardasidan rishta tob (tob berilgan, eshib pishitilgan ip) qolmadi, deb tong ta'rifini go'zal ifodalaydi. Shoirning badiiy mahorati misradan misragaga o'tgan sari yanada sayqallanib borganini ko'rishimiz mumkin:

Yozdi falak toqig'a kilki qazo,  
Oyati «Vash-shams» bila «Vaz-zuho».

Mazkur baytda talmeh asosida *shoir* o'z mulohazalarini kuvvatlantirgan.

Shams – quyosh; zuho – choshgoh vaqt. «Vash-shamsi» bilan «Vaz-zuho» «Qur'on Karimdag'i "Shams" surasidagi 1-oyatning dastlabki so'zları, ya'ni "Quyosh va uning ziyosi bilan qasam" degan ma'noni anglatadi. Misrada bu yerda quyosh chiqishi, kun yoyilishi tasvir etilgan.

Alisher Navoiy subh ta'rifini davom ettirar ekan, keyingi baytda o'ziga xos juda chiroyli tashbeh – o'xshatishni ishlatadi:

So'fiyi subh aylabon ul dam zuhur,  
Yoydi sipehr uzra musalloyi nur

Ya'ni tong otib, subh so'fisi zuhur (paydo) bo'lib, sipehr (osmon) bo'yab o'z musalloyi nur (nurli joynamoz)ini yoydi. Bunda quyosh o'z zarrin nurlarini sochganligini tashxis orqali yoritgan. Keyingi qator baytlarda ham tashxis orqali tun ko'tarilib tong yorishganligi bilan bog'liq jihatlar qalamga olinadi:

Shom savodi asarin tiyra xok,  
Subh supurgusi bila qildi pok.

Shom savod (qorong'ulik)ini subh supurgusi tozalab pok qildi, ya'ni tun ketib, tong keldi. Quyoshning zarin nurlari osmon uzra taralar ekan, zulmatning

chekinishi, yulduzlarning ko‘zdan nihon bo‘lishi bilan bog‘liq fikrlar davom ettiriladi:

Kuydi quyosh o‘tig‘a zulmat tuni,  
Uchti havo uzra nujum uchquni

Quyosh o‘ti taftining balandligi zulmat tunnini kuydirdi, shunda havo uzra nujum (yulduz) uchquni uchdi, deyish orqali charaqlagan quyosh va uning olam uzra yoyishishi ohoriy tashxisda berilganligi kitobxon e’tiborini tortadi. Shoir ana shunday muborak tong ta’riflaridan so‘ng insonning yaratilishi bilan bog‘liq fikrlarga o‘tadi:

Ko‘z ochibon xoja adam shomidin,  
Jon topibon tong yeli payg‘omidin.

Ya’ni adam (yo‘qlik) shomidan xoja (odam nazarga tutilgan) ko‘z ochdi, tong yeli payg‘omi (xabar)idan jon topdi. Shoiring adam (yo‘qlik)ni qorong‘ulikka (shomga), jonning inson jasadiga kiritilishi tong payg‘omi bilan bog‘liq holda ifodalashi ham bejiz emas. Chunki inson tuproqdan yaratilgandan so‘ng, unga jon (nur) baxsh etiladi. Shuning uchun doim inson nurga talpinadi. “Inson ruhi mohiyatan nurdan iborat, shuning uchun inson nurni ko‘rganda zavqlanadi, zulmatdan qo‘rqadi. Koinotdagি barcha sababiy yaratilmalar oxir-oqibat Nur ul-anvor (Alloh)ga qaytadi<sup>138</sup>

Yo‘qlik (adam) shomini surib, dimoqqa vujud (borliq, mavjudlik) nasimi (shamoli) esdi:

Shomi adamni surub andoqki dud,  
Esti dimog‘ig‘a nasimi vujud.

Insonning yo‘qlik olamidan borliq olamiga kelishini shoir tazod (adam-yo‘qlik, vujud-borliq, mavjudlik) orqali juda ta’sirchan va mohiyatan asosli holda ifodalagan.

<sup>138</sup>. Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: “Yangi asr avlodи”. 184- bet.

Inson yaralgandan so'ng, u atrofga alangladi, hamma narsa begona edi, ya'ni notanish. Shuning uchun "har sori devonavor" yuz urar edi:

Zohir o'lub o'ziga begonavor,

Yuz urubon har sori devonavor

Inson atrofni kezar ekan, yuz tuman (ming) a'jiba (ajoyibotlar)ni tomosha qilib, ularning sirini bilmakni tamanno (orzu, istak) qildi:

Yuz tuman a'juba tamoshlo qilib,

Sirrini bilmakni tamanno qilib

Inson qanchalar ko'p fikrat (fikr qilmoq) qilmasin, o'z kom (maqsad) mahol (mumkin bo'lmaydigan ish, qiyin)ligini anglar edi:

Fikrati qilg'on soyi ko'prak xayol,

Anglabon o'z komini ko'proq mahol.

Odam roz (sir, yashirin)lar kashf bo'limgach, juda ko'p sujud (sajda) niyoz (yolvorish, so'rash) qildi:

Bo'ljadi ul pardada chun kashfi roz,

Ko'p qilib izhori sujudu niyoz.

Inson o'z qasrida (qo'rg'on, saroyida) maqom tutadi, ammo borliqdagi sirlar mohiyatini anglash uchun ajzu (ojizlik) tahayyurg'a (hayratlanish) qiyom (qoyim turish)ayladi:

Qasr harimida maqom ayladi,

Ajzu tahayyurg'a qiyom ayladi.

Odam ya's (ma'yus, umidsizlik) bilan o'z ajz (ojizlik)ini aytib iltijo qiladi, shunda unga hotifi (ovoz beruvchi) g'aybiydan nido keladi:

Ya's ila o'z ajzini qilg'och ado,

Qildi anga hotifi g'aybiy nido:

G'aybdan kelgan nido Odamga ya's (ma'yus, umidsizlik) bilan o'ltirmagin o'rnингдан qo'pu (turmoq, qo'zg'almoq) gulshanda sayr qil, savzalarga nazar sol, dedi:

Kim qo'pu sayr ayla bu gulshan sori,

Ayla nazar sabzai ravshan sori.

G‘aybiy nidodan so‘ng, inson o‘rmidan turdi-yu, bir-ikki qadam qo‘ygandan keyin Iram bog‘i (afsonaviy xushhavo bog‘) namoyon bo‘ldi:

Qo‘ptiyu qo‘ydi chu bir-ikki qadam,

Bo‘ldi ayon ravzai bog‘i Iram.

Navoiy shu bog‘ni tasvirlar ekan, uning ta’rifini mukammal berish uchun ruju’ (aytib qaytish) san’atidan unumli foydalangan:

Qaysi Iram, gulshani minu sirisht,

Gulshani minu dema, bog‘i bihisht.

Ya’ni bu Iram bog‘i dema, balki minu (yuqori osmon) sirisht, (yaratilish)dir, gulshani minu dema, bog‘i bihisht (jannah bog‘i)dir. Navoiy bu afsonaviy Iram bog‘ini ta’riflagandan so‘ng, undagi daraxtlarni, ularning shoxlarini, barglarini birma-bir ta’riflaydi:

Har shajari sidrag‘a bosh etkurub,

Shoxin aning shoxiga chirmashturub.

Ya’ni mazkur bog‘ning shajar (daraxt)i sidra (yettinchi osmondagi daraxt)ga yetganini, hatto bu bog‘ daraxtining shoxlari sidra daraxtining shoxlariga chirmashganligini ta’kidlaydi. Iram bog‘i daraxtining barglari esa ko‘kka sarzanish (koyimoq, sazo bermoq) darajada bo‘lib, hatto uning soyasida mehr (quyosh) parvarish topar ekan:

Barglari ko‘kka qilib sarzanish

Soyasida mehr topib parvarish.

Navoiy mazkur bog‘ni juda mufassal ta’riflayli. Uning daraxtlari, gullari, ariqlari, ariqdagi suvlar, unda esuvchi nasim, kishiga xush yoquvchi shamollarni birma-bir madh etadi:

Dur solibon shabnamu esgach nasim,

Bargi shukufa to‘kubon anda siym.

Ya’ni shabnam tushishi, shukufa (g‘uncha) bargida bu misoli dur. Bu esa siym-kumush to‘kilishiga tashbeh etilgan. Yana shuningdek, o‘simplik va gullarning aksi bog‘dagi suvga tushganki, bu xuddi oraz (yuz) va xat (tuk, yangi muylab) ko‘zguda tushgandek. Shoir ikki tomonlama tashbehdan foydalangan, ya’ni avval

orazni gulga, xatni sabza (o'simlik)ga tashbeh qiladi, keyin esa sabzau gul aksining suvga tushishini, orazu xatning ko'zguga tushishiga qiyoslaydi:

Sabzau gul aksi tushub suv aro,  
Orazu xat o'ylaki ko'zgu aro.

Shundan so'ng, bog'dagi qushlar, ariqlardagi baliqlar ta'rifi, bog' aro esuvchi jonbaxsh nasim bu – go'yoki Masih nafas ekanligi, birin - ketin ta'riflanadi. Ushbu ajib go'zalliklar odamni yanada taajjubga solib, uning hayrati ortadi:

Ul bu Iram tavfida behol o'lub,  
Zoyil o'lub hushu tili lol o'lub,  
Har tarafikim boqib ul ravzaning,  
Ko'zga g'aroyib ko'runub birga ming.  
Necha nazar bo'lsa tamosho talab,  
Bul'ajab uzra ko'runub bul'ajab.

Insonga hamma narsa g'aroyib va ajib tuyulaveradi, bundan uning o'zi beholu, tili lol bo'ladi. U sarrishta (ishning uchi)ni fikrat (fikr qilmoq) qilib topmadi. Shu bois uning hayrati uzra hayrati g'ulu qiladi:

Topmadi sarrishtani chun fikrati,  
Hayrat uza qildi g'ulu hayrati.

Insonning aqli ya's (ojiz)ligi junun qilib, vasvasa hushini zabun etadi:

Aql ishin ya's junun ayladi.  
Vasvasa hushini zabun ayladi,

Odam ko'rdiki, bu guliston shunchaki guliston emas, balki jahon ekan, jahon ham gul ichida nihon (yashirin) ekan:

Kim bu gulistonkim erur bu jahon,  
Balki jahone gul ichinda nihon,

Odam hayrat ichra qolar ekan, bu hayratlanish befoydaligini, shuningdek, bu hayratdan unga hech bir foyda yo'qligini anglaydi:

Kim nedurur hayrati befoyda,  
Sanga bu hayrat ila ne foyda.

Odamga haqiqat siriga yetmoq, undan bahravar (bahramand bo'lmoq) bo'lmoq istasang, basirat ko'zi (idrok, o'tkir zehn) bilan nazar sol, degan so'z qulog'iga yetadi:

Sirri haqiqatdin o'lub bahravar,

Ayla basirat ko'zi birla nazar.

Yuqoridagi bu so'zlar inson qulog'iga dur kabi tuyulib, ko'zini nuri hidoyat bilan ohib atrofga boqadi:

Dur kibi yetgach qulog'ig'a bu so'z,

Nuri hidoyat bila ochti chu ko'z.

Odam nuri hidoyat ila atrofga boqsa, foxta (musicha)dan qumriyu bulbulgacha, balki shajar (daraxt) yafrog'idin gulgacha – barchasi qayyum (barqaror turuvchi, abadiy Allohning sifati)iga zokir (zikr qiluvchi), har biri uning shukriga shokir (shukr qiluvchi) edi:

Foxtadin qumriyu bulbulgacha,

Balki shajar yafrog'idin gulgacha,

Barchasi qayyumig'a zokir edi,

Har bir aning shukrig'a shokir edi.

Odam bu holatni basirat ko'zi bilan ko'rib, hayrat bilan o'tli xuro'sh (hayqirish, faryod) qiladi va xamo'sh (indamas, jim) bo'lib qoladi:

Chekti bu hayrat bila o'tluq xuro'sh,

Kim bori go'yo edilar, ul xamo'sh.

Mazkur xomo'shluq (indamaslik, jimlik) inson dimog'iga ohdan buxori (bug', tuman, par) hosil qildi va natijada behush bo'ldi:

Soldi dimog'ig'a bu xomo'shluq

Oh buxori bila behushluq.

Navoiy ushbu hayratni soqiya murojaat bilan boshlagan edi, oxirida ham soqiya "jismimga tob (nur) yetubdur, yuzimga boda suvini gulob kabi sep", deya murojaat bilan yakunlaydi:

Soqiy, yetubdur yana jismimga tob,

Yuzuma ur, boda suyidin gulob.

Asardagi “Avvalgi hayrat”da insonning yaratilishi, borliq, olam go‘zalliklaridan hayratlanishi, hamda barcha yaratiqlar Alloho zikr qilishi va unga shukrona keltirishi bilan bog‘liq mulohazalar keltiriladi. Hayrat ulug‘ shoirming “xush, yoqimli so‘zlardan jumlalar tuzay va so‘z chamani ichra navo ko‘rguzay” degan ulug‘ niyati bilan yakunlaydi:

To topibon hush takallum tuzay,  
So‘z chamani ichra navo ko‘rguzay.

Xulosa qilib aytganda , “Avvalgi hayrat”da odamning yaratilishi, uning borliq go‘zalliklaridan hayratlanishi bilan bog‘liq tafsilotlar bayon etilgan.

## 6.2. IKKINCHI HAYRATNI SHARHLI O‘QITISH

**Nasriy sarlavha:** Ul humoyunbol qushning malak olami gulistonidin malakut olami shabistonig‘a havo qilib, ul raf‘ manozilning sham’ va mashoilin zabona tilidin «Vazkur isma rabbika va tabattal ilayhi tabtilo» hukmi bila xoliqi asliy zikriga zokir erkanin ma‘lum qilib, hayratdin bir olamdin yana bir olamg‘a borg‘oni va bu hayrat yana ani bexudluqqa solg‘oni (82-bet).

**Tabdili:** Sharaf qanotli ul qush (ko‘ngul)ning narsalar olami gulistonidan farishtalar olami shabistoniga uchib, u keng manzilning sham va mash'allarining so‘zlovchi tili bilan asl Yaratuvchi yodiga mashg‘ul ekanini bilib, hayratdan bu olamdan boshqa bir olamga borgani va bu hayrat yana uni behush qilgani (279-bet).

Nasriy sarlavhada humoyunbol qushning malakut olamiga sayri va bu bilan bog‘liq hayratlar bayon etiladi. Qush ramziy ma‘nodagi so‘z bo‘lib, u orqali inson ruhi nazarda tutilgan. Nasriy sarlavhada “Muzammil” surasining 8-oyatidan iqtibos keltirilgan: «Vazkur isma rabbika va tabattal ilayhi tabtilo» - “Va Rabbingning ismini zikr et va Uning ibodatiga butunlay ajralib chiq”.

Turki Xo‘tan topti chu zebo jamol,  
Mushk fishon bo‘ldi nasimi shamol.

Mazkur hayratning dastlabki baytida go‘zal manzara tasviri keltirilgan. Manzara shunday: turki xo‘tani – quyosh. Quyosh botib, qorong‘ulik tusha

bormoqi. Alisher Navoiyyona tasvirda quyoshning botishi “turk go‘zalining yuzini yopishiga”, qorong‘ulik tushishi “yoqimli shamol mushk (qora tusli xushbo‘y narsa) sochishi”ga tashbeh qilingan. Fikr kun botib, tunning kirib kelishi haqida bormoqda. E’tibor bersak, avvalgi hayrat tun ketib tong otishi bilan boshlangan bo‘lsa, ikkinchi hayrat kun o‘rnini tun egallashi bilan bog‘liq tasvir bilan boshlangan. Albatta, Alisher Navoiy bu tasvirlardan ma’lum maqsadni ko‘zlagani shubhasiz. Kun va tunning bir-biriga o‘rnini bo‘shatib berishi, Yaratganing buyuk qudratiga, uning insonni hayratga soluvchi siru sinoatlaridin bir zarradir.

Urdi nafas nafhai anbar nasim,

Yopti varaq safhai abhar shamim.

Ya’ni anbar nasim (xushbo‘y shamol) esdi va abhar shamim (nargiz gul) o‘z varaqlarini yopdi. Gulning o‘z yaproqlarini yopishi kun (sutkaning yorug‘ qismi) tugab, tun (sutkaning qorong‘u qismi) boshlanishiga tashbeh qilingan.

Navoiy kecha ta’rifini yana bir necha baytlarda bir-biriga o‘xshamaydigan tashbehtar bilan tasvirlab boradi. Keyin shu tunda odamning olam sir-asrorlaridan hayratga tushish holatlarini bayon etadi:

Bu kechakim yuz taab o‘ldi anga,

Bir-biridin bo‘l’ajab o‘ldi anga,

Ya’ni bu kecha odamga yuz taab (qiyinchilik, mashaqqat) zohir bo‘lib, ammo ular bir-biridan ajib edi. Chunki charx (falak, dunyo)i musha‘bid (nayrangboz, ko‘zboylovchi) unga har nafasda turli xil tilsimlarni oshkor eta boshladiki, bularning bari odam uchun ajib va sirli edi:

Aylar edi charxi musha‘bid shior

Har nafase o‘zga tilsim oshkor

Navoiy nayrangboz falak va uning sirli ajoyibotlari haqida gapirar ekan, albatta, tundaga osmon holatiga baho beradi:

Ko‘k bu musha‘bidning o‘lub chodari.

Axtar o‘lub lu’bati siminbari

Ya’ni ko‘k bu musha’bid (nayrangboz)ning chodiri bo‘lib, unda axtar (yulduz) lu’bati (go‘zal) siminbar (oq badan go‘zal)i bo‘ldi. Shundan so‘ng, yulduzlar holati ham qalamga olinadi:

Hayati tuloniylila Kahkashon,  
Charxqa sayr etgali yo‘ldin nishon.

Ya’ni charx sayrga chiqqanida hayat (shakl, ko‘rinish)i tuloniyl (uzunasiqa, uzunchoq) yulduz va Kahkashon (somon yo‘li) unga nishon, yo‘l ko‘rsatuvchi edilar. Yulduzlar shakli haqidagi fikrlarni davom ettirar ekan, ularning turli shakllari, turli jihatlarga xizmat qilishini keltirib o‘tadi:

Hay’ati gah doira monand o‘lub,  
Savt anga tasbihi xudovand o‘lub.

Ya’ni yulduzlar osmonda goh doira shaklida bo‘lib, bu xuddiki Alloha tasbeh zikr qilishdagi tasbehning aylanaligiga o‘xhatilgan. Shuningdek, nujumlar holati ba’zan paykar (gavda, surat) shaklida ko‘rinib, xuddiki, Haqqa muttasil (doim) sano (maqtov, olqish) aytuvchi bo‘lib ko‘rinishini zikr etadi:

Goh bo‘lub paykari andoqliki til,  
Aytur uchun haqqa sano muttasil.

Navoiy hamma yozganlarimdan noma qora bo‘lmadi, ya’ni mukammal bitilmadi. Bitiklarning bari iloh hamdini to‘la ifodalay olmaydi, deya baytlarida qayd etadi:

Xomasidan noma siyoh o‘lmayin,  
Yozg‘oni juz hamdi iloh o‘lmayin.

Inson yana gulshanni maqom aylab, har bir chaman ichra xirom etganini zikr etadi:

Chun yana gulshanni maqom ayladi,  
Har chamane ichra xirom ayladi.

Odam gulshan aro maqom aylar ekan, u erda pari paykar nihon (yashirin) ekanligini, xuddi sipehr (osmon) jichra samin gavhare (qimmatbaho gavhar) solingan durj (qutticha) kabidir:

Anda nihon erdi pari paykare,

Durji sipehr ichra samin gavhare.

U gavhari sarchashmasi (bosqlanishi) bo'lib, jondin yoruq, qolaversa, har nimaki bor undan yoruq emas:

Gavhari sarchashmai jondin yoruq,

Hame yo'q andin yoruq, andin yoruq.

Uning hayati (shakli) oinai getinamo (oinai jahonnamo) bo'lib, oyning ko'zgusi unda jilo topgan:

Hay'ati oinai getinamo,

Ko'zgusi oyning topib andin jilo.

Navoiy sipehr (osmon) burjlari, ularning o'ziga xos jihatlari, sayyoralar ularning xususiyatlari, yulduz, oy, quyosh bilan bog'liq qator mulohazalarni tashbeh, tashxis vositasida qalamga oladi. Osmoniy jismlar ta'rifidan so'ng, shoir o'z fikrlarini odamning yana bir qancha g'aroyibotlarga guzar (sayr) qilganligi va ularga inson ibrat ko'zi bilan boqqanligiga urg'u beradi:

Muncha g'aroyibg'aki qildi guzar,

Ayladi ibrat ko'zi birla nazar.

Inson har bir jihatga e'tibor qaratadi. Anglaydiki, barchasi (sayyoralar, yulduzlar) zikru (Alloh nomini zikr qilish) sujud (sajda)da ekan, bu esa ma'rifatulloh (Allohni tanish)ga shuhud (guvoh) ekanligini anglaydi:

Borchasida zikru sujud angladi,

Ma'rifatulloh'a shuhud angladi.

Shundan so'ng, odam o'z holiga boqadi va unda yana birga ming hayrat yuzaga keladi:

Yuzlanib o'z holida g'ayrat anga,

Birga ming o'ldi yana hayrat anga,

Odam ko'rdiki, sipehr ahli (osmon jismlari) borchasi zokir (Allohni zikr qiluvchi) va majmu (bori, barcha, to'liq), ul odamning o'zi esa gungu lolu oshufta (tarqoq) hol edi:

Kim bori zokir edi, ul gungu lol,

Borchasi majmuu ul oshufta hol.

Odamni hayrati behad oshib, xush (yaxshi, ma'qul) zavoli (yo'q bo'lish, pasayish, so'nish) bila bexud bo'ldi:

Qildi yana hayrati behad ani

Hush zavoli bila bexud ani.

Navoiy ikkinchi hayratning oxirida ham soqiya murojaat qilib, mening jismim ham o'sha hayrati behad bo'lgan odamdek zaif, nafasim chiqqali harif (muqobil) emas, deydi:

Soqi, erur jismim aningdek zaif,

Kim nafasim chiqqali emas harif.

Shoir ham hayratlari cheksiz insondek, yuqorida shoyolarning zokir (Alloohni zikr qilishidan) ligidan behad hayratlangan hamda jismi zaiflashganki, soqi tutadigan jomga og'iz qo'ya olishga ham madori yo'q. Shuning uchun mayni paxta bilan og'zimga tomiz, deya ikkinchi hayratga yakun yasaydi:

Jomg'a xud men qo'ya olmon og'iz,

Paxta bila og'zima oni tomiz.

Ikkinci hayrat ham o'z nomidan ma'lumki, odamning hayratlanishi bilan bog'liq jihatlarni qamrab olgan. Ammo bunda birinchisidan farqli o'laroq shoirning o'zi ham hayratlari cheksiz insondek behad hayratlanganligini ham bayon etgan.

### **6.3. UCHINCHI HAYRATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Nasriy sarlavha:** Ul oshufta hol musofirming malakut olami shabistonidin badan mulki shahristonig'a nuzul qilg'oni va ul kishvar ahlining ham «Fazkuruni azkarkum» bo'yrug'i bila qodiri mutlaq yoda birla erkonin bilib, hayrat o'ti ishtiol etib, vujudi ul o'tdin kul bo'lub, fano yeliga bilkul sovurulmoq bila ikkinchi fano maqomin hosil etib, andin so'ng haqqin baqoyi komiliy yetib, xojaning ul mulkda xilofat taxtig'a qaror tutqoni (90-bet).

**Tabdili:** U parishonhol sayyoh (ko'ngul)ning farishtalar olami shabistonidan (inson) badani mamlakatining qo'rg'oniga tushgani va u mamlakat

odamlari (a'zolari)ning ham «Meni eslanglar, men ham sizlarni yodga olaman» buyrug'i bilan mislsiz qudrat (Xudo) yodida ekanini bilib, hayrat o'tining alanga olgani, vujudi u o'tdan kul bo'lib, yo'qlik yeliga tamomila sovurilish bilan ikkinchi yo'qlik o'mniga erishib, shundan so'ng, Xudodan unga to'kis-tugal boqiylik yetib, ko'ngul egasining o'sha mamlakatda xalifalik taxtiga o'tirgani (282-bet).

Mazkur hayratning nasriy sarlavhasida “Baqara” surasining 152-oyati «Fazkuruni azkurkum» - “Meni eslasangiz, sizni eslarman” keltirilgan. Ushbu oyat Allohni ko'proq zikr qilishga undaydi.

Uchinchi hayrat quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Mehr chu mashriq sori urdi alam,

Oldi jahon mamlakatin yakqalam

Mehr (quyosh) mashriq (Sharq)ni qamrab oldi, qolaversa, butun jahon mamlakatlarini yakqalam (bir hukm ostidagi) qildi, ya'ni egalladi.

Quyosh biyik (buyuk, ulug') bo'lgucha shitob (shoshilish) qildi va olamga harorati bilan tob (kuch-quvvat,qudrat) soldi:

Chunki biyik bo'lg'ucha qildi shitob,

Soldi harorat bila olamg'a tob.

Shu paytda esa odam hayrat mayidan mast bo'lib, mastliq uyqusiga hamdast (qo'l dosh) holda edi:

Xojaki hayrat mayidin mast edi,

Mastliq uyqusig'a hamdast edi.

Odam quyosh tafti kudratini sezib, seskanib mastlik uyqusidin uyg'onadi:

Soldi quyosh tobi chu mag'ziga jo'sh,

Seskanibon kirdi dimog'ig'a hush.

Odam mastlik uyqusidan uyg'ongach, g'urbat (g'ariblik, musofirlik) o'ti shu'la sochib, vatani havoyi (beqaror) ekanligini anglati:

G'urbat o'ti hardam o'lub shu'lazan,

Tushti xayolig'a havoyi vatan.

“G'ariblik (musofirlik) o'ti shu'la sochishi” aslida odamga berilgan ruh Mutlaq ruhdan bir juzv (bo'lak) edi. U inson taniga kirib o'z aslidan – Mutlaq

ruhdan ajraldi. Mana shu holat g‘ariblik (musofirlik) deya izohlanmoqda. Tasaqvuvf lug‘atlaridan biri bo‘lmish “Mir’oti ushshoq”da “g‘urbat – jonon haramidan dilu jonning yiroqlashuvi; poklik olamidan ajralib nafsu sharni yaqin bilmoq”, –deya sharhlangan. Sayyid Sovajiy esa “g‘urbat”ni quyidagi tarzda tasniflaydi: 1. Vatandan judolik g‘urbati. 2. Johil va fosiq qavm orasida majburan, ya’ni g‘ayri ixtiyoriy ravishda o‘tirgan odam g‘urbati. 3. “G‘urbat” Haq talabi bo‘lib, bu – orifning g‘urbati, zero orifning himmati ma’rufdurki, u oxirat ahli orasida ham g‘aribdur”<sup>139</sup>. Mazkur misrada ham ilgari surilgan botiniy mazmun orifning g‘urbatidir. Ayni mazmunni keyingi baytdan ham davom etadi:

Yona safar ranji qabul ayladi,

Manzili azmig‘a nuzul ayladi.

Ya’ni yona (yana, tag‘in) safar ranjini qabul aylab, manzili azmiga nuzul (tushish, yuqoridan pastga tushish) ayladi. Ruh nuzul (tushish, yuqoridan pastga tushish) ayladi. Chunki ruh jahon arsasidin (maydon, yer yuzi) bahr (hissa, ulush) topdi, uning oldiga bir turfa (qiziq, ajoyib) shahr namoyon bo‘ldi:

Chunki jahon arsasidin topti bahr,

Keldi aning olig‘a bir turfa shahr

Uning har yoni a’juba (ajibliklar)ga to‘la bo‘lib, had (chegarsi) nopalid (ko‘rinmas) edi, shuningdek, turfa (har xil)liklar behad (cheksiz) ediki, ularning adad (son) nopalid (ko‘rinmas) edi:

Har yoni a’jubag‘a had nopalid,

Turfai behadg‘a adad nopalid.

Keyingi baytlarda bevosita Alloh tomonidan odamning yaratilishi bilan bog‘liq jihatlar qalamga olinadi:

Sun’ iligi bolchig‘in aylab xamir,

Lutf ila aylab ani hay’at pazir.

Ya’ni Alloh sun’ (yaratish) iligi (qo‘li) bilan balchig‘dan xamir qildi va o‘z lutfi bilan uni hay’at pazir (shakllanuvchi, biror shaklga kiruvchi) qildi. Odamni

<sup>139</sup>. Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1991. 120 – bet.

yaratayotganda Alloh uning vaz'ida (tuzilishida) to'rt javohir (o't, havo, suv, tuproq)ni murattab (tartib berilgan) qildi:

Vaz'ini ul damki murattab qilib,  
To'rt javohirni murakkab qilib.

Alloh insonda to'rt javohirni mavjud ayladi. Bulardan ikkisi (o't, havo) gavhari ulviy (yuksak) najod (nasab) bo'lsa, ikkisi (suv, tuproq) javhari sifliy (past) nihod (xarakter) edi:

Ikki anga gavhari ulviy najod,  
Ikki anga javhari sifliy nihod.

Odam tuzilishidagi to'rt javohir bir-biriga tabiatan zid edi, ammo inson tanasida Allohnинг qudrati ila taodul (bir-biriga teng kelish) va muttahid (birlashmoq) bo'ldi:

O'yla taodulki bo'lub to'rt zid.  
Borcha tarakkub yuzidin muttahid.

Insonning vujudi ajib bir shaharga tashbeh etiladi. Tabiiyki, shahar podshohsiz bo'lmaydi. Unda ko'ngil ulug' martabaga egaligiga urg'u beriladi, ya'ni kishvari (mamlakati)ning qalbida bir taxtgoh (podshoh yashaydigan shahar) mavjudki, bu mamlakatni boshqarish uchun xisravi (hukmdor) kishvarpanoh (mamlakat homisi)dir:

Kishvarining qalbida bir taxtgoh,  
Bo'lmoq uchun xisravi kishvarpanoh.

Vujud degan mamlakatda, qasrsa besh rahba (sahna) muhayyoki, bular orqali har tomonni tomosho qilmoq mumkin:

Qasrsa besh rahba muhayyo anga,  
Bo'lg'ali har sori tamoshio anga

Ana shu besh rahba (sahna) bu Alloh tomonidan insonga ato etilgan besh quvvat ekanligini e'tirof etadi:

Bosirau somiau lomisa,  
Zoyiqau shomma bila xomisa

Ya'ni bosirau (ko'rish quvvati, ko'z) somiau (eshitish quvvasi, qulqoq lomisa (paypaslab bilish sezgisi), zoyiqau (tam'ni bilish quvvati) shomma (hidlash quvvasi, burun)ni bergen. Olamda bu so'zsiz mudrak (idrok qilingan, tushinilgan) etilgan, ya'ni e'tirof etiladiki, shoir kimning idroki bo'lsa bunga shak keltirmaydi, deydi:

Hарneki оlamda bo'lar mudraki,  
Kимdaki idrok munga yo'q shaki.

Navoiy inson vujudi ta'rifidan so'ng, uning yana bir mundoq ajib jahon ko'rganligini, bunda zarrada kavn (borliq, mavjudlik ), qatrada daryo nihon bo'lganligi ta'rifini keltiradi:

Xojaki ko'rdi yana mundoq jahon,  
Zarrada kavn, qatrada daryo nihon.

Bu jihatdan odam hayratga tushdi. Bu qanday olamki, unda zarrada kavnni, qatrada daryoni ko'rish mumkin bo'lsa?! Mazkur satrlarda tasavvuf falsafasidagi tajalli bilan bog'liq fikrlar beriladi. Ya'ni Alloh butun borliqni yaratdi, unda o'z sifatlarini aks ettirdi, qatrada daryo nihon bo'ldi. Odamni fikrat (o'ylash, fikr qilish) o'ti dudini ko'kka chiqardi, o'z hayrati esa budini (borini) nobud etdi:

Fikrat o'ti ko'kka chekib dudini,  
Hayrati nobud etibon budini.

Inson shunday maqomga ko'tarildiki, unga Allohdan inoyat yetib "toza vujud"ga – komillik martabasiga erishadi:

Haqdin o'lub toza vujude anga,  
Toza vujud ichra shuhude anga.

Komillik bir mamlakat desak, odam uning mulkini va o'zini fath (qo'lga kiritish) etdi. Odamga nafaqat komillik mamlakati, balki butun jahon mulki unga musaxxar (bo'ysundirmoq) bo'ldi:

Fath o'lub mulk ila kishvar anga,  
Balki jahon mulki musaxxar anga,

Shundan so'ng, odam ko'rdiki, mulk o'zi, taxt o'zi, shoh o'zi, barcha o'zi, barchadin ogoh o'zi:

Mulk o‘ziyu taxt o‘ziyu shoh o‘zi,  
Borchha o‘zi, borchadin ogoh o‘zi.

Mazkur satrlar orqali tasavvuf olamida alohida mavqe egallagan ulug‘ shayxlardan biri Mansur Hallojning “Anal Haq” g‘oyasiga ishora mavjud. Ya’ni odam qatrada daryoni, zarrada kavnni, o‘zida Haqni ko‘ra oldi. Navoiy keyingi misrada orifning muhim jihatini qalamga oladi:

Nafsg‘a chun orif o‘lub mo‘-bamō‘,  
Foyiz o‘lub «qad arafa rabbahu».

Ya’ni orif nafsini mo‘-bamō‘ (birma-bir) tanib, foyiz (fazli, barakali) bo‘lub «qad arafa rabbahu» – Robbini tanidi. Tasavvuf ahli orasida “Nafsini tanigan Robbini tanur” fikri juda ko‘p shayxlar tomonidan e’tirof etilgan. Baytda shunga urg‘u berilgan.

Navoiy hayrat oxirida oldingi hayratlardagi an'anani saqlagan holda yana soqiyya murojaat qilib, qadahi xushguvor (xushtam’) olib kelishini, va u qadahdan xojavor (xo‘jayinlardek) totmoqchi ekanligini ta’kidlaydi:

Soqiy, olib kel qadahi xushguvor,  
Birga olib tortay ani xojavor.

Navoiy ikkinchi hayratda soqiyya murojaat qilib, jomga og‘iz tutishga madori yo‘qligi sababli paxta birla og‘zimga tomiz deya murojaat qilgan bo‘lsa, mazkur hayrat ikkinchisidan farqli o‘laroq bir-iki jomi shigarf (ajoyib, go‘zal, kamyob) dan keyin “Xoja (odam) madhida suray necha harf”, deya yakun yasaydi:

To chekibon bir iki jomi shigarf,  
Xoja madhida suray necha harf.

Uchinchi hayrat oldingi ikki hayratning ham bevosita yakuni sanaladi. Bunda shoир Alloh tomonidan xalq qilingan INSONning hayratlarini bayon etar ekan, o‘zi ham uning madhiga chiroyli va ta’sirchan so‘zlar topishiga ishtiyoqmand ekanligini ta’kidlaydi. Mazkur hayratlar asar kompozitsiyasida muhim o‘rin tutadi. Zero, asarning o‘zi “Hayrat ul - abror” – “Yaxshi kishilarning hayratlanishi” deb bejizga nomlanmagan.

*Savol va topshiriqlar:*

1. Avvalg‘i hayrat bobida asosiy masala nima haqda boradi ?
2. Bobda odamni hayratlantirgan jihatlar nimalardan iborat?
3. Bobning boshlanishi va yakunidagi o‘xhashlik nimadan iborat?
4. Ikkinci hayrat bobida asosiy masala nima?
5. Bobda odamni hayratlantirgan jihatlarga e’tabor qarating, ularni izhlashga harakat qiling.
6. Avvalg‘i hayrat va ikkinchi hayrat o‘rtasidagi o‘xhashlik va farqli jihatlar nimalardan iborat?
7. Uchinchi hayrat bobida asosiy masala nima haqida?
8. Bobda odamni hayratlantirgan jihatlar nimalardan iborat?
9. Har uchala hayrat orasidagi o‘xhashlik va farqli jihatlarni qiyoslang.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

### **Matn va manbalar:**

1. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. VII jild. Hayrat ul - abror. –T.: “Fan”, 1991
2. Navoiy Alisher. Tarixi anbiyo va hukamo. MAT. 20-jildlik. XVII jild. –T.: 2000
3. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. XVI jild. Munojot. –T.: “Fan”, 2000.
4. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (nasriy bayoni bilan). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2006.
5. Nasafiy. Zubdat ul- haqoyiq. –T.: Kamalak. 1996.
6. Nizomi Ganjavi. Kulliyot. Dar panj child. Childi panchum. – Dushanbe, 1984.
7. Rabg‘uziy Nosiruddin Burhonuddin. Qisasi Rabg‘uziy. Birinchi kitob. –T.: Yozuvchi, 1990.
8. Me’rojnama. (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izoh mualliflari: Ibrohim Haqqul, S. Raf‘iddin. – T.: Yozuvchi, 1995.
9. Rahmatulloh qori Obidov. Qur'on va tafsir ilmlari. «Toshkent Islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi. 2003.
10. Sog‘uniy A. Tarixi Muhammadiy (Mo‘jiza va karomatlar). Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 1-nashr. Ikkinchchi kitob. – T.: 1991.
11. Xurshid Davron. Shahidlar shohi. – T.: Qatortol- kamolot, 1998.
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tavsiri Hilol. 3-juz. – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2008.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2008.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Nubuvvat va risolat. 19-juz –T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2006.
15. Qur’oni Karim . Alouddin Mansur tarjimasi. – T.: “Cho‘lon”, 1992.

**Ilmiy-nazariy adabiyotlar:**

- 16.Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot - matbaa birlashmasi. 2004.
- 17.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Fan. 1983.
18. Amonova Z. Hurufiylik va badiiy ijod. – T.: “Paradigma”. 2017.
19. Baqoyev M. Hayot va echodiyoti Xusravi Dehlavi. – Dushanbe, 1975.
20. Bozorova N. Alisher Navoiy g’azallarida ko‘ngil obrazi. –T.: Fan. 2009.
21. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994.
- 22.Davlatov O. Alisher Navoiy she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislarning badiiy talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. –T.: 2017.
- 23.Jo‘rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006
24. Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. – M.: ,1991.
- 25.Iskandarov F. Alisher Navoiy asarlaridagi na’tlar xususida. «Alisher Navoiy va XXI asr» mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent – 2017.
- 26.Navoii asarlari lug‘ati.Tuzuvchilar : P. Shamsiyev va S. Ibrohimov. –T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1973.
- 27.Kenjaboyeva R. Navoiy nazmida Qur’oni Karim oyatlarining talqini. Sino jurnali. 2011. 37, 38, 39, 40-sonlar.
28. Komilov N. Tasavvuf. –T.: “Muvorounnahr” – “O‘zbekiston” nashriyoti. 2009.
- 29.Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma’naviyat. 2005.
- 30.Kamol M. “A’uzu” va “Bismillah”ning ma’no va sirlari. –T.: Movarounnahr. 2005.
- 31.Kuli – zade Z. Xurufizm i ego predstaviteli v Azerbaydjane. – Baku: Elm, 1970.
- 32.Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: Adabiyot va san’at, 1974, 124-138-betlar.
- 33.Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – T.: Ma’naviyat. 2005

- 34.Navoiy asarlari lug‘ati. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
- 35.Olimov S. “Xamsa”ning “Bismillo...”si // Ma’rifat. 2002, 13 – fevral.
- 36.Ochilov E. Bir hovuch dur. – T: O‘zbekiston nashriyoti. 2011.
- 37.Rustamov A. “Bismilloh”ning ma’nosi. – T.: Cho‘pon. 1993.
- 38.Sirojiddinov Sh., Umarova S. O‘zbek matnshunosligi qirralari. –T.: “Akademnashr”. 2015 .
- 39.Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: “Yangi asr avlodii”. 2001.
- 40.Eshonqulov H.Samovat – ishq mahzari. Toshkent. Fan nashriyoti. 2008.
- 41.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomlik. 1 tom. –M.: 1981
- 42.Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug‘ati. –T.: “Davr press” HMU. 2013.
- 43.Haqqul I. Tasavvuf saboqlari. Buxoro. 2000 .
- 44.Haqqul I. Irfon va idrok. –T.: Ma’naviyat. 1998.
- 45.Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1991.
46. رَأْنَ رِيَمِي سَقَدَ اطْفَلَلَارُ . ( فَظْ لِلْجَلْدَلْمَالَا يَبْأَرْ حَالَلِينْ عَلَيْهِ فَوَلَقْمَشْوَكْ ) Imam Jalil Hofiz Abulfido Ismoil ibn Kasir al - Qurayshiy al - Damashqiy. Tafsir ul - Qur'on il - Azim. IV jildlik, I jild. – Beyrut: Al-maktaba al-asriya, 1998.
- 47.Schimmel Annemarie. Islamin mistik boyutlari. – Istanbul, 2004.

## XULOSA

Ma'lumki, Sharqda sharh ilmi ildizlari juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Yaqinrog'i Qur'oni Karimga yozilgan tafsirlar sharh ilmining shakllanishida poydevor vazifasini o'tagan. Keyinchalik hadisi shariflarga ham sharhlar yozilib, islom dini mohiyatini arab bo'lмаган xalqlarga to'laqonli yetkazishga xizmat qilgan. Asta-sekinlik bilan ayrim ilmiy va falsafiy asarlarga sharh yozish ham rivojlna bordi. Bu jihatdan O'rta Osiyo qomusiy olimlari va ularning ma'lum bir asarlarga yozgan sharhlari shular jumlasidandir. Ayni holatlar Sharqda sharh yozish an'anasi shakllantirdi. Hozirgi kunda ham mumtoz adabiyotimizda yaratilgan asarlarni sharhlab o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki ijodkor g'oyasi va maqsadini to'liq va to'g'ri anglashda sharh asosiy mezon sanaladi. Shu jihatlarni inobatga olib, jahon adabiyoti xazinasiga o'z asarlarini bilan munosib qo'shgan buyuk mutafakkir, daho ijodkor Alisher Navoiy asarlarini sharhlab o'rganish – ma'naviy olamimizning boyishida asos hisoblanadi. Ayniqsa, "Xamsa" asari va uni sharhlab o'rganish orqali unda ilgari surilgan falsafiy, ilohiy-irfoniy, axloqiy-didaktik, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni o'rganish, ulug' shoirning badiiy mahoratidan bahramand bo'lish hamda muallif ijodining sarchashmalaridan xabardor bo'lishga ko'maklashadi.

"Xamsa" dostonlarida asarlarda ilgari surilgan o'lmas g'oyalar bir necha asrlardan beri kishilik jamiyatni rivojida o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, butun "Xamsa" uchun muayyan tarzda reja vazifasini o'tagan doston "Hayrat ul-abror"da mufassal o'z aksini topgan. Chunki "Xamsa" besh dostonidan iborat bo'lsa-da, yaxlit bir asar hisoblanadi. "Xamsa" tarkibidagi har bir doston an'anaviy kirish (hamd, munojot, nat) bilan boshlanadi. Ammo "Hayrat ul-abror" ibtido doston bo'lganligi uchun dastlab basmalayi sharif, keyin hamd, munojot va na't, ko'ngil ta'rifi va uch hayrat bilan boshlangan. Aytish joizki, "Xamsa" dostonlari tarkibida keltirilgan an'naviy boblar o'sha doston mazmun mohiyati bilan uzzviy bog'liq holda yaratilgan. Mazkur qo'llanmada biz ibtido doston sanalmish "Hayrat ul-abror" dostoni tarkibidagi an'naviy boblarning hamma qismlari (basmala, hamd, munojot, na't, ko'ngil ta'rifi, uch hayrat)ni imkon qadar sharhlashga harakat qildik.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **Matn va manbalar:**

1. Buxoriy Imom Ismoil. Hadislar. 4 jiddlik, 1-2-3-4-jiddlar. – T: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 1991-1992.
2. Navoiy A. Xamsa. (Qisqartirib nashrga tayyorlovchi S.Ayniy). –T.: O'zdavnnashr, 1947.
3. Navoiy A. Xamsa. –T.: O'z. SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960.
4. Navoiy A. Farhod va Shirin. (G': G'ulom nasriy ifodasi bilan. So'z boshi muallifi H. Olimjon. – T.: O'z SSR Davlat nashriyoti, 1956.
5. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. XX jiddlik. VII jild. Hayrat ul - abror. –T.: "Fan", 1991.
6. Navoiy Alisher. Tarixi anbiyo va hukamo. Mukammal asarlar to'plami 20- jiddlik. XVII jild. – T.: 2000.
7. Navoiy Alisher .Mukammal asarlar to'plami. XX jiddlik. XVI jild. Munojot. –T.: "Fan", 2000.
8. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (nasriy bayoni bilan). –T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2006.
9. Nasafiy. Zubdat ul- haqoyiq. –T.: Kamalak. 1996.
10. Nizomi Ganjavi. Kulliyot. Dar panj child. Childi panchum. –Dushanbe, 1984.
- 11.. Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. Qisasi Rabg'uziy. Birinchi kitob. –T.: Yozuvchi, 1990.
12. Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. Qisasi Rabg'uziy. Ikkinci kitob. –T.: Yozuvchi, 1990.
13. Me'rojnama. (Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izoh mualliflari: Ibrohim Haqqul, S. Raf'iddin. – T.: Yozuvchi, 1995.
14. Rahmatulloh qori Obidov. Qur'on va tafsir ilmlari. «Toshkent Islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi. 2003.
15. Sog'uniy A. Tarixi Muhammadiy (Mo'jiza va karomatlar). Qayta ishlangan va to'ldirilgan 1-nashr. Ikkinci kitob. – T.: 1991.

16. Xurshid Davron. Shahidlar shohi. – T.: Qatortol- kamolot, 1998.
17. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tavsiri Hilol. 3-juz. – T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2008.
18. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz –T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2008.
19. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Nubuvvat va risolat. 19-juz –T.: “Sharq nashriyoti – matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati”, 2006.
20. Hasanxoja Nisoriy. “Muzakkiri ahbob” (I.Bekjon tarjimasi). – T.: “Xalq merosi. 1993.
21. Qur’oni Karim . Alouddin Mansur tarjimasi. – T.: “Cho‘lpon”, 1992,
22. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot - matbaa birlashmasi. 2004.

### **Ilmiy-nazariy adabiyotlar:**

23. Abdülaziz Ed Debbag. Kitâb - ül - İbrîz. - Istanbul, 1997.
24. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. – T.: Fan. 1993.
25. Alisher Navoiy: Qomusiy lug‘at. 1-2-jildlar. Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. –T.: Sharq, 2016.
26. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 2 –tom. T.: Fan, 1983.
27. Alisher Navoiy ijodiy va ma’naviy merosining olamshumul ahamiyati (xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). –T.: O‘zbekiston, 2018.
28. Alisher Navoiy va XXI asr (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari). – T.: Tamaddun, 2016.
29. Alisher Navoiy va XXI asr (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari). – T.: Tamaddun, 2019.
30. Alisher Navoiy va XXI asr (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari) – T.: Tamaddun, 2020.
31. Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar. –T.: Kamalak, 1991.

32. Aliybek Rustamiy. "Bismilloh"ning ma'nosи. – T.: Cho'lpox, 1993.
33. Amonova Z. Hurufiylik va badiiy ijod. – T.: "Paradigma". 2017
34. Arslonov A. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonining nasriy bayonlari. So'z san'ati jurnali. 2019 yil 1-son. 69-75-betlar.
35. Baqoyev M. Hayot va echodiyoti Xusravi Dehlavi. – Dushanbe, 1975.
36. Bozorova N. Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi. – T.: Fan. 2009.
37. Botirbek Hasanov. Javohir xazinalari (Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan qo'lyozma lug'atlar). – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
38. Valixo'jayev B. Xoja Ahror tarixi. – T.: "Yozuvchi", 1994.
39. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - T.: O'zYU Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
40. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro, 1994.
41. Davlatov O. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqini. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – T., 2017.
42. Jumaxo'ja N. Satrlar silsilasidagi sehr. – T.: "O'qituvchi", 1996.
43. Hofiz Jalil Imom ریاست اسلامیہ علمیہ ملکیت ادارہ الفتوح بن ابی ذئب بن عاصم فیصل  
Abulfido Ismoil ibn Kasir al - Qurayshiy al - Damashqiy. Tafsir ul - Qur'on il - Azim. IV jiddlik, I jild. – Beyrut: Al-maktaba al-asriya, 1998.
44. Jalolov T. "Xamsa" talqinlari. -T: O'zadabiy Nashr, 1960.
- 45.. Jalolov T. Go'zallik olamida. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
46. Jo'rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006.
47. Jo'rayev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. – T.: Fan, 2001
48. Iskandarov F. Alisher Navoiy asarlaridagi na'tlar xususida. «Alisher Navoiy va XXI asr» mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent – 2017. 275 –b.

49. Kamol M. “A’uzu” va “Bismillah”ning ma’no va sirlari. – T.: Movarounnahr, 2005.
50. Karomatov H. Qur’on va o’zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1993.
51. Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma’naviyat. 2005.
52. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movorounnahr. 2009.
53. Komilov N. Tarjimami yo talqin? (“Xamsa”ning nasriy bayoni xususida). Xizr chashmasi. – T.: Ma’naviyat, 2005.
54. Komilov N. Bir sharh xususida // Tarjima nazariyasi masalalari. ToshDU ilmiy ishlar to‘plami. № 606. – T.: 1979.
55. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. – T.: Tamaddun, 2012.
56. Kuli – zade Z. Xurufizm i ego predstaviteli v Azerbaydzhane. – Baku: Elm, 1970.
57. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: Adabiyot va san’at, 1974
58. Mirzaahmedova M. Navoiy asarlarida islomiy talqinlar//O‘TA, 1999 yil 1-son, 29-33-betlar.
59. Muhiddinov M. Nurli qalblar gulshani. – T.: Fan, 2007.
60. Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – T.: Ma’naviyat. 2005.
61. Navoiy ijod olami. – T.: Fan, 2001.
62. Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. (E.Fozilov rahbarligida) 4 jildlik. I jild. – T.: Fan, 1983. 8-bet.
63. Navoiy asarlari lug’ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
64. Olim.S. “Xamsa”ning “Bismillo...”si // Ma’rifat. 2002, 13 – fevral.
65. Ochilov E. Bir hovuch dur. – T.: O’zbekiston, 2011.
66. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti.1979.
67. Solihova H. Alisher Navoiy izdoshlari. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.

68. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –T.: Tamaddun, 2018.
69. Sirojiddinov Sh., Umarova S. O‘zbek matnshunosligi qirralari. –T.: “Akademnashr”, 2015.
70. Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2001.
71. Schimmel Annemarie. Islamin mistik boyutlari.– Istanbul, 2004.
72. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2010
73. Tojiboyeva Ozoda. Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayonlari: prinsiplari, mezonlari, usullari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2019.
74. Fitrat A. “Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida”. Tanlangan asarlar. II-jild. – T.: Ma’naviyat, 2000.
75. Shayxzoda. G‘azal mulkinning sultonii. Asarlar. 4-jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
76. Erkinov A. Alisher Navoiy “Xamsa”si talqini manbalari (XV-XX asr boshi). – T.: Tamaddun, 2018.
77. Eshonqulov H.Samovat – ishq mahzari. – T.: Fan. 2008,
78. Yusupova D. Alisher Navoiy «Xamsa»sida mazmun va ritmnning badiiy uyg‘unligi. – T.: Mumtoz so‘z, 2011.
79. Qayumov A. “Hayrat ul-abror” talqini. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985.
80. Qayumov A. Nodir sahifalar. Navoiyning kam o‘rganilgan ba’zi asarlari to‘g‘risida. - T.: Fan, 1991.
81. Qayumov A. Asarlar. 3-jild. –T.: “Mumtoz so‘z”. 2009
82. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010.
83. Qurbonov A. “Xamsa” sarlavhalari badiyati. –T.: “MERIYUS”. 2016.

84. Qo'ziyev U., Aslanova Sh. Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug'atlar. Namangan ilmiy axborotnoma. 2019, 6-son.
85. O'zbek tilining izohli lug'ati. – M.: 2 tomlik. I tom. 1981.
86. Hayitov A. Alisher Navoiy "Xamsa"sinu nasriylashtirish: an'ana, tabdil va talqin. Filol.fan.nomz. diss. – T.: 2000.
87. Hayitmetov A. "Hayrat ul-abror"da uslub rang-barangligi.// Navoiyning ijod olami (maqolalar to'plami). – Toshkent: Fan, 2001, 27-45-b.
88. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. –T.: "Davr press" HMU. 2013.
89. Hasanov B. Javohir xazinalari (Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan qo'lyozma lug'atlar). –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
90. Hasan B. Qur'oni karim so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsatkichli lug'ati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1995.
91. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1991.
92. Haqqul I. Irfon va idrok. –T.: Ma'naviyat. 1998.
93. Haqqul I. Tasavvuf saboqlari. Buxoro. 2000.
94. Hojiadmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz dofiya. –T.: Sharq NMK, 1998.
95. Hojiadmedov A. Mumtoz badiiyat malodati. - T.: Sharq. 1999.
96. Husanov N. Bir noyob lug'at va uning muallifi // Fan va turmush, 1982, №
97. <http://www.alishernavoiv.uz>
98. <http://www.referun.com/n/issledovanie-zhizni-i-tvorches->
99. <http://www.payam-aftab.com/en/news/3094/Ali-Shir-Navai>
100. <http://muslim.uz/Muhammad-Akmalxon-Shokirov>.

## MUNDARIJA

So‘z boshi .....	3
<b>3-modul. NAVOIY LIRIKASINI SHARHLAB O‘QITISH</b>	
1-mavzu. Lirik asarlarni sharhlash tamoyillari .....	5
<b>4 - modul. NAVOIY DOSTONLARI VA NASRIY ASARLARINI SHARHLAB O‘QITISH</b>	
1-mavzu. Navoiy dostonlarini sharhlash tamoyillari.	
2-mavzu. “Hayrat ul-abror”ni sharhlab o‘qitish.....	19
2.1. “Hayrat ul -abror” dagi basmala bobining sharhli .....	32
2.2. “Hayrat ul-abror” dostonining hamd bobini sharhlab o‘qitish .....	51
2.3. “Hayrat ul-abror”ning munojot boblari tahlili va ularni sharhlab o‘qitish.....	59
2.4. Na’t boblarining tahlili va ularni sharhlab o‘qitish.....	85
2.5. Ko‘ngil ta’rifi bobি tahlili .....	136
2.6. “Uch hayrat” sharhi .....	145
Xulosa. ....	168
Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxatি .....	169



ISBN 9789943587915

